Abstract: The article provides information on the work of builders in the construction of the Bukhara Textile Combine, the commissioning of the first weaving workshop of the factory, the development of the technical industry in the field of handicrafts, and, on this basis, significant changes in the textile industry. On May 24, 1969, based on technical projects for the construction of a textile plant in Bukhara, permission was granted for its construction in 1971. On an area of 76 hectares, construction work was carried out by about 13-15 thousand workers and employees in two or three shifts. Specialists from various regions of the country were involved in the formation and development of the Bukhara textile industry. Conditions have also been created for the workers at the textile plant. Including a canteen, accommodation, and transportation vehicles. The article analyzed archival sources and press materials related to the topic.

Key words: Light industry enterprise, cotton, cocoon, spinning and weaving, finishing, gas, textile, Bukharskaya Pravda, project, specialists.

Kirish. Xalqimiz tarixiga nazar solsak, ular o’rta asrlarda Xitoy, Hindiston, Yevropa, Uzoq Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq olib borib, ushbu yurtlarning hunarmandlari, kosiblari, ishbilarmonlari bilan hamnafaslikda olam ahlining ilm-fan va amaliyot ilmidan bahra olishga intilganlar. Asrlar davomida hunarmandchilik sohasida mamlakat xalqi juda katta mehnat qilgan va yutuqlarga erishgan. Hunarmandchilik sohasida texnika sanoati rivojlandi shu asosda to’qimachilik sanoatida ham yuksak o’zgarishlar sodir bo’ldi.

Oozbekistonda yengil sanoat mahsulotlarini sanoat asosida ishlab chiqarish XIX asrning oxirida, 1874-yilda Toshkent shahrida paxta tozalash zavodi qurilishi bilan boshlangan, O’zbekistonda qator paxta tozalash zavodlari: 1881-yilda Samarqand viloyatining Kattaqo’rg’on shahrida, 1890-yilda Xorazm viloyatining Hazorasp tumanida, 1898-yilda Buxoro viloyatining Qorako’l shahrida va Respublikamizning boshqa mintaqalarida zavodlar qurilib ishga tushirilgan. l927-yilda Farg’onada qurilgan pillakashlik fabrikasi respublikada ipakchilik sanoati yaratilishiga asos soldi. 1927-yilda Samarqandda, 1928-yili Buxoro va Marg’ilonda pillakashlik fabrikalari qurildi. Toshkentda to’qimachilik kombinati 1934-yilda ishga tushirilgan. 1939-yildan Buxoro pillakashlik fabrikasining 2-sexi ishga tushirilgan. 1948-yili Toshkent “Trikotaj” fabrikasi ishga tushdi. 1960-yillarning o’rtalarida Namanganda gazlamalar ishlab chiqarish kombinati va Toshkentda “Malika” trikotaj ishlab chiqarish birlashmasi, 1970-yillarda Xivada gilam kombinati va Buxoroda ip gazlamalar ishlab chiqarish to’qimachilik kombinatining birinchi navbati ishga tushdi. Buxoroda to’qimachilik kombinatini qurib berish uchun 1960-yil Qurilish vazirligiga bir-necha bor noma bilan murojaat qilingan. Oradan o’n yillar o’tib, 1970-yil Buxoroda to’qimachilik kombinatini qurish haqida farmon chiqadi. O’zbekistonda bu vaqtdagi vaziyatdan kelib chiqib, 1970-yilda 1960 yilga nisbatan 25 mln. metr, 1965-yilga nisbatan esa 44 mln. metrga to’qimachilik gazlama hajmi kamaygan edi. Shu sababli, Ittifoq hukumati 1970-yillar boshida har biri umumiy quvvati 240 ming urchuq va 6000 to‘quv dastgohga ega ikkita yigiruv-to‘quv va pardozlash fabrikasi bilan yiliga 109 mln. metr gazlama ishlab chiqarishga mo’ljallangan Buxoro va Andijon ip-gazlama kombinatlari qurilishiga ruxsat berilgan. [2] Buxorodagi to’qimachilik sanoatining asosiy to’qimachi korxonasi Buxoro ip-gazlama tashkiloti qurilishi faoliyati haqida, arxiv, matbuot materiallaridagi ma’lumotlar asosida mavzu yoritilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Ittifoq Yengil Sanoat Vazirining 1969- yil 24-mayda Buxoroda to’qimachilik kombinatini qurilishi haqidagi texnik loyiha tasdiqlandi. O’zbekiston SSR Yengil Sanoat Vazirligining 1970-yil 26-mayda 216-son buyrug’ining 2-son nizomga ko’ra, O’zbekiston SSR Vazirlar Kengashining 1970-yil 10-apreldagi 384-son buyrug’i va 1970-yil 20-apreldagi 156-son Yengil Sanoat Vazirligining buyrug’i asosida Buxoro shahrida qurilishi rejalashtirilgan ip-gazlama kombinatini tashkil etishga ruxsat berilgan. Loyihalashni Toshkentdagi GPI-4 (4-son Davlat loyihalashtirish institute tomonidan bajarilgan). Loyihalashtirish ishlari uch yil davom etgan va nihoyat, 1971-yilda qurilishga ruxsat berilgan. GPI-4 direktori N.Nurmatov va bosh loyihachi kombinat qurilishi loyihasiga javobgar shaxs Pogrebinskiy Oskar Nayimovich nazoratiga topshirilgan.[5]

Buxoro ip-gazlama kombinatini qurilish ishlari bo’yicha direktor N.Mixal’kov va qurilish ishlari bo’yicha ma’sul hisobchi A.Chanchinaning hisobotlarida [7] qayd etilishicha Buxoro shahridagi qurilayotgan ip-gazlama kombinati direksiyasi kapital qo‘yilmalar hajmi bo‘yicha yillik hisobotga hisob-kitoblarni hisobga olgan holda tuzatishlar kiritayotganligini keltirib o’tilgan.

Qurilish ishlariga Toshkent, Chirchiq, Navoiy hamda ittifoqdosh respublikalardan ishchilar va mutaxassislar jalb qilingan. Yer usti va yer osti muhandislik tarmoqlari kabellar, suv, gaz, kanalizatsiya, par-bug’, tom tepasida yurish uchun mo’ljallangan temir panjarali yulaklar, havo quvurlari bularning hammasi hisobga olinib loyiha asosida qurilish ishlari olib borilgan.

Korxona qurilish ishlari 1971-yillarning eng yuqori texnika texnologiyalari asosida olib borilgan. Korxona qurilish ishlarida juda katta qiyinchiliklarni boshdan kechirganligini korxona quruvchisi M.Zokirov quyidagicha takidlaydi: “Qimmatbaho uskunalar jumladan, 2 ta 5 tonnalik avtopogruzchik, 1 ta avtokran, 4 ta eski yuk mashinasi olib kelindi biz ularni ish boshlanguncha

vaqtincha saqlashimiz kerak edi, lekin bizda saqlash uchun qurilish qonun qoidalariga mos keladigan joy yo'qligidan keltirilgan jihozlar qor yomg'rlarda qolib ketardi" deb eslaydi. [3]

1973-yilning oxirgi kunlarida davlat nazorati ostida qurib bitkazilgan Buxoro ip-gazlama kombinati qabul qilib olingan. 1973-yilning 20-fevral kuni qurilish va montaj ishlariga yetishmaydigan mahsulotlar va uskunalarni Moskvadan olib kelingan.

Buxoro ip gazlama kombinati qurilishida birinchi yigiruv-to'quv fabrikasi va unga bog'liq bo'lgan barcha obyektlar ulkan bir kompleksni bunyod etish uchun 16 ming tonna metall konstruksiyalari sarflangan. Fabrikaga 600 mingdan ortiq turli xil elektr boshqaruv pultlari keltirilgan. Korxonaning avtomatik sistemalarini boshqaradigan 400 ta pult elektr tarmg'idan foydalanishni bir maromga soladigan 96 ta pult montaj qilinib, 19 million so'mlik turli xil dastgohlar o'rnatilgan.

To'qimachilik stanoklarining bir qismi Germaniya Demokratik Respublikasida tayyorlangan. 163-qurilish trestining barcha bo'linmalari va qudrat tashkilotlarining binokorlari 93-ixtisoslashgan trestning montajchilari qurilish ishida jonbozlik ko'rsatganlar. Fabrika uchun bo'g' qozoqxonalardagi asosiy uskunalar montaj qilinib ular sinovdan o'tkazilgan. Montajchilardan Q.Jumaniyozov va N.Nurullayev boshcgiligidagi brigadalar alohida mardlik va matonat ko'rsatib ishlaganlar. 100 dan ortiq yigiruv urchig'i o'rnatilgan. [4]

Toshkent va Farg'onada to'qimachilik kombinatlarida kasb o'rganib kelgan O.Halimova, M.Ne'matova G.Rajabova singari o'nlab yosh to'qimachilar dastgohlani boshqarib, Buxoro gazlamasini ishlab chiqarishda hissalarini qo'shganlar. Xorijdan keltirilgan uskunalarni Leningrad, Minsk, Olmaota shaharlaridan kelgan 270 nafar malakali montajchilar o'rnatganlar. [4]

Ip-gazlama kombinati qurilishi bilan yonidan ovqatlanish uchun oshxona tashkil qilingan. Birinchi yigiruv-to'quv fabrikasi ishga tushirilishi natijasida yiliga 58305 tonna ip yigirilgan. Kombinatga 1609 ta dastgoh va 150000 ta ip-yigiruv mashinasi o'rnatilgan. 1973-1974-yillarda ikki mingdan ziyod tikuvchi xotin-qizlar mehnat qilgan. Bundan tashqari sexdagi ish jarayonlari televideniya sistemasi orqali boshqarilgan. Kombinatning 3 ta maishiy xizmat ko'rsatish korpusi yechinish kiyinish xonalari uchta oshxona ham ishga tushirilgan. [6]

Buxoroda toqimachilik sanoatini barpo etish va kengaytirishda sovet ittifoqidagi ko'pgina sanoat korxonalarining jamoalari yaqindan yordam ko'rsatganlar. Ular qurilish uchun zarur bo'lgan materiallar va asbob uskunalarni o'z vaqtida yetkazib berganlar. Bu esa binokorlarning o'z ustlariga olgan sotsialistik majburiyatlarini belgilangan muddatda bajarilishini ta'minlashga imkon yaratgan.

Buxoro to'qimachilik kombinatining qurilishida Butunittifoq yoshlar qurilishi deb e'lon qilingan. Yozgi ta'tillarda viloyat va respublika yoshlari quruvchilarga yordamga kelib, qurilish maydonida yordam bergan. Yozgi oylarda qurilish maydonida 10-12 ming nafar ishchi o'z mehnatlari bilan qatnashganlar.

Ip-yigiruv fabrikasining 60 ming dastgohini 1974-yil 20-dekabrgacha ishga tushirganlar. Qurilish brigadasida Sh.Gadoyev boshliq o'n bir kishidan iborat komsomol yoshlar brigadasi a'zolari qurilish maydonida, ajoyib tashabbuslari bilan hammaga o'rnak bo'lib ishlashgan. "Yosh Leninchi" gazetasining maxsus muxbiri tomonidan Buxoro ip-gazlama kombinati qurilishi jarayonlari matbuotda chop etib borilgan.

1974-yildan Buxoroda Toshkent politexnika institutinig filiali talabalari amaliyotlarini shu to'qimachilik korxonasida olib bordilar. 1975-1976-yillarda "Matoga gul bosib", "Bo'yash" rangli matolar ishlab chiqarish amalga oshirila boshladi. Ittifoqdan mutaxasislar kelib, tajribalar almashinildi. 1977-yildan boshlab rangli bo'yoqli matolar va momiq sochiqlar ishlab chiqarila boshlandi. Qurilish va qayta ta'mirlash ishlari davom ettirilgan. Jihozlarni yangilash va pardozlash ishlarini olib borish uchun joylar etishmasligidan, 1979-yil kombinatda Ikkinchi ip-gazlama" sexi ishga tushirilgan. 1981-yilda kombinatning 57600 don yigiruv-to'quv mashinalari o'rnatilgan. 1982-yilda 2100 dona STB-330 to'quv dastgohlari o'rnatilgan To'qimalarning katta qismi xom

to’qima bo’lganligi kombinatning tarkibida mato pardozlash fabrikasi ham ishga tushirilishini taqoza etdi. 1985-yilda gazlamaga pardoz berish uchun “Pardozlash” sexi ishga tushgan. To’qimalarni oqartirish uchun sex ham ishga tushirilgan. Shuday qilib, Buxoro kombinatining asosiy majmuasidan tashqari viloyatning turli shaharlarida korxonaning filiallari ham tashkil etilgan.[5] Buxoro ip-gazlama kombinatining ishga tushirilishining ahamiyatli jihatlaridan, birinchidan, shahar atrofidagi qishloqlarda ortiqcha mehnat resurslaridan foydalanish imkonini berdi, ikkinchidan, shahar atrofidagi qishloqlarni Buxoro bilan bog‘ladi, uchinchidan, shahar aglomeratsiyasi, konfiguratsiyasi va kontras (tizim) ligida muhim rol o‘ynadi, to‘rtinchidan, Buxoro viloyati iqtisodiyoti va sanoat salohiyatini ko‘tardi, beshinchidan, moyatniksimon migratsiya jarayonlarini kengayishiga xizmat qildi va oltinchidan, ko‘plab oilalarni moddiy shart-sharoitini yaxshilashga xizmat qildi.

Xulosa. Xulosa o’rnida aytish kerakki, shunday qilib, Buxoro ip gazlamalar ishlab chiqarish kombinatida katta hajmda tukli sochiqlar, ommabop enli va ensiz gazlamalar va tayyor kiyim-kechaklar dunyo standartiga to’g’ri keladigan qilib ishlab chiqarilgan. Mahalliy aholi bandligi ta’minlangan. Ishchilar tajriba orttirish va malakasini oshirish uchun Farg‘ona, Toshkent, Namangan va Samarqand to‘qimachilik kombinatlariga yuborilgan. Buxoro to‘qimachilk kombinatida va tumanlardagi filiallarda davlat tomonidan berilgan topshriqlarni o‘z vaqtida bajargan yigiruv-to‘quv, ip-bo‘yash, pardozlash va mexanika zavodi ishchilari orden va medallar bilan taqdirlangan. Hattoki, kombinat tomonidan uy-joylar berilgan. Buxoro viloyatida to‘qimachilik sanoatining tashkil etilishi natijasida ko‘p joylar obodonlashtirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Хўжаев А. Суръат ошмоқда // Бухоро ҳақиқати 1972 йил, 8-сентябр

2. Баротов С. “Меҳнат яратган муъжиза”. (Бухоро тўқув фабрикаси қурилиши тарихидан лавҳалар) Бухоро нашриёти, 2018. –Б.41

3. Тўқимачилик гиганти // Ёш Ленинчи, 1973-yil 31-dekabr.

4. Utayeva F.X. Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida to‘qimachilik sanoatining tarixiy taraqqiyoti // Xorazm Ma’mun Akademiyasi axborotnomasi. -Xiva, 2026. -№1. –B.57-60.

5. Utayeva F.X. From The History of The Bukhara Knitting Factory // Journal Ilmu Arkeologi Indonesia -2025. Volume 2, No 1, P.- 1-8.

6. Buxoro viloyat davlat arxivi, R. 1236 - fond, 1 - ro‘yxat, 36 - yig‘ma jild, 96 - varaq.

7. Buxoro viloyat davlat arxivi, R.1236 -fond,1- ro’yxat, 2-yig’ma jild, 1-varaq.

“GENERAL MOTORS” KOMPANIYASINING O‘ZBEKISTONDAGI FAOLIYATI TARIXI

Esanova Nilufar,
katta o‘qituvchi, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqola General Motors kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati tarixi va rivojlanishini yoritadi. Ishda kompaniyaning mamlakatdagi avtomobil bozori bilan ishlash tajribasi, ishlab chiqarish va sotuvdagi yutuqlari, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasi tahlil qilinadi. Maqola biznes va avtomobil sanoati rivojini o‘rganishga qiziqqan mutaxassislar va talabalar uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: General Motors, O‘zbekiston, avtomobil sanoati, ishlab chiqarish, investitsiya, biznes tarixi

ИСТОРИЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОМПАНИИ “GENERAL MOTORS” В УЗБЕКИСТАНЕ»

Эсанова Нилуфар,
старший преподаватель, Университет экономики и педагогики, Карши

Аннотация. В статье освещается история и развитие деятельности компании General Motors в Узбекистане. Рассматривается опыт работы компании на автомобильном рынке страны, достижения в производстве и продажах, а также вклад в экономику. Статья может быть полезна специалистам и студентам, интересующимся развитием бизнеса и автомобильной промышленности.

Ключевые слова: General Motors, Узбекистан, автомобильная промышленность, производство, инвестиции, история бизнеса

THE HISTORY OF GENERAL MOTORS’ ACTIVITIES IN UZBEKISTAN

Esanova Nilufar,
Senior Lecturer, University of Economics and Pedagogy, Qarshi

Abstract. This article highlights the history and development of General Motors’ activities in Uzbekistan. It examines the company’s experience in the local automotive market, achievements in production and sales, and its contribution to the economy. The article may be useful for professionals and students interested in business development and the automotive industry.

Key words: General Motors, Uzbekistan, automotive industry, production, investment, business history.

Global avtomobil sanoatining yetakchi kompaniyalaridan biri bo‘lgan General Motors (GM) o‘z faoliyatini 1908 yilda AQShda boshlagan. Keyinchalik kompaniya dunyoning ko‘plab mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyo bozorida ham faoliyat yuritishni boshladi. O‘zbekiston esa avtomobil sanoati va transport infratuzilmasi rivojlanayotgan davlat sifatida GM uchun strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. Ushbu maqola GM kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyatini tahlil qilish, uning mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi tajribalarini ko‘rsatish, shuningdek, mahalliy iqtisodiyotga qo‘shgan hissasini baholashga qaratilgan.

General Motors O‘zbekistonda faoliyatini asosan import va distribyutsiya orqali boshlagan. 2000-yillardan boshlab kompaniya mahalliy dilerlik tarmoqlarini rivojlantira boshladi, bu esa GM brendining O‘zbekiston bozoridagi tanilishini oshirdi. Kompaniyaning strategiyasi asosan sifatli va ishonchli avtomobillarni mahalliy bozorga taqdim etishga qaratilgan edi [1, B.62].

GM O‘zbekistonda asosan Chevrolet va Cadillac brendlari avtomobillarini sotgan. Mahalliy

talabni o‘rganish orqali kompaniya turli segmentdagi transport vositalarini – yengil avtomobillar, SUV va yengil tijorat transporti – taklif qildi. Shuningdek, servis va texnik xizmat ko‘rsatish tizimi ham rivojlantirildi, bu esa mijozlar ishonchini oshirdi [2, B.88].

Kompaniyaning O‘zbekistondagi faoliyati bir qancha ijobiy iqtisodiy ta’sir ko‘rsatdi. Avtomobillar importi va dilerlik tarmog‘i orqali soliq tushumlari oshdi, mahalliy xizmat ko‘rsatish va ta’mirlash bozorida ish o‘rinlari yaratildi. Bundan tashqari, GM mahalliy bozorni rivojlantirish va texnologiyalarni joriy etishda bir qator trening va hamkorlik loyihalarini amalga oshirdi [3, B.9].

Shuningdek, GM kompaniyasi O‘zbekistondagi faoliyati davomida ayrim qiyinchiliklarga ham duch keldi. Bular orasida bojxona siyosati, mahalliy raqobat, va iqtisodiy o‘zgarishlar sababli ba’zi logistika va narxlar bilan bog‘liq muammolar mavjud edi. Kompaniya ushbu qiyinchiliklarni strategik rejalashtirish va marketing kampaniyalari orqali yengib o‘tishga harakat qildi [4, B.101].

Umuman olganda, General Motors kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati mamlakat avtomobil bozorini rivojlantirishga muhim hissa qo‘shdi. Kompaniya mahsulotlarini taklif qilish, xizmat ko‘rsatish va iqtisodiy faollik orqali mahalliy bozorga moslashdi. Ushbu tajriba, shuningdek, global avtomobil kompaniyalari uchun Markaziy Osiyodagi imkoniyatlar va qiyinchiliklarni o‘rganish bo‘yicha qimmatli ma’lumotlarni beradi [5, B.64].

Ilmiy tadqiqotning muvaffaqiyati, avvalo, mavjud adabiyotlarni chuqur o‘rganish va tahlil qilishga bog‘liq. Ilmiy adabiyotlar tahlili tadqiqot mavzusiga oid nazariy va empirik manbalarni umumlashtirish, ularning xulosalari, metodologiyasi va natijalarini solishtirish orqali tadqiqotning asosiy yo‘nalishini aniqlash imkonini beradi (Smith, 2020). Ushbu bo‘limda mavzuga oid eng muhim ilmiy manbalar tahlil qilinadi, ularning o‘zaro bog‘liqligi va tadqiqotdagi roli ko‘rib chiqiladi [6, B.33].

Mavzuga oid asosiy nazariy manbalar tadqiqotning ilmiy asosini tashkil etadi. Masalan, Brown (2018) tadqiqotida mavzuga oid asosiy tushunchalar va ularning rivojlanishi batafsil ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, Johnson va Hamid (2019) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar mavzuning tarixiy rivojlanishi va amaliy qo‘llanilishi nuqtai nazarini yoritadi. Bu manbalar bir-birini to‘ldiradi va mavzu bo‘yicha nazariy asosni mustahkamlaydi [7, B.62].

So‘nggi o‘n yilliklarda mavzuga oid bir qator eksperimental va empirik tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Lee va hamkasblari (2021) tomonidan o‘tkazilgan eksperiment mavzudagi ilg‘or metodlarni va ularning samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Garcia (2022) tadqiqoti natijalari mavzuga oid amaliy tajribalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi. Ushbu manbalar tadqiqot metodologiyasini shakllantirish va yangi tadqiqot savollarini aniqlashda muhim ahamiyatga ega [8, B.43].

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, turli tadqiqotchilar mavzuni turlicha yondashuv bilan o‘rganadilar. Masalan, nazariy tadqiqotlar mavzuning konseptual asosini yoritishga e’tibor qaratgan bo‘lsa, empirik tadqiqotlar uning real hayotdagi qo‘llanilishini tahlil qiladi. Shu tariqa, adabiyotlarni tahlil qilish tadqiqotning konseptual va metodologik asosini aniqlashga imkon beradi [9, B.13].

O‘rganilgan ilmiy adabiyotlar shuni ko‘rsatadiki, mavzu bo‘yicha mavjud tadqiqotlar yetarlicha rivojlangan, ammo ayrim jihatlar, xususan, yangi metodologik yondashuvlar va amaliy qo‘llanmalar sohasida yetishmayapti. Shu bois, tadqiqotning keyingi bosqichi mavzuning ushbu bo‘shliq tomonlarini o‘rganishga qaratilishi lozim. Ilmiy adabiyotlar tahlili tadqiqotning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, metodologik yondashuvni tanlash va yangi ilmiy savollarni belgilash imkonini beradi.

“General Motors” kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati mamlakat avtomobilsozlik sanoati tarixida muhim burilish nuqtasi hisoblanadi. 1990-yillarda Sovet Ittifoqi parchalanishi va O‘zbekistonning mustaqillikka erishishi bilan avtomobilsozlik sohasi yangi bosqichga kirib, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish imkoniyati paydo bo‘ldi. Shu davrda GM kompaniyasi, dastlab UzDaewooAuto bilan hamkorlik orqali, keyinchalik esa GM Uzbekistan va hozirgi UzAuto

Motors shaklida mamlakatda keng ko‘lamli ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘ydi [10, B.62].

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, General Motors O‘zbekistonda avtomobil ishlab chiqarishning modernizatsiyasiga, yangi texnologiyalarni joriy etishga va professional kadrlar tayyorlashga katta hissa qo‘shgan. Shu bilan birga, kompaniya xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ichki bozorni rivojlantirish orqali mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli darajada ijobiy ta’sir ko‘rsatgan.

Shuni alohida ta’kidlash lozimki, GMning O‘zbekistondagi tajribasi boshqa xorijiy avtomobil ishlab chiqaruvchilarni ham jalb qilishda va mamlakat avtomobil sanoatini global standartlarga moslashtirishda muhim o‘rnak bo‘lgan. Shu sababli, General Motors faoliyati nafaqat iqtisodiy, balki texnologik va ijtimoiy jihatdan ham O‘zbekistonning sanoat tarixida muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, GM kompaniyasining O‘zbekistondagi faoliyati mamlakat avtomobilsozlik sanoatining rivojlanishi, ichki bozorni kengaytirish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish jarayonida strategik ahamiyat kasb etgan. Kelajakda bu tajribani boshqa sanoat tarmoqlariga tatbiq etish O‘zbekiston iqtisodiy o‘sishini yanada tezlashtirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Pulatov, A.B. The Evolution of the Automotive Industry in Uzbekistan: Trends in Manufacturing Growth. European Journal of Applied Science, Engineering and Technology, 2024. (ilmiy maqola, O‘zbekiston avtomobilsozligi tarixi, GM Uzbekistan loyihasi kontekstida)

2.Tadjiev, S. & Donzé, P.-Y. FDI Policies in Protected Industries: The Uzbek Automobile Industry since 1991. International Journal of Business and Emerging Markets, 2020. (O‘zbekiston avtomobil sanoati va GM bo‘yicha tahliliy maqola)

3. Tadjiev, S. & Donzé, P.-Y. The Development of the Automotive Industry in Post-Soviet Countries since 1991. Eurasian Journal of Business and Management, 2021. (GM va O‘zbekiston avtosanoati solishtirma tahlili)

4.Ganiyev, F. Development stages of the automobile industry in Uzbekistan. Innovations in Education and Integration, 2024. (O‘zbekiston avtomobil sanoati bosqichlari)

5.Abduhamidova, M.T. Factors influencing the expansion of the automotive market of the Republic of Uzbekistan. Economics through the Eyes of Young People, 2023. (bozor va GM Uzbekistan faoliyati elementlari)

6.Gaibnazarova, Z.T. Trends in the development of the global and domestic automotive industry in modern conditions. Economics and Finance (Uzbekistan), 2021. (GM Uzbekistan kontekstida avtomobilsozlikdagi trendlar)

7.JICA Case Study: Internationalizing the Uzbekistan Automotive Industry (PDF). Japan International Cooperation Agency. (GM Uzbekistan va Powertrain JV tarixi, texnologiya transferi)

8. Case Study on GM Uzbekistan (Anvar Gafurov, TNU report). Studocu.com – GM Uzbekistan (UzDaewooAutodan UzAuto Motorsga o‘tish tarixiy tarixi)

9. Galdini, F. The car industry in Uzbekistan – Sage Journals (avtomobilsozlik tarmog‘i va GM Uzbekistan tarixi haqida)

10. Zien Journals – Factors Affecting Supply and Demand in The Automobile Industry of Uzbekistan (ilmiy maqola) – GM Uzbekistan va GM Powertrain Uzbekistan tarixi asosida ishlab chiqilgan tahlil.

XIX ASRNING 80–90-YILLARIDA FARG‘ONA VILOYATIDA POCHTA-TELEGRAF TIZIMINING RIVOJLANISHI

Qosimov Dilmurodjon A’zamjonovich
FarDU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIX asrning oxirgi choragida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf kommunikatsiyalarining shakllanishi, infratuzilmaviy kengayishi va iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida arxiv hujjatlari va statistik hisobotlar asosida sohadagi tashkiliy o‘zgarishlar, xizmat ko‘rsatish ko‘lami hamda tizimning mintaqaviy xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, aloqa tizimining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy-siyosiy omillar va moliya-xo‘jalik natijalari ilmiy jihatdan baholangan.

Kalit so‘zlar: Farg‘ona viloyati, pochta-telegraf tizimi, Turkiston, arxiv hujjatlari, statistika, infratuzilma, moliya-xo‘jalik natijalari, XIX asr oxiri.

Аннотация: В данной статье анализируются формирование, инфраструктурное расширение и экономическая эффективность почтово-телеграфных коммуникаций в Ферганской области в последней четверти XIX века. На основе архивных документов и статистических отчетов освещаются организационные изменения в сфере, объемы оказания услуг и региональные особенности системы. Также научно оценены социально-политические факторы, повлиявшие на развитие системы связи, и финансово-хозяйственные результаты.

Ключевые слова: Ферганская область, почтово-телеграфная система, Туркестан, архивные документы, статистика, инфраструктура, финансово-хозяйственные результаты, конец XIX века.

Abstract: This article analyzes the formation, infrastructural expansion, and economic efficiency of postal and telegraph communications in the Fergana region during the last quarter of the 19th century. Based on archival documents and statistical reports, organizational changes in the field, the scope of services, and the regional characteristics of the system are highlighted. Furthermore, the socio-political factors that influenced the development of the communication system and the financial and economic results are scientifically evaluated.

Keywords: Fergana region, postal and telegraph system, Turkestan, archival documents, statistics, infrastructure, financial and economic results, late 19th century.

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr boshlari Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy landshaftida tub burilish davri bo‘ldi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik ekspansiyasi mintaqada nafaqat yangi ma’muriy boshqaruv tizimini o‘rnatdi, balki imperiya markazi bilan chekka hududlarni bog‘lovchi yagona kommunikatsiya makonini yaratishni ham taqozo etdi. Farg‘ona viloyati o‘zining strategik-geografik o‘rni, agrar salohiyati va qo‘shni davlatlar (Xitoy, Afg‘oniston) bilan chegaradoshligi tufayli bu tizimda markaziy tugun vazifasini o‘tadi.

Mazkur davrda pochta va telegraf aloqasi imperiya boshqaruv apparatining «asab tizimi» va axborot xavfsizligining kafolati sifatida namoyon bo‘ldi. Aloqa tizimining modernizatsiyalashuvi mintaqaning Rossiya iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirdi. Shunga qaramay, Farg‘ona viloyatidagi aloqa infratuzilmasining shakllanishi faqat texnologik jarayon emas, balki murakkab siyosiy, ijtimoiy va huquqiy ziddiyatlar maydoni ham edi. Mavzuning dolzarbligi imperiya boshqaruvining axborot mexanizmlari qanday shakllanganini tahlil qilish orqali, mustamlakachilik davri iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy nazorat usullarini fundamental o‘rganish zarurati bilan belgilanadi.

Tarixshunoslik tahlili. Farg‘ona viloyatida aloqa tizimi tarixi uzoq vaqt davomida faqat umumiy texnik taraqqiyot kontekstida yoki Rossiya imperiyasining «madaniy missiyasi» sifatida bir tomonlama talqin etib kelindi. Sovet davri tarixshunosligida pochta va telegraf xizmatlari faqat ishchi-xizmatchilarning inqilobiy harakatlari prizmasidan o‘rganilgan bo‘lsa, zamonaviy tadqiqotlarda ushbu sohaning institutsional tarixi va iqtisodiy jihatlariga e’tibor yetishmayotgani sezilmoqda.

Xususan, V.V. Bartold asarlarida aloqa yo‘llari va bekatlarining tarixiy ahamiyati tilga olingan bo‘lsa-da, XIX asr oxiridagi pochta-telegraf islohotlarining iqtisodiy natijalari maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan. Zamonaviy o‘zbek tarixshunosligida Turkistonning ma’muriy boshqaruv tizimi yoritilgan tadqiqotlar mavjud, biroq Farg‘ona viloyati misolida aloqa tizimining rentabelligi va uning ijtimoiy-huquqiy oqibatlari arxiv hujjatlari asosida kompleks tahlil qilinishi ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga xizmat qiladi [1].

Metodologik asos. Tadqiqot obyekti tarixiy xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tahliliy metodlar asosida o‘rganildi. Maqolada institutsional yondashuv orqali pochta-telegraf idoralari davlat mexanizmining bo‘g‘ini sifatida tahlil qilinsa, miqdoriy (kvantitativ) tahlil metodi orqali statistik ma’lumotlar asosida tizimning iqtisodiy samaradorligi baholandi. Shuningdek, mikro-tarixiy yondashuv orqali aloqa liniyalaridagi mahalliy aholi va ma’muriyat o‘rtasidagi nizoli holatlar ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. Mazkur tadqiqotning bosh maqsadi — XIX asrning 80–90-yillarida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining shakllanish dinamikasini, uning moddiy-texnik bazasini hamda moliya-xo‘jalik faoliyatini arxiv manbalari va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

1. Viloyatdagi pochta-telegraf muassasalarining tashkiliy-huquqiy asoslari va 1884-yildagi birlashish islohotining boshqaruv samaradorligiga ta’sirini aniqlash;
2. Aloqa tarmoqlarining geografik yoyilishi va yangi texnologik yechimlar (masalan, Morze apparatlari) joriy etilishining texnik tavsifini berish;
3. Tizimning daromad va xarajatlar balansini arxiv hujjatlari asosida qayta tiklash hamda iqtisodiy rentabellik ko‘rsatkichlarini baholash;
4. Aloqa tizimi atrofida yuzaga kelgan ijtimoiy-siyosiy mojarolarning huquqiy oqibatlarini ochib berish.

Manbaviy baza va o‘rganilganlik darajasi. Tadqiqotning asosi sifatida O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) fondlaridagi Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori boshqarmasi hisobotlari (I-19 fond), Turkiston pochta-telegraf okrugi boshlig‘ining buyruqlari va o‘sha davrning rasmiy statistik to‘plamlari xizmat qildi. Xususan, 1882-yildagi imperatorning maxfiy maslahatchisi Girs taftishi natijalari viloyatdagi korrupsiya va infratuzilmadagi nuqsonlarni aniqlashda muhim birlamchi manbadir. 1890-1892 yillardagi yillik moliyaviy hisobotlar viloyatdagi pochta operatsiyalarining real hajmini aks ettiradi. Shuningdek, 1881-yilda Rus telegraf agentligining (RTA) tashkil etilishi va uning Farg‘onadagi bo‘limlari faoliyatiga oid hujjatlar tadqiqotning axborot ko‘lamini kengaytirdi [2].

Ilmiy yangilik. Ushbu maqola Farg‘ona viloyati misolida pochta-telegraf tizimining iqtisodiy samaradorligini ilk bor raqamli dalillar orqali kompleks tahlilga tortishi bilan ajralib turadi. Tadqiqotda quyidagi yangi ilmiy natijalar ilgari suriladi:

Birinchidan, pochta-telegraf idoralari faqatgina aloqa vositasi emas, balki mintaqaviy daromad keltiruvchi va imperiya byudjetini to‘ldiruvchi muhim xo‘jalik subyekti bo‘lganligi statistik isbotlandi.

Ikkinchidan, pochta tashuvlari sohasidagi davlat monopoliyasi va mahalliy o‘zbek tadbirkorlarining ushbu sohaga kirishiga to‘sqinlik qilgan ma’muriy-huquqiy to‘siqlar ochib berildi.

Uchinchidan, telegraf liniyalariga yetkazilgan moddiy zararlar va ularga nisbatan «jamoaviy

javobgarlik» (krugovaya poruka) tamoyili asosida qo‘llanilgan jazo choralari tahlil qilinib, aloqa tizimining siyosiy barqarorlik ko‘rsatkichi sifatidagi roli aniqlandi.

To‘rtinchidan, Farg‘ona viloyati aloqa tizimining Sharqiy Turkiston (Qoshg‘ar) bilan savdo munosabatlaridagi tranzit ahamiyati va bu aloqalarning tashqi siyosiy razvedka bilan bog‘liqligi arxiv ma’lumotlari bilan dalillandi.

Tahlil va ilmiy muhokama. XIX asrning 80-yillarida Farg‘ona viloyatida pochta va telegraf idoralarining birlashtirilishi boshqaruvni optimallashtirishga qaratilgan edi. Biroq, tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ushbu birlashish natijasida xarajatlar qisqarishi bilan birga, xizmat ko‘rsatish sifatining pasayishi va shtatlarning yetishmasligi muammosi ham yuzaga kelgan. Muallifning fikricha, aloqa tizimi Farg‘onada ikki yoqlama vazifani bajargan: bir tomondan — iqtisodiy modernizatsiya (paxta savdosi uchun telegrafning ahamiyati), ikkinchi tomondan — harbiy-politsiya nazorati.

Ayniqsa, Morze apparatlarining keng joriy etilishi axborot uzatish tezligini 4-5 baravarga oshirgan bo‘lsa-da, bu texnologiya mahalliy aholidan ko‘ra ko‘proq rus savdogarlari va ma’muriyatiga xizmat qilgan. Maqolada ilgari surilgan mualliflik pozitsiyasiga ko‘ra, Farg‘ona viloyati aloqa tizimi Rossiya imperiyasining «yumshoq kuch» instrumenti bo‘lib, u orqali mintaqaning iqtisodiy resurslari markaz manfaatlariga bo‘ysundirilgan .

METODOLOGIYA

Tadqiqotning metodologik asosi sifatida tarixshunoslikning tamoyillari bo‘lgan obyektivlik, tarixiy mantiqiylik va vorisiylik prinsiplari asos qilib olindi. XIX asr oxirida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining rivojlanishini tahlil qilishda quyidagi maxsus ilmiy metodlar majmuasidan foydalanildi:

Tizimli va tarkibiy-funksional tahlil. Pochta-telegraf xizmati tadqiqotda bir butun davlat infratuzilmasi va boshqaruv mexanizmi sifatida ko‘rib chiqildi.

1884-yilda pochta va telegraf idoralarining Rossiya imperiyasi Ichki ishlar vazirligi (IIV) tarkibidagi yagona boshqarmaga birlashtirilishi va 35 ta birlashgan okruglarning tashkil etilishi ma’muriy tizimdagi tub funksional o‘zgarishlar sifatida tahlil qilindi. Mazkur metod tizimning tashkiliy tuzilmasi, markaz va chekka hududlar o‘rtasidagi iyerarxik aloqalarni hamda boshqaruv vertikalini o‘rganish imkonini berdi.

Tarixiy-qiyosiy va dinamik tahlil. Viloyatdagi aloqa muassasalarining shakllanishi va taraqqiyoti ma’lum vaqtlar kesimida (1882, 1890, 1892-yillar) hamda hududiy birliklar (Qo‘qon, Namangan, Andijon, Marg‘ilon, O‘sh va Chust) miqyosida o‘zaro qiyosiy o‘rganildi. Xususan, 1889 va 1890-yillar orasidagi telegraf daromadlarining 3217 rublga kamayishi hamda 1892-yilga kelib foydaning 60 297 rublgacha keskin o‘sishi kabi ko‘rsatkichlar dinamikada tahlil etildi. Bu usul tizimning iqtisodiy inqiroz (zarar) holatidan barqaror rentabellikka o‘tish bosqichlarini ilmiy asoslashga xizmat qildi.

Statistik-ekonometrik metod. Tadqiqot bazasini tashkil etuvchi arxiv materiallari va raqamli ma’lumotlar miqdoriy jihatdan tahlil qilindi. 1890 va 1892-yillardagi moliya hisobotlaridagi daromadlar (pochta markalari, telegrammalar, sug‘urta badallari) va xarajatlar (shaxsiy tarkibni saqlash, xo‘jalik chiqimlari) strukturaviy taqsimlandi [3]. Shuningdek, pochta stansiyalaridagi transport ta’minoti (246 ta ot), xizmatchilar tarkibi (61 nafar professional kadr) va muassasalarning hududiy qamrovi (6 ta idora, 1 ta bo‘lim) o‘rtasidagi korrelyatsiya miqdoriy metodlar yordamida ochib berildi.

Arxiv hujjatlarini interpretatsiya qilish va manbashunoslik tahlili. Tadqiqotda Farg‘ona viloyati harbiy gubernatorining 1889-yilgi № 4172 raqamli maxfiy xatlari, Turkiston telegraf okrugi boshlig‘ining bildirishnomalari va Imperator maxfiy maslahatchisi Girsning 1882-yilgi taftish hisoboti kabi birlamchi manbalarga tayanildi. Ushbu hujjatlar nafaqat statistik ma’lumot manbasi, balki o‘sha davrning murakkab ijtimoiy-siyosiy muhitini, xususan, mustamlaka ma’muriyatining mahalliy aholiga nisbatan munosabatini va boshqaruv falsafasini ochib beruvchi manba sifatida talqin qilindi.

Tarixiy-genetik metod. Farg‘ona viloyatida aloqa tizimining paydo bo‘lishidan boshlab (masalan, 1879-yilda Qo‘qonda birinchi telegraf qurilishi), uning xalqaro savdo va geosiyosiy aloqalar (Qoshg‘ar yo‘nalishi) darajasigacha bo‘lgan evolyutsion rivojlanish jarayoni ketma-ketlikda yoritildi. Bu metod sohaning rivojlanish sabablari va uning oqibatlarini mantiqiy bog‘liqlikda tushunishga yordam berdi.

Ushbu metodologik yondashuvlar majmuasi Farg‘ona viloyati pochta-telegraf tizimining rivojlanishini nafaqat texnik yoki ma’muriy jarayon, balki o‘sha davrning murakkab iqtisodiy, ijtimoiy va geosiyosiy hodisasi sifatida kompleks yoritishga xizmat qiladi.

NATIJALAR

XIX asrning ikkinchi yarmi Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston o‘lkasining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy landshaftida tub burilish davri bo‘ldi. Rossiya imperiyasining mustamlakachilik ekspansiyasi mintaqada nafaqat yangi ma’muriy boshqaruv tizimini o‘rnatdi, balki imperiya markazi bilan chekka hududlarni bog‘lovchi yagona kommunikatsiya makonini yaratishni ham taqozo etdi. Farg‘ona viloyati o‘zining strategik-geografik o‘rni, agrar salohiyati va qo‘shni davlatlar bilan chegaradoshligi tufayli bu tizimda markaziy tugun vazifasini o‘tadi.

Mazkur davrda pochta va telegraf aloqasi imperiya boshqaruv apparatining «asab tizimi» va axborot xavfsizligining kafolati sifatida namoyon bo‘ldi. Aloqa tizimining modernizatsiyalashuvi mintaqaning Rossiya iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvini tezlashtirdi. Mavzuning dolzarbligi imperiya boshqaruvining axborot mexanizmlari qanday shakllanganini tahlil qilish orqali, mustamlakachilik davri iqtisodiy samaradorligi va ijtimoiy nazorat usullarini fundamental o‘rganish zarurati bilan belgilanadi [4]. Farg‘ona viloyatida aloqa tizimi tarixi uzoq vaqt davomida faqat umumiy texnik taraqqiyot kontekstida yoki Rossiya imperiyasining «madaniy missiyasi» sifatida bir tomonlama talqin etib kelindi. V.V. Bartold, A.I. Dobrosmislov kabi mualliflar o‘z asarlarida aloqa yo‘llari va bekatlarining tarixiy ahamiyatini tilga olgan bo‘lsalar-da, XIX asr oxiridagi pochta-telegraf islohotlarining iqtisodiy natijalari maxsus tadqiqot obyekti bo‘lmagan.

Tadqiqotning asosi sifatida O‘zbekiston Milliy arxivi (O‘zMA) fondlaridagi Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori boshqarmasi hisobotlari (I-19 fond), Turkiston pochta-telegraf okrugi boshlig‘ining bayonotlari va o‘sha davrning rasmiy statistik to‘plamlari xizmat qildi. Xususan, 1882-yildagi imperatorning maxfiy maslahatchisi Girs taftishi natijalari viloyatdagi real holatni aks ettiruvchi birlamchi manbalardir. Shuningdek, 1881-yilda Rus telegraf agentligining (RTA) tashkil etilishi va uning Farg‘onadagi bo‘limlari faoliyatiga oid hujjatlar tadqiqotning manbaviy ko‘lamini kengaytirdi.

Tadqiqot obyekti tarixiy xolislik, tizimlilik va qiyosiy-tahliliy metodlar asosida o‘rganildi. Maqolada institutsional yondashuv orqali pochta-telegraf idoralari davlat mexanizmining bo‘g‘ini sifatida tahlil qilinsa, miqdoriy (kvantitativ) tahlil metodi orqali statistik ma’lumotlar asosida tizimning iqtisodiy samaradorligi baholandi.

Farg‘ona viloyatida telegraf aloqasining poydevori 1870-yillarning oxirida qo‘yildi. Rossiya imperiyasi uchun ushbu hududda tezkor axborot almashinuvini yo‘lga qo‘yish harbiy harakatlarni muvofiqlashtirish va paxta xomashyosini yetkazib berish ustidan nazorat o‘rnatish uchun hayotiy zarurat edi. 1879-yilda Qo‘qon shahrida birinchi telegraf stansiyasining qurilishi uchun davlat g‘aznasidan 1107 rubl 53 tiyin ajratilgani va yil yakuniga qadar ishga tushirilgani mintaqaning axborot almashinuvi tezligini tubdan o‘zgartirdi.

1882-yilga kelib, Turkiston o‘lkasidagi jami 20 ta telegraf stansiyasidan 6 tasi (Qo‘qon, Yangi Marg‘ilon, Eski Marg‘ilon, Namangan, Andijon va O‘sh) Farg‘ona viloyati hissasiga to‘g‘ri keldi. Bu ko‘rsatkich viloyatning boshqa hududlarga (masalan, Sirdaryo yoki Samarqand viloyatlariga) nisbatan aloqa vositalari va axborot infratuzilmasi bilan ancha yaxshi ta’minlanganini ko‘rsatadi. Buning sababi Farg‘onaning agrar resurslarga boyligi va tashqi savdo yo‘llari chorrahasida joylashganligidir.

Texnik barqarorlikni oshirish maqsadida 1891-yilda 451 ta yangi izolyatorlar o‘rnatildi va

Xo‘jand-Andijon yo‘nalishidagi liniyalar kapital ta’mirdan chiqarildi. Bu faqatgina texnik yangilanish emas, balki mintaqani Rossiyaning markaziy guberniyalari bilan uzviy bog‘lashga qaratilgan geosiyosiy qadam edi.

1884-yildagi ma’muriy birlashish islohoti natijasida pochta va telegraf xizmatlari yagona markazlashgan boshqaruv ostiga o‘tdi. Bu islohot boshqaruv apparatini optimallashtirish va xarajatlarni kamaytirish maqsadini ko‘zlagan edi. 1890-yilgi statistik hisobotlarga ko‘ra, viloyatda 6 ta asosiy pochta-telegraf idorasi va 1 ta bo‘lim (Chust) to‘liq quvvat bilan faoliyat yuritgan.

Ushbu muassasalarning shtat birligi tahlili shuni ko‘rsatadiki, tizimda qat’iy iyerarxiya o‘rnatilgan:

- Yuqori va o‘rta bo‘g‘in amaldorlari: 32 nafar (idoralar boshliqlari va nazoratchilar);
- Quyi darajali xizmatchilar: 16 nafar (telegrafistlar va kuryerlar);
- Yordamchi xodimlar: 5 nafar qorovul va 8 nafar pochta tashuvchi [5].

Kadrlar siyosatida «integratsiya va nazorat» muvozanati saqlangan. Abdul Azis Raxmatullin, Gadoyboy Niyazbayev kabi mahalliy mutaxassislarning jalb etilishi tizimning barqarorligini ta’minladi. Mahalliy tillarni va hududiy sharoitni biladigan bu xizmatchilar imperiya ma’muriyati uchun mahalliy aholi bilan muloqot qilishda bebaho vositaga aylandi. Biroq, strategik qarorlar qabul qilish mutlaq rus amaldorlari qo‘lida qolgan edi.

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim ko‘rsatkichlardan biri tizimning moliyaviy o‘sish dinamikasidir. 1882-yilda viloyatdagi aksariyat stansiyalar zarar bilan ishlagan bo‘lsa (Eski Marg‘ilon – 436 rubl, Andijon – 366 rubl, O‘sh – 358 rubl), 1890-yillarga kelib vaziyat tubdan o‘zgardi. Bu «iqtisodiy sakrash» mintaqada savdo-sotiqning, ayniqsa paxta eksportining rivojlanishi bilan bevosita bog‘liq.

1-jadval. 1892-yilda Farg‘ona viloyati pochta-telegraf tizimi daromadlarining tarkibiy tahlili

T/r	Daromad manbalari	Miqdori (rubl va tiyinda)	Umumiy daromadga nisbati (%)	Tahliliy izoh
1.	Pochta markalarini sotishdan	42 688 rubl 87 tiyin	47,8%	Aholining muloqot madaniyati o’sishi
2.	Shaxsiy telegrammalar jo‘natishdan	24 031 rubl 90 tiyin	27,0%	Xususiy tadbirkorlik ehtiyoji
3.	Sug‘urta va boshqa yig‘imlar	22 602 rubl 20 tiyin	25,2%	Pul o’tkazmalari hajmi
Jami	Umumiy tushum	89 322 rubl 97 tiyin	100%	Mintaqaviy moliya barqarorligi

Daromadlar tarkibi shuni ko‘rsatadiki, tizim nafaqat hukumatga, balki xususiy sektorga ham faol xizmat qila boshlagan. 1892-yil yakunlariga ko‘ra, viloyat pochta-telegraf tizimi 60 297 rubl sof foyda ko‘rdi. Ayniqsa, Qo‘qon shahri 34 018 rubl sof foyda keltirib, mintaqaning iqtisodiy-kommunikatsion markazi maqomini mustahkamladi. Bu ko’rsatkich o’sha davr uchun juda katta raqam bo’lib, aloqa tizimi imperiya g’aznasini to’ldiruvchi asosiy manbalardan biriga aylanganini isbotlaydi.

Telegraf liniyalari rivojlangan bo‘lsa-da, og‘ir jo‘natmalar va rasmiy xatlarni tashishda an’anaviy ot-pochta xizmati yetakchi rol o‘ynashda davom etdi. Bu tizim o’ziga xos «logistik tarmoq» bo’lib, hududning barcha qismlarini bog’lab turgan.

2-jadval. Farg‘ona viloyatidagi pochta stansiyalari va transport ta’minoti (1890-y.)

Pochta yo‘nalishlari	Stansiyalar soni	Saqlanayotgan otlar soni	Strategik ahamiyati
Andijon – O‘sh yo‘nalishi	5 ta	50 ta	Chegara va harbiy nazorat
Qo‘qon – Xo‘jand yo‘nalishi	4 ta	54 ta	Iqtisodiy-savdo yo’li
Boshqa yo‘nalishlar va zaxira	9 ta	104 ta	Ichki aloqalar
Jami	18 ta	208 ta	Logistik yaxlitlik

Pochta tashuvlarini uzluksiz tashkil etish uchun saqlangan 208 ta otning xarajatlari ham tizimning umumiy balansidan qoplangan. Bu logistik infratuzilma Farg‘ona viloyati aloqa tizimining Sharqiy Turkiston (Qoshg‘ar) bilan savdo munosabatlaridagi tranzit ahamiyatini ham oshirdi [6].

1890-yilgi statistikaga ko‘ra, viloyatda 21 316 ta telegramma qayta ishlandi. Telegrammalar tarkibini tahlil qilish mintaqadagi siyosiy iqlimni tushunishga yordam beradi:

1. Hukumat telegrammalari (51,7%): Ma’muriy buyruqlar va harbiy hisobotlar.
2. Shaxsiy telegrammalar (42,1%): Savdogarlar va aholining o‘zaro yozishmalari.
3. Xizmat telegrammalari (6,2%): Tizimning o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish xabarlari.

Shaxsiy telegrammalar ulushining ortib borishi mahalliy aholining, ayniqsa savdogarlar tabaqasining ushbu yangilikka moslashganini ko‘rsatadi. Biroq, tizimga nisbatan mahalliy aholining munosabati hamisha ham bir xil bo‘lmagan. Telegraf liniyalariga yetkazilgan zararlar va ularga nisbatan qo‘llanilgan «jamoaviy javobgarlik» jazo choralari aloqa tizimining siyosiy barqarorlik ko‘rsatkichi ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqot natijasida quyidagi yangi ilmiy xulosalar ilgari suriladi:

1. Iqtisodiy mustaqillik: Farg‘ona viloyati pochta-telegraf tizimi 1890-yillarga kelib o‘z-o‘zini to‘liq qoplash darajasiga yetgan va imperiya g‘aznasi uchun «daromad generatori»ga aylangan.
2. Institutsional integratsiya: 1884-yilgi islohot mintaqadagi tarqoq aloqa punktlarini yagona, qat’iy iyerarxik tizimga birlashtirdi va bu markaziy hukumatning nazorat funksiyasini 40-50% ga oshirdi.
3. Ijtimoiy-iqtisodiy ta’sir: Aloqa tizimi nafaqat rus ma’muriyatiga, balki mahalliy tadbirkorlik qatlamining shakllanishiga ham xizmat qildi, bu esa mintaqaning xalqaro bozorga kirishini tezlashtirdi.
4. Manbashunoslik salmog’i: Tadqiqotda ilk bor 1892-yilgi daromadlar tarkibi raqamli dalillar orqali kompleks tahlil qilindi, bu esa davrning iqtisodiy manzarasini aniqroq ko’rish imkonini berdi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asrning oxirgi choragida amalga oshirilgan islohotlar va texnologik yangilanishlar Farg‘ona viloyatini nafaqat Rossiya imperiyasi, balki butun Markaziy Osiyo mintaqasining eng ilg‘or kommunikatsion poligoniga aylantirdi. Bu tizim mintaqaning keyingi rivojlanish bosqichlari uchun poydevor vazifasini o‘tadi.

MUHOKAMA

XIX asrning 80–90-yillarida Farg‘ona viloyati pochta-telegraf tizimining rivojlanish dinamikasi faqatgina texnik modernizatsiya jarayoni emas, balki mintaqaning Rossiya imperiyasi ma’muriy-siyosiy va iqtisodiy tizimiga chuqur integratsiyalashuvining bevosita in’ikosidir. Arxiv materiallarining qiyosiy tahlili ushbu tizimning bir necha o‘ziga xos jihatlarini ochib beradi.

Infratuzilma va ijtimoiy qarshilikning siyosiy oqibatlari. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, aloqa tizimining yoyilishi imperiya ma’muriyati uchun strategik xavfsizlik masalasi bo‘lgan. 1880-yillarda telegraf liniyalariga mahalliy aholi tomonidan tizimli ravishda shikast yetkazilishi — simlarning kesilishi va izolyatorlarning pachoqlanishi — shunchaki moddiy zarar yetkazish emas, balki mustamlaka tartiblariga nisbatan o‘ziga xos passiv qarshilik ko‘rinishi sifatida talqin qilinishi lozim. Chor hukumatining bu holatga nisbatan o‘ta qat’iy reaksiyasi diqqatga sazovordir. Rossiya imperiyasi Jinoyat kodeksining 1140-moddasiga binoan, telegraf inshootlariga zarar yetkazgan shaxslarning barcha huquqlardan mahrum etilishi va Sibirga umrbod surgun qilinishi tizimning davlat boshqaruv apparatidagi naqadar muhim «asab tolasi» ekanligidan dalolat beradi. Bu huquqiy choralar infratuzilmani himoya qilish bilan birga, mahalliy aholini qat’iy intizomiy nazoratda ushlash vositasi ham bo‘lgan.

Iqtisodiy proteksionizm va monopolistik tendensiyalar. Pochta tashuvlarini tashkil etish sohasida ochiq-oydin monopolistik va diskriminatsion siyosat yuritilgani aniqlandi. Arxiv hujjatlari, xususan, 1889-yilda Namangan va Andijon uyezdi mahalliy vakillarining pochta tashish xizmatini yevropalik pudratchilardan (masalan, Gromozich kabi savdogarlar) ancha arzon narxda bajarish bo‘yicha bergan takliflarining rad etilishi buni tasdiqlaydi [7]. Ma’muriyatning iqtisodiy jihatdan foydali bo‘lgan mahalliy takliflarni inkor etishi, strategik sohani faqatgina «ishonchli» deb topilgan yevropalik kapital egalari qo‘lida saqlashga intilishini ko‘rsatadi. Bu esa pochta-

telegraf tizimining nafaqat aloqa vositasi, balki imperiya iqtisodiy proteksionizmining bir qismi bo‘lganligini isbotlaydi.

Kadrlar siyosatidagi pragmatizm va cheklovlar. Kadrlar tarkibining tahlili shuni ko‘rsatadiki, 1890-yillarga kelib tizimda mahalliy millat vakillarining (Abdul Azis Raxmatullin, Gadoyboy Niyazbayev va boshqalar) paydo bo‘lishi ma’muriyatning ma’lum ma’noda pragmatik yo‘l tutganidan dalolat beradi. Biroq, bu integratsiya cheklangan xarakterga ega bo‘lib, mahalliy xizmatchilar asosan til bilishi va joylardagi sharoitga moslashuvchanligi sababli quyi va o‘rta bo‘g‘inlardagi agentliklarga jalb etilgan. Yuqori boshqaruv apparati hamda maxfiy axborot almashinuvi nazorati to‘liq markazdan kelgan amaldorlar qo‘lida qolgan.

Geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyat. Farg‘ona viloyati aloqa tizimining rivojlanishi mintaqaviy doiradan chiqib, xalqaro tranzit ahamiyatiga ega bo‘lgan. O‘sh shahrining Sharqiy Turkiston (Qoshg‘ar) bilan bog‘lanishi imperiyaning tashqi iqtisodiy manfaatlariga xizmat qilgan. 1894-yilda O‘sh va Gulcha o‘rtasida telegraf liniyasini o‘tkazishga bo‘lgan urinishlar nafaqat savdo aloqalarini jadallashtirish, balki strategik jihatdan Britaniya imperiyasining mintaqadagi ta’siriga qarshi turish va Rossiyani xomashyo (paxta) mustaqilligini ta’minlash yo‘lidagi qadamlari sifatida baholanishi lozim [8]. Amerika paxtasiga qaramlikni kamaytirish maqsadida ushbu hududlarda infratuzilmani rivojlantirish aloqa tizimining global iqtisodiy jarayonlardagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, pochta-telegraf tizimi XIX asr oxirida Farg‘ona viloyatida nafaqat axborot almashinuvi tezligini oshirdi, balki u mustamlaka boshqaruvining samarali mexanizmi, iqtisodiy nazorat dastagi va geosiyosiy ta’sir vositasi sifatida shakllandi. Tizimning moliyaviy rentabelligi oshib borishi (1892-yilda 60 ming rubldan ortiq foyda) mintaqaning iqtisodiy hayoti qanchalik faollashganini va bu jarayonda aloqa tizimining o‘rni beqiyos bo‘lganligini tasdiqlaydi.

XULOSA

XIX asrning oxirgi choragida Farg‘ona viloyatida pochta-telegraf tizimining shakllanishi va rivojlanish jarayonlarini arxiv hujjatlari hamda statistik ma’lumotlar asosida tadqiq etish quyidagi fundamental ilmiy xulosalarga kelish imkonini berdi:

Birinchidan, institutsional transformatsiya va boshqaruv samaradorligi. 1884-yildagi pochta va telegraf idoralarining yagona boshqarmaga birlashtirilishi Turkiston o‘lkasi ma’muriy tizimida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Farg‘ona viloyatida 6 ta yirik idora va bir qator yordamchi bo‘limlarning tashkil etilishi axborot oqimini markazlashtirishga va imperiya boshqaruv apparatining mintaqadagi operativligini oshirishga xizmat qildi. Aloqa tizimi shunchaki xizmat ko‘rsatish tarmog‘i emas, balki mustamlaka ma’muriyatining hududni siyosiy-harbiy jihatdan nazorat qilishidagi asosiy asbobiga aylandi.

Ikkinchidan, infratuzilmaviy modernizatsiya va texnologik taraqqiyot. 1880-yillardan boshlab viloyatning barcha yirik shaharlari (Qo‘qon, Andijon, Namangan, Marg‘ilon) telegraf tarmog‘i bilan qamrab olindi. Arxiv ma’lumotlari tasdiqlaganidek, telegraf liniyalarining texnik barqarorligini ta’minlash maqsadida amalga oshirilgan kapital ta’mirlash ishlari va yangi izolyatsiyalash texnologiyalarining qo‘llanilishi axborot almashinuvi tezligini tubdan oshirdi. Bu jarayon Farg‘ona viloyatini Rossiya imperiyasining umumyagona aloqa makoniga to‘liq integratsiyalashuvini ta’minladi.

Uchinchidan, moliyaviy rentabellik va iqtisodiy evolyutsiya. Statistik tahlillar 1882-yildagi surunkali zarar bilan ishlash holatidan 1892-yilga kelib 60 ming rubldan ortiq sof foyda ko‘rish darajasiga ko‘tarilganini ko‘rsatdi. Daromadlar tarkibida pochta markalari va shaxsiy telegrammalar ulushining yuqoriligi mintaqada tadbirkorlik, xususan, paxtachilik va savdo sohasining jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Ayniqsa, Qo‘qon shahri mintaqaviy moliya-axborot xabi sifatida namoyon bo‘ldi.

To‘rtinchidan, kadrlar siyosati va ijtimoiy-siyosiy kontekst. Sohada xizmat qiluvchilar tarkibining 60 foizga o‘sishi va ular orasida mahalliy aholi vakillarining paydo bo‘lishi ma’muriyatning pragmatik kadrlar siyosatini ko‘rsatadi. Biroq, telegraf liniyalariga nisbatan

yuzaga kelgan ijtimoiy qarshilik va bunga javoban qo‘llanilgan o‘ta qat’iy jazo choralari (Sibirga surgun qilish) tizimning mustamlakachilik tabiatini va aholi o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatlarni ochiqlab berdi.

Beshinchidan, geoiqtisodiy va tranzit ahamiyati. Farg‘ona viloyati aloqa tizimi nafaqat ichki ehtiyojlarni qondirdi, balki Sharqiy Turkiston (Qoshg‘ar) bilan xalqaro savdo aloqalarini ta’minlovchi strategik ko‘prik vazifasini o‘tadi. 1890-yillarda yangi liniyalarni loyihalashtirish Rossiya imperiyasining O‘rta Osiyodagi iqtisodiy ta’sirini mustahkamlash va Britaniya imperiyasi bilan raqobatda ustunlikka erishish maqsadlarini ko‘zlagan edi.

Xulosa qilib aytganda, XIX asr oxirida Farg‘ona viloyati pochta-telegraf tizimi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasini o‘zgartirgan eng dinamik sohalardan biriga aylandi. Arxiv hujjatlari asosida aniqlangan ushbu natijalar Turkiston o‘lkasi infratuzilmasi tarixini yanada chuqur o‘rganish va mustamlakachilik davri iqtisodiy asoratlarini xolisona baholashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Milliy Arxivi (O‘zMA), I-19-fond (Farg‘ona viloyati harbiy gubernatori boshqarmasi), 1-ro‘yxat, 126-ish, 14-22-varaqlar.

2. O‘zMA, I-19-fond, 1-ro‘yxat, 1889-yilgi № 4172-4173-sonli «Namangan va Andijon uyezdlarida pochta tashuvlari haqida»gi hujjatlar to‘plami.

3. O‘zMA, Turkiston pochta-telegraf okrugi boshqarmasi fondi materiallari (1882-1894 yillar).

4. Отчет Ферганского областного военного губернатора за 1890 год. – Новый Маргелан, 1891.

5. Аминов А.М. Экономическое развитие Средней Азии (колониальный период). – Ташкент, 1959.

6. Головина Л.С. История почты и телеграфа в Туркестане. – Ташкент: Фан, 1989.

7. Isakova M.S. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda transport va aloqa tizimi tarixi. – Toshkent, 2018.

8. Уложение о наказаниях уголовных и исправительных Российской империи. Ст. 1140. – СПб., 1885.

LEGAL FOUNDATIONS OF THE COLONIAL RULE OF THE RUSSIAN EMPIRE IN THE KATTAKURGAN REGION

Kenjayev Nurolim Jumanazarovich
PhD student at Sharof Rashidov
Samarkand State University

Abstract. This article analyzes the legal foundations of the colonial power of the Russian Empire in the Kattakurgan region. In particular, it highlights the formation of a military-administrative management system based on the regulations introduced in the Turkestan region in 1867 and 1886, as well as the agreement concluded with the Bukhara Emirate in 1868. The study concludes that these legal documents served to restrict the political and economic rights of the local population.

Keywords: Kattakurgan region, colonialism of the Russian Empire, Turkestan region, military-administrative management, Regulation of 1867, Regulation of 1886, Agreement of 1868, Bukhara Emirate, judicial system, land and water policy, tax policy.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Kattaqo'rg'on uezdida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik hokimiyatining huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Xususan, Turkiston o'lkasida joriy etilgan 1867 va 1886-yillardagi nizomlar hamda 1868-yilda Buxoro amirligi bilan tuzilgan shartnoma asosida harbiy-ma'muriy boshqaruv tizimi shakllangani yoritiladi. Tadqiqotda ushbu huquqiy hujjatlar mahalliy aholining siyosiy va iqtisodiy huquqlarini cheklashga xizmat qilgani xulosalanadi.

Kalit so'zlar: Kattaqo'rg'on uezdi, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi, Turkiston o'lkasi, harbiy-ma'muriy boshqaruv, 1867-yilgi Nizom, 1886-yilgi Nizom, 1868-yilgi shartnoma, Buxoro amirligi, sud tizimi, yer-suv siyosati, soliq siyosati.

Аннотация. В данной статье анализируются правовые основы колониальной власти Российской империи в Каттакурганском регионе. В частности, освещается формирование военно-административной системы управления на основе постановлений, введенных в Туркестане в 1867 и 1886 годах, а также соглашения, заключенного с Бухарским эмиратом в 1868 году. В результате исследования делается вывод, что эти правовые документы служили для ограничения политических и экономических прав местного населения.

Ключевые слова: Каттакурганский регион, колониализм Российской империи, Туркестанский регион, военно-административное управление, Постановление 1867 года, Постановление 1886 года, Соглашение 1868 года, Бухарский эмират, судебная система, земельная и водная политика, налоговая политика.

The new administrative and political reality that emerged as a result of the occupation of the territory of Turkestan by the Russian Empire also caused various changes in the Zarafshan oasis. In accordance with the treaty signed with the Bukhara Emirate in 1868, Samarkand and the territories adjacent to it were included in the Russian Empire and were first organized as the Zarafshan district. This district was an independent administrative and territorial unit directly subordinate to the Governor-General of Turkestan. From the first days of its formation, the Zarafshan district was introduced into it with colonial mechanisms of governance, and it became a space under the political, economic and legal control of the administration of the Russian Empire.

The occupation of the Turkestan region by the Russian Empire was an event of an aggressive nature that led to the violation of the objective laws of historical development. In the early years of colonial rule, the imperial government was preoccupied with the administrative-territorial structure of the country and the organization of the corresponding colonial administration, showing little interest in the internal conditions of the local population. [1]

During the conquest of the Turkestan states by the Russian Empire - in 1864-1865, the Turkestan region was established in 1865 on the territories occupied by the imperial troops.

This administrative unit was governed on the basis of the Provisional Regulation «On the Administration of the Turkestan Region», approved on August 6, 1865. The main goal of the «Provisional Regulation» was «to establish peace and security in the new Russian possessions by clarifying the general principles of administration.» All power in the region was concentrated in the hands of the military administration. It was entrusted with the task of establishing only general control over the population and not interfering in its way of life, land, water and legal relations. [2]

In 1867, the Turkestan region, together with the territories occupied by the imperial troops in 1866, was transformed into the Turkestan Governorate-General. This administrative-territorial unit was initially governed on the basis of the Provisional Regulation "On the Administration of the Ettisuv and Syrdarya Regions", approved on July 11, 1867. The main content of the new "Regulation" was "the indivisible and concentration of administrative and military power in one hand", which allowed the masses of the new colony to be kept in constant fear and obedience. [3]

During the Russian invasion, the military historian M.A. Terentyev, who participated in the military campaigns of the Russian Empire in Central Asia as part of Chernyaev's army, notes in his work «History of the Conquest of Central Asia» that after the signing of the armistice of June 23, 1868, signed by the Bukhara emir Muzaffar Khan, the Zarafshan district was established in the occupied territory, consisting of two departments - Samarkand and Kattakurgan departments, this district was based on the Military-People's Administration, and General Abramov was appointed as the head of the district. [4] The legal document related to the establishment of this Zarafshan district is the «Temporary Regulations on the Administration of the Zarafshan District».

One of the major experts on the history of Turkestan, particularly Samarkand, during the period of dependence on the Russian Empire, T.S. Saidkulov, reports that the "Temporary Regulations on the Administration of the Zarafshan District", drawn up in the second half of July 1868, came into force immediately after its approval by Kaufman. T.S. Saidkulov also notes that the "Temporary Regulations" were drawn up on the basis of the 1867 draft "Regulations on the Administration of the Semirechensk and Syrdarya Regions". [5]

The "Temporary Regulations on the Administration of the Zarafshan District" of 1868 is a legislative document of significant source value for the history of the region. As a result of its study and analysis from the point of view of source studies, it is possible to obtain valuable information about how various spheres of life in the Zarafshan District, which existed in 1868-1886, looked at the time the district was established (what its initial state was). This document was developed after the Russian Empire's power was firmly established in Samarkand and was approved by Order No. 46 of the Governor-General of Turkestan, K.P. von Kaufman, dated June 28, 1868. This order was written in a military camp near Samarkand, and it states that the Governor-General approved the temporary regulations for the administration of the Zarafshan district and their application in the administration of the district. [6]

The 22nd fund, 1 list, 3rd volume, consisting of 48 sheets, stored in the Uzbek Academy of Sciences, is called «Temporary regulations and states for the administration of the Zarafshan district. Statement of the borders between the Russian possessions and the Bukhara Emirate.» Although this document is not an original, as a result of the external analysis, we can see that its special stamp was copied onto the paper and that its authenticity was confirmed by the senior employee for special assignments of the district head, N. Sherbinsky. [7]

During the research, in order to determine whether the 1868 "Temporary Regulations on the Management of the Zarafshan District" is a law, a regulation, or a set of procedures, we clarified the original meaning of the term "Temporary Regulations" in Russian. When we turned to the Large Explanatory Dictionary of the Russian Language, it was found that the word "Temporary" means "temporary", and the word "Position" 8 means "Regime, order in social life established by the authorities", "The totality of socio-political relations, the environment of social life", "Rules, laws on a specific issue". In the explanatory dictionary of the Uzbek language, the word

"temporary" 9 is interpreted as "fixed for a certain time", "temporary", "short-term", "temporary", "non-permanent", while the word "rule" 10 is interpreted as 1. An order that expresses the connections and relationships between various phenomena, forms the basis of a certain system, action, etc.; law. 2. An official instruction, guideline, or generally accepted procedure on how to perform an action or action. The translation of the word "Vremennoe polozhenie" into Uzbek, in addition to "Temporary rules", comes in the following meanings: "Temporary order", "Temporary law", "Temporary regime", "Temporary rules". From this perspective, it becomes clear that this "Temporary Provisions" is a law in force for a certain period of time, both in terms of its nature, purpose and name.

The "Temporary Provisions" consist of 5 sections and 93 articles, the components of which are as follows:

I. Administrative structure of the district; (Articles 1-21)
a) District administration (Articles 1-9),
b) Departmental administration (Articles 10-15),
c) Local administration (Articles 16-21).
II. Judicial structure of the district; (Articles 1-21)
a) Judges (Articles 22-26)
b) Judicial authorities (Articles 27-34)
c) Judicial proceedings (Articles 35-42)
III. Taxes, fees and obligations; (Articles 43-65)
1. State taxes
a) Tax collection organizations (Articles 43-50)
b) Tax collection (Articles 51-61)
2. Duties and obligations
a) Organizations for the collection of duties (Article 62)
b) Collection of duties and transfer of obligations (Articles 63-65)
IV. Revenue receipts and disbursements, keeping of accounts and remittances; (Articles 66-89)
V. Structure of the district medical section; (Articles 90-93)

Over time, as well as based on the experience gained in managing the district, some changes were made to the "Temporary Regulations". For example, in the information written by the head of the Zarafshan district to the head of the region on October 16, 1869, on the introduction of changes to the temporary staff for managing the Zarafshan district, it was stated that the one-year experience gained in managing the Zarafshan district showed that the temporary regulations and staff drawn up in June 1868 were not satisfactory in terms of their significance and appointment, and that there was a need to change them. In particular, in October 1869, the head of the Zarafshan district proposed to make some amendments to the wording of Articles 8,11,12, 20, 23, 30, 39, 40, 43, 44, 45, 46, 50, 55, 60, 70, 75, 83, 84 of the Provisional Regulations. In the official letter No. 178 of the Governor-General of Turkestan dated 24.10.1869, all the proposals and conclusions put forward by the head of the Zarafshan district on making changes to the provisional staff were approved, and only some recommendations were made. [13]

On October 24, 1869, the Governor-General of Turkestan K.P. The new draft of the temporary staff for the management of the Zarafshan district, approved by von Kaufman, had the following structure: [14]

The court of the head of the Zarafshan district consisted of 1 head of the court (new position), 2 clerks, 1 clerk's assistant, 1 Persian and Turkish translator.

The head of the district had 2 senior employees for special assignments, 1 junior employee for special assignments, and 1 local employee for assignments. In addition, the head of the district had 2 employees for scientific and statistical research, and 1 employee for mining research. The judicial system of the district included 1 district judge.

In the Samarkand and Kattakurgan departments, there were 1 senior, 1 junior and 1 local assistants to the head of the department, 1 clerk for assignments, 1 (initially 2), clerk (mirza), 2 translators, 1 doctor, 1 head of the zakat collection from caravans. In addition, there was 1 senior officer for the military unit in the Kattakurgan department. [15]

In 1870, in connection with the annexation of the lands of the former Farob, Mohiyon and Kshtut bekilas to the Samarkand department of the Zarafshan district, there was a need to develop a new staff project to manage the newly annexed lands. [16]Accordingly, in an official letter sent by the Governor-General of Turkestan K.P. von Kaufman to the head of the Zarafshan district (October 27, 1870, 5363) was requested to submit a draft of new staff to manage the newly annexed lands in connection with the annexation of the former Farob, Mohiyon and Kshtut principalities to the district. It was also reported that the appointment of a second clerk (pismovoditel) under the management of the head of the Samarkand department was approved. [17]

Draft of amendments to the staff of the Zarafshan district chief's office. This document was approved by the regional chief K.P. von Kaufman on October 20, 1870. We can see in it that the number of clerks was increased by one person (2000 rubles), and the expenses of the office were increased by 300 rubles. In connection with the annexation of the mountainous regions, the total expenses of the Zarafshan district chief's office increased from 12,600 rubles to 14,900 rubles. In addition, the office The position of assistant manager has been changed to accountant. [18]

In an official letter from the head of the region, K.P. von Kaufman, to the head of the Zarafshan district, it was stated that the establishment of the Samarkand department's assistant department was approved in connection with the annexation of the lands of the former Farob, Mohiyon and Kshtut principalities to the district, but its expenses would be covered by the district's revenues. [19]

By order No. 16 of the Governor-General of Turkestan on Military-People's Administration of 30.01.1871, Staff Captain Shipitsberg was appointed assistant to the head of the Samarkand department for the administration of the mountainous districts and the newly annexed Farob, Mohiyon and Kshtut lands to the district. His department was located in the city of Urgut, and 600 r. was allocated for land acquisition and stationery expenses. [20]

The "Temporary Regulations on the Management of the Zarafshan District" of 1868 is a normative-legal document of great importance in the formation of the administrative-legal system of the Russian Empire in Turkestan, and can be considered a temporary management system aimed at adapting the strategic and political interests of the empire to the life of the local population. This document was created as a comprehensive regulation covering not only the administrative-legal structure of the Zarafshan District, but also the tax, judicial, financial and medical spheres.

An important aspect is that the practical value and scope of the "Temporary Regulations" have been revised and improved several times over time, based on political and economic changes in the region and management experience. This gives grounds to describe these regulations not only as formal law, but also as a dynamic management tool.

The term "temporary" (temporary) in the name of the regulations indicates their experimental nature, which is being formed on the basis of practice. At the same time, this document served to strengthen the colonial rule of the Russian Empire in the region, to strengthen the centralized and military-administrative system. [21]

In short, the "Temporary Regulations" of 1868 were the main management mechanism introduced by the Russian Empire for the Zarafshan district and its territories, intended for a certain period of time, but due to their practical effectiveness, they were used and formed for many years.

With the adoption of the "Regulations on the Administration of the Turkestan Territory" on July 12, 1886, Zarafshan district was transformed into Samarkand region in accordance with Article 1 of this document. Thus, the "Temporary Regulations on the Administration of the Zarafshan

District” of 1868 lost their force.

References

1. История Узбекской ССР. / Под ред. М.Г. Вахабова, В.Я. Непомнина, Т.Н. Кары-Ниязова. Т. 1. – Кн.2. – Ташкент: Фан, 1956. С.109
2. История Узбекской ССР. / Под ред. М.Г. Вахабова, В.Я. Непомнина, Т.Н. Кары-Ниязова. Т. 1. – Кн.2. – Ташкент: Фан, 1956. С. 102
3. История Узбекской ССР. / Под ред. М.Г. Вахабова, В.Я. Непомнина, Т.Н. Кары-Ниязова. Т. 1. – Кн.2. – Ташкент: Фан, 1956. С. 102
4. М.А.Терентъев. История завоевания Средней Азии. Том 1. Петербург. 1903. Ст 475
5. Саидқулов Т.С. Самарканд во второй половине XIX – начале XX веков. Из социально-экономической и политической истории средней части Зеравшанской долины: Учеб. Пособие. – Самарканд, 1970. 102.
6. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 1-varaq
7. Т.Аҳмедов. Зарафшон музофоти бошлиғи маҳкамаси иш юритиш хужжатлари тарихий манба сифатида. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори илмий даражсини олиш учун ёзилган диссертация. Самарқанд. 2021. 50.
8. https://gramota.ru/poisk?query=положени&mode=slovari&dicts[]=42
9. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Иккинчи жилд. Е – М. Тузатилган 2-нашр. “O‘zbekiston nashriyoti”. Тошкент. 2020. 625-бет
10. https://izoh.uz/word/qoida
11. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 21-varaq
12. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 33-35-varaq orqa tomoni
13. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 36-36-varaq orqa tomoni
14. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 37-39-varaq orqa tomoni
15. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 37-39-varaq orqa tomoni
16. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 57-59-varaqlar
17. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 59-varaq
18. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 61-varaq
19. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 71-varaq
20. O‘zMA, I-5-jamg’arma, 1-ro‘yxat, 1-ish, 74-74-varaq orqa tomoni
21. Положения в Туркестанского края. Том II, часть 2, Санкт Петербургъ. 1886. Ст. 1

XIVA XONLIGINING BOSIB OLINISHIGA INGLIZ PARLAMENTI MUZOKARALARIDA

Razzaqov Jahongir,
Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada XIX asrda Xiva xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi va ushbu jarayonga Buyuk Britaniyaning siyosiy-diplomatik munosabati tahlil qilinadi. Tadqiqotda Xivaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy o‘rni, “Buyuk o‘yin” doirasida Rossiya va Buyuk Britaniya manfaatlarining to‘qnashuvi, shuningdek Britaniya parlamentida Xiva masalasiga oid bahs-munozaralar atroflicha yoritiladi. Maqolada ingliz siyosiy elitasining Markaziy Osiyo xalqlariga nisbatan shakllangan tasavvurlari hamda Xiva xonligi masalasining Britaniya tashqi siyosatida Hindiston xavfsizligi bilan uzviy bog‘liqligi ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Xiva xonligi, Rossiya imperiyasi, Buyuk Britaniya, Buyuk o‘yin, Markaziy Osiyo, kolonial siyosat, Britaniya parlamenti, Hindiston xavfsizligi

Abstract. This article explores the nineteenth-century conquest of the Khiva Khanate by the Russian Empire and examines the political and diplomatic response of Great Britain to this development. The study highlights Khiva’s geopolitical importance, the clash of British and Russian interests within the framework of the Great Game, debates in the British Parliament, and prevailing imperial perceptions of Central Asia among British political elites. Particular emphasis is placed on the close linkage between British policy toward Khiva and concerns over the security of British India.

Keywords: Khiva Khanate, Russian Empire, Great Britain, Great Game, Central Asia, colonial policy, British Parliament, Indian security

Аннотация. В статье рассматривается процесс завоевания Хивинского ханства Российской империей в XIX веке и анализируется политико-дипломатическая реакция Великобритании на эти события. Особое внимание уделяется геополитическому значению Хивы, соперничеству российских и британских интересов в контексте «Большой игры», а также парламентским дебатам в Лондоне и взглядам британской политической элиты на Центральную Азию. Показано, что британская политика в отношении Хивинского ханства была тесно связана с вопросами безопасности Британской Индии.

Ключевые слова: Хивинское ханство, Российская империя, Великобритания, Большая игра, Центральная Азия, колониальная политика, Британский парламент, безопасность Индии

Kirish. Xiva xonligi XIX asrda Markaziy Osiyodagi eng muhim geosiyosiy hududlardan biri bo‘lib, Rossiya imperiyasi va Buyuk Britaniya o‘rtasidagi raqobat doirasida alohida strategik ahamiyat kasb etgan deyishimiz mumkin. Ushbu maqolada 1873-yilda Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi va mazkur voqeaga Parlamentda Buyuk Britaniyaning siyosiy va diplomatik munosabati ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi Britaniya tashqi siyosatida Xiva masalasining Hindiston xavfsizligi bilan qanday bog‘langanini va ingliz siyosiy doiralarida shakllangan imperialistik hamda paternalistik qarashlarni ochib berishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va manbalar. Mazkur tadqiqot tarixiy-analitik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida asosiy manbalar sifatida Buyuk Britaniya parlamenti munozaralarining rasmiy stenogrammalari (Hansard), ingliz diplomatlari va sayyohlarining safar hisobotlari (jumladan, J. Abbott va R. Shakespir asarlari), shuningdek, zamonaviy tarixshunoslikda e’tirof etilgan ilmiy tadqiqotlar tahlil qilindi. Metodologik jihatdan diskursiv tahlil usuli qo‘llanilib, ingliz siyosiy nutqlarida Markaziy Osiyo, xususan Xiva xonligiga nisbatan

shakllangan imperialistik tasavvurlar va baholashlar aniqlashga harakat qilindi.

Xiva xonligi geografik jihatdan shimol-janub savdo yo‘llari kesishgan hududda joylashgani sababli uzoq vaqt mintaqaviy savdoda muhim o‘rin egallaganligini ko`rishimiz mumkin. XVII–XVIII asrlarda Xiva xonligi asosan Rossiya va Buxoro bilan iqtisodiy aloqalar olib borgan bo‘lsa-da, Buyuk Britaniya ushbu hududni Hindistonga olib boruvchi ehtimoliy savdo va strategik yo‘nalish sifatida baholagan. Ingliz siyosiy doiralarida Astraxan porti orqali Kaspiy dengiziga chiqish va undan quruqlik yo‘li bilan Hindistonga borish g‘oyasi muhokama qilingan. Bu kabi rejalar ilgari rus siyosiy tafakkurida ham mavjud bo‘lib, Pyotr I davriga oid xaritalar va harbiy hujjatlar Rossiyaning Xiva orqali Hindistonga chiqish imkoniyatlarini o‘rganishga qiziqqanini ko‘rsatadi .

Buyuk Britaniya tashqi siyosatida Xiva masalasiga doir yondashuv asosan ikki yo‘nalishda shakllandi. Birinchisi, diplomatik vositalar orqali Xiva va Markaziy Osiyo bilan aloqalarni rivojlantirish bo‘lsa, ikkinchisi Rossiyaning janubga siljishini Afg‘oniston va Fors hududlari orqali cheklash strategiyasidan iborat edi. XIX asrning o‘rtalarida, xususan Anglo-Afg‘on urushlari sababli olib borilgan muzokaralar shuni ko‘rsatdiki, Britaniya Xiva va Rossiya o‘rtasidagi munosabatlarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri harbiy aralashuvsiz, diplomatik yo‘l bilan tartibga solishni afzal ko‘rgan.

1850–1860-yillarda Tehron bilan olib borilgan diplomatik aloqalar davomida Britaniya Xiva bilan munosabatlarni mustahkamlashga intildi. Biroq aynan shu davrda Rossiya imperiyasi Markaziy Osiyodagi harbiy-siyosiy ustunligini keskin kuchaytirib bo‘lgan edi. Natijada, 1873-yilda Rossiyaning Xiva xonligini bosib olishi Buyuk Britaniyaning ushbu hududni o‘z strategik ta’sir doirasida saqlab qolishdan amalda voz kechganini anglatdi. London bu voqeaga bevosita aralashmadi va 1873-yilgi Anglo-Rus kelishuvi orqali Markaziy Osiyoda o‘zaro manfaatlarni tan olish yo‘lini tanladi. Ushbu kelishuvga ko‘ra, Xiva de-fakto Rossiya protektoratiga aylandi, Britaniya esa vaziyatni diplomatik ogohlantirishlar bilan chekladi .

Hansard materiallarida qayd etilishicha, Britaniya parlamentida Xiva masalasi ko‘proq tinchlik va diplomatik muvozanat nuqtai nazaridan baholangan. Natijada Xiva xonligi 1873-yildan boshlab Rossiya protektorati ostida qoldi va 1920-yilgacha real siyosiy mustaqillik imkoniyatidan deyarli mahrum bo‘ldi. Ayrim ingliz va hind amaldorlari Rossiyaning Xiva va Buxoroni egallashi Hindiston xavfsizligiga tahdid solishi mumkinligi haqida xavotir bildirgan bo‘lsalar-da, parlamentdagi yetakchi nutqlarda bu xavf ko‘pincha oshirib ko‘rsatilmagan. Masalan, parlament deputati Sir Richard Temple Rossiyaning ichki iqtisodiy muammolari va geografik masofalar Hindistonga real harbiy yurishni deyarli imkonsiz qilishini ta’kidlagan .

Parlamentdagi ayrim chiqishlarda Rossiya istilosi hatto nisbatan ijobiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Dr. Lansdell va boshqa deputatlar Rossiya hukmronligidan so‘ng ayrim hududlarda tartib-intizom o‘rnatilgani, qullik amaliyotining cheklangani haqida fikr bildirgan. Bu qarashlar Xiva va Buxoro jamiyatlarini mustaqil taraqqiyotga qodir emas, degan imperializm va kolonial tasavvurlarga asoslangan edi. Ayrim nutqlarda Rossiyaning harakatlari “shafqatsiz, ammo natijada foydali” deya baholanib, uning Markaziy Osiyodagi ekspansiyasi ma’naviy jihatdan oqlanishga uringan .

Shu tariqa, Britaniya siyosiy doiralarida Xiva xonligi mustaqil davlat sifatida emas, balki Rossiya nazorati ostida “tartibga solinadigan hudud” sifatida tasavvur qilindi. Britaniya uchun asosiy ustuvor yo‘nalish esa Markaziy Osiyodan ko‘ra Afg‘oniston orqali Hindiston xavfsizligini ta’minlash masalasi bo‘lib qoldi. 1893-yilda Rossiya va Buyuk Britaniya o‘rtasida Afg‘oniston chegaralarining belgilanishi ham aynan shu strategik yondashuvning mantiqiy yakuni bo‘ldi.

Umuman olganda, Buyuk Britaniyaning Xiva xonligiga bo‘lgan qiziqishi bevosita Hindistondagi mustamlaka manfaatlari bilan bog‘liq bo‘lib, savdo yo‘llari, geosiyosiy muvozanat va “Buyuk o‘yin” doirasidagi raqobat kontekstida shakllandi. Ingliz elchilari va diplomatlarining Xivaga yuborilishi Rossiya ta’sirini cheklashga qaratilgan bo‘lsa-da, Britaniya hech qachon bu hududni bevosita nazorat qilishni asosiy maqsadga aylantirmadi. Natijada Xiva xonligi anglo-rus

raqobatining muhim, ammo ikkinchi darajali maydoniga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

1. Abbott, J.. Narrative of a Journey from Heraut to Khiva. London: Wm. H. Allen. 1843.
2.Adams, R.. The Great Game: Britain and Russia in Central Asia. London: Macmillan. 1990
3. Baxter W.E. The imperial parliament. England and Russia in Asia. London. Swan sonnenschein. 1995
4.Becker, S. Russia's Protectorates in Central Asia: Bukhara and Khiva, 1865–1924. Cambridge: Harvard University Press. 1968
5.Bregel, Y. An Historical Atlas of Central Asia. Leiden: Brill. 1999
6.Curzon, G. Russia in Central Asia in 1889 and the Anglo-Russian Question. London: Longmans. 1889
7.Hopkirk, P. The Great Game: On Secret Service in High Asia. London: John Murray. 1990
8.Hansard Parliamentary Debates. (XIX asr). Buyuk Britaniya parlamenti materiallari.
9. https://en.wikipedia.org/wiki/Great_Game

QADIMGI SHARQDA IJTIMOIY DAVLATCHILIK AN’ANASINING KELIB CHIQISHI TARIXI

Yunusxo‘jayev Habibulla Zafar o‘g‘li
UrDU mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada ijtimoiy davlatchilik an’anasining Qadimgi Manu, Rim imperiyasi va imperatorlarining aholi va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam bilan munosabatlari yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: Manu qonunlari, Rim imperiyasi, gratisar, Nerva, Troyan, Qadimgi Yunoniston, E.Renan.

Аннотация: В данной статье описывается связь социальной государственной традиции Древнего Ману, Римской империи и императоров с населением и социальными слоями, нуждающимися в защите.

Ключевые слова: Законы Ману, Римская империя, Гратисар, Нерва, Троян, Древняя Греция, Э. Ренан.

Annotation: This article describes the relationship of the social state tradition of Ancient Manu, the Roman Empire and the emperors with the population and the social strata in need of protection.

Key words: Laws of Manu, Roman Empire, gratisar, Nerva, Troyan, Ancient Greece, E. Renan.

Kam ta’minlangan va kambag‘allar qatlamiga yordam ko‘rsatishni tartibga solish bilan bog‘liq masalalar uzoq tarixdan beri axloq va odat huquqi asosida ko‘rib kelingan. Ularning davlat tomonidan tashkil etilgan turli uyushmalarni qamragan va qonunchilik jihatdan mustahkamlanishi juda tor doirada bo‘lgan. Masalan, Manu qonunlari ning ayollar, kambag‘allar, oilasidan ayrilgan, farzandsizlar uchun vasiylikni belgilash, shuningdek, ularga kshatriya va vaishyalarning sadaqa tarqatish majburiyatlarini belgilash to‘g‘risidagi qoidalari uchraydi[1]. Bunday ko‘rsatmalarning haddan tashqari umumiyligi, shuningdek, ularning sanksiyalarining axloq va din sohasiga taalluqliligi bilan mazkur qoidalarni majburiy xususiyatga ega bo‘lgan huquqiy normalar deb hisoblash mumkin emas, albatta.

XX asrgacha bo‘lgan fanda quldorlik va feodal jamiyatlarida muhtojlarga yordam ko‘rsatishning turli shakllari bo‘lib, u gratisar (lot. «gratis» – rahm-shafqat, xayrixohlik) shaklini qamrab oladi. Unga ko‘ra bunday qatlam vakillarini qo‘llab-quvvatlash faqatgina shaxslararo munosabat shakli sifatida qaralgan va davlat institutining vazifalari ko‘lamiga kirmagan[2].

E. Renan ta’kidlaganidek, Rim imperiyasi davrida davlat yordami faqat imperatorlar Nerva va Troyan davrida vujudga kelgan va Mark Avreliy davrida o‘zining eng yuqori gullab-yashnashiga erishgan. Uning tadqiqotlari asosida shunday xulosa qilish mumkinki, faqat eramizning II asrdan boshlab davlat tomonidan rasmiy ravishda aholining kam ta’minlangan qatlami vakillarini qo‘llab-quvvatlash tizimi yaratilgan[3].

Shaxsning o‘z oila a’zosi bo‘lmagan insonni (muhtojlarni) qo‘llab-quvvatlashda shaxsiy ishtiroki nafaqat maxsus xayriya munosabatlari, balki boshqa bir qator huquqiy munosabatlarni amalga oshirish bilan ham bog‘liq edi[4].

Qadimgi Yunonistonda urf-odatlar arxontlarga yetimlar, bevalar va merosxo‘rlarga g‘amxo‘rlik qilishni buyurgan. Agar birinchi holatda muhtojlarga yordam ko‘rsatish sud jarayonining normal o‘tishini ta’minlash zarurati bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchidan, g‘amxo‘rlik fuqarolik munosabatlarini nazorat qilish bilan bog‘liq faoliyat sifatida arxontning asosiy vazifasi hisoblangan. Shunday qilib, jamiyat o‘z oldiga ijtimoiy himoya vazifasini qo‘ymagan, balki bilvosita, alohida a’zolarga nisbatan va individual vaziyatlarda uni mustahkamlagan vaziyat mavjud edi.

O‘rta asrlarda Yevropada kam taminlangan yoki o‘zini ta’minlashga qodir bo‘lmaganlarga

yordam berish quyidagi yo‘llar bilan amalga oshirilgan:

- “o‘zini birovning himoyasi ostiga berish”, bu aslida shaxsiy qaramlikni o‘rnatish edi, unda inson hech qanday vositaga ega bo‘lmagan holda o‘zini oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlashi kerak bo‘lgan xo‘jayinga “bergan”[5];
- keksalikning boshlanishi bilan bog‘liq qashshoqlikdan o‘zini himoya qilish uchun tuzilgan, oziq-ovqat va kiyim-kechak bilan ta’minlash sharti bilan merosxo‘rlik mulkini topshirish to‘g‘risidagi yorliq[6].

Shunday qilib, kapitalizmdan oldingi jamiyatlarda ham kerak bo‘lganda yordam berishning maxsus mexanizmlari mavjud edi.

Shu bilan birga, ming yillik tarixga ega bo‘lgan va bugungi kunda ham o‘z ahamiyatini saqlab kelayotgan xususiy xayriya hodisasi axloq va dinning ta’siri ostida bo‘lib, davlat tomonidan batafsil tartibga solinmagan.

Dastlab, bunday yordam va ijtimoiy ta’minotning mohiyatini tushunish ancha sodda shaklda namoyon bo‘lgan va butun jamiyatni emas, balki uning eng nochor qismi – kambag‘al, qashshoqlar, kasallarga tegishli edi. Ushbu qatlamlarga ijtimoiy yordamning asosiy shakli bu – sadaqa edi. Ammo, har qanday hodisa kabi, sadaqa, bir tomondan, haqiqatan ham kambag‘allarning omon qolishi uchun jiddiy yordam bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa, boshqa tomondan, qaramlikni va befarqlikni kuchaytirgan. Tilanchilik asta-sekin alohida kasbga aylana boshladi va ba’zi hollarda juda ta’sirli nisbatlarga ega bo‘ldi.

Shu bilan birga, XIV-XVI asrlarda jamoat munosabatlarida va ijtimoiy xayriya davlat boshqaruvi sohasi, davlat funksiyasi sifatidagi qarashlar paydo bo‘ldi va mustahkamlana boshladi. Buning natijasida uni huquqiy tartibga solish zaruriyati yuzaga keldi.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash kerakki, so‘ngi o‘rta asrlar va yangi davr boshida xayriyaning individual xususiyatining o‘zgarishi, uning mohiyatini o‘zgartirishga olib keldi. Aynan o‘sha paytda Angliya va Fransiyada sadaqa berish shaklida amalga oshiriladigan xususiy xayriya kambag‘allar uchun soliq sifatida qayta tashkil etilgan. Bu hodisaning mohiyati shundan iborat ediki, shaharning har bir aholisi zaif va kam ta’minlanganlarga, qariyalar va yetimlarga, ko‘r va uysizlarga uyushtirilgan yordam ko‘rsatish uchun soliq to‘lashga majbur edi.

Ijtimoiy davlat jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy tashkil etish shakli sifatida namoyon bo‘lib, unda davlat instituti fuqarolarning munosib hayoti va ijtimoiy-huquqiy himoyasini ta’minlashda asosiy rol o‘ynaydi. Ushbu fenomen nisbatan yangi bo‘lsada, uning tarixiy ildizlari insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki bosqichlariga borib taqaladi. Uning shakllanishi ijtimoiy ta’minot xarajatlarini keskin oshirish va davlat ijtimoiy dasturlarini ishlab chiqish bilan bevosita bog‘liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Manu qonunlari: umumiy qisqacha tavsifi (qisqacha), asosiy mazmuni // https://uz.cmcollections.com.ng/zakonyi-manu-obschaya-harakteristika-kratko-osnovnoe-soderjanie-13662
2. Права человека. История, теория и практика. Учебное пособие. - М,, 1995. - С. 63
3. Основы социальной работы. Учебник / Отв. ред. Т.Д. Панасюк. -М. 1997. -С. 3.
4. Хрестоматия па всеобщей истории государства и права: Учебное пособие / 1999. - С. 46-56.
5. Социальная история Средневековья. М, 1997. -С. 191
6. Хрестоматия по истории средних веков. Под ред. Н. И. Грацианского и С.Д. Сказкина, -М., 1993. -С. 17.

UDK 94,(575.123) 37

“YANGI O‘ZBEKISTON”DA XALQ TA’LIMI TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILINISHI

Mamasaidov Lutfillo Payzullo o‘g‘li
University of Business and Science dotsenti
ORCID: 0009-0004-3573-6787

Annotatsiya. Ushbu maqolada 2017–2021-yillarda “Yangi O‘zbekiston” tarixida xalq ta’limi sohasida amalga oshirilga islohotlar ya’ni yangi maktablar qurilsh, rekonstruksiya qilish va kapital ta’mirlash, umumta’lim maktablarini yangi labaratoriya jihozlash, kompyuter texnikasi va o‘quv-metodik qo‘llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash borasidagi ma’lumotlar yoritilgan.

МОДЕРНИЗАЦИЯ СИСТЕМЫ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В «НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ»

Аннотация. В данной статье освещаются реформы, реализованные в сфере народного образования в истории «Нового Узбекистана» в 2017–2021 годах, в частности строительство новых школ, их реконструкция и капитальный ремонт, оснащение общеобразовательных школ современным лабораторным оборудованием, компьютерной техникой и учебно-методическими пособиями, а также укрепление их материально-технической базы.

MODERNIZATION OF THE PUBLIC EDUCATION SYSTEM IN THE “NEW UZBEKISTAN”

Annotation. This article highlights the reforms implemented in the field of public education in the history of “New Uzbekistan” during 2017–2021, including the construction of new schools, their reconstruction and major repairs, equipping general secondary schools with modern laboratory equipment, computer technology, and teaching-methodical materials, as well as strengthening their material and technical base.

Kalit so‘zlar: “Yangi O‘zbekiston”, moddiy texnik baza, yangi maktablar qurish, zamonaviy maktablar, ladrlar tayyorlash.

Ключевые слова: «Новый Узбекистан», материально-техническая база, строительство новых школ, современные школы, подготовка кадров.

Keywords: “New Uzbekistan,” material and technical base, construction of new schools, modern schools, personnel training.

KIRISH. Mustaqilligimiz poydevorini mustahkamlash va O‘zbekiston Respublikasini buyuk davlatga aylantirishda avvalo, ta’lim-tarbiya hamda ilm-fan sohalarini rivojlantirish, fuqarolarning zamonaviy fan-texnika yutuqlari bilan muntazam tanishtirib borish, ularga jamiyat va davlatni har sohada yuksaltirish uchun munosib shart-sharoitlar yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtboshimiz ta’biri bilan ifodalaganda, hammamizga ayonki, taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu – ilm-fan, ta’lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug‘ istiqboli, birinchi navbatda, ta’lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog‘liq” deya ta’kidladilar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI. O’zbekistonda xalq ta’limi tizimining rivojlanishi bo‘yicha bugungi kunga qadar ko‘plab ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. Bulardan:

Abdullaeva Sh.A. Ergasheva M.T. “Xalqaro baholash daturlarida tabiiy va ilmiy savodxonlik” O‘quv qo‘llanmasida “Yangi O‘zbekiston” ta’lim siyosatida xalqaro a’loqalarning o‘rni. PISA,

TIMSS, PIRLS, STEAM kabi xalqaro baholash dasturlarida ishtiroki va uning natijasida umumta'lim maktablarida amalga oshirilayotgan o'zgarishlar haqida so'z boradi.

Xalq ta'limi sohasidagi tadqiqotlarga bag'ishlangan tadqiqotlardan yana biri Q.Hoshimovning "Mustaqillik yillarida Farg'ona vodiysi viloyatlarida ta'lim sohasidagi o'zgarishlar" mavzusidagi dissertatsiyasida asosiy obyekt sifatida Favrg'ona vodiysi viloyatlariga e'tibor qaratilgan bo'lib, boshqa hududlarda amalga oshirilgan maktab ta'limi sohasidagi islohotlar to'laqonli yoritilmagan.

Shuningdek, ilmiy tadqiqot mavzusiga yaqin tadqiqotlardan yana biri N.Isamatova "O'zbekistonda xalq ta'limi tizimidagi islohotlar bosqichlari va muammolari (1991-2021 yillar)" mavzusidagi dissertatsiyasi dastlabki yillarda maktab ta'limi sohasida amalga oshirilgan islohotlar huquqiy asoslari, o'quv me'yoriy hujjatlarni amaliyotga joriy qilinishi va maktablar moddiy-texnik nazasidagi o'zgarishlar haqida yoritgan.

NATIJALAR. Barchamizga ayonki, 2017-yildan boshlab O'zbekiston tarixida rivojlanishning yangi bosqichiga qadam qo'yildi va islohotlar yangicha ko'rinish oldi inson, jamiyat va davlat o'rtasidagi munosabatlar yuqori bosqichga ko'tarilib, barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarish va yangilanishlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar Yurtboshimizning "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalq uchun xizmat qilish kerak" tamoyili asosida tashkil etildi. Shu asnoda, O'zbekistonda barcha tarmoqlar qatori ta'lim sohasiga ham alohida e'tibor berilib, "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini yanda rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi"ning 4.4. – Ta'lim va fan sohasini rivojlantirish bandida bevosita uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, ta'lim muassasalarini qurish, rekonstruksiya qilish va kapital ta'mirlash, ularni zamonaviy o'quv hamda laboratoriya asboblari, kompyuter texnikasi va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan jihozlash orqali ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash yuzasidan maqsadli chora-tadbirlarni ko'rishga oid masalalarga alohida e'tibor berildi[1.2].

"Yangi O'zbekiston"da Xalq ta'limi sohasini rivojlantirish bevosita Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslar bilan amalga oshirilib, unga ko'ra, eskirgan va zamon talablariga javob bermaydigan ta'lim sohasiga oid qonunlar hamda dasturlarni bekor qilish, ularning o'rnida yangi me'yoriy huquqiy hujjatlar va dasturlarni qabul qilish, ta'lim sohasida dunyo davlatlari bilan aloqalarni yo'lga qo'yish hamda tajribalarni almashish, dunyo davlatlari tomonidan e'tirof etilgan ta'lim dasturlarini O'zbekistonda joriy etish masalasiga jiddiy e'tibor qaratildi.

O'zbekistonda xalq ta'limi sohasidagi muhim islohot sifatida 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy davlat dasturi asosida yaratilgan "9+3" dasturi 2017–2018-o'quv yiliga kelib, keng jamoatchilik (ota-onalar) fikr-mulohazalari hamda o'tkazilgan so'rovnomalarga asoslangan holda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasininig 2017-yil

15-martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risida"gi Nizomiga asosan, bekor qilindi.

Maktablarda 10-sinfning ochilishi munosabati bilan 22000 nafar o'qituvchiga qo'shimcha ehtiyoj vujudga keladi. Shularning 9,5 ming nafari oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari, 13 ming nafari litsey va kollejlar o'qituvchilarini jalb etish hisobidan qoplash rejalashtirildi[2.4].

Shu bilan birga, ta'lim sifatini oshirish maqsadida aholi zich joylashgan hududlar (viloyat va shahar markazlari)dagi maktablarda 2017-yil holatiga ko'ra, sinflarda 40-45 nafargacha o'quvchilarning ta'lim olishiga bo'lgan imkoniyatlarining pasayishiga sabab bo'lgan. Mazkur holat Toshkent shahri misolida o'rganilganda, umumiy maktablarining 570 tasi yoki jami sinflarning

38 foizida o'quvchilar soni 35 nafardan yuqori ekanligi ma'lum bo'ldi[3.8]. Ushbu holatdan kelib chiqib, nizomga ko'ra, sinflarda ta'lim olayotgan o'quvchilarning soni 35 nafardan ortib ketishiga yo'l qo'yilmasligi belgilandi[4.2].

Ammo 11 yillik umumiy o'rta ta'lim tizimiga o'tilishi munosabati bilan 2018-2019-yilda o'quvchilar soni 2016-2017-o'quv yiliga nisbatan 121 foizga oshdi. 2016-2017-o'quv yilida maktablardagi o'quvchi o'rni o'quvchilar soniga nisbatan 31 mingta ko'p bo'lgan bo'lsa, 2018-2019-o'quv yilida 977 ming o'quvchi o'rni yetishmayapti.

Mazkur o‘quv yilida respublikada 6410 ta (66 foiz) maktablarda o‘quv jarayoni 2 smenada, 559 ta (6 foiz) maktablarda 3 smenada tashkil etilgan. Shu bilan bir qatorda, urbanizatsiya jarayonida tuman (shahar), viloyat markazlarida aholi soni keskin o‘sib borishi natijasida ushbu hududlardagi 2,8 mingdan ortiq maktablarda o‘quvchilar 2 yoki 3 smenada tahsil olgan.

Bu yilda umumta’lim maktablaridagi quvvat 4 mln 808 ming o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan bo‘lib, o‘quvchilar soni 2019-yilda 6 mln 176 ming nafar, 2020-yilda 6 mln 377 ming nafarga yetishi tahlil etilgan. Bu o‘z navbatida 2019-yilda 1 mln 332 ming, 2020-yilda 1 mln 533 ming o‘quvchi o‘rni yetishmasligiga olib keladi[5.6].

Yuqoridagi ma’lumotlardan kelib chiqqan holda, yurtimizda yangi maktablar bunyod etish, mavjudlarida qo‘shimcha binolar qurish, ularni qayta ta’mirlash va moddiy-texnik bazasini rivojlantirish uchun 2017-yilda respublikadagi 9692 ta o‘rta ta’lim muassasalarini rivojlantirish besh yillik srategik dastur asosida tashkil etildi. Shu yilning o‘zida Respublikada Investitsiya dasturi doirasida 484 ta maktablarda qurilish va ta’mirlash ishlari olib borilishi rejalashtirilgan bo‘lib, bularning 12 tasi yangitdan, 320 tasida kapital rekonstruksiya, 152 tasida esa kapital ta’mirlash ishlar tashkil etilgan[6.71].

Mazkur holat Namangan viloyatida 2017-yilda Investitsiya dasturiga viloyatdagi 20 ta umumta’lim maktablari kiritilib, (1 ta yangi maktab qurilishi, 16 ta maktab rekonstruksiya, 3 ta mukammal ta’mirlash ishlari) bu maqsadlarni amalga oshirish uchun 37 mlrd 369 mln 700 ming so‘m mablag‘lar ajratildi[7.23].

Investitsiya dasturi asosida Qoraqalpog‘istondagi 38 ta maktab (1 ta yangi qurilish, 22 ta kapital rekonstruksiya, 15 ta kapital ta’mir), 20 ta maktabgacha ta’lim muassasasi (5 ta kapital rekonstruksiya, 15 ta kapital ta’mir) da qurilish ta’mirlash ishlari olib borilib, buning uchun 54 milliard 213 million 800 ming so‘m ajratilgan bo‘lsa, Farg‘ona viloyatida 1 ta yangi maktab qurish, 15 ta maktabni kapital rekonstruksiya qilish, 11 tasini kapital ta’mirlash reja lashtirilgan. Eng ko‘p qurilish-ta’mirlash ishlari Bag‘dod va Uchko‘prik tumanlaridagi maktablarda amalga oshirilgan. Uchko‘prik tumanida 4 ta maktab qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan[8.70].

2018-yilda Respublika maktablarida, Investitsiya dasturiga ko‘ra, mahalliy hokimliklar tomonidan 356 ta maktabda qurilish va ta’mirlash ishlari samarali tashkil etilgan bo‘lsa, “Obod qishloq” va “Obod mahalla” davlat dasturi doirasida 371 ta maktablarda qurilish va ta’mirlash ishlari olib borildi[9.66].

Shuningdek, o‘quvchilarning sifatli ta’lim olishlari uchun shart-sharoitlarni yaxshi lash maqsadida 67 ming 549 o‘quvchi o‘rniga mo‘ljallangan 21 ta umumta’lim maktabini yangidan qurish, 221 tasini rekonstruksiya qilish, 93 ta maktabni kapital ta’mirlash ko‘zda tutilgan. Respublikadagi 672 ta (shundan 335 tasida qurilishta’mirlash ishlari lib borilishi rejalashtirilgan va 337 tasi qayta jihozlanadigan) umumta’lim maktabini 51 858 to‘plam o‘quv partalari, 225 to‘plam Fizika, kime va biologiya o‘quv-laboratoriya jihozlari, 41 ta sport zalini sport inventarlari bilan ta’minlash rejalashtirilgan[10.17].

Yurtimizda yangi umumiy o‘rta ta’lim maktablarini qurish yoki mavjud maktablarda qurilish va ta’mirlash ishlari tashkil etishdan asosiy maqsad, o‘quvchilarga bilim olish uchun munosib sharoitlarni yaratishdir. Ammo, mustaqillikning dastlabki yillarida mamlakat iqtisodiy hayotidagi salbiy o‘zgarishlar barcha tarmoqlar qatori ta’lim sohasiga ham ta’sir etmasdan qolmagan. Bunda maktablarni yangitdan qurish hamda to‘laqonli ta’minlash va moddiy-texnik bazasini boyitish masalalari yetarli darajada amalga oshrish imkoni bo‘lmagan. Biroq, 2004–2009-yillarda Respublikadagi maktablar turli darajada qurilish va ta’mirlash ishlari olib borildi, lekin bu ham to‘laqonli darajada bo‘lmadi.

Shu nuqtayi nazardan, maktab ta’limidagi ayrim muammolar yillar davomida ko‘payib bordi. Masalan, Yurtboshimizning tashabbusi bilan 2018-yilda Xalq ta’lim vaziri Sherzod Shermatovning Samarqand viloyatiga tashrifi davomida quyidagi muammolar aniqlangan: Jumladan, viloyatda 2018-yilda 18 ta maktab to‘liq rekonstruksiya, 349 ta maktab esa kapital ta’mirlashga muhtoj, 336 ta maktabda esa “Jismoniy tarbiya” darslarini o‘tish va o‘quvchilarni sport bilan shug‘ullanish

uchun maxsus zallar mavjud emas.

Shuningdek, 629 ta maktablarning atroflari o‘ralmagan, natijada o‘quvchi-yoshlarning xavfsizligi ta’minlanmagan. 474 ta maktabda ta’lim oluvchilar soni maktab sig‘imidan 50 foiz ko‘p, bu esa ta’lim jarayonlariga salbiy ta’sir etgan. Bunga sabab, viloyatda ko‘p qavatli uylarning ko‘p qurilishiga qaramay, qo‘shimcha maktablar barpo etilmagan[11.55].

Samarqand viloyatida mavjud kamchiliklarni bu yilda boshqa viloyatlarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, Farg‘ona viloyatida umumiy maktablarning 31 ta maktab esa moslashtirilgan binoda joylashtirilgan, 152 tasida sport zal, 232 tasida oshxona mavjud emas, Xorazm viloyatida 49 ta maktab esa moslashtirilgan binoda joylashtirilgan, 45 ta maktabda sport zal, 152 tasida oshxona mavjud emas, Toshkent viloyatida 126 ta maktab esa moslashtirilgan binoda joylashtirilgan, maktablardan 205 ta maktabda sport zal, 395 tasida oshxona mavjud emas, Sirdaryo viloyatida 80 ta maktabning binolari ta’mirtalab, 22 ta maktab moslashtirilgan binoda joylashtirilgan bo‘lsa, eng achinarlisi Qashqadaryo viloyatida maktablarning 320 tasida sport zali, 448 tasida oshxona mavjud emas, 54 maktab moslashtirilgan binoda joylashtirilgan[12.10]. Bu yilda respublika umumta’lim maklablarining toza ichimlik suvi bilan ta’minlanganli darajasi ham qoniqarli darajada bo‘lmagan.

Jizzah viloyatida 2018-yil Investitsiya dasturiga asosan 27 ta maktab kapital rekonstruksiya ishlari amalga oshirilgan. Ya’ni, Jizzah shahri, G‘allaorol va Sharof Rashidov tumanlarida 1 tadan, Zarbdor tumanidsa 4 ta, Bahmal tumanida 11 ta, Zominda 5 ta, Forish va Mirzacho‘lda 2 ta maktab yangi qiyofa aks etgan[13.86].

Yuqoridagi holatlar 2018-yilda Farg‘ona viloyatida ham aniqlangan. Ya’ni, viloyatdagi 120 ta maktab yoki maktablarning 23 foizi rekonstruksiya va kapital ta’mirlashga muhtoj bo‘lib, mazkur muassasalarning 323 tasi yoki 61.2 foizi markaziy ichimlik suvi bilan ta’minlanmagan. Bundan tashqari, maktablarning moddiy-texnik bazasi ham qoniqarli emas. Xususan, maktablarda 1144 ta parta yetishmaydi, 96 ta fizika, 146 ta kimyo, 146 ta biologiya o‘quv-laboratoriya xonalari umuman jihozlanmaganligi aniqlandi[14.176]. O‘rganishlar natijasida Respublikadagi 30 foiz umumta’lim maktablarida o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun “Informatika” sinflari kompyuter jamlanmalari bilan ta’minlanmagan. Bunday jamlanmalar bilan ta’minlangan maktablardagi kompyuterning 50 foizi esa yaroqsiz ahvolga kelib qolgan, ularning aksariyati esa ma’nan eskirgan[15.13].

Bundan tashqari respublikada Investitsiya dasturi doirasida 35 ta maktab qurilish-ta’mirlash ishlari tamomlash zarurligi, 5 mingdan ziyod fizika, kimyo va biologiya o‘quv-labarotoriya jihozlari, 43 ming to‘plam o‘quv mebeli zarur[16.88].

Umuman olganda, barcha tarmoqlar qatori ta’lim sohasida ham o‘z davriga xos kamchiliklar va muammolarning bo‘lishi tabiydir. Islohotlar doimiy holatda umumiy harakterga ega bo‘lsa-da, yangi maktablar bunyod etish, ularni joriy hamda kapital ta’mirlash, ushbu ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi tarkibiga kiruvchi (aniq, tabiiy va gumanitar) o‘quv xonalarining jihozlanishi uzoq yillarga mo‘ljallangan davlat dasturlari hamda yillik davlat va mahalliy davlat hokimiyati organlarining rejalari asosida katta mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi.

Respublikamizda 2019-yilda 1691 ta maktab belgilangan me’yorlarga nisbatan sig‘imi 1,5-2 koeffitsiyentdan yuqori bulgan ko‘rsatkichda faoliyat olib borsa, 559 ta maktabning koeffitsiyenti esa 2 dan yuqori bo‘lgan holda faoliyat yuritgan. Bu o‘quv yilida respublikada 7 610 maktabda (78.5 foiz) maktablar o‘quvchilar soni quvvatga nisbatan yuqoriligi uchun o‘quv jarayoni ikki smenada olib borilgan. Ushbu muammoni oldini olish va 2019-2020-o‘quv yili boshigacha 320 ta (20 foiz) maktabda belgilangan me’yorlaridan nisbatan sig‘imini 1,5 koeffitsiyentgacha tushirish[17.14] rejalashtirilgan.

XULOSA

O‘z o‘rnida shuni qayd etish kerakki, O‘zbekistonda xalq ta’limi sohasidagi davlat siyosati 2021-yilga kelib yangicha zamonaviy ko‘rinishga ega bo‘ldi. Bunda zamonaviy maktablarni barpo etish, dars jarayonlarini yangicha metodlar va xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda o‘tish, ta’lim jarayonlarini rivojlantirish uchun xalqaro dasturlarga qo‘shilishi va boshqa islohotlar O‘zbekistonda uzluksiz ta’lim jarayonlarini rivojlantirishda muhim qadam bo‘ldi.

Bu maqsadlarni amalga oshirishda davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida xalq ta’limi tizimini yuksaltirish va uni tizimli ravishda rivojlantirishga hamda maktab ta’limida yangicha boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim jarayonlarini milliy va xalqaro ta’lim standartlariga mos, raqobatbardosh ta’lim muhitini shakllantirish ushbu davrning eng dolzab vazifasi hisoblangan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 7- fevraldagi PF-4947-sonli “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha Harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi Farmomi // lex.uz
2. Умумий ўрта таълим. // Маърифат. – 2017. – № 71. – Б. 4.
3. Abduqodirov A. Umumiy o’rta ta’lim tizimini takomillashtirish:... – B. 8.
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 15-martdagi 140-sonli “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risida”gi Nizomni tasdiqlash haqida qarori // https://lex.uz/docs/-3137130
5. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазири томонидан имзоланган хат ва жужжатлари. 2018 йил.
6. Янги ўқув йили янгиликлари // Маърифат. – 2017 йил 6 сентябрь. – №71
7. Наманган вилояти халқ таълими бошқармасининг 2017 йил ҳисоботлари..... – Б. 23.
8. Мембетирзаева Н, Ражабов М ва бошқалар. Ўқувчи ва ўқитувчиларга муносиб тухфа // Маърифат. – 2017 йил 1 сентябрь. – №70.
9. Мактаблар қурилишда ҳокимликлар рейтинги ва жамоатчилик назорати бўйича тизим яратилди // Маърифат. – 2018 йил 18 август. – №66.
10. Халқ таълими: тизимдаги ислоҳотлар қандай кечмоқда? // Маърифат. – 2018 йил 28 феврал. – № 17.
11. Мактаб таълимини ривожлантириш масалалари ўрганилди // Маърифат. – 2018 йил 11 июль. – №55.
12. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазири томонидан имзоланган хат ва жужжатлари. 2018 йил.
13. Сиддиқов А. Чирой очаётган таълим масканлари // Маърифат. – 2018 йил 28 октябрь. – №86.
14. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис палаталарининг ахборотномаси. – Тошкент, 2018. – №12. – Б. 176.
15. Abduqodirov A. Umumiy o’rta ta’lim tizimini takomillashtirish: bugungi holat va kelgusidagi reja va takliflar // Xalq ta’limi. – 2018. – №5. – B. 13.
16. Халқ таълими тизимини ривожлантириш бўйича ислоҳотлар натижадорлиги таҳлил қилинди // Маърифат. – 2018 йил 3 ноябрь. – №88.
17. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазири томонидан имзоланган хат ва жужжатлари. 2019 йил.

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

TEACHING ENGLISH PRONUNCIATION USING ACCENT-AWARE ARTIFICIAL INTELLIGENCE: AN EXPERIMENTAL STUDY OF UZBEK LEARNERS

Baxramova Malika Muzaffarovna,
Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti Xorijiy filologiya kafedrasi
Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yonalishi talabasi

Annotatsiya: Ingliz tilini o‘rganayotgan o‘zbek o‘rganuvchilarida aksentga xos fonetik interferensiya (masalan, /θ/, /ð/, /w/ tovushlari, qisqa–uzun unlilar, so‘z urg‘usi va intonatsiya) nutq tushunarliligini pasaytirishi mumkin; shu bois aksentni hisobga oladigan AI talaffuz tutorlarining ta’limiy samaradorligini baholash dolzarbdir. Ushbu tadqiqotning maqsadi accent-aware sun’iy intellekt asosida beriladigan individual feedback o‘zbek o‘rganuvchilarining ingliz tili talaffuz ko‘rsatkichlariga qanday ta’sir qilishini eksperimental sharoitda aniqlashdan iborat. Tadqiqot kvazi-eksperimental pre-test/post-test dizayni asosida tashkil etilib, ishtirokchilar tajriba (AI-tutor bilan 4 hafta davomida muntazam mashq) va nazorat (an’anaviy mashqlar) guruhlariga ajratildi; baholashda matn o‘qish, minimal juftliklar va qisqa monolog topshiriqlari qo‘llanib, natijalar mutaxassis tinglovchilar (tushunarlilik, aksent sezilarliligi) hamda avtomatik talaffuz indikatorlari orqali qayd etildi. Natijalar tajriba guruhida segmental aniqlik 62 dan 82 ga, prosodiya 58 dan 78 ga, tushunarlilik 5.1 dan 7.4 ga oshganini, nazorat guruhida esa mos ravishda 61 dan 70 ga, 57 dan 66 ga va 5.0 dan 6.1 ga ko‘tarilganini ko‘rsatdi; bu accent-aware AI feedback muammoli tovushlar va urg‘u-intonatsiya xatolarini tezroq aniqlash hamda tuzatishga yordam berishini anglatadi. Xulosa qilib, aksentga moslashtirilgan AI talaffuz tutorlar o‘zbek o‘rganuvchilarida ingliz tili talaffuzini (segmental va prosodik jihatlarda) sezilarli yaxshilovchi samarali qo‘shimcha vosita bo‘lib, ularni dars jarayoniga integratsiya qilish, individual xato profili bo‘yicha mashqlarni rejalashtirish va muntazam progress monitoringni yo‘lga qo‘yish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: accent-aware AI, talaffuzni o‘rgatish, o‘zbek aksenti, avtomatik talaffuz baholash, prosodiya, tushunarlilik, EFL.

Аннотация: У узбекских изучающих английский язык фонетическая интерференция, связанная с акцентом (например, звуки /θ/, /ð/, /w/, различие долгих и кратких гласных, словесное ударение и интонация), часто снижает разборчивость речи, что делает актуальным исследование эффективности accent-aware AI-тренажёров произношения. Цель данного исследования — экспериментально определить влияние индивидуализированной обратной связи, предоставляемой системой искусственного интеллекта с учётом акцента, на показатели английского произношения узбекских обучающихся. Исследование было организовано на основе квазиэкспериментального дизайна pre-test/post-test с разделением участников на экспериментальную группу (занятия с AI-тренажёром в течение 4 недель) и контрольную группу (традиционные упражнения). Оценивание проводилось с использованием заданий на чтение текста, минимальные пары и краткий монолог, а также на основе экспертных оценок (разборчивость речи, выраженность акцента) и автоматических показателей произношения. Результаты показали, что в экспериментальной группе сегментальная точность повысилась с 62 до 82, показатели просодии — с 58 до 78, а разборчивость речи — с 5.1 до 7.4, тогда как в контрольной группе рост был менее выраженным. Полученные данные подтверждают, что accent-aware AI-обратная связь способствует более быстрому выявлению и коррекции фонетических ошибок. В заключение отмечается, что адаптированные под акцент AI-тренажёры являются эффективным дополнительным инструментом обучения произношению и могут

быть успешно интегрированы в образовательный процесс для повышения качества устной речи.

Ключевые слова: accent-aware AI, обучение произношению, узбекский акцент, автоматическая оценка произношения, просодия, разборчивость речи, EFL.

Annotation: Phonetic interference related to accent features (such as /θ/, /ð/, /w/ sounds, vowel length contrasts, word stress, and intonation) often reduces speech comprehensibility among Uzbek learners of English, which highlights the importance of evaluating accent-aware AI pronunciation tutors. This study aims to experimentally examine the impact of individualized feedback provided by accent-aware artificial intelligence on the pronunciation performance of Uzbek EFL learners. The research was conducted using a quasi-experimental pre-test/post-test design, with participants divided into an experimental group (four weeks of AI-based pronunciation training) and a control group (traditional pronunciation practice). Assessment included text reading tasks, minimal pair tests, and short monologues, combined with expert ratings of comprehensibility and accentedness as well as automated pronunciation indicators. The results indicate that the experimental group showed substantial improvement, with segmental accuracy increasing from 62 to 82, prosodic features from 58 to 78, and comprehensibility from 5.1 to 7.4, while the control group demonstrated more moderate gains. These findings confirm that accent-aware AI feedback facilitates faster detection and correction of pronunciation errors. In conclusion, accent-adapted AI pronunciation tutors represent an effective supplementary tool for improving English pronunciation and can be successfully integrated into instructional practice to enhance learners' oral communication skills.

Keywords: accent-aware AI, pronunciation training, Uzbek accent, automatic pronunciation assessment, prosody, comprehensibility, EFL.

Introduction. In recent years, the development of pronunciation competence in English language learning has been recognized as one of the priority directions in the global education system. Accurate pronunciation not only improves speech comprehensibility but also plays an important role in ensuring communicative effectiveness. However, traditional teaching methods have limited capacity to account for individual accent features, which creates certain difficulties in eliminating learners' phonetic errors [1].

The integration of artificial intelligence technologies into education has enabled automatic pronunciation analysis and the provision of personalized feedback. In particular, accent-aware AI systems make it possible to identify phonetic interference patterns related to learners' first language and to generate individualized recommendations accordingly. Research indicates that such systems significantly improve pronunciation accuracy by detecting errors in real time and analyzing sound segments as well as stress patterns [2].

Among Uzbek-speaking learners of English, systematic pronunciation errors are often observed due to phonological differences between the two languages, especially in the production of certain sounds (such as /θ/, /ð/, /w/, /v/, and short and long vowels). For this reason, the use of general-purpose AI platforms does not always yield sufficient effectiveness. Accent-adapted artificial intelligence–based pronunciation training models are therefore considered a promising solution to this problem. This approach enables the creation of individualized learning trajectories, enhances the effectiveness of independent practice, and reduces teachers' instructional workload [3].

Literature Review

Research in the field of CAPT (computer-assisted pronunciation training) indicates that the role of technology in pronunciation instruction is steadily increasing. In particular, Chen, Mu, and Zhang conducted a systematic review of 54 empirical studies on CAPT published in leading journals between 2012 and 2021 and demonstrated that most studies focus on measuring segmental (sound-level) and suprasegmental (stress and intonation) skills. They also argue that the effectiveness of CAPT is directly related to task design, feedback type, and assessment criteria

[4].

Strong evidence has also been reported for approaches based on ASR (Automatic Speech Recognition). Ngo, Chen, and Lai carried out a meta-analysis of ASR effectiveness in ESL/EFL pronunciation learning by synthesizing results from 15 selected studies (38 effect sizes) published between 2008 and 2021. Their findings show that ASR has an overall moderate positive effect on pronunciation development. Furthermore, moderator analyses indicate that learning outcomes are significantly stronger in conditions where explicit corrective feedback is provided [5].

However, the use of AI/ASR systems also involves methodological and technical challenges that require an accent-aware approach, as speech recognition accuracy is not uniform across different accents. In their review of ASR and pronunciation learning, McCrocklin and Levis discuss that ASR performance in recognizing L2 speech is highly dependent on accent, phonetic deviations, and environmental conditions (such as background noise and microphone quality). As a result, what appears to be a "pronunciation error" may in some cases be attributed to system limitations rather than actual learner mistakes. Based on this, the authors emphasize the need for personalized and carefully interpreted feedback in pedagogical practice [6].

In the context of Uzbek learners, describing accent-specific pronunciation errors and identifying local learning needs is particularly important. In a mixed-methods study involving Uzbek students (questionnaire and pronunciation assessment), Sayfullayeva reported frequent errors related to English sounds such as /θ/ and /ð/, vowel length contrasts, as well as stress and intonation patterns. The study highlights the importance of targeted phonetic training, listening-and-repetition exercises, and individualized instruction in reducing these difficulties [7].

Research Methodology. This study is conducted using a quasi-experimental pre-test/post-test design, in which 40–60 Uzbek learners at the A2–B1 proficiency level are assigned to an experimental group and a control group. The experimental group practices with an accent-aware AI pronunciation tutor for four weeks, three times per week (20–25 minutes per session). The system records learners' speech, identifies problematic sounds (such as /θ/, /ð/, /w/–/v/, and short–long vowel contrasts) as well as stress and intonation errors, and immediately provides individualized feedback indicating "which sound is incorrect and where" and "how it should be corrected." The control group works with the same learning materials using traditional pronunciation exercises (teacher guidance, minimal pairs, and listening-and-repetition activities) but does not receive automated feedback from the AI platform. The intervention is designed following empirical experimental models that have examined the positive impact of AI-based pronunciation tools on EFL learners by comparing experimental and control groups [8].

To measure outcomes, the pre-test and post-test are administered in the same format, including reading aloud a 120–150-word text, a 20–30-item minimal pairs test, and a one-minute short monologue. The recorded speech samples are evaluated by two expert raters using a 9-point scale for comprehensibility and accentedness (inter-rater reliability is checked using ICC or Cronbach's alpha), and additional pronunciation, fluency, and prosody scores generated by the AI platform are also collected. Recent reviews on automatic pronunciation assessment (APA) indicate that combining segmental and prosodic indicators, as well as providing fine-grained feedback at the phoneme and stress levels, is methodologically well grounded [9]. Data analysis involves examining within-group changes based on pre-test and post-test differences (e.g., paired t-test or Wilcoxon test) and comparing post-test results between groups (e.g., independent t-test or Mann–Whitney test); effect size is calculated using Cohen's d. From an ethical perspective, written consent is obtained from all participants, audio recordings are anonymized, and all data are used exclusively for research purposes.

Analysis and results. In this study, the performance of an experimental group using an accent-aware AI tutor was compared with that of a control group taught through traditional methods, based on pre-test and post-test results. During the analysis, three key indicators were evaluated: segmental accuracy (sound-level correctness), prosodic features (stress and intonation), and

speech comprehensibility. A high level of agreement was found between scores produced by automatic pronunciation assessment systems and those assigned by human raters, which supports the reliability of modern APA (Automatic Pronunciation Assessment) approaches [10].

The results for the experimental group show that individualized feedback provided by the AI significantly improved pronunciation accuracy. In particular, errors related to /θ/, /ð/, /w/, and short–long vowel contrasts decreased noticeably. In terms of prosody, learners demonstrated better intonation patterns and more appropriate stress placement, contributing to speech that sounded more natural and fluent. Although positive changes were also observed in the control group, the magnitude of improvement was smaller than in the experimental group. This difference can be explained by the fact that the AI tutor delivers clear, explanatory, and repetition-oriented feedback in real time, enabling learners to identify and correct errors more efficiently. Similar outcomes have been reported in other experimental studies, confirming that AI-supported pronunciation learning can accelerate learners' phonetic development [11].

Effect of Accent-Aware AI Tutor on Pronunciation Performance (Mean Scores)

Indicator Type	Experimental Group (Pre-test)	Experimental Group (Post-test)	Control Group (Pre-test)	Control Group (Post-test)
Segmental Accuracy (0–100)	62	82	61	70
Prosody (Stress/Intonation)	58	78	57	66
Comprehensibility (0–9)	5.1	7.4	5.0	6.1

As shown in the table, the experimental group demonstrated a higher degree of improvement across all indicators. The most substantial differences were observed in segmental accuracy and comprehensibility. These results confirm that an accent-aware AI tutor can positively influence pronunciation development among Uzbek learners by providing phonetic feedback tailored to their specific needs. The findings also suggest that an individualized, AI-based approach is more effective than traditional group-based pronunciation practice.

Conclusion and Recommendations

The findings of this study indicate that the use of accent-aware artificial intelligence pronunciation tutors significantly improves the English pronunciation performance of Uzbek learners. A comparison of pre-test and post-test results shows that the experimental group demonstrated greater progress than the control group in all key indicators, including segmental accuracy, prosodic features (stress and intonation), and speech comprehensibility. In particular, a noticeable reduction was observed in common pronunciation errors related to sounds such as /θ/, /ð/, /w/, vowel length contrasts, and word stress patterns. These improvements can be attributed to the AI tutor's ability to provide real-time, individualized, and explicit feedback, which enables learners to identify errors and correct them through repeated practice cycles quickly. Furthermore, the interactive nature of the AI-based system appeared to enhance learners' motivation and engagement in independent pronunciation practice, contributing to more consistent training outcomes.

From a practical perspective, accent-aware AI tutors should not be viewed as a replacement for traditional classroom instruction, but rather as a supplementary tool that strengthens pronunciation

teaching. First, teachers are encouraged to identify learners' most frequent pronunciation problems and design AI-based practice tasks that specifically target these areas. Second, combining automated feedback with brief teacher-led reflection sessions (for example, short "check-and-correct" activities) can further enhance learning effectiveness. Third, it is recommended to integrate a variety of pronunciation activities, such as minimal pair exercises, shadowing techniques, short dialogues, and rhythm-based drills, as the combined development of segmental and suprasegmental features leads to faster improvement in overall comprehensibility. Fourth, regular progress monitoring through AI-generated scores, combined with teacher observations, can support learner motivation and ensure sustained engagement. Finally, when selecting AI platforms, factors such as accent recognition accuracy, the clarity of feedback, and data privacy protection should be carefully considered.

For future research, it is recommended to expand the sample size and extend the intervention period to 8–12 weeks in order to obtain more robust evidence of long-term effects. In addition, pronunciation outcomes should be evaluated not only through reading tasks and minimal pair tests, but also through authentic communicative activities, such as dialogues and spontaneous speaking tasks. Developing a localized corpus of Uzbek-accented English and further adapting AI feedback models to these specific phonetic characteristics may also contribute to more precise and effective pronunciation training in similar learning contexts.

REFERENCES

1. Sun W. The impact of automatic speech recognition technology on second language pronunciation and speaking skills of EFL learners: a mixed methods investigation // Frontiers in Psychology. 2023. Vol. 14. Art. 1210187. DOI: 10.3389/fpsyg.2023.1210187.

2. Amrate M., Tsai P.-h. Computer-assisted pronunciation training: A systematic review // ReCALL. 2025. Vol. 37, № 1. P. 22–42. DOI: 10.1017/S0958344024000181..pdf/computerassisted_pronunciation_trainin

3. Pardayeva S. Challenges of Teaching English Pronunciation to Uzbek Learners: A Case Study // Прикладные науки в современном мире: проблемы и решения. 2025. Т. 4, № 14. С. 90–97. DOI: 10.5281/zenodo.17157308.

4. Chen X., Mu J., Zhang T. Computer Assisted Pronunciation Training (CAPT): A Systematic Review of Studies from 2012 to 2021 // International Conference on Computers in Education (ICCE 2022): Proceedings. 2022. P. 575–580. URL: https://library.apsce.net/index.php/ICCE/article/view/4640

5. Ngo T. T.-N., Chen H. H.-J., Lai K. K.-W. The effectiveness of automatic speech recognition in ESL/EFL pronunciation: A meta-analysis // ReCALL. 2024. Vol. 36, No. 1. P. 4–21. DOI: 10.1017/S0958344023000113. URL: https://www.cambridge.org/core/services/aop-cambridge-core/content/view/A915444CF252B61D14961D2FE733822D/S0958344023000113a.pdf

6. 6.McCrocklin S., Levis J. Automatic speech recognition and pronunciation learning // Language Teaching. 2025. FirstView. P. 1–17. DOI: 10.1017/S0261444825100852.

7. Sayfullayeva N. S. O'zbek talabalari ingliz tili talaffuzidagi fonetik xatolar va ularni bartaraf etish yo'llari // Zamonaviy ta'lim muammolari va innovatsion yechimlar. 2022. № 4. B. 112–117. URL: https://scienceweb.uz/publication/english-pronunciation-uzbek-learners

8. Nguyen N. V., Vo T. T., Tran V. D. T. The Impact of SpeechAce on EFL Learners' Pronunciation and Speaking Performance // Computer-Assisted Language Learning Electronic Journal (CALL-EJ). 2025. Vol. 26, No. 3. URL: https://callej.org/index.php/journal/article/view/511

9. El Kheir Y., Ali A., Chowdhury S. A. Automatic Pronunciation Assessment – A Review // Findings of the Association for Computational Linguistics: EMNLP 2023. 2023. P. 8304–8324. URL: https://aclanthology.org/2023.findings-emnlp.557/

10. Kang Y., Wang L., Chen Y. Automatic pronunciation assessment with deep neural networks for second language learners // IEEE Transactions on Learning Technologies. 2022. Vol. 15, No. 4. P. 512–524. DOI: 10.1109/TLT.2022.3154892.

11. Li X., Xu J., Zhao Y. AI-based pronunciation training and its effects on EFL learners' oral performance // Frontiers in Education. 2023. Vol. 8. Art. 1198453. DOI: 10.3389/feduc.2023.1198453.

O‘ZBEK XALQ DOSTONLARIDA TARBIYAVIY QARASHLARNING SHAKLLANISHI VA MAZMUNI

Boboqulova Aziza Adizovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
1-bosqich tayanch doktoranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek xalq dostonlarida aks etgan tarbiyaviy qarashlar, ma’naviy-axloqiy g‘oyalar hamda ularning yosh avlod tarbiyasidagi o‘rni tahlil qilinadi. Xalq og‘zaki ijodining yirik janri bo‘lgan dostonlar orqali xalq pedagogik tafakkurining shakllanish jarayoni, undagi ustuvor qadriyatlar va ularning bugungi ta’lim-tarbiya tizimi bilan uzviy aloqasi yoritiladi.

Kalit so‘zlar: xalq pedagogikasi, doston, tarbiya, ma’naviyat, axloqiy qadriyatlar, og‘zaki ijod.

Annotation:This article analyzes the educational views, moral and ethical ideas reflected in Uzbek folk epics, as well as their role in the upbringing of the younger generation. The process of formation of folk pedagogical thinking through epics, the priority values embodied in them, and their close connection with the modern education system are highlighted.

Keywords: folk pedagogy, epic, upbringing, spirituality, moral values, oral folklore

Аннотация: В статье анализируются воспитательные взгляды, нравственно-этические идеи, отражённые в узбекских народных эпосах, а также их роль в воспитании подрастающего поколения. Освещается процесс формирования народной педагогической мысли через эпосы, приоритетные ценности, воплощённые в них, и их тесная связь с современной системой образования.

Ключевые слова: народная педагогика, эпос, воспитание, духовность, нравственные ценности, устное народное творчество

KIRISH. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatimizning muhim tarkibiy qismi bo‘lib, u asrlar davomida xalqning dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va tarbiyaviy qarashlarini o‘zida mujassam etib kelgan. Ayniqsa, xalq dostonlari yosh avlodni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi. O‘zbek xalq dostonlari asrlar davomida xalqning hayotiy tajribasi, axloqiy-me’yoriy qarashlari, ijtimoiy munosabatlari va tarbiyaviy tamoyillarini o‘zida mujassam etib kelgan. Dostonlar xalq pedagogikasining eng qadimiy va ta’sirchan shakllaridan biri bo‘lib, yosh avlodni jasoratli, vatanparvar, ma’naviy yetuk insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek xalq dostonlarida vatanparvarlik, mardlik, halollik, adolat, ota-onaga hurmat, do‘stlik va sadoqat kabi yuksak insoniy fazilatlar targ‘ib qilinadi. Ushbu asarlarda ijobiy qahramonlar obrazi orqali jamiyatda qabul qilingan axloqiy normalar va tarbiyaviy qarashlar ifodalanib, yoshlarni ezgulikka undash, yovuzlikdan qaytarish g‘oyasi ustuvor o‘rin egallaydi. Shu bois dostonlar xalq pedagogikasining muhim tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy o‘zlikni anglash, ma’naviy merosga tayanib tarbiya berish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda o‘zbek xalq dostonlarida mujassam bo‘lgan tarbiyaviy qarashlarni ilmiy jihatdan o‘rganish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish va zamonaviy ta’lim-tarbiya tizimiga tatbiq etish muhim vazifalardan biridir. Ayniqsa, “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li”, “Ravshan”, “Kuntug‘mish” kabi dostonlarda aks etgan tarbiyaviy g‘oyalar bugungi yoshlar ongini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.

Xalq pedagogikasi — bu xalqning asrlar davomida to‘plagan tarbiyaviy tajribasi bo‘lib, u og‘zaki ijod namunalari orqali avlodlarga yetkaziladi. Dostonlar esa xalq pedagogikasining eng mukammal ko‘rinishi hisoblanadi. Chunki ularda nafaqat tarbiyaviy g‘oya, balki ideal inson

obrazi, hayotiy vaziyatlar va axloqiy tanlovlar mujassam bo‘ladi.

O‘zbek xalq dostonlari ko‘pincha baxshilar tomonidan kuylanib, tinglovchilarga kuchli ruhiy-ta’sir ko‘rsatgan. Bu holat dostonlarning tarbiyaviy ta’sirini yanada kuchaytirgan. Ayniqsa, yoshlar doston qahramonlariga taqlid qilish orqali ijobiy fazilatlarni o‘zlashtirganlar.

Asosiy qism. O‘zbek xalq dostonlarida aks etgan tarbiyaviy qarashlar xalqning ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va ma’naviy dunyosi bilan uzviy bog‘liq holda shakllangan. Ushbu qarashlar tasodifiy emas, balki muayyan tarixiy sharoit, ijtimoiy ehtiyoj va xalqning hayotiy tajribasi mahsuli hisoblanadi. Dostonlar xalqning o‘ziga xos “ma’naviy xotirasi” bo‘lib, unda jamiyatning axloqiy talablari va tarbiyaviy me’yorlari mujassam etilgan.

Ibtidoiy va qadimgi davr ijtimoiy qarashlarining ta’siri. O‘zbek xalq dostonlarining ildizlari qadimgi turkiy qabilalar hayoti bilan bog‘liq. Ushbu davrda jamiyatning asosiy tayanchi urug‘ va qabila bo‘lib, jamoaviylik, bir-birini qo‘llab-quvvatlash, jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish asosiy ijtimoiy tamoyil sifatida qaralgan. Bu holat dostonlarda qahramonning el-yurt uchun kurashishi, yolg‘iz emas, balki xalq bilan birga harakat qilishi tarzida ifodalanadi.

Qadimgi davr ijtimoiy hayotida jasorat, jismoniy kuch va harbiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etgan. Shu bois dostonlarda botirlik, mardlik va dushmanga qarshi kurash tarbiyaviy ideal darajasiga ko‘tarilgan.

Mehnat faoliyati va turmush tarzining ta’siri. Xalqning asrlar davomida shakllangan turmush tarzi — dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilik bilan bog‘liq faoliyati dostonlardagi tarbiyaviy qarashlarning muhim ijtimoiy asosini tashkil etadi. Mehnat jarayoni orqali halollik, sabr-toqat, matonat va mehnatsevarlik kabi fazilatlar qadrlangan.

Dostonlarda qahramonning og‘ir sinovlardan o‘tishi, uzoq yo‘llarni bosib o‘tishi va mashaqqatlarga bardosh berishi mehnat jarayoniga xos bo‘lgan ruhiy chiniqishning badiiy ifodasidir. Bu orqali yosh avlod mehnatning tarbiyaviy ahamiyatini anglaydi.

Tarixiy kurashlar va vatanparvarlik g‘oyasi. O‘zbek xalqining tarixiy taraqqiyoti davomida turli bosqinchiliklar, ichki ziddiyatlar va ijtimoiy adolatsizliklar mavjud bo‘lgan. Ana shunday tarixiy sharoitlar dostonlarda vatanparvarlik, adolat va erkinlik uchun kurash g‘oyalarining shakllanishiga sabab bo‘lgan.

Doston qahramonlari ko‘pincha zulmga qarshi chiqqan, el-yurt tinchligi va mustaqilligi uchun jon fido qilgan shaxslar sifatida tasvirlanadi. Bu holat xalq ongida vatan himoyasi oliy axloqiy burch ekanligi haqidagi tarbiyaviy qarashni mustahkamlagan.

Oilaviy munosabatlar va ijtimoiy tarbiya. O‘zbek xalq dostonlarida oilaning jamiyatdagi o‘rni alohida ta’kidlanadi. Ota-ona hurmati, aka-uka, opa-singil munosabatlari, nikoh va oila muqaddasligi dostonlarda ijtimoiy-tarbiyaviy me’yor sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning muhim qarorlarni ota-onasi roziligi bilan qabul qilishi xalq tarbiyasida oila bosh omil ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek xalq dostonlarida aks etgan tarbiyaviy qarashlar bevosita xalqning tarixiy hayoti va ijtimoiy munosabatlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Ularning asosiy manbalari quyidagilardan iborat:



O‘zbek xalq dostonlarida bosh qahramonlar ma’naviy barkamol inson sifatida tasvirlanadi. Ular nafaqat jismonan kuchli, balki ruhan pok, adolatparvar va vatanparvar bo‘ladi.

“Alpomish” va “Go‘ro‘g‘li” turkumidagi dostonlarda tarbiyaviy g‘oyalar

“Alpomish” dostonida tarbiyaviy g‘oyalar	“Go‘ro‘g‘li” turkumidagi tarbiyaviy qarashlar
• Vatanga sadoqat va mardlik	• Zulmga qarshi kurashish
• Ota-ona roziligini ustun qo‘yish	• Kambag‘al va zaiflarni himoya qilish
• Va’daga vafo va so‘zida turish	• Jamoa manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo‘yish kabi fazilatlarni yosh avlod ongiga singdirgan.
• Dushmanga nisbatan qat’iyat, do‘stga sadoqat	• Mardlik

Alpomishning sinovlarga bardosh berishi yoshlarni sabr-toqat va irodalilikka o‘rgatsa, “Go‘ro‘g‘li” dostonlar turkumida jamoaviylik, adolat va yetakchilik g‘oyalari kuchli ifodalangan.

O‘zbek xalq dostonlarida ayol obrazlari ham yuksak tarbiyaviy ahamiyatga ega. Barchinoy, Oybarchin, Qaldirg‘ochoyim kabi obrazlar:

- Aql-zakovat;
- Sadoqat;
- Matonat;
- Oilaga sodiqlik kabi timsollar sifatida gavdalanadi.


Bu obrazlar orqali qiz bolalarni irodali, ma’naviy yetuk va vafodor bo‘lib ulg‘ayishiga undovchi tarbiyaviy g‘oyalar ilgari suriladi.

Xalq dostonlarida axloqiy tarbiya masalalari markaziy o‘rin tutadi. Halollik, adolat, insonparvarlik, kattaga hurmat va kichikka izzat kabi tushunchalar syujet davomida doimiy ravishda takrorlanadi. Yovuzlik, xiyonat va ochko‘zlik esa keskin qoralanadi.

Bu qarama-qarshiliklar orqali yoshlar ongida axloqiy mezonlar mustahkamlanadi.

Xulosa

Bugungi globallashuv davrida milliy tarbiyani mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘zbek xalq dostonlaridan:



samarali foydalanish yoshlarning milliy o‘zligini anglashiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalq dostonlari xalqning tarbiyaviy qarashlari shakllangan boy ma’naviy manba hisoblanadi. Ularda aks etgan g‘oyalar — vatanparvarlik, axloqiy poklik, mehnatsevarlik va adolat — bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Xalq dostonlarini ta’lim-tarbiya jarayoniga keng joriy etish yosh avlodni ma’naviy barkamol inson etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.

2.Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997.

3.Mirzayev T., Sarimsoqov B., Musoqulov A. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2010.

4.Imomov K. O‘zbek xalq dostonlari va ularning badiiy xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1976

5.Jo‘rayev M. Xalq dostonlari poetikasi. – Toshkent: Fan, 2004.

6.Alpomish. O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: Sharq, 2019.

7.Go‘ro‘g‘li. O‘zbek xalq dostonlari turkumi. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2015.

8.Kuntug‘mish. O‘zbek xalq dostoni. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017.

9.Qayumov A. O‘zbek adabiyoti tarixi (xalq og‘zaki ijodi). – Toshkent: O‘qituvchi, 1998.

O‘ZBEK BOLALAR FOLKLORSHUNOSLIGINING NAZARIY YO‘NALISHLARI

O‘rinova Maftuna No‘mon qizi,
BuxDPI o‘qituvchisi
Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek bolalar folklorshunosligining shakllanishi va rivojlanishida muhim o‘rin tutgan nazariy yo‘nalishlar tahlil qilinadi. Unda bolalar folklorini o‘rganishga oid folklor nazariyasi, folklor tarixi, matnshunoslik, qiyosiy-tipologik, tarixiy, mifologik, etnofolkloristik hamda metodologik yo‘nalishlarning ilmiy ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, bolalar folklorining janr tizimi, genezisi, badiiy tafakkuri, ijro xususiyatlari va xalqning tarixiy-madaniy hayoti bilan bog‘liqligi masalalari ilmiy asosda ko‘rib chiqiladi. Maqolada bolalar folklorini zamonaviy ilmiy metodlar asosida tadqiq etish zarurati asoslanib, ushbu sohada olib borilgan tadqiqotlar tahlili orqali istiqboldagi ilmiy izlanishlar uchun muhim xulosalar chiqariladi.

Kalit so‘zlar: bolalar folklori, bolalar folklorshunosligi, nazariy yo‘nalishlar, janr tizimi, matnshunoslik, mifologik yo‘nalish, tarixiy yo‘nalish, qiyosiy-tipologik yo‘nalish, etnofolkloristika.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ НАПРАВЛЕНИЯ УЗБЕКСКОГО ДЕТСКОГО ФОЛЬКЛОРОВЕДЕНИЯ

Уринова Мафтуна Нумон кизи,
Преподаватель БГПИ
Кандидат филологических наук (PhD)

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические направления, сыгравшие важную роль в формировании и развитии узбекского детского фольклористического исследования. Освещается научная значимость различных подходов, включая теорию фольклора, историю фольклора, текстологию, сравнительно-типологические, исторические, мифологические, этнофольклористические и методологические направления в изучении детского фольклора. Кроме того, рассматриваются жанровая система, генезис, художественное мышление, особенности исполнения детского фольклора и его связь с историко-культурной жизнью народа. Обосновывается необходимость исследования детского фольклора с использованием современных научных методов, а анализ существующих исследований позволяет сделать важные выводы для будущих научных изысканий.

Ключевые слова: детский фольклор, детское фольклористическое исследование, теоретические направления, жанровая система, текстология, мифологическое направление, историческое направление, сравнительно-типологический подход, этнофольклористика.

THEORETICAL DIRECTIONS OF UZBEK CHILDREN’S FOLKLORE STUDIES

Urinova Maftuna,
Lecturer at Bukhara State Pedagogical Institute
Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Annotation. This article analyzes the theoretical directions that have played a significant role in the formation and development of Uzbek children’s folklore studies. It highlights the scientific importance of various approaches, including folklore theory, folklore history, textology, comparative-typological, historical, mythological, ethnofolkloristic, and methodological directions in studying children’s folklore. In addition, the article examines the genre system, genesis, artistic thinking, performance features of children’s folklore, and its connection with the historical and

cultural life of the people. The necessity of studying children's folklore using modern scientific methods is substantiated, and the analysis of existing research provides important conclusions for future scholarly investigations.

Keywords: children's folklore, children's folklore studies, theoretical directions, genre system, textology, mythological approach, historical approach, comparative-typological approach, ethnofolkloristics.

O‘zbek bolalar folklori xalq og‘zaki ijodining tarkibiy qismi sifatida vujudga kelib, ming yillar davomida yangi-yangi bo‘yoqlar va shakllarda rivojlanishda, o‘sishda davom etgan hamda bugunga qadar boyib kelayotgan yaxlit bir tizim hisoblanadi. Unda janrlar xilma-xilligi, asarlar rang-barangligi muhim o‘rin tutadi. Aynan shu turfalikning o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali uning ilmiy-nazariy asoslarini belgilash mumkin bo‘ladi.

Bolalar og‘zaki ijodi ham umumfolklorning barcha xususiyatlarini o‘zida aks ettiradi. Shunga ko‘ra, jamoaviylik, anonimlik, og‘zakilik, an’anaviylik, variantlilik va versiyalilik bolalar folklori uchun ham xos.

Xalq og‘zaki ijodining barcha tur va janrlarini tadqiq etuvchi ilmiy-tadqiqot yo‘nalishlari mavjudki, ularni bolalar folklori doirasida ham qo‘llash mumkin:

1. Folklor nazariyasi.
2. Folklor tarixi.
3. Folklor matnshunosligi.
4. Folklorni to‘plash va sistemalashtirish.
5. Folklor arxivini kompyuterizatsiyalash.
6. Folklor va professional san’atning o‘zaro munosabati.
7. Folkloristik tadqiqotlar metodologiyasi.
8. Folklorshunoslik tarixi .

Bolalar folklori nazariyasi bolalar og‘zaki ijodining o‘ziga xos xarakter-xususiyatlari, uning tur va janrlari, uslubi, poetikasining nazariy asoslarini o‘rganadi. Shuningdek, bolalar poetik ijodida syujet, motiv, obraz masalasi, o‘zbek bolalar folklorining milliy, hududiy va jahon bolalar og‘zaki ijodi bilan o‘xshash xususiyatlarini tekshiradi.

Bolalar folklorida badiiy tafakkur bola tafakkuri hamda kattalar tafakkuri kabi ikki xil bo‘ladi. Bu badiiy tafakkur taraqqiyotining o‘ziga xos qonuniyatlarini aniqlash, unga xos an’anaviylik va badihago‘ylik tabiatini yoritish; o‘zbek xalq bolalar folklorining turkiy xalqlar folklori kontekstidagi o‘rni va roli; tipologiyasi; ijrochiligi va ijodkorligi; bolalar folklori asarlarining til xususiyatlari, lingvofolkloristika, etnolingvistika; bolalar folklori va mifologiya; jahon bolalar folklorshunosligi terminologiyasi va o‘zbek tilining ichki imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda bolalar folklori atamalarini boyitib borish; o‘zbek bolalar folklori bo‘yicha maktabgacha va maktab ta’limi, oliy o‘quv yurtlari uchun dastur, darslik, o‘quv qo‘llanma va majmualar yaratish bolalar folklori nazariyasi yo‘nalishida amalga oshiriladi.

Bolalar folklori tarixi bolalar folklori tarixini yaratish; uning janrlari, beshik qo‘shiqlari, bolalar taqvimi bilan bog‘liq qo‘shiqlar, o‘yin va uning qismlari, obrazlarining genezisini aniqlash; bolalar ijodining verbal, musiqiy va boshqa shakllarga xos taraqqiyot bosqichlarini yoritish, badiiy tafakkurning shakllanishiga asos bo‘lgan arxaik folklorni qayta tiklash; mifologiya hamda bolalar folklori munosabatlarini asoslash; bolalar poetik ijodi janrlari (alla, aytim-olqish, erkalama, ovutmachoqlar, qiziqmachoq, taqvim bilan bog‘liq qo‘shiqlar, yalinchok, hukmlagich, bolalarning maishiy qo‘shiqlari (hazil qo‘shiqlar: masxaralama, tegishmachoq), o‘yin va unga daxldor poetik muqaddimalar, cheklashmachoq, chorlama, sanama, tarqalmachoq, tez aytish, topishmoq, guldurgup, qo‘rqitmachoqni yaxlit tizim sifatida o‘rganish; bolalar folklorining muayyan janrlarini tadqiq etuvchi “etnofolkloristika”, “etnolingvistika”, “bolalar folklori va ma’naviy taraqqiyot”, “postfolklor” yo‘nalishlarini taraqqiy ettirish; bolalar folklorida “postfolklor”ning o‘ziga xos

xususiyatlarini ochish, tarixiy-folkloriy jarayon qonuniyatlarini o‘rganish, bolalar folklori janrlarining tarixiy taraqqiyoti masalasini yoritish; an’anaviy va postfolklor janrlarini qiyosiy tadqiq etish, folklor aloqalari va bolalar og‘zaki poetik ijodidagi janrlararo munosabatlarni tahlil qilish; bolalar folklorini madaniy, tarixiy, etnografik muhitning bir qismi sifatida o‘rganish; mustaqillik davri o‘zbek bolalar og‘zaki poetik ijodini tadqiq qilish; bolalar folklorining ma’naviy va madaniy taraqqiyotdagi o‘rnini aniqlash kabi masalalarni yoritadi.

Bolalar folklori matnshunosligida bolalar folklori asarlari matnining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish birlamchi masala hisoblanadi. Manbalarda xalq og‘zaki ijodi asarlari matni uchun variant, versiya, arxetip, invariant, gipermatn kabilar xosligi ta’kidlangan. Bolalar folklori matnlari ham shu jihatdan o‘rganilsa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Shuningdek, muayyan matnni bolalar folklori namunasi ekanligini aniqlash uslubi va ilmiy mezonlarini ishlab chiqish; to‘plangan materialni nashr etish prinsiplari yaratish; bolalar folklori asarlarining ko‘p jildli, ommabop, ilmiy va o‘quv nashrlarini tayyorlash, nashr qilingan bolalar folklori asarlari matni ustida tekstologik tadqiqotlarni amalga oshirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Bolalar folklorini to‘plash va sistemalashtirish bolalar folklorining barcha tur va janrlariga oid asarlarni to‘plash va arxivlashtirish, uning lokal xususiyatlari, maktab folklori, postfolklor, folklorizmlashish jarayoni; bolalar ijodining so‘z san’ati sifatidagi xususiyatlari; uni filologik jihatdan tasniflash va sistemalashtirish; bolalar folklorining marosimga bog‘liq va marosimga aloqasi bo‘lmagan janrlarini aniqlash; lirik, epik, dramatik turga mansub janrlarni ochiqlash; materiallarni to‘plashda audio-video, raqamli yozuv texnologiyalarini tatbiq qilish; janrlar bo‘yicha ko‘rsatkich tuzish; areal-hududiy ko‘rsatkichlar tayyorlash; bolalar qo‘shiqlari bo‘yicha ko‘rsatkich tuzish, harakatli va ma’naviy o‘yinlar ko‘rsatkichini tuzish; kompyuter texnologiyasi asosida bolalar folklorini sistemalashtirish prinsiplari yaratish masalalarini tekshiradi.

Bolalar folklori arxivini kompyuterizatsiyalash zamonaviy texnologiyalar asosida bolalar folklori namunalarini yozib olish, to‘plash va arxivlashtirish jarayonini takomillashtirish; bolalar folklorini jonli ijro holatida audio va video yozuvdan foydalangan holda yozib olishni amaliyotga tatbiq etish hamda sistemalashtirish; oliy o‘quv yurti filologiya fakultetida tahsil olayotgan talabalarning amaliyotga chiqishi uchun yangi anketa, so‘rovnoma va dasturlar ishlab chiqish; bolalar folklori materiallarini tizimlashtirish bo‘yicha kompyuter dasturlari yaratish, folklor arxivida mavjud bo‘lgan bolalar folklorini ilmiy tavsiflash; o‘zbek bolalar folklorining elektronlashtirilgan fondini yaratish kabi vazifalarni bajaradi.

Bolalar folklori va professional san’atning o‘zaro munosabati folklor va san’atning boshqa turlari (musiqa, rangtasvir, xoreografiya, dramaturgiya), shuningdek, yozma adabiyot va xalq og‘zaki ijodi o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Bunda bolalar folklori va folklorizm masalasi, folklorizmlar tasnifi va tipologiyasi, hozirgi bolalar adabiyotida bolalar folklori an’analarining o‘rni; teatrlashtirilgan maydon tomoshalarida bolalar o‘yin folklori janrlari talqini masalasi ham aniqlashtiriladi.

Bolalar folkloriga oid tadqiqotlar metodologiyasi bolalar og‘zaki badiiy ijodini tadqiq qilish metodlarini qiyosiy o‘rganish; jahon bolalar folklorshunosligining yetakchi ilmiy maktablari va ularning nazariyalaridan foydalanish; tavsifiy, kartografik, qiyosiy-tipologik, qiyosiy-tarixiy, struktural kabi folklorni o‘rganish metod va usullari; bolalar folklori va uni o‘qitish muammolari; bolalar folklorshunosligining bolalar adabiyoti, jismoniy madaniyat, san’atshunoslik, tarix, madaniyatshunoslik, falsafa kabi yondosh fanlar bilan integratsiyasini chuqurlashtirish masalalarini tadqiq qiladi.

Bolalar folklorshunosligi tarixi bolalar og‘zaki poetik ijodini o‘rganuvchi fanning hamda folklorni yozib olish, to‘plash, nashr qilish va o‘rganish tarixini yaratish; Mahmud Koshg‘ariy, Ibn Sino, Beruniy, Alisher Navoiy kabi olim va adiblarning bolalar folklori asarlarini yozib olish borasida amalga oshirgan xizmatlari; XIX asr oxiri – XX asr boshlarida N.P. Ostroumov, N. va M. Nalivkinlar, A. Vasilev, M.S. Andreyev, Y.M. Peshcherova va boshqalar tomonidan o‘zbek bolalar folklorining to‘planishi va o‘rganilishini tahlil qilish; G‘. Jahongirov, O. Safarov, Sh. Galiyev ilmiy ijodi va

ularning bolalar folklorshunosligiga qo‘shgan hissasini dalillash, bolalar folklorshunosligining shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganish, taniqli bolalar folklorshunoslarining hayoti va ijodini tadqiq etish; mustaqillik davri o‘zbek bolalar folklorshunosligining o‘ziga xos jihatlarini yoritish; bolalar folklorshunosligiga oid manbalar va ilmiy adabiyotlar bibliografiyasini tuzish kabi masalalarni tekshiradi.

Bugungi kunda bolalar folklorshunosligini turli yondosh fanlar nazariyasi asosida tadqiq qilish an’anaga aylanmoqda. Folklorshunoslikning xalq ijodini etnografik va folkloristik aspektda tekshiruvchi “etnofolkloristika” yo‘nalishi, o‘zbek tilidagi urf-odat, marosim, turli e’tiqodlar bilan bog‘liq bo‘lgan dialektizmlarni etnofolkloristik jihatdan o‘rganuvchi “etnolingvistika” yo‘nalishi, xalq og‘zaki badiiy ijodi namunalarining til xususiyatlarini tadqiq etuvchi “lingvofolkloristika” kabi yo‘nalishlari bolalar folkloriga ham daxldorligini ko‘rish mumkin.

Bolalar folkloriga doir tadqiqotlarni o‘rganish jarayonida uning mifologik, tarixiy, qiyosiy-tipologik, antropologik, areal (regional), etnofolkloristik, poetik, sotsiofolkloristik kabi nazariy yo‘nalishlari ham mavjudligi aniqlandi.

Mifologik yo‘nalish. Ma’lumki, folklorshunoslikda o‘ziga xos ilmiy yo‘nalish sifatida “mifologik maktab” nazariyasi ajratib ko‘rsatiladi. Bu yo‘nalishning yaratilishida B. Fontenel, F. Shelling, A. Shlegel, L. Arnim, V. Grimm, Y. Grimm kabi olimlarning xizmati katta bo‘lgan. Mif dastlabki odamlarning borliq, tabiat haqidagi primitiv tasavvurlari yig‘indisi bo‘lib, asosan, og‘zaki ijro, so‘z orqali hikoya qilib berilgan. Insoniyat tafakkurining ilk bosqichi sifatida qaralgan mifologiya badiiy tafakkurning boshlanishi hisoblanadi. Qadimgi miflarning muhim xususiyati shundaki, voqelikni so‘z vositasida idrok qilish an’anaga aylangach, ularning katta qismi o‘zbek xalq og‘zaki badiiy ijodidagi ko‘plab janrlar genezisiga asos bo‘lgan. Folklor asarlaridagi mifologik syujet, motivlar tarixiy-qiyosiy jihatdan o‘rganilganda, ertak, afsona, topishmoq, doston kabi janrlar mifologiyadan oziqlangani isbotlangan. Bolalar folklorining ba’zi janrlari ham kelib chiqishi jihatidan miflarga borib taqaladi.

Tarixiy yo‘nalish. XIX asrning oxiri – XX asrning boshlarida folklor asarlarini tarixiy voqelik bilan bog‘liq holda o‘rganish zarurati yuzaga chiqdi. Shu bois folklorshunoslikda “tarixiy maktab” nazariyasi paydo bo‘ldi. Natijada folklor genezisi hayotiy voqelik, tarixiy davr, tarixiy faktlar asosida o‘rganila boshlandi. Tarixiy-folkloriy jarayonning xalq badiiy tafakkuri taraqqiyotida muhim o‘ringa egaligi oydinlashdi. “Tarixiy maktab” yo‘nalishi rivojida A.N. Veselovskiy, L.N. Maykov, V.F. Myuller kabi olimlarning tadqiqotlari muhim hissa qo‘shdi.

Bolalar folklorining aksariyat janrlari tabiatini tavsiflashda asosiy manba xalq turmush tarzi ekanligidan kelib chiqish lozim. Biz ushbu ilmiy mezon asosida alla, o‘yin, sanama kabi qadimiy janrlarga murojaat qildik. Ularning genezisi tarixiy davr va tarixiy voqelik bilan aloqadorligini asoslashga urindik. Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk” asarida o‘yin va alla bilan bog‘liq atamalarning berilishi ushbu janrlarning qadimiyligini dalillaydi. Demak, “Devonu lug‘otit turk” asarini tarixiy yo‘nalishdagi ish sifatida e’tirof etish mumkin bo‘ladi.

Folklorshunos O. Safarov dissertatsiyasida rus allalarini tadqiq qilgan olim A. Vetuxovning quyidagi fikri keltirilgan: “Ona o‘zining tug‘ma sezgirligi bilan bola uchun faqat qo‘shiq kerakligini… tinchlantiruvchi, yorqin va monoton qo‘shiq kerakligini angladi. Shu zaylda alla shakli yuzaga keldi. O‘sha onalik sezgilari allalarning qanday mazmunga ega bo‘lishini aytib turdilar: unda onalik qalbida qanday ko‘tarinkilik bo‘lsa – hammasi bor”. Demak, alla janri ona va bola munosabatlari kabi qadimiy bo‘lib, hayotiy voqelik asosida yuzaga kelgan. Shunga ko‘ra alla tadqiqiga bag‘ishlangan ilmiy ishlarni tarixiy yo‘nalishga kiritish o‘rinli bo‘ladi. Jumladan, M. Yo‘qubbekovaning alla janri tabiati va poetikasiga doir ilmiy tadqiqotini shunday ishlar sirasiga kiritish mumkin.

Qiyosiy-tipologik yo‘nalish. Folklor namunalari qiyosiy-tipologik, kartografik, struktural tahlil kabi metodlar asosida turli aspektlarda tadqiq qilinadi. Folklorshunoslikning qiyosiy-tipologik metodi orqali bolalar folklorini ham o‘rganish mumkin. Bu jarayon, ayniqsa, XXI asrda jadal tus

ola bordi. Bolalar folklorshunosligida ham shu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar yaratildi. Jumladan, Temirova Jamila Hasanovnaning “Rus va o‘zbek bolalar o‘yin folklori tipologiyasi” mavzusida yozilgan dissertatsiyasini qiyosiy-tipologik yo‘nalishdagi ishlar sirasiga kiritish mumkin. Unda rus va o‘zbek bolalar o‘yin folklorining genezisi, rivojlanish omillari, janrlar tizimi, syujet tarkibi, tipologik xususiyatlari hamda ijro usullari qiyosiy-tipologik jihatdan tahlil qilingan.

Tadqiqotchi ikki xalq o‘yin folklorini o‘rganar ekan, ulardagi mushtarak va farqli jihatlarni aniq chegara bilan ko‘rsatadi. Masalan: “… rus va o‘zbek bolalari repertuarida o‘yin bilan bog‘liq janrlar yaxshi saqlanganligi aniqlandi. Uning tarkibiy jihatini o‘rganish jarayonida ularning bir qator o‘xshash darajalari aniqlandi. Jumladan, rus va o‘zbek an’anaviy o‘yinlari tarkibiga o‘yin muqaddimasi (chorlamalar, sanamalar va naqarotlar), o‘yin yakuni kiradi”.

Shuningdek, tadqiqotchi “chorlama” va “golosyanka” o‘rtasidagi funksional farqni ham ko‘rsatadi.

Yuqorida ajratib ko‘rsatilgan o‘zbek bolalar folklorshunosligining nazariy yo‘nalishlari shartli ekanligini ta’kidlash joiz. Folklorshunoslikning ushbu sohasi kengayib, ilmiy yangilik va izlanishlar asosida takomillasha borishi muqarrar. Bu esa o‘zbek bolalar folklorshunosligi maktabida yillar davomida yaratilib, badiiy jihatdan sayqallanib kelgan va hozirga qadar o‘zining jonli ijro holatiga ega bo‘lgan o‘zbek bolalar poetik ijodini o‘rganish borasida yangi fundamental tadqiqotlar yuzaga kelishiga sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Жаҳонгиров Ғ. Ўзбек болалар фольклори. – Тошкент:Ўқитувчи, 1975. – Б. 8.
2. Сафаров О. Ўзбек болалар адабиёти ва фольклори. – Бухоро: Бухоро, 2007. – Б. 96.
3. Mevlut O‘zhan. Çocuk folkloru. Kebikeç/19. – Ankara, 2005. – S. 225-229.
4. Галиев Ш. Ўзбек болалар ўйин фольклори: Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 1998. – Б. 15.
5. Рўзметов Ҳ. Хоразм болалар фольклори(локал хусусиятлари, таснифи ва бадиияти): Филол. фан. номз. ...дисс. – Тошкент, 2005. – Б. 11.
6. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 1-жилд. – Тошкент : Фан, 1960. – Б. 452
7. Жўраев М. Фолклоршунослик асослари. – Тошкент: Фан, 2009. – Б.15-20.

O‘ZBEK ADABIY TILIDA KO‘PLIK MA’NOSINING IFODALANISHI VA TEJAMKORLIK

Safarov Firuz Sulaymonovich,
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc),
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya. Maqolada o‘zbek adabiy tilida ko‘plik ma’nosining donalab sanaladigan otning o‘zak, negizi orqali ifodalanishi orqali ifodalanishi bayon qilinadi. Donalab sanaladigang otning o‘zak,negizi ko‘plikning ko‘rinishlari: ikkilik, ikkidan ortiq aniq miqdor, noaniq bo‘linuvchan ko‘plik, jamlik, umumiylik ma’nolariga betaraf bo‘lganidan mazkur ma’nolarni qulay vosita yordamida ifodalaydi. Otning o‘zak, negizi qulay vosita yordamida ko‘plikni bildirganda ta’kid nazarda tutilmaganda -lar qo‘shimchasi tejaladi. Biroq hozirgi kunda ilmiy matn, matbuot, televideniyeda tejamkorlikka rioya qilinmayapti. Maqolada -lar qo‘shimchasining ortiqcha, noo‘rin qo‘llanish holatlari ham tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: son-miqdor kategoriyasi, birlik, ko‘plik, ikkilik, ikkidan ortiq aniq miqdor, noaniq bo‘linuvchan ko‘plik, jamlik, umumiylik, -lar qo‘shimchasi tejamkorlik, nutqning sofligi, adabiy me’yor.

ВЫРАЖЕНИЕ ЗНАЧЕНИЯ МНОЖЕСТВЕННОСТИ В УЗБЕКСКОМ ЛИТЕРАТУРНОМ ЯЗЫКЕ И ЭКОНОМИЯ

Аннотация. В статье описывается выражение значения множественного числа в узбекскомлитературномязыкепосредствомкорняиосновыисчисляемогосуществительного. Поскольку оно нейтрально к видам значения множественности: двойственности, точному количеству более двух, неопределенную делимую множественность, собирательности, общности, то оно выражает эти значения с помощью удобного средства. Когда корень и основа имени существительного выражет множественность с помощью удобного средства, если множественность не подчёркивается, аффикс -лар экономится. Однако сегодня в научных текстах, прессе и телевидении не соблюдется экономии. В статье также анализируются случаи чрезмерного и неуместного употребления суффикса -лар.

Ключевые слова: категория числа-количества, единственное число, множественное число, двойственность, точное количество более двух, неопределенная делимая множественность, собирательность, общность, аффикс -лар, экономия, чистота речи, литературная норма.

EXPRESSING THE MEANING OF PLURALITY IN THE UZBEK LITERARY LANGUAGE AND ECONOMY

Abstract. The article describes the expression of the meaning of the plural in the Uzbek literary language through the root and stem of a countable noun. Since it is neutral to the types of meaning of plurality: duality, exact quantity more than two, indefinite divisible plurality, collectivity, generality, it expresses these meanings using a convenient device. When the root and stem of a noun expresses plurality by a convenient means, if plurality is not emphasized, the affix -lar is saved. However, today, in scientific texts, the press and television, economy is not observed. The article also analyzes cases of excessive and inappropriate use of the suffix -lar.

Key words: category of number-quantity, singular number, plural number, duality, exact quantity more than two, indefinite divisible plurality, collectivity, generality, affix -lar, economy, purity of speech, literary norm.

Kirish. Maqolada son-miqdor ma’nosini bildiruvchi vositalar ma’nodoshligi tahlil qilinadi.

Chunki so‘z va qo‘shimcha ma’nodoshligi son-miqdor bildiruvchi vosita¬lar orasida ham mavjud. Jumladan otda ko‘plik ma’nosi lug‘aviy vosita (birdan katta son, hisob so‘z, miqdor olmoshi, sifatning o‘zak, negizi, ravishning o‘zak, negizi, fe’lning o‘zak, negizi, ibora) yordamida yoki qo‘shimcha (-lar) orqali ifodalanadi: ikkita qalam, bir quchoq gul, hamma talaba, sanoqsiz yulduz, ko‘p odam; qalamlar, gullar, talabalar, yulduzlar, odamlar. Misollardan ko‘rinib turibdiki ko‘plik ma’nosi lug‘aviy vositadan anglashilganda otga -lar qo‘shil-maydi. Bu ko‘plik bildiruvchi so‘z (lug‘aviy vosita) va qo‘shimcha (morfologik vosita) orasida ma’nodoshlik borligini ko‘rsatadi. Ma’nodosh vositalarning qo‘l-lanishi gap, matnning hissiy-nohissiyligi aniqrog‘i ko‘plik¬ning ta’kidlab ta’kid¬lan¬-masligi bilan bog‘liq. Ko‘plikni ta’kidlash nazarda tutilmasa lug‘aviy vositaning o‘zi yetarli bo‘lib qo‘shimcha qo‘llanmaydi. Demak bu holda so‘z emas, qo‘-shimcha tejaladi. Hissiy bayonda ya’ni ko‘plikni ta’kidlash nazarda tutilganda lug‘aviy vosita bilan birga morfologik vosita (-lar) ham qo‘llanadi. Bunday holda qo‘shimcha konnotatsiya ifodalashga xizmat qiladi. Ko‘plikni ta’kidlash zarur bo‘lmaganda otga qo‘shimcha qo‘shilsa ortiqcha, noo‘rin qo‘llangan bo‘ladi. Bunday holda adabiy me’yor buzilib estetik omilga putur yetadi, nutq g‘alizlashib tilimizning ko‘rki zaiflashadi. Shunga ko‘ra bu faslda badiiy, ilmiy, publitsistik, rasmiy uslubdagi matnlarda qo‘shimchaning o‘rinli-noo‘rin qo‘llanishi ham tahlil qilinadi.

Ushbu mavzuda son-miqdor ma’nosi funksional-semantik kategoriya tarzida o‘rganiladi. Bu atama umumiy ma’noga ega bo‘lib o‘zaro munosabatga kirisha-digan muayyan vositalar sistemasini bildiradi [2; 3; 4; 5]. Masalaga funksional-semantik kategoriya tarzida yondashilganda son-miqdor ma’nosini ifodalovchi lisoniy vosita hamda g‘ayrilisoniy omilning barchasi qamrab olinadi. Bu esa funksional yondashuvning zaruriy shartidir

Asosiy qism. Donalab sanaladigang otning o‘zak, negizi birlik va ko‘plik (ikkilik, ikkidan ortiq aniq miqdor, noaniq bo‘linuvchan ko‘plik, jamlik, umumiylik) ma’nolariga betaraf bo‘lganidan mazkur ma’nolarni qulay vosita yordamida ifodalaydi.

Ko‘plik ifodalanishiga quyidagi vositalar qulaylik tug‘dirdi.

Ikki va undan katta sanoq son va jamlovchi son aniq ko‘plik ifodalanishiga qulaylik tug‘diradi: ikki bola, ikkita kalit, uch kishi, yigirmata uy, to‘rtala nomzod.

Mavjudotning donalab sanalishini konkretlashtirish uchun son bilan hisob so‘z ishlatiladi: ikki dona anor, uch nusxa kitob, besh nafar yigit. Hisob so‘z ayrim holda mavjudotni aniqshtirib ko‘rsatishga ham xizmat qiladi. Masalan o‘zbek tilida o‘simlik nomi ham o‘simlikning o‘zini ham uning mevasini bildiradi. Shuning uchun o‘simlikning o‘zini ko‘rsatish uchun boshqa hisob so‘z, mevasini anglatish uchun boshqa so‘z ishlatiladi: to‘rt tup anjir – to‘rt dona anjir. Bu misollarda ko‘plik ma’nosi uchun qulaylik so‘z birikmasida vujudga kelyapti. Demak bunday birikmalar donalab sanaladigan otda aniq ko‘plik namoyon bo‘lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

Ikki va undan katta son ko‘plikni bildirganidan bunday son bilan -lar qo‘shim-chasi orasida ma’nodoshlik mavjud. Biroq bu ma’nodosh vositalar ifodalaydigan ko‘plik bir-biridan farq qiladi: son aniq ko‘plikni, -lar esa noaniq ko‘plikni bil-diradi. Shuning uchun donalab sanaladigan ot oldidan aniq miqdorni bildiruvchi sanoq, dona son kelganda nohissiy bayonda ham hissiy bayonda ham -lar ishla-tilmaydi. Bu fikrni A. Qahhor asarlarining statistik tahlili ham tasdiqlaydi. Bunday birikmaning yozuvchi asarlarida uchrash miqdori quyidagi jadvalda ko‘rsatilgan.

So‘z birikmasi	Qo‘shchinor chiroqlari	O‘tmishdan ertaklar	Sinchalak	Sarob	Muhabbat
sanoq, dona son + sanaladigan ot	52	28	15	9	7

Bularning birortasida otga -lar qo‘shilmagan. Namuna tariqasida bir nechta misol keliramiz: to‘rtta behi (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari); qirq yigit (A. Qah¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬¬hor, Qo‘shchinor chiroqlari); sakkiz ayol, to‘rtta non (A. Qahhor, O‘t-mish¬dan ertaklar); yigirmata uy, o‘n bir kishi, to‘rtala nomzod (A. Qahhor, Sinchalak); ikkita stol, yetti kishi (A. Qahhor, Sarob); ikkita eski ko‘ylak, uchta farzand (A. Qahhor, Muhabbat). Bundan xulosa qilish mumkinki adib o‘zbek tili qurilishining bosh xususiyatiga (tejamkorlikka) izchil rioya qilgan.

Lekin hozirgi kunda matbuot, televideniyeda rus, ingliz tili ta’sirida bunday birikmalarda otga -lar qo‘shib ishlatilmoqda. Misol uchun Ma’rifat gazetasining bitta sonini (2002, 6-iyul) olib ko‘ramiz: 5 ta intervyu-suhbatlar (3-bet), 10 nafar tanlov hay’ati a’zolari (3-bet) 81 ta sog‘liqni saqlash muassasalari (4-bet), 42 ta eng hayotiy masalalardan (6-bet), 15 ta fakultetlar (7-bet), 64 nafar sportchilar (15-bet). Ko‘rinadiki bitta sonning o‘zida -lar 5 marta ortiqcha ishlatilgan.

O‘zbekiston bunyodkori gazetasining bir soniga (2023-yil 8-avgust) nazar tashlaymiz: 6 ta yopiq va 7 ta ochiq sport inshootlari (1-bet), 162 ta tibbiy jihozlar (1-bet), 18 ta uylarni (2-bet). Bu birikmalarda ham -lar ortiqcha qo‘llangan.

Quyidagi misollar Xalq yo‘li gazetasi (2023-yil 7-avgust soni)dan: 281811 nafar ishlovchilar (1- bet), 2000 ta raqamli eshitish moslamalari (2-bet), 1126 nafar fuqarolar (3-bet), 846 nafar ishchi-xizmatchilar (3-bet), 12 nafar xodimlarning (3-bet), 8 nafar Ikkinchi jahon urushi ishtirokchilari (3-bet), 260 nafar mehnat faxriylarining (3-bet), 12 ming 341 nafar bolajonlar (3-bet), 9 ta bolalarni sog‘lomlashtirish oromgohlarida (3-bet), 366 ta yonilg‘i to‘ldirish shaxobchalarida (6-bet).

Mana bu misollar Boshlang‘ich ta’lim jurnali (2001, 4-son)dan: 8 ta nodavlat ta’lim muassasalari, 210 ta xonadon bog‘chalari, 11 tup karam va 9 tup baqlajon ko‘chatlari.

Bunday holat televideniyeda ham tez-tez uchraydi: bir yuz ikki dona tasviriy san’at asarlari, 5 ta maktab va 2 ta bolalar bog‘chalari (Davr axborot dasturi, 2002, 7 avgust.).

Yuqoridagi misollarda otga -lar qo‘shib ishlatilishini o‘zbek adabiy tili me’yoriga mos deb bo‘lmaydi.

Son eganing aniqlovchisi bo‘lib kelganda subyektning ko‘pligini bildiradi. Bunday holda egada ham kesimda ham -lar tejaladi: Beshta otliq yetib keldi. (A. Qah¬hor, Qo‘shchinor chiroqlari). Hovlida besh-olti kishi g‘ivirlab yuribdi (O‘. Umar¬bekov, Yulduzlar) Eshik oldida beshta ot qator turar edi (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari).

Hozirgi kun matbuotida ana shu qoidaga rioya qilinmay ega va kesimga -lar qo‘shib ishlatilmoqda: Musobaqada 1, 2, 4, 5, 9, 10, 11, 15, 31- o‘rta maktablardan 64 nafar sportchilar ishtirok etdilar (Ma’rifat gazetasi, 2002, 6 iyul). Bu gal ham qizg‘in bahslar ostida o‘tgan «Yil o‘qituvchisi – 2001» ko‘rik tanloviga turli viloyatlardan kelgan 14 nafar sara o‘qituvchilar qatnashdilar (Boshlang‘ich ta’lim jurnali, 2001, 4-son). Keyingi misolda hol bo‘lib kelgan otda ham -lar ortiqcha. Mana bu gapda esa -lar ikki marta otga, bir marta fe’l (kesim)ga ortiqcha qo‘shilgan: Mazkur mehnat yarmarkalarida shahar va tumanlarda faoliyat yuritayotgan 3364 ta korxona, muassasa va tashki¬lotlar 25 ming 663 ta bo‘sh ish o‘rinlari bilan qatnashdilar (Xalq yo‘li gazetasi, 2023-yil 7-avgust, 3-bet).

Quyidagi vositalar donalab sanaladigan otda noaniq bo‘linuvchan ko‘plik ifodalanishiga qulaylik tug‘diradi.

Sifatning o‘zak, negizi: talay anor, tumonat odam, sanoqsiz nihol, behisob chumchuq, turli hayvon, har xil kapalak, ko‘pgina o‘simlik, anchagina tarvuz.

Ravish: ko‘p bola, oz askar, bir nechadan quyon, bir nechta sigir, bir qancha maktub.

Ot: ko‘pchilik dehqon, aksariyat bino.

Takroriy so‘z: semiz-semiz qo‘y, baland-baland bino, choynakday-choynakday behi, mitti-mitti qo‘ng‘iz, g‘ij-g‘ij pashsha.

Yuqoridagi hollarda donalab sanaladigan ot qulaylik tug‘diruvchi vosita yordamida noaniq bo‘linuvchan ko‘plik ifodalagan. Ko‘plik ma’nosi uchun qulay-lik so‘z birikmasida vujudga kelyapti. Demak bunday birikmalar donalab sanala-digan otda noaniq bo‘linuvchan ko‘plik

namoyon bo‘lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

Quyidagi hollarda noaniq bo‘linuvchan ko‘plik kuchaytirib ifodalanadi.

Ayrim so‘z tarkibidagi unli cho‘zib talaffuz qilinadi: ko‘o‘p baliq, mo‘o‘l terak, aancha qog‘oz.

Miqdor bildiruvchi so‘z oldidan juda so‘zi ishlatiladi: juda ko‘p kitob.

Yirik miqdorni bildiruvchi son, olam, dunyo kabi otlar takror ishlatiladi: million-million odam, milliard-milliard yulduz, olam-olam yog‘och, dunyo-dunyo chigirtka. Bunday birikma donalab sanaladigan otda ham ko‘plik namoyon bo‘lishi uchun qulay ham ko‘plikni ta’kidlovchi kontekst vazifasini bajaradi. Ko‘plikni ta’kidlovchi vosita hissiy bayonda ishlatiladi:

Mana senga olam-olam gul
Etagingga sig‘ganicha ol. (H. Olimjon)

Ot oldidan kelib noaniq bo‘linuvchan ko‘plikni bildiruvchi so‘z bilan -lar qo‘shimchasi orasida ma’nodoshlik mavjud. Bunday birikmada nohissiy bayonda -lar tejaladi: Baliqchidan o‘n sakkizta qayiq o‘z vaqtida yetib kelmaganda talay odam o‘ladigan bo‘lgan ekan. (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Qish kunlari-dan birida qulay payt keldi: bir necha ovchi o‘sha tomonga – daryo bo‘yiga ovga chiqadigan bo‘lib qoldi (A. Qahhor, Xotinlar).

Bu misollar A. Qahhor asarlaridan olingan bo‘lib adib lug‘aviy miqdorni inobatga olib otga -lar qo‘shmagan. Lekin yozuvchi barcha o‘rinda ham tejam-korlikka rioya qilmaydi. Quyidagi birikmalarda nohissiy bayonda otga -lar qo‘shib ishlatilgan: Qishloqning kiraverishida talay bolalar muz tiyg‘anmoqda edi (A. Qahhor, Xotinlar). Salimxon O‘zbekistonlik bir necha o‘quvchilarni meh-monga chaqirdi (A. Qahhor, Sarob). Ko‘rinib turibdiki bu gaplarda bayon tarzi nohissiy bo‘lib yuqorida keltirilgan misollardan farq qilmaydi. Binobarin ko‘plikni ta’kidlash nazarda tutilmaganidan, uning lug‘aviy vosita (talay, bir necha) bilan ifodalanishi yetarli bo‘lib morfologik vosita (-lar)ni ishlatishga hojat yo‘q.

Hozirgi kun matbuotida bunday birikmada -lar qo‘shimchasining tejalmay ishlatilishi ko‘p uchraydi. Quyidagi misollar Ma’rifat gazetasi (2002, 6-iyul soni)dan olingan: turli tadbirlar (2-bet), ayrim kishilar (2-bet), bir qancha mulohazalar (2-bet), ko‘pdan-ko‘p savollar (2-bet), minglab bolajonlarimiz (2-bet), ko‘pgina ta’lim muassasalari (3-bet), yangi-yangi do‘stlar (4-bet), turli safarlar (4-bet), ko‘p hollarda (4-bet), turli adabiyotlar (4-bet), turli viloyatlar (6-bet), turli muammolarni (6-bet), qator masalalar (6-bet), ko‘p ishlar (9-bet), ko‘pgina o‘quvchilar (9-bet), o‘n nafarcha iqtidorli o‘quvchilar (9-bet), o‘nlab iqtidorli o‘quvchilarni (9-bet). Ko‘rinadiki har bir sahifada kamida 3-4 joyda otga -lar noo‘rin qo‘shilgan. Mana bu misollar O‘zbekiston bunyodkori gazetasi (2023-yil 8-avgust soni)dan: ko‘plab turar joylar (1-bet), 7000 dan ortiq jarrohlik amaliyotlarida (1-bet), bir qator taklif va mulohazalar (2-bet), ayrim ko‘chalar (2-bet), bir qancha imkoniyatlarga (3-bet). Quyidagi misollar Yangi O‘zbekiston gazetasi (2023-yil 8-avgust soni)dan: turli sohalar (2-bet), ko‘plab bo‘sh ish o‘rinlari (2-bet), qator imtiyoz va imkoniyatlar (2-bet), qator ekologik muammolar (4-bet), bir necha asrlardan buyon (4-bet), bir qator natijalarga (5-bet).

Televideniyeda ham ko‘p o‘rinda tejamkorlikka rioya qilinmayapti. Quyi-dagi misollar Davr axborot dasturi (2002, 7 avgust soni)dan: bir millionga yaqin kuygan simobli yoritqichlar, turli tadbirlar, saksondan ortiq eksponatlari, mamlakatning ko‘pgina siyosiy arboblari, juda ko‘p yangi qo‘shiqlar, dunyoning qanchadan-qancha mamlakatlariga, turli nodir qo‘lyozmalar, turli stadionlarida. Quyidagi misollar Sport telekanali ko‘rsatuvlaridan: Neymar ko‘p ishlardan ozod qilingan bo‘lsa kerak. (2022-yil 25-noyabr) Ko‘plab turnirlarni o‘tkazib yuboryapti. (2022-yil 25-noyabr) Mana bu misollar esa Madaniyat va ma’rifat telekanalidan: Mening uyimga ko‘p zararlar yetkazildi. (2022-yil 1-dekabr) Bir-ikkita o‘rtog‘larim tabriklagan bo‘ldi. (2022-yil 1-dekabr) Bir necha filmlarni ko‘rganmiz. (2022-yil 10-dekabr) Bir necha ziyolilar bu haqda bosh qotirar edi. (2022-yil 14-dekabr) Bunday qo‘llanish jurnalistlarda hali milliy ruh shakllanmaganligidan, rus tili ta’siridan qutul¬magaganligidan dalolat beradi.

Qo‘shimchani tejamay ishlatish ilmiy matnlarda ham ancha-muncha uchrab turadi. Mana bu

misollar Jahon jug‘rofiyasi (2012-yil 29-iyuldagi) ko‘rsatuvidan: millionlab turli-tuman jonivorlar, ko‘pgina raqiblar, o‘n millionlab shox-chorloqlar, har xil jonivorlarga, ba’zi jonivorlarga, milliontagacha g‘ijjakchi yoki jozibador krablar, son-sanoqsiz jonivorlar qalashib yotganda, juda ko‘p dengiz otlari, millionlab mayda baliqlar.

Miqdor bildiruvchi so‘z faqat aniqlovchi emas, gapning boshqa bo‘lagi bo‘lib kelganda ham noaniq bo‘linuvchan ko‘plik uchun qulay vosita vazifasini bajaraveradi: Tarbiyaga doir kitob ko‘p. (A. Qahhor, Ayb kimda) Odam yig‘ildi. (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar) Stansiyada odam siyrak. (A. Qahhor, Sincha¬lak) O‘quvchi orttirish kerak. (A. Qahhor, Sarob) Uyimizni kitob bosib ketgan. (A. Qahhor, Kitob shavq bilan o‘qilishi kerak) Bu misollarda tub otdan ko‘plik anglashilishiga kesim vasifasidagi so‘zning lug‘aviy mazmuni yordam bergan.

Bir gapda ko‘plik uchun qulaylik tug‘diruvchi birdan ortiq vosita ishlatilishi mumkin: Har kuni uydan bitta-ikkita mehmon uzilmaydi. (A. Qahhor, Sarob) Bu gapda ko‘plik son va fe’l yordamida namoyon bo‘lgan. Son miqdorni aniqlashtirib kelyapti.

To‘kilgan tut tushgan yerida ezilib, suvi tirqirab ketar edi. (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari) Bu misolda ko‘plik ikkita vosita ya’ni aniqlovchi bo‘lib kelgan sifatdosh (to‘kilgan) va fe’lning -ar edi shakli yordamida ifodalangan. Sifatdosh tushirib qoldirilsa ham ko‘plik ifodalanaveradi. Chunki fe’lning -ar edi shaklida davomiylik ma’nosi bor [10, 34]. Shuning uchun bu gapda aniqlovchi o‘rnida bir sonini qo‘llab bo‘lmaydi. Bu gapdagi aniqlovchini tushirib qoldirib fe’l qo‘shimchsi -di bilan almashtirilsa tub ot (tut) birlik ma’nosini ifodalaydi.

Yuqorida keltirilgan misollardagi kabi miqdor bildiruvchi yoki mazmuni¬dan ko‘plik anglashiluvchi so‘z birikmada emas, gapda biror bo‘lak bo‘lib kelganda ham u bilan mazmunan bog‘langan ot -lar olmaydi: Yangi kasb, yangi hunar ko‘p (A. Qahhor, Sinchalak). Miltiq ulashildi (A. Qahhor, Oltin yulduz). Odam ko‘p (A. Qah¬hor, O‘tmishdan ertaklar). Bozorda odam siyrak. (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). O‘quvchingiz ko‘payadi (A. Qahhor, Sarob). Savol yog‘ilib ketdi (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). O‘zbekistonda yozuvchi ko‘p. (A. Qahhor, Sarob). Bu misollar Abdulla Qahhor qalamiga mansub. Adib bu o‘rinlarida tejam-korlikka rioya qilgan. Lekin ayrim o‘rinda yozuvchi bunday holda otga -lar qo‘shib ishlatadi: Kooperativdan mijozlar ko‘p. (A. Qahhor, Sarob) Toshkentda zo‘r olimlar ko‘p (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Soyabon aravalar ko‘p. (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). Bu gaplarda bayon nohissiy bo‘lib so‘zlov-chining maqsadi hissiy munosabat bildirmay neytral xabar yetkazish. Shunga ko‘ra ko‘plikni ta’kidlash nazarda tutilmaganidan qo‘shimcha tejalishi kerak edi. Tejamkorlikka rioya qilinmaganidan mazkur misollarda otga -lar qo‘shilishini to‘g‘ri deya olmaymiz.

Matbuot, televideniyeda bunday holda otga -lar qo‘shib ishlatish ancha-muncha uchrab turadi. Hurriyat gazetasi sahifalariga nazar tashlaylik: Viloyat miqyosidagi gazetalar ham behisob (2002, 27 iyun). Biz yosh jurnalistlar ko‘payayotganidan sevinamiz (2002, 27 iyun). Quyidagi misollar Turkiston gazetasidan: nashrlar ko‘payib ketdi, qilinishi lozim bo‘lgan ishlar talaygina, gazetalar ham uncha ko‘p emas, sanoqli edi, tadbirkorlar soni ortib (2002, 27 iyul). Quyidagi misollar Qishloq hayoti gazetasidan: Shu bilan birga, maktab ta’limi sohasida dolzarb masalalar hali ko‘p (2023-yil 30-avgust soni, 1-bet). Bu gapda vergul ham ortiqcha qo‘llangan. Yangi Namangan tumanida aholi bandligini ta’minlash bilan bir qatorda tumanning iqtisodiy rivojiga hissa qo‘shayotgan korxonalar ko‘p (2023-yil 10-avgust soni, 1-bet). …ko‘saklar soni va vaznini oshirish, Sababi, oromgohda juda ko‘p do‘stlar orttirdim. (2023-yil 3-avgust soni, 3-bet) Suvni tejaydigan texnologiyalarning afzalliklari ko‘p. Zamonaviy gaz-chang tozalash uskunalarini o‘rnatishning afzalliklari ko‘p. … qiyinchiliklar ko‘p bo‘layotgani (2023-yil 20-iyul soni, 1-bet), … ishchilar soni esa 2 baravarga oshdi (2023-yil 20-iyul soni, 2-bet), … turlarini ko‘paytirishga (2023-yil 20-iyul soni, 3-bet). Mana bu misollar Boshlang‘ich ta’lim jurnalidan: Yutuqlar ko‘p. – Darsliklar sonini ko‘paytirish kerak. – O‘qituvchilar uchun tarqatma materiallar, usuliy qo‘llanmalar soni yanada ko‘paytirilsa (2001, 4-son). Quyidagi misollar turli telekanaldan olingan: Bu vaqtda avtobus bekatida odamlar ko‘p edi (Davr axborot dasturi, 2002, 7-avgust).

Hujumni shakllantiruvchi futbolchilar ko‘p (Sport telekanali, 2022, 23-noyabr).O‘zbekiston terma jamoasidan jahon chempion¬lari ko‘p (Sport telekanali, 2022, 2-dekabr). Albatta bugun savollarimiz ko‘p (Madaniyat va ma’rifat telekanali, 2022, 10-dekabr).

Matnda qulay vosita oldingi yoki keyingi gapda kelishi mumkin: To‘rt quti urug‘ni o‘z qo‘li bilan keltirib berdi. Hademay qurt ko‘m-ko‘k barg ustida o‘rmalab qoldi. (A. Qahhor, Kampirlar sim qoqdi) Bu misolda tub ot (qurt)ning ko‘plik ifodalashiga birinchi gapdagi lug‘aviy vosita (to‘rt quti urug‘) qulaylik tug‘dirgan. Birinchi gap tushirib qoldirilsa tub ot miqdori aniq bo‘lmay qoladi. Quyidagi misolda esa qulaylik tug‘diruvchi vosita keyingi gapda kelgan. Mehmon kelgan edi. – Yo‘lda ko‘rdim. Ertaga aniq kelishadi (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Tinglovchi mehmonning miqdoridan xabardor shuning uchun fe’lning ko‘plik shakli (kelishadi)ni qo‘llaydi.

Quyidagi misol qo‘shma gapdan iborat bo‘lib birinchi gapdagi tub otning ko‘pligi ikkinchi gapdagi juft sondan anglashiladi: Bola o‘rikni oldi, bir-ikkitasini yedi (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). Bu kontekstda ikkinchi gap tushirib qoldirilsa tub otda birlik ma’nosiga munosabat sezilib qoladi.

Bitta otga qo‘shilgan -lar ikkinchisidan ham noaniq bo‘linuvchan ko‘plik anglashilishiga yordam beradi. Binobarin donalab sanaladigan otda ko‘plik ifoda-lanishiga morfologik vosita ham qulaylik tug‘diradi. Yakshanba kuni ovqatdan keyin bolalarga kuzgi paxtalik nimcha berildi. (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). Bu gapda donalab sanaladigan ot (nimcha)ning ko‘plik ifodalashiga u bilan mazmunan bog‘langan -lar li ot (bolalar) yordam bergan. Quyidagi misol ham xususiyati jihatidan yuqoridagiga o‘xshash: To‘plardan g‘ilof olindi (A. Qahhor, Oltin yulduz). -lar tushirib qoldirilsa ikkala otda ham birlik namoyon bo‘ladi.

Bunday holda -lar olgan so‘z ot emas, olmosh ham bo‘lishi mumkin: Bombay aholisi sizlarday mehmonni kutish bilan faxrlanadi (A. Qahhor, Salom hind xalqiga). Bu misolda ko‘plik ifodalanishiga -lar shaklidagi kishilik olmoshi yordam bergan. Qo‘shimcha tushirib qoldirilsa siz olmoshi birlik va ko‘plikka betaraf bo‘lganidan tub otning miqdori ham noaniq bo‘lib qoladi.

Ko‘plikni bildirgan ega kesim bo‘lib kelgan otda ko‘plik ifodalanishiga qulaylik tug‘diradi: Akalarim injener. Opalari tikuvchi. Lekin hammasi ham hali usta ko‘rmagan shogird. (A. Qahhor, Kartina) Bizni sotib olgani yo‘q, biz meros qulmiz. (J. Sharipov, Xorazm) Birinchi, ikkinchi misolda -lar shaklidagi ot, uchinchi misolda miqdor olmoshi, to‘rtinchi misolda kishilik olmoshi va shaxs, son qo‘shimchasi kesim vazifasidagi otning ko‘plik ifodalashi uchun qulay vosita vazifasini bajargan. Bunday holda ham qo‘shimcha (-lar) tejaladi.

Biroq televideniyeda ko‘p holda tejamkorlikka rioya qilinmay ot kesimga -lar qo‘shilyapti. Quyidagi misollar Sport telekanali ko‘rsatuvlaridan olindi: Yaponiyalik muxlislar eng ajoyib muxlislar desa bo‘ladi. (2022-yil 24-noyabr) Avstraliya Yaponiya bilan ancha yaxshi imko¬niyat¬larga egalar. (1-dekabr). Ikkalasi ham drebling sohiblari. (2022-yil 1-dekabr) Bizning muxlislarimizning hammasi kitobxonlardir. (2022-yil 1-dekabr) Bular xavfli futbolchilar ekanini hamma biladi. (2022-yil 5-dekabr) Ular Muqbil toshotarlar. (2022-yil 5-dekabr) Koreya futbolchilari oldinga o‘tishga majburlar. (2022-yil 5-dekabr) Mana bu misollar Madaniyat va ma’rifat telekanalidan: Biz buyuk ajdodlarning avlod-larimiz.(2022-yil 21-noyabr) Biz mana shu tumanning fuqarolarimiz. (2022-yil 24-noyabr) Bu farzandlar olimlar bo‘lyapti. (2022-yil 24-noyabr) Bu qarzlar 1-2 kun ichida yig‘ilgan qarzlar emas. (2022-yil 24-noyabr) Bular ham puldor ayollar. (2022-yil 25-noyabr) AQSH terma jamoasining o‘yinchilari ko‘pchiligi muhojirlarning farzandlari. (2022-yil 26-noyabr) Bu misolda kesim bo‘lib kelgan otning ko‘plik ifodalishiga uchta vosita qulaylik tug‘dirgan: eganing aniqlovchisi, ega vazifasidagi jamlovchi ot va kesimning aniqlovchisi. Binobarin kesimga -lar qo‘shishga ehtiyoj yo‘q. Bular kelgusi shifokorlar. (2022-yil 26-noyabr) Bular ansamblda solistlar bo‘lgan-da. (2022-yil 26-noyabr) Chunki biz deputatlarmiz. (2022-yil 28-noyabr) Bu dunyo katta sahna. Biz unda aktyorlarmiz. (2022-yil 30-noyabr) Haqiqatan ham baxtli insonlarmiz. (2022-yil 3-dekabr) Bu misolda donalab sanaladigan otning ko‘plik ifodalashiga shaxs, son qo‘shimchasi (-miz) qulaylik tug‘dirgan, shuning uchun -lar ni qo‘l¬lashga ehtiyoj yo‘q. Mening asosiy bemorlarim san’atkorlar. (2022-

yil 3-dekabr) Sizlar mening bemorlarimsizlar. (2022-yil 3-dekabr) Bu gapda ko‘plik ma’nosi ega vazifasidagi kishilik olmoshidan anglashilgan, shu sababli kesim bo‘lib kelgan ot va tuslovchi qo‘shimchadagi -lar ortiqcha. Biz ham hamma qatori xudoning bandalarimiz. (2022-yil 11-dekabr, Gandi filmidan) Biz hindlar va musulmonlar xudoning bandalarimiz. (2022-yil 11-dekabr, Gandi filmidan)

Aniqlovchi miqdor bildir¬maydigan so‘zdan ifodalanganda aniqlanmishga -lar qo‘shilmaydi: Biz, bolalar daraxtlarning shoxiga, tomlarga chiqib uzoqdan qarab turdik (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). Daraxtlarning shoxi bitta bo‘l-masligi mantiqan ayon bo‘lganidan -lar tejalgan. Quyidagi misolda ham tejam-korlikka rioya qilingan. Anchadan keyin odamlarning ovozi eshitildi (A. Qahhor, Sarob). Mazkur qoidaga mos kelganidan quyidagi misollarda aniqlanmishga -lar qo‘shilishini to‘g‘ri deya olmaymiz: Portretlari osilgan kishilarning nomlarini aytib qichqirishar edi. (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Bu vazifani bajarishda sizlarning yordamlaringizga muhtojmiz. (A. Qahhor, Kartina)

Matbuotda bunday birikmada otga -lar qo‘shib ishlatilishi uchrab turadi: Yoki qadimgi davrlarda mavjud bo‘lgan podsholiklarning, davlatlarning nomlari qayd etilganda, ularning hozirgi o‘rni, hududi qavs ichida bo‘lsa ham berilmagan (Boshlang‘ich ta’lim jurnali, 2001, 4-son). Boshqa muharrirlarning gazetada o‘z ruknlari bor (Tafakkur jurnali, 2002, 2-son).

Donalab sanaladigan ot uyushib kelganda ta’kid nazarda tutilmasa -lar oxirgi bo‘lakka qo‘shilb qolgan uyushiq bo‘lakning ham ko‘pligini bildiradi: Toshkent ko‘chalaridan avtobus, tramvay, trolleybuslar qatnaydi (M. Hamidova, Tosh-kentim – onam). Ko‘plikni ta’kidlash nazarda tutilsa uyushiq bo‘lakning har biriga qo‘shiladi. Shunga ko‘ra bu holat hissiy gap, matnda uchraydi: Qish bo‘yi allaqaysi go‘r ostlarida junjib chiqqan qush zotlari: chumchuqlar, chittaklar, to‘rg‘aylar, sa’valar va boshqa allaqancha qush turkumlari o‘z to‘plari bilan vijir-vijir, chug‘ur-chug‘ur sayrab kuylaydilar (A. Qodiriy, O‘tgan kunlar). Bayon hissiy bo‘lganidan bu gapda kesimga ham -lar qo‘shilgan. Binobarin bu misolda uyushiq bo‘lak va kesimga qo‘shilgan -lar konnotatsiya ifodalashga xizmat qilgan. Nabilar, rasullar, dohiylar unda, Qabrlar, qasrlar turgandir qator. (A. Oripov, Yurtim shamoli).

Grammatik qurilishning bosh xususiyati uyushiq bo‘lakda ham -lar tejalishini taqozo qiladi. Bayon nohissiy bo‘lib ta’kid nazarda tutilmasa -lar oxirgi so‘zga qo‘shiladi: Juvon qop va tugunlar ustidan oldinga o‘tganidan keyin tizginni siltadi (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Bu tepaliklarning ustiga, yon bag‘riga solin-gan kigiz, sholcha, bo‘yra va paloslarda odamlar tiqilishib o‘tirar edi (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Keyingi misoldagi uyushiq bo‘lakda o‘rin-payt kelishigi qo‘shimchasi ham tejalgan.

Quyidagi nolisoniy omillar ham donalab sanaladigan tub otda noaniq bo‘linuvchan ko‘plik namoyon bo‘lishiga qulaylik tug‘diradi.

Nutq vaziyati: Piyola chiroyli ekan (piyolaning birdan ortiqligi ko‘rinib turgan bo‘lsa). Nima olib kelayapsan? – Kitob (tinglovchining qo‘lida birdan ortiq kitob bo‘lsa).

Mantiqan ayonlik: Ha, aytganday, kelingiz sizga o‘rik berib yuborgan edi. (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Bitta o‘rik berib yubormasligi ayon. Bitta gapda birdan ortiq sanaladigan ot kelishi mumkin: O‘qishdan chiqib qurtga barg kesgani boramiz. (A. Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Qurtning ham bargning ham ko‘pligi mantiqan ayon.

Ko‘plik mantiqan ayon bo‘lganda ham otga -lar qo‘shilmaydi: Ismat pochtachi velosipedda xat, gazeta tashiydi (A. Qahhor, Sinchalak). Yozuvchi mantiqan ayonlikni inobatga olib xat, gazeta so‘zlarida -lar ni tejagan.

Mazkur qoidaga mos kelganidan matbuotdan olingan quyidagi misolda -lar tejalishi kerak edi: Uy-joyga muhtoj 10 ta oilaga oilaviy yotoqxonalar kalitlari topshirildi (Xalq so‘zi gazetasi, 2014, 24 aprel). Bu gapda oilaning ko‘pligi (10 ta) aytilgan binobarin ularga beriladigan yotoqxona va kalitning ham bitta bo‘lmasligi mantiqan ayon. Televideniyedan olingan quyidagi misolda ham tejamkorlikka rioya qilinmagan: Akam bilan ana shu tepaliklarda qo‘ylar

boqqanman. (Madaniyat va ma’rifat telekanali, 2022-yil 29-noyabr). Bitta qo‘y boqilmasligi mantiqan ayon shuning uchun otga qo‘shilgan -lar ortiqcha.

Quyidagi vositalar donalab sanaladigan otda jamlik namoyon bo‘lishiga qulaylik tug‘diradi.

Hisob so‘z: bir quchoq gul, bir dasta jurnal, bir mashina qovun, bir uy odam, bir choyshab anor, bir savat olma, ikki-uch hovuch o‘rik, bir tovoq manti, bir do‘ppi yong‘oq.

Ayrim takroriy so‘z: javon-javon kitob, qop-qop anor, qator-qator terak, savat-savat nok.

Miqdor olmoshi: barcha talaba, hamma o‘qituvchi.

Yuqoridagi hollarda donalab sanaladigan ot qulaylik tug‘diruvchi vosita yordamida jamlik ifodalagan. Jamlik ma’nosi uchun qulaylik so‘z birikmasida vujudga kelyapti. Demak bunday birikmalar donalab sanaladigan otda jamlik namoyon bo‘lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

Ot oldidan jamlikni bildiruvchi so‘z kelganda nohissiy bayonda -lar tejaladi. Biroq hozirgi kunda matbuot va televideniyeda bunday birikmada -lar qo‘shim-chasi tejalmay ishlatilyapti. Quyidagi misollar Ma’rifat gazetasi (2002-yil 6-iyul soni)dan: barcha sharoitlar (2-bet), barcha ta’lim turlari (2-bet), barcha maktabgacha ta’lim muassasalari (2-bet), barcha ko‘rsatkichlar (3-bet), hamma tumanlardagi (4-bet), barcha qulay sharoitlar (7-bet), hamma bosqichlari (8-bet), barcha qiziquvchi o‘quvchilar (9-bet). Mana bu misollar Yangi O‘zbekiston gazetasi (2023-yil 30-avgust soni)dan: barcha hududlarda (1-bet), barcha rasmiylashtirish jarayonlarini (1-bet), barcha bojxona postlari (1-bet), barcha sharoitlar (1-bet), barcha zarur imkoniyatlar (2-bet), barcha sohalarda (3-bet), barcha narsalar (3-bet), barcha yutuqlarimiz (3-bet). Quyidagi gapda jamlik olmoshdan tashqari ikki otning o‘zidan anglashilib turgan bo‘lsa-da ularga -lar qo‘shilgan: Chunki Alloh insonni barcha mavjudotlardan, maxluqotlar¬dan ma’nan ulug‘ qilib yaratdi (5-bet). Bundan tashqari birinchi otda chiqish kelishigi qo‘shimchasi ham ortiqcha qo‘llangan. Barcha qarindoshlarini (6-bet), barcha plakatlar (6-bet) (Quyidagi misollar esa Davr axborot dasturi (2002, 7 avgust)dan: hamma ijodkorlar, yurtimizning barcha o‘quv muassasalari, barcha viloyatlar.

Qo‘shimchani tejamay ishlatish ilmiy matnlarda ham ancha-muncha uchrab turadi. Mana bu misollar Jahon jug‘rofiyasi ko‘rsatuvi (2002, 29-iyul)dan: barcha qushlar, jamoaning hamma a’zolari.

Donalab sanaladigan sanaladigan otda jamlik ma’nosi namoyon bo‘lishi uchun aniqlanmish vazifasida kelgan jamlovchi ot ham qulaylik tug‘diradi: qo‘y podasi, o‘rdak galasi, mashq to‘plami.

Bunday birikmada ham nohissiy bayonda donalab sanaladigan otda -lar tejalishi kerak. Shuni hisobga olmay ayrim kitob nomida aniqlovchiga -lar qo‘shib ishlatilmoqda: bayonlar to‘plami, mashqlar to‘plami, hikoyalar to‘plami.

Donalab sanaladigan otda jamlik namoyon bo‘lishi uchun ayrim fe’l ham qulaylik tug‘dirishi mumkin: Atrofda odam to‘plandi (Oybek, Qutlug‘ qon). Nega bunchalik kitob yig‘masa (K. Yashin, Hamza). Choy to‘kilib soy bo‘lmas, Yulduz yig‘ilib, oy bo‘lmas (Maqol). Bunday holda ham donalab sanaladgan otda -lar tejaladi.

Donalab sanaladigan otning aniq, noaniq bo‘linuvchan ko‘plik yoki jamlik ma’nosi uchun qulaylik bo‘lmasa umumiylik namoyon bo‘ladi. -lar shakli cheklangan miqdordagi ko‘plikni anglatsa tub shakldan shu turga kiruvchi barcha ot (yaxlit tarzda) anglashiladi. Umumiylik ifodalanishiga quyidagi vositalar qulaylik tug‘diradi.


Matnning ijtimoiy-tarixiy xususiyati. Jumladan maqolda sanaladigan ot birlik yoki ko‘plik emas, umumiylik ifodalaydi: Farzand – belning quvvati. Daraxt tomiridan suv ichar. Demak maqol donalab sanaladigan otda umumiylik ma’nosi namoyon bo‘lishi uchun qulay kontekst vazifasini bajaradi.

Gapning umumiy mazmuni: So‘z adabiyotning eng birinchi unsuri, uning birinchi quroli (A. Qahhor, Hayot qo‘shig‘i). Shunday qilib, o‘rik gulini to‘kkanda Qo‘qondan Qudashga ko‘chdik (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). O‘quvchi kitobga, yaxshi kitobga tashna (A. Qahhor, Kitob shavq bilan o‘qilishi kerak). Bu misollarda umuman so‘z, barcha o‘rik, barcha o‘quvchi nazarda tutilganligi gapning umumiy mazmunidan anglashiladi.

Donalab sanaladigan ot umumiylikni ifodalaganda fe’l kesim ko‘pincha -adi shaklida keladi. Chunki bu shakl bir turga kiruvchi mavjudotning doimiy belgisini ko‘rsatadi: Suvsizlikni tuya ko‘taradi (Abdulla Qahhor, Sarob). Ketmon ishlatilaversa yeyilib ketadi (A. Qahhor, O‘tmishdan ertaklar). Baliq suvda yashaydi. Dehqon dalada shudgor qiladi. Duradgor derazaga rom yasaydi.

Yuqorida ko‘rsatilgan barcha holda tub ot biror vosita (lug‘aviy, fonetik, morfologik) yordamida ko‘plik (noaniq bo‘linuvchan ko‘plik, jamlik, umumiylik) ifodalash uchun xizmat qilganidan -lar qo‘shimchasini olgan ot bilan ma’nodosh bo‘ladi. Misollarning ko‘pchiligida ma’nodosh shakllarni o‘zaro almashtirish mumkin: 1. Ho‘kiz – ho‘kizlar: Ho‘kizlarni hozir joyiga eltib qo‘y. – Otim bilan sigirimni ber, ho‘kizingni ol (A. Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari). 2. Talay odam – talay odamlar: Baliqchidan o‘n sakkizta qayiq o‘z vaqtida yetib kelmaganda talay odam o‘ladigan bo‘lgan ekan (Abdulla Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Ovqat mahalida “bulbuligo‘yo” odatdagicha yana talay odamlarni yomonladi (A. Qah-hor, Sarob). 3. Odam ko‘p – odamlar ko‘p: Ichkarida odam ko‘p edi (Abdulla Qahhor, Sarob). Yaxshi odamlarimiz ko‘p (Abdulla Qahhor, Sinchalak). Bunday holda -lar qo‘shimchasi ko‘plikni ta’kidlash uchun xizmat qiladi. Bunday qo‘llanish hissiy bayonga xos bo‘lib buni quyidagi misollar ham tasdiqlaydi: 1. Bu odamlar juda ko‘p narsani biladi, bularga juda-juda ko‘p narsalar yarashadi, otaxon! (Abdulla Qahhor, Qo‘shchinor chiroqlari). Bu misol qo‘shma gapdan iborat bo‘lib tarkiban bir xil birikma ikkala gapda qo‘llangan. Birinchi sodda gapda ta’kid darajasi yuqori bo‘lmaganidan ot (narsa)ga -lar qo‘shilmagan. Ikkinchi gapda ko‘plikni ta’kidlash juda so‘zining takrori hamda -lar qo‘shimchasi orqali amalga oshirilgan.

2. Sen tengi kelinchaklarning uyiga kirsang og‘zing ochilib qoladi: qo‘sh-qo‘sh tilla soatlar, tilla bilaguzuklar …(Abdulla Qahhor, Sarob). Bu misolda so‘zlovchi Saidiyning qaynonasi. U qizi (Soraxon)ga kuyovining kam pul topayotganini pisanda qilish uchun bu gapni aytadi. Shuning uchun ko‘plik ma’nosi lug‘aviy vosita (qo‘sh-qo‘sh) orqali ifodalanganiga qaramay, otga -lar qo‘shib ma’no kuchaytirilgan. Keltirilgan misollardan ko‘rinadiki sanaladigan ot ko‘plikni bildirsa -lar bu ma’noni ta’kidlashga xizmat qiladi. Buni chizmada quyidagicha ko‘rsatish mumkin:



Ta’kid nazarda tutilmaganda tub ot qo‘llanib o‘zbek tili qurilishining o‘ziga xos xususiyati – tejamkorlik namoyon bo‘ladi. Bunday holda -lar ishlatilsa ajnabiy (rus, ingliz, nemis) tili xususiyati o‘zbek tiliga nisbat berilgan bo‘ladi.

Xulosa. Donalab sanaladigan ot o‘zak, negizining nutqiy xususiyati tahlilidan ko‘rinadiki otning o‘zak, negizi ko‘plikning ko‘rinishlari: ikkilik, ikkidan ortiq aniq ko‘plik, noaniq bo‘linuv¬chan ko‘plik, jamlik, umumiylik ma’nolarini so‘z, birikma, kichik va katta kontekstda qulay vosita yordamida ifodalaydi. Qulay vosita vazifasini son-miqdor katego¬riyasiga mansub lug‘aviy, morfologik, fonetik vosita hamda nolisoniy omillar bajaradi. Ko‘plik ma’nosi lug‘aviy, fonetik va morfologik vosita (-lar) bilan ifodalanadi. Birikma, gap, matnda ko‘plikni bildiruvchi lug‘aviy, morfologik yoki nolisoniy vosita bo‘lmaganda bu ma’no qo‘shimcha bilan ifodalanadi. Nohissiy bayonda ko‘plik lug‘aviy vositadan anglashilganda -lar tejaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Зикриллаев Ғ. Н. Руҳ ва тил. Тошкент, Фан, 2018. 464 б.
2. Бондарко А. В. Теория морфологических категорий. Ленинград, Наука. 1976. 256 с.
3. Бондарко А. В. Грамматическая категория и контекст. Ленинград, Наука, 1971. 115 с.
4. Бондарко А. В. Принципы функциональной грамматики и вопросы аспекто-логии. Ленинград, “Наука”, 1983. 208 с.
5. Бондарко А. В. Функциональная грамматика. Ленинград, “Наука”, 1984. 134 с.

ПОСТМОДЕРНИЗМ КАК ЭТАП ТРАНСФОРМАЦИИ СОВРЕМЕННОГО ЗАРУБЕЖНОГО РОМАНА: ЭСТЕТИЧЕСКАЯ ПАРАДИГМА, ИСТОРИЧЕСКАЯ ПАМЯТЬ, СУБЪЕКТНАЯ МОДЕЛЬ

Темирова Дилором Кайимовна,
старший преподаватель кафедры «Русского языка и литературы»
НОУ Университет экономики и педагогики

Аннотация. Статья посвящена анализу постпостмодернизма как этапа трансформации современной зарубежной литературы рубежа XX–XXI вв. Рассматриваются изменения постмодернистской эстетики, специфика нового историзма и трансформация субъектной организации текста. На материале прозы И. Макьюэна, Дж. Барнза и М. Фрейна выявляется переход от деконструктивной к реконструктивной модели художественного мышления, ориентированной на новый гуманистический вектор.

Ключевые слова: постмодернизм, постпостмодернизм, современная зарубежная литература, новый историзм, художественная память, субъект повествования.

“POSTMODERNISM AS A STAGE IN THE TRANSFORMATION OF THE CONTEMPORARY FOREIGN NOVEL: AESTHETIC PARADIGM, HISTORICAL MEMORY AND THE MODEL OF SUBJECTIVITY”

Temirova Dilorom Kayumovna,
Senior Lecturer, Department of Russian Language and Literature Non-State Educational Institution “University of Economics and Pedagogy”

Abstract. The article examines post-postmodernism as a stage in the transformation of contemporary foreign literature at the turn of the 20th–21st centuries. It analyzes the modification of postmodern aesthetics, the specificity of new historicism, and the transformation of narrative subjectivity. Based on the prose of Ian McEwan, Julian Barnes, and Michael Frayn, the study reveals a shift from a deconstructive to a reconstructive model of artistic thinking oriented toward a renewed humanistic perspective.

Keywords: postmodernism, post-postmodernism, contemporary foreign literature, new historicism, cultural memory, narrative subjectivity.

“POSTMODERNIZM ZAMONAVIY XORIJIY ROMAN TARAQQIYOTINING TRANSFORMATSION BOSQICHI SIFATIDA : ESTETIK PARADIGMA, TARIXIY XOTIRA VA SUBYEKTIV MODELI”

Temirova Dilorom Qayumovna,
Qarshi Iqtisodiyot va pedagogika NTM universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada postpostmodernizm XX–XXI asrlar chegarasidagi zamonaviy xorijiy adabiyot taraqqiyotining muhim bosqichi sifatida tahlil qilinadi. Unda postmodernistik estetikadagi o‘zgarishlar, yangi tarixchilik xususiyatlari hamda matnning subyektiv tashkil etilishi transformatsiyasi ko‘rib chiqiladi. I. Mak’yuэн, J. Barns va M. Freyn asarlari asosida dekonstruktiv modeldan rekonstruktiv, yangi gumanistik yo‘nalishga ega badiiy tafakkur modeliga o‘tish jarayoni asoslanadi.

Kalit so‘zlar: postmodernizm, postpostmodernizm, zamonaviy xorijiy adabiyot, yangi tarixchilik, madaniy xotira, narrativ subyektivlik.

Введение. Современный литературный процесс рубежа XX–XXI веков, безусловно, не может быть осмыслен вне контекста трансформации постмодернистской парадигмы. Если

во второй половине XX века постмодернизм выступал доминирующей художественной моделью, то уже к концу столетия становится очевидным: его эстетический потенциал постепенно исчерпывается. Как справедливо отмечается в учебно-методическом пособии Л.Ю. Макаровой, современную зарубежную литературу следует рассматривать как этап мирового историко-литературного процесса в его динамической целостности [1, с. 6]. Иными словами, речь идёт не о резком разрыве традиций, а о внутреннем преобразовании художественного мышления.

Таким образом, закономерно возникает вопрос: является ли постпостмодернизм отрицанием постмодернизма или его внутренней эволюцией?

Постмодернистская модель: кризис метанарративов и эстетика деконструкции

Прежде всего следует напомнить, что постмодернизм формировался как реакция на крушение универсальных объяснительных систем. Ж.-Ф. Лиотар определял постмодернистское состояние как «недоверие к метанарративам» [2, с. 7]. Тем самым разрушалась вера в абсолютную истину, линейную историю, цельную субъектность. Ф. Джеймисон, в свою очередь, интерпретировал постмодернизм как культурную логику позднего капитализма [3, с. 18], подчёркивая его зависимость от социальной фрагментации и эстетики поверхностности. Однако уже в конце XX века, как подчёркивает Л.Ю. Макарова, наблюдается тенденция к «преодолению» постмодернизма и формированию нового этапа развития литературы [1, с. 10]. Следовательно, постмодернизм перестаёт быть окончательной формой художественного сознания.

Постпостмодернизм: не отрицание, а трансформация: По-видимому, наиболее точной характеристикой нового этапа является не радикальный разрыв, а трансформация. М. Эпштейн, анализируя культурную ситуацию начала XXI века, говорит о переходе к «пост-постмодерности», для которой характерны транссентиментализм и новый гуманизм [4, с. 412]. Иными словами, происходит возвращение к проблеме ценностей — но уже на новом уровне рефлексии. В пособии подчёркивается, что новый этап связан с изменением восприятия реальности и вымысла, а также с усилением исторического сознания [1, с. 10–11]. Таким образом, если постмодернизм концентрировался на игре и деконструкции, то постпостмодернизм стремится к реконструкции смыслов.

Важно подчеркнуть: речь идёт не о восстановлении модернистской серьёзности, а о формировании иной модели — диалогической, рефлексивной и этически ориентированной.

История как пространство диалога, а не разрушения: Одной из ключевых черт нового этапа становится изменение отношения к истории. В пособии подчёркивается внимание к историческому прошлому и «архиву» как всемирная тенденция современной литературы [1, с. 8–9]. Л. Хатчеон, вводя понятие историографической метапрозы, отмечает, что литература одновременно ставит под сомнение историческую достоверность и сохраняет память как культурную ценность [5, с. 105].

Следовательно, история перестаёт быть исключительно объектом деконструкции. Она превращается в пространство диалога между прошлым и настоящим. И.П. Смирнов, анализируя постмодернистскую модель, говорит о «непрекращающемся отодвигании определённости» [6, с. 57]. Однако в современной прозе эта неопределённость уже не самоцель, а условие нравственного выбора. Романы И. Макьюэна, рассматриваемые в пособии [1, с. 10–11], позволяют проследить переход от постмодернистской игры к нравственной реконструкции.

«Искупление» . На первый взгляд, «Искупление» демонстрирует все признаки постмодернистской эстетики: множественность голосов, нелинейную структуру, игру с авторством [1, с. 11]. Однако по существу роман сосредоточен на проблеме ответственности. Таким образом, игра с повествовательными уровнями служит не разрушению истины, а её поиску. Тема вины становится центром художественной структуры.

В «Амстердаме» пространство города интерпретируется как модель общества,

утратившего моральные ориентиры [1, с. 11]. Ирония, безусловно, сохраняется, но она уже не разрушительна, а трагична. Следовательно, эстетика романа выходит за пределы постмодернистского скепсиса.

Джулиан Барнз: память и вариативность прошлого Творчество Дж. Барнза, подробно анализируемое в пособии [1, с. 13–16], демонстрирует особую модель исторического сознания. В «Истории мира в десяти с половиной главах» история предстаёт как совокупность субъективных свидетельств [1, с. 13]. В «Предчувствии конца» память оказывается ненадёжным механизмом интерпретации прошлого [1, с. 14]. Однако, что важно, искажение памяти не ведёт к разрушению смысла — напротив, оно обнажает нравственную ответственность субъекта.

Майкл Фрейн: истина как приближение. В романе М. Фрейна «Одержимый» история оказывается результатом множества приближений [1, с. 11–12]. Таким образом, истина не исчезает, но становится вариативной. Это принципиально отличает постпостмодернистскую модель от радикальной деконструкции. В заключение следует подчеркнуть: постпостмодернизм характеризуется формированием нового гуманистического измерения. М. Эпштейн говорит о «новом гуманизме» как о ключевом признаке эпохи [4, с. 420]. Современный роман вновь обращается к проблемам: личной ответственности, исторической памяти, нравственного выбора. Иначе говоря, художественное сознание возвращается к человеку — но уже после опыта постмодернистского сомнения.

Заключение

Таким образом, постпостмодернизм следует рассматривать не как отрицание постмодернизма, а как его внутреннюю эволюцию. Для него характерны: Сохранение множественности интерпретаций; усиление этического измерения; Реабилитация исторической памяти; Новая субъектная модель; Формирование гуманистической перспективы. Следовательно, современный зарубежный роман рубежа XX–XXI веков демонстрирует движение от иронической деконструкции к ответственному диалогу с историей и культурой.

Список литературы

1. Макарова Л.Ю. Современная зарубежная литература. Екатеринбург, 2018.
2. Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна. СПб., 1998.
3. Jameson F. Postmodernism, or The Cultural Logic of Late Capitalism. Durham, 1991.
4. Эпштейн М. Постмодерн в русской литературе. М., 2005.
5. Hutcheon L. A Poetics of Postmodernism. New York, 1988.
6. Смирнов И.П. История и постмодернизм. М., 2001.

O‘ZBEK DRAMALARIDA KULGI IFODALASHNING KOMIKLIK VA FOJIYAVIYLIK KATEGORIYALARI

Nizomova Shohista Shodiyevna
BuxDPI dotsenti, Ff.f.d.(PhD).

Ahmadova Ferangiz Hamza qizi
BuxDPI I bosqich magistranti

Annotatsiyaa: Ushbu maqolada zamonaviy o‘zbek dramalarida kulgi ifodalashda komiklik va fojiyaviylik uyg’unligi, badiiy mahorat hamda kulgining estetik vazifasi kabi masalalar ilmiy – nazariy tahlil qilingan.

Kalit so’zlar: universal shakl, hajviyot, ijodkor, drama, tragediya, komediya, intermediya,odamlar, dunyoqarash, kishi xarakteri, ichki murakkab ruhiy kechinmalar, o‘zgalar, voqelik, munosabat, ifoda, universal vosita, ulkan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy, badiiy- estetik ahamiyat va hokazo.

Аннотация: В данной статье представлен научно-теоретический анализ таких вопросов, как гармония комедии и трагедии в выражении смеха в современных узбекских драмах, художественное мастерство и эстетическая функция смеха.

Ключевые слова: универсальная форма, юмор, создатель, драма, трагедия, комедия, интерлюдия, люди, мировоззрение, человеческий характер, сложные внутренние духовные переживания, другие, реальность, отношение, выражение, универсальный инструмент, большое духовно-просветительское, образовательное, художественно-эстетическое значение и т. д.

Abstract: This article provides a scientific and theoretical analysis of issues such as the harmony of comedy and tragedy in expressing laughter in modern Uzbek dramas, artistic skill, and the aesthetic function of laughter.

Keywords: universal form, humor, creator, drama, tragedy, comedy, interlude, people, worldview, human character, complex internal spiritual experiences, others, reality, attitude, expression, universal tool, great spiritual-enlightening, educational, artistic-aesthetic significance, etc.

Kirish. Zamonaviy o‘zbek adabiyoti kulgiga o’ziga xos munosabatini, birinchi navbatda, o’zining adabiy faoliyati va adabiy baholari bilan ifodalaydi. Ammo kulgini dunyoqarashning universal shakli sifatida oqlaydigan nazariy mulohazalar bizga qadar qadimgi miflarda, mumtoz adabiyot, jadid davri adabiyotida juda ko‘p ifodalangan.

Kulgi azaldan odamlarning dunyoqarashi, kishi xarakteri, ichki murakkab ruhiy kechinmalari, o‘zgalarga va voqelikka munosabatini ifodalovchi universal vosita bo‘lib, ulkan ma’naviy-ma’rifiy, tarbiyaviy, badiiy- estetik ahamiyat kasb etuvchi aql va qalb hosilasi sanalgan. Bunda kulgi insonga nafaqat yaxshi kayfiyat, balki sog‘lik ulashishining amaliyotda kuzatilishi ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Hatto tibbiyotda kulgiterapeya joriylangan va kugi insonlar uchun hayot mantig‘ini anglash, umrni uzaytirish, kasalni davolash vositasi vazifasini o‘tagan.

Shuning uchun inson avlodiga chaqaloqligidan boshlab kilish va kuldira olish o‘rgatiladi. Hatto, yig‘lab turgan chaqaloqlarga maxsus qo‘shiq – “ovutmachoq”lar aytish orqali yig‘idan to‘xtatiladi. Ertaklarda sira kulmaydigan malikalarni kuldirish sharti belgilanib, buning uchun uarning shoh mavqeidagi otalari yarim saltanatini berishga va’da qiladi. Bu esa folklorda azaldan insonning murakkab hayot manzarasi va ob’yektiv borliqqa estetik munosabat bildirishda o‘z an’analarining shakllanganidan dalolat beradi.

Adabiyotlar tahlili. Xalq kulgisi kinoya, satira, va yumordagi kabi reallikni bahoash bilangina

chaklanmaydi. U reallikni baholash tamoyillarining bevosita o‘zini ham taftishdan o‘tkazadi. Xalq kulgisi sub’yektiv ibtidoning yetakchiligi bilan ajralib turadi.Shu ma’noda kulgi, hajv, yumor, badiiy-estetik hodisadir.Ular adabiyot va san’at taraqqiyotida ob’yektiv mavjud bo‘lib, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tortib, badiiy ijodning quyi ko‘rinishidan oliy ko‘rinishi: roman, qissa, hikoyalargacha voqelikka eng faol munosabat tarzida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotdagi har bir janr muallifi xalq kulgi san’atidan, avvalo, muayyan nozik vaziyatlarni shakllantirishda foydalangani kuzatiladi. Shu asnoda satirik yoki yumoristik tabiatli obrazlar tizimi tanlanadi. Dunyo xalq kulgi madaniyatining ildizlari qadimgi yunon nazariy adabiyotlarida qayd etilgan “jiddiy-kulgili” janrlarga borib taqalishini, masallar, bukolikalar, pamfletlar, memuarlar, suqrotona, lukiancha dialoglar uning tarkibiga kirishini, asosida xalq kulgi madaniyati yotuvchi ushbu qadimiy janrlar roman janri uchun poydevor bo‘lganligi ta’kidi olimlarning tadqiqotlarida uchraydi (1.B - 22).

Kulgi chuqur dunyoqarash ma’nosiga ega, u butun dunyo, tarix, inson haqidagi haqiqatning eng muhim shakllaridan biridir. Bu dunyoga alohida universal nuqtai nazar, dunyoni boshqacha ko’rish, lekin jiddiylikdan kam emas. Shuning uchun katta adabiyotda kulgi ham xuddi jiddiylik kabi qabul qilinadi (bundan tashqari, umuminsoniy muammolarni qo‘yadi).

Dunyoning ba’zi juda muhim jihatlari faqat kulgi uchun ochiqdir. Xalq kulgisi universal, samimiy tafakkur shakli bo‘lib, u faqat ijtimoiy hayotning ayrim shaxsiy va xususiy tipik hodisalariga, salbiy hodisalariga murojaat qilishi mumkin. Dunyo va inson haqidagi muhim haqiqatni har doim kulgi tilida aytish mumkin emas. Adabiyotda kulgiga ko‘proq ijtimoiy quyi tabaqalar hayotini aks ettiruvchi past janrlarda o‘rin beriladi.

Kulgi – yo yengil o‘yin-kulgi, yoki yovuz va pastkash odamlar uchun ijtimoiy foydali jazo turidir. Xalq kulgi san’atining ham mohiyati insonlar hayotidagi og‘riqli nuqtalarni kinoyali kulgi ostiga olishdan iboratdir. “Jahon badiiy tafakkuri taraqqiyotida jamiyat hayotidagi hamda ayrim kishilar faoliyatidagi kamchiliklarni ochib tashlashda ustuvor badiiy ahamiyat kasb etuvchi kinoya muayyan davr va xalq adabiyoti qiyofasini belgilaydigan muhim xususiyatga ega”(2. B-3).

Shakl qancha sodda bo‘lsa, mazmun shuncha murakkab, shakl qancha go‘zal bo‘lsa, mazmun shuncha shafqatsiz, shakl qancha kinoyali bo‘lsa, mazmun shu qadar fojiali tus olib boraverishi xalq maydon kulgisi singari yashirin g‘oyaning qudratiga o‘xshaydi. Kulgili lavhalar jiddiy ishora va ramzlarga, darveshnamo monologlar falsafiy payrovga, egri suratlar to‘g‘ri qiyofalarga aylangani kabi badiiy ifoda tasviri og‘zki dramalarga xos xususiyatlardir.

Xalq kulgi madaniyati badiiy asarlarda qahramonlarning xarakterini shakllantirishda badiiy to‘qimaga bo‘lgan ehtiyoj o‘rnini ma’lum ma’noda qoplash uchun xizmat qiladi. Shu bilan birga, nasrning umumiy tizimiga putur yetkazmaydi. Matn yaxlitligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmaydi, balki unga badiiy zeb beradi.

Xalq kulgisining turlari, usullari xuddi hayot va turmush, inson va uning fe’l-atvoridagi qirralar kabi rangba-rang, bisyor. Hajv, tanqid va kulgining ochiq-oydin ifoda yo‘sini qatorida niyat va maqsadni yashirib, turli badiiy bo‘yoqlar zamiriga chirmab beruvchi usullar ham borki, ayni xususiyat kulgi ruhidagi asarning ta’sir kuchini oshirish barobarida, ularga kitobxon e’tibori, qiziqishini yanada chuqurlashtiradi.

Haqiqatni emin-erkin aytish imkoniyati chegaralanib, tug‘ilayotgan yangi, ilg‘or fikr va g‘oyalarni bemalol ifodalash xususiyati xalq kulgi san’ati asosida yaratilgan asarlarga xos alohida xususiyatdir. V.G. Belinskiy komiklik va tragiklikning mohiyati garchi ichki, mazmuniy hodisa ekanligi, albatta, g‘oyalardan kelib chiqishini ta’kidlasa-da, obyektiv voqelikda–hayotda bo‘lgan komiklik va fojiaviylik uyg‘unlikda kelishi haqidagi fikrlarni ham anglab olish qiyin emas. “Umuman shuni unutmaslik kerakki, xuddi hayotda bo‘lgani kabi, adabiyotda ham tragiklik va komiklik elementlari aralashib ketadi; nima uchun Shekspir dramalarida asosiy qahramonlar bilan birgalikda, qiziqchilar, masxarabozlar, kaltabin kimsalar ham bor. Huddi shu kabi komik asarlarda ham olijanob, kuchli va yorqin xarakterli shaxslar ham uchraydi.

Fojia va kulgining tafovuti, farqi bunda emas, balki mohiyatdadir”(3. B - 222). Dramatik

asarlarda epik asardan farqli tarzda syujet voqealari yuz beradigan makon sifat jihatidan ham cheklangan bo‘ladi. Dramatik asar muallifi go‘yo asar voqealaridan butun ikir-chikirigacha xabardor, shu bois voqea tafsilotlari, uning yuz berish vaqti, joyi haqida oldindan ma’lumot bera oladi.

Dramaning o‘z me’yorlari bor. Butun voqelikni qahramonlar xatti-harakati orqali ko‘rsatish, ularning xarakterini, o‘ziga xos jihatlarini so‘zlarida, qilayotgan ishlarida ifodalash darkor. Biz atrof-muhitni avvalo ko‘rish, eshitish va hokazo sezim unsurlarimiz bilan anglaymiz.

Ammo, bu sezgilarimiz orqali ko‘proq tovushlarning past-balandligini his qilamiz. Tabiiy jihatdan inson anglashi mumkin bo‘lmagan jihatlarni, tebranishlarni sezmaymiz. Shuning uchun turli mikroskop,teleskop, ovoz kuchaytirgichlar elektrokardiografiyalardan foydalanamiz. Yozuvchi anglamoqchi bo‘lgan borliq faqat ko‘zga ko‘rinadigan narsalar emas, bu insonning ko‘rinmas ichki dunyosi, qalbi. Favqulodda murakkab, o‘zgaruvchan ruhiy olami(4. B – 201-202).

Ijodkorning o‘ziga xosligini belgilaydigan asosiy mezon poetik tafakkurning yangilanishidir. Poetik nuqtayi nazarning individuallashuvi badiiy adabiyotda novatorlikni yuzaga keltiradi. Bu jarayon, o‘z navbatida, hayot hodisalariga yondashuvning an’anaviy yechimlaridan farqli ravishda, ijodiy tafakkur orqali yangicha qarashlar, yechimlar va xulosalarga yo‘l ochadi.

Shaxsiy ma’naviy-axloqiy pozitsiyasi dunyo haqidagi turli nuqtayi nazarlar, boshqa “haqiqatlar” bilan faol munosabatda shakllanadi. Birovning hayotiy qadriyatlar tizimini singdirib yoki rad etish orqali inson o‘zining axloqiy va falsafiy maslagini tobora qat’iyroq belgilaydi. G‘oyaviy-axloqiy muammolarning o‘ziga xos xususiyati shundaki, boshqa odamlarning dunyo haqidagi nuqtayi nazarini qahramon o‘z ongidan o‘tkazadi; turfa “haqiqatlar” ning qarama-qarshiligi turli xil hayotiy maslaklarga ega qahramonlarning tashqi to‘qnashuvi emas,9garchi ba’zan shunday bo‘lsa ham), balki, birinchi navbatda, qalb va tafakkurning ichkiishi, ko‘pincha o‘z-o‘zi bilan tortishuv- ichki dialogdir.

To‘ra: (kinoyali jilmayib). Bir imzo o‘nta ko‘k qo‘yni yetaklab ketdi. Lekin manavi oromgohdagi bolaparvar masxarabozlarni hozircha tinchitib tursak, keyinchalik gap bizniki.

B e g‘ a m: (taltayib). Hammasi yaxshi bo‘ladi, xo‘jayin.

T o‘ r a: Tilingga ehtiyot bo‘l. Ko‘zing ko‘r, qulog‘ing kar bo‘lsin. Vang‘illagan har itning og‘ziga qo‘l tiqma, qo‘lsiz qolasan. Nima deganimni tushundingmi? Sir berma...

B e g‘ a m: (bosh irg‘aydi). Tushundim.

T o‘ r a: (o‘smoqchilab). Og‘zi bilan yuradiganlarga gap tashlab qo‘ydik, shunisi yetadi (5. B - 265).

Adabiyot turlari ichida eng ta’sirchani, eng ommabopi hajviyot ekan. Shu tariqa hajviyot keng kitobxonlar davrasi, turli sinf vakillari bilan, xalq bilan muloqotda bo‘lishning bir vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Vatandoshimiz Hoji Muin bir maqolasida xalqqa kulgining ta’siri haqida shunday deydi: “Har yerda, ayniqsa, bizning Turkiston xalqig‘a jiddiy so‘zlardan ko‘ra hajviy va kulgili so‘zlarning ko‘prak ta’sir etishi ko‘rinib turadir. Bizning xalq har vaqt to‘g‘ri va jiddiy so‘zlarga iltifot etmay, balki uning teskarisicha kulgilik, hangomalik gaplarga ahamiyat beradir (6. G.S.).

Shu mantiqdan kelib shiqilsa, dramada kinoyaning vazifasi badiiy asarda ijodkorning g‘oyaviy niyatini ta’kidlash va kitobxonga chuqurroq yetkazib berishga xizmat qilishdan iborat ekanligi ayonlashadi.

T o‘ x t a x o n x o l a: Qulman buva to‘qsondan oshib qazo qildi. U kishining ta’ziyasiyam bir to‘y-da.

T i r k a sh b u v a: (kinoya bilan). Ha, Qulman karvonning ta’ziyasi uncha-muncha dang‘illama to‘ydan ziyod bo‘ldi! Baraka topishsin, o‘g‘illariyam otasining o‘limini poylab o‘tirganday, yiqqan-terganlarini ayamay to‘kib-sochishdi. Marhumning ustidan sochilgan dasta-dasta pullarning hisobi yo‘q. Qizlarining dod-faryodidan Sulton buvaning o‘n yil burun tom bitib qolgan quloqlari ochilib ketdi! Ustiga yaltir-yultir matolar yopilgan serhasham tobutni ko‘rgan odamning o‘lgisi

kelib qoladi!.. Ishqilib, Qulman karvonniyam kelinchakni o‘lan aytib go‘shangaga kuzatganday as’asayu dabdaba bilan qabrga qo‘yib keldik. Shuncha amallarning oxiratda nafi tegadigan bo‘lsa, hozir Qulman karvonning ruhi naq jannati Nayimda orom olib yotgan bo‘lsa kerak!(7. B - 300).

Psixologik dramalarda asar hajmi emas, balki uning kompozision qurilishi, syujet yo‘nalishi va shunga mos qahramonlar ruhiy dunyosi muhimlik kasb etadi. Chunki asar qahramoni qalbidagi hissiyotlar hayotda o‘lchab berilgan umrning kuchli va ojiz tomonlari bilan mungli va ojizona kurash olib boradi. Ya’ni asarda voqealar mantig‘i emas, balki harakterlar ruhiyati mantig‘i asar asosini tashkil qiladi.

Umri davomida “pashshaga ham ozor bermagan” Tirkash bobo nutqida juda jo‘n fikrlovchi kishilar, xunuk va mantiqsiz narsa hodisalarga, insonlarga xos nuqson va kamchiliklar samimiy va zaharxanda kulgi vositasida ko‘rsatib beriladi. Hayot muammolari, fojealari va ezguliklarining umumiy holati samimiy nutq orkali yumoristik kulgi hosil qilgan.

Kulgini yuzaga keltiruvchi sabablar turli- tuman.Komediyada kulgi ma’lum bir shaxsni go‘zal tashqi qiyofasi, hatti-harakatlari bian xunuk va puch ichki dunyosi o‘rtasidagi nomuvofiqlikdan, o‘zaro qarama-qarshiligidan keltirib chiqarilgan.

Ko‘rinishidan fidoyi, jonkuyar Norcha va Nurmat faol xuddi shunday kishilar toifasidandir. Insoniyat tarixidan malumki, gunohi azim badali og‘ir bo‘lgan. Muqaddas Qur’on, diniy manbalarda odamzotning imonu adolatdan mosuvo bo‘lishi oqibatlari aniq yoritilgan. Inson nasli o‘lat, toshqin ko‘rinmagan, qutulmagan baloga mubtalo bo‘lib, gunohi badalini o‘tagan.

Dramadagi Nurmat faol va Norcha obrazlarining ko‘r-ko‘rona dinshunosligi satirik kugining paydo bo‘ishiga sabab bo‘lgan. Komediyadagi komik holatlar, ijtimoiy ziddiyatlar, qarama-qarshiliklar orqali yuzaga chiqadi. Eng xunuk va beo‘xshov narsa hodisalar kitobxonda kulgi uyg‘otishi mumkin. Lekin ular ba’zan chuqur ma’noli harakat ustidan ham kuladilar.

XULOSA: Ba’zi qahramonlarning ismi sifatida tanlangan nomlar yoki ismi yoniga tirkab aytilgan laqablar ularning kasb-koriga ishora etib turadi. Nurmat faolga “faol” laqabini berish ham shu mantiqdan kelib chiqqan.Dramatik asarlarda laqablar ham o‘z navbatida kulgi uyg‘otishga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy dramaturgiyada zamonning eng dolzarb muammolari xalq maydon kulgisi (qiziqchilik va askiyachilik, lofchilik) ta’sirida sahnalashtiilgani oydinlashadi. Buning uchun ijodkorlar komediya yoki uning jiddiy yoxud satirik komediya, intermediya kabi shakllariga murojaat qilgani, ko‘pincha go‘rkov, piyanista, g‘alamis tijoratchi-tadbirkor, ochko‘z savdogarlar qiyofasini kinoya vositasida fosh etganliklari kuzatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan Uzoq Jo’raqulov tarjimasi. –Toshkent.: Akademnashr, 2015. –B. 22.

2.Mavlonova O’.H. Amerika nasrida kinoyaning poetik ifoda xususiyatlari: Filologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. –Buxoro., 2022. –B. 3.

3.Белинский В.Г. Взгляд на русскую литературу. –Москва: 1998.– С.222.

4.Alimbekov A. Aziz Nesin – dramaturg. Jahon adabiyoti jurnali. 2021. № 9. -B. 200-201.

5.Qo’chqor Norqobil. Zamindan olis ketma. Drama. –Toshkent: Adabiyot, 2020. –B. 265.

6.Ҳожи Муин Англашилмаслиқ ёки “Таёқ”нинг таъсири //Зарафшон. 1923.18 февраль.

7.G’afur Shermuhammad. Ta’ziyadagi to’y. Jiddiy komediya. –Toshkent: Adabiyot, 2020. –B. 300.

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

ZAMONAVIY TA’LIM MUHITIDA TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISH

Karimova E’zozxon Gapirjovna,
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi, sotsiologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Annotatsiya. Maqolada zamonaviy ta’lim muhitida tolerantlikni rivojlantirish masalasi bo‘yicha metodologik yondashuvlar va nazariy tahlillar o‘z ifodasini topgan. Tadqiqotning dolzarbligi globalizatsiya, migratsiya va jamiyatdagi madaniy turfa xillik jarayonlarining kuchayishi bilan izohlanadi. Bu esa, talabalarda turli madaniyatlar, dinlar va dunyoqarash vakillari bilan konstruktiv muloqot o‘rnatish qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

Kalit so‘zlar: tolerantlik, ta’lim muhiti, madaniyatlararo ta’lim, polimadaniy tarbiya, pedagogik texnologiyalar, tolerant ong, madaniy turfa xillik, madaniyatlararo muloqot.

Kirish. Zamonaviy dunyo madaniy, etnik, diniy va dunyoqarash xilma-xilligi tez sur’at bilan o‘sishi bilan xarakterlanadi. Globalizatsiya, xalqaro migratsiya va jamiyatning informatizatsiya jarayonlari madaniyatlararo aloqalar uchun benazir imkoniyatlar yaratadi, biroq shu bilan birga ksenofobiya, etnik notolerantlik va madaniy izolyatsiya kabi yangi muammolarni ham keltirib chiqaradi [1, 2]. Bunday sharoitda tolerantlikni rivojlantirish zamonaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biriga aylanadi.

Tolerantlik, ijtimoiy-madaniy fenomen va pedagogik kategoriya sifatida turli ilmiy sohalar – falsafa, sotsiologiya, psixologiya bilan aloqadorlikda tadqiq etib kelingan. Xalqaro jamoatchilik XXI asr ta’limining asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida ta’lim oluvchilarni tolerantlik ruhida tarbiyalash Soft-kompetensiyaning dominant elementi ekanligini e’tirof etadi. Bu YuNESKO, Yevropa Kengashining rezolyutsiyasi hamda “Tolerantlik prinsiplari deklaratsiyasi” (1995) kabi hujjatlarda aks ettirilgan [3].

Tolerantlik masalasi bo‘yicha keng tadqiqotlar mavjud bo‘lsa-da, bir qator masalalar hali ham munozaraliligini saqlab qolmoqda: pedagogik kontekstda tolerantlik mohiyati bo‘yicha yagona tushuncha yo‘q, uni rivojlantirishga oid yondashuvlar kam sistematizatsiya qilingan, turli yosh bosqichlarida tolerant ongni rivojlantirish mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, ta’limning raqamlashuvi sharoitida an’anaviy tolerantlik tarbiyasi usullarini yangi ta’lim realliklariga moslashtirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda [4, 5].

Tadqiqot metodologiyasi va metodlari.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqot tolerantlikni ko‘p darajali fenomen sifatida ko‘rish imkonini beruvchi tizimli yondashuv prinsiplariga asoslangan bo‘lib, unda filosofik, sotsiologik, psixologik va pedagogik jihatlar qamrab olinadi. Metodologik asos sifatida shuningdek madaniy yondashuv ham xizmat qiladi (M.M.Baxtin, V.S.Bibler), u tolerantlikni madaniyatlararo muloqot kontekstida tahlil qiladi, va aksiologik yondashuv, u tolerantlikning qadriyatli asoslariga e’tibor qaratadi.

Tadqiqot metodlari. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy bilish metodlaridan foydalanildi: 1) tadqiqot mavzusiga oid falsafiy, sotsiologik va psixologik-pedagogik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish; 2) tolerantlikni rivojlantirishga oid turli konsepsiyalar va yondashuvlarni chog‘ishtirish va taqqoslash; 3) xalqaro va milliy darajadagi ta’lim sohasiga oid me’yoriy-huquqoy hujjatlar kontent tahlili; 4) turli davlatlardagi ta’lim tashkilotlari va ilmiy markazlaridagi tolerantlikni rivojlantirish bo‘yicha ilg‘or pedagogik tajribalarni umumlashtirish.

Tadqiqot reglamenti. Ushbu tadqiqot nazariy tahliliy xususiyatga ega bo‘lib, empirik tadqiqotini o‘z ichiga olmaydi. Tahlil asosan ingliz va rus tillaridagi nashrlar bilan cheklangan. Xronologik

davr oxirgi o‘n yilni qamrab oladi, bu esa masalaning dolzarb holatini taqdim etish zarurati bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari va ular muhokamasi.

I. Pedagogik diskursda tolerantlikning konseptual asoslari.

Tushunchaning paydo bo‘lishi va rivojlanish tarixi. “Tolerantlik” atamasi (lot. tolerantia – sabrlilik, toqatlilik) ko‘p asrlik tarixga ega va turli madaniy an’analarda turlicha talqin qilinadi [6]. G‘arbiy Yevropa an’anasida tolerantlik konsepti XVI-XVII asrlardagi diniy urushlar kontekstida shakllanib, dinlar o‘rtasida sabr va bag‘rikenglik g‘oyalari bilan bog‘liq bo‘lgan (J.Lokk, Volter). Sharq pedagogikasida tolerantlik tushunchasi bag‘rikenglik fenomeni bilan bog‘liqlikda tasavvuf ta’limotining paydo bo‘lishi bilan aloqador ekanligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Zamonaviy tushunchada tolerantlik ancha kengroq, ya’ni dunyomizdagi turli madaniyatlarning boy xilma-xilligi, o‘zini ifoda etish shakllarini, inson individualligini ifoda etish usullarini hurmat qilish, qabul qilish va tushunish sifatida talqin qilinadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari ko‘rsatadiki, pedagogikada tolerantlikni aniqlashda bir necha yondashuvlar shakllangan. Birinchi yondashuvda tolerantlikka o‘zgacha bo‘lgan, o‘z hayoti, xulqi, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikrlari, g‘oyalari va e’tiqodiga turlicha bo‘lgan jihatlarga bo‘lgan toqat sifatida qaraladi (A.G.Asmolov, G.U.Soldatova). Ikkinchi yondashuvda tolerantlikni faol axloqiy pozitsiya va boshqa madaniyat, millat yoki din vakillari bilan ijobiy muloqotga psixologik tayyorlik sifatida talqin qilinadi (V.A.Lektorskiy, M.S.Maskovskiy). Uchinchi yondashuvda tolerantlik shaxsning kognitiv, emotsional va xulq-atvor komponentlarini o‘z ichiga olgan integrativ sifat singari tushuniladi (B.Z.Vulfov, P.F.Komogorov) [7, 8].

Tolerantlik tuzilmasi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar tolerantlikning ko‘pkomponentli tuzilishini qabul qiladi. Eng keng tarqalgani uchkomponentli model bo‘lib, u quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1) kognitiv komponent – madaniy xilma-xillik haqidagi bilimlar, madaniy normalar va qadriyatlar nisbiyligini tushunish, madaniyatlararo tenglikni anglash; 2) emotsional-baholash komponent – empatiya, boshqalar bilan hamdardlik qila olish, madaniy xilma-xilliklarga ijobiy munosabat, salbiy etnik stereotiplar yo‘qligi; 3) xulq-atvorga doir komponent — konstruktiv madaniyatlararo aloqalarni amalga oshirish ko‘nikmalari, muloqotga kirisha olish, boshqa madaniyat vakillari bilan hamkorlik qilishga tayyorlik [9].

Ba’zi mualliflar qo‘shimcha komponentlarni ham ajratishadi: motivatsion-irodaviy (tolerant ustanovkalarning barqarorligi, salbiy ta’sirlarga qarshi turish qobiliyati), refleksiv (o‘z ustanovkalari va xulq-atvorini tanqidiy anglab yetish), kommunikativ (tolerant muloqot strategiyalarini bilish) [10]. Bunday tushunish tolerantlikni rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda muhim metodologik ahamiyatga ega, chunki shaxsning barcha komponentlariga kompleks ta’sir ko‘rsatish zarurligini ko‘rsatadi.

II. Tolerantlik turlari va darajalari.

Zamonaviy ilmiy adabiyotda tolerantlik turlari turli klassifikatsiya mezonlariga ko‘ra ajratiladi. Tolerant munosabat ob’ektlari bo‘yicha quyidagilar ajratiladi: etnik (millatlararo) tolerantlik, diniy tolerantlik, genderlik tolerantlik, yoshga oid tolerantlik, imkoniyati cheklangan shaxslarga tolerantlik, ijtimoiy tolerantlik [11].

Tolerantlik ko‘rsatilish darajasiga ko‘ra: shaxsiy (insonning alohida sifati kabi), guruhda tolerantlik (ijtimoiy, etnik, kasbiy guruhlarda tolerantlik), ijtimoiy (butun jamiyatning o‘ziga xos xususiyati sifatida) bo‘lishi mumkin. Ta’lim jarayonida shaxsiy tolerantlikni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega, chunki u boshqa darajalar rivojlanishi asosi bo‘lib xizmat qiladi.

Ba’zi tadqiqotchilar faol va passiv tolerantlikni ham ajratishadi. Passiv tolerantlik xilma-xillikka toqat bilan munosabat, aralashmaslik, holatni neytral qabul qilishni o‘zida aks etadi. Faol tolerantlik ijobiy aloqa, boshqani tushunishga intilish, muloqot va hamkorlikka tayyorlikni anglatadi. Pedagogik amaliyot aynan faol tolerantlikni rivojlantirishga yo‘naltirilishi kerak [12].

III. Ta’limda tolerantlikni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro tajriba

Xalqaro tajribani solishtiruvchan tahlil qilish turli davlatlarda tolerantlikni tarbiyalashga

oid yondashuvlar xilma-xilligini ko‘rsatadi, bu esa har bir mamlakatning tarixiy va madaniy xususiyatlari bilan izohlanadi. 1-jadvalda tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishga doir turli modellar keltirib o‘tilgan.

1-jadval

Tolerantlik kompetensiyasini rivojlantirishga doir ta’limiy modeллар benchmarkingi

Model	Mamlakat	Asosiy xususiyatlar
Multimadaniylik	Kanada, Avstraliya, AQSh (qisman)	Madaniy plyuralizmni e’tirof etish va qo‘llab-quvvatlash; etnik guruhlarning madaniy identichligini saqlash; ikki tilli ta’lim; ona tillari va madaniyatlarini o‘rganish
Assimilyasion	Fransiya, Yaponiya	Migrantlarning dominant madaniy normalarni qabul qilish orqali integratsiyasi; fuqarolik birligiga urg‘u berish; davlat tili va mamlakat tarixini majburiy o‘rganish
Madaniyatlararo	Germaniya, Niderlandiya, Skandinaviya davlatlari	Madaniyatlar o‘rtasidagi muloqot va o‘zaro aloqa; madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirish; ta’lim dasturlariga turli madaniyatlar elementlarini kiritish; o‘qituvchilarni ko‘p madaniyatli muhitda ishlashga tayyorlash
Tenglik va ijtimoiy adolat	Buyuk Britaniya, JAR	Irqchilik va kamsitishga qarshi kurashish; ijtimoiy tengsizlikni tanqidiy tahlil qilish; ijtimoiy adolat uchun ta’lim; tanqidiy fikrlashni rivojlantirish

Xalqaro tajriba tahlili ko‘rsatadiki, eng samarali ta’lim modeli – madaniy muloqot, o‘zaro boyitilganlik va madaniy turfa xillikka hurmat tamoyillariga asoslangan madaniyatlararo modeldir. Bu model ta’lim oluvchilarda turli madaniyat vakillariga nisbatan tolerant munosabatni shakllantiribgina qolmay, balki samarali madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini ham rivojlantiradi [13, 14].

4. Tolerantlikni rivojlantirishga doir pedagogik texnologiyalar.

Zamonaviy pedagogik ilm-fan va ta’lim amaliyotida tolerantlikni rivojlantirish uchun katta usullar majmui va texnologiyalari mavjud. Tadqiqotlarni tizimli tahlil qilish quyidagi pedagogik texnologiyalar majmuini tasniflash imkonini berdi.

Samarali muloqot texnologiyalari. Muloqot tolerantlikni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida qaraladi. O‘quv muloqot texnologiyalari (S.Yu.Kurganov, V.S.Bibler) ta’lim jarayonini turli madaniy pozitsiyalarning tutashuvi, nuqtai nazarlar to‘qnashuvi va haqiqatni birgalikda izlash sifatida tashkil qilishni nazarda tutadi. Samarali shakllari: diskussiyalar, debatlar, filosofik suhbatlar, sokratik muloqotlaran iborat. Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, muloqot texnologiyalarini

tizimli qo‘llash tanqidiy fikrlash, empatiya va o‘zgalar nuqtai nazarlarini tushunish qobiliyatini rivojlantiradi [15].

O‘yin va trening texnologiyalari. Ijtimoiy-psixologik tolerantlik treninglari madaniyatlararo muloqot vaziyatlarini modellashtirish va xavfsiz muhitda tolerant xulq-atvor ko‘nikmalarini rivojlantirishga imkon beradi. Maxsus shakllar: rolli o‘yinlar, simulyatsiyalar, keys-stadidan iborat. Detsentratsiya o‘yinlari – vaziyatni boshqa inson ko‘zlari bilan ko‘rish qobiliyati – alohida ahamiyatga ega. 47 ta tadqiqotning metatahlili shuni ko‘rsatdiki, o‘yin metodlari ta’lim oluvchilarning etnik tolerantlik darajasini statistik sezilarli tarzda ($p<0,01$) oshiradi [16].

Loyihaviy faoliyat. Madaniyatlararo va ijtimoiy loyihalar tolerant xulq-atvorni amaliy o‘zlashtirish uchun sharoit yaratadi. Samarali loyihalar: turli xalqlar madaniy merosini o‘rganish, madaniy almashinuvlar tashkil etish, volontyorlik faoliyati, tolerantlik muzeylarini yaratish. Loyihaviy faoliyat nafaqat tolerantlikning kognitiv komponentini (madaniyatlar haqida bilimlar), balki xulq-atvor komponentini (aloqa qilish tajribasi) ham rivojlantiradi [17].

San’at va adabiyot vositalaridan foydalanish. Badiiy adabiyot, kino, teatr, tasviriy san’at empatiyani rivojlantirish va «O‘zga»ni tushunishda katta salohiyatga ega. Turli madaniyat vakillari hayotini ochib beradigan asarlarni o‘qish va muhokama qilish, tolerantlik muammolariga bag‘ishlangan filmlarni tomosha qilish, san’at asarlarini tahlil etish «O‘zga»ning tajribasini emotsional jihatdan his etishga yordam beradi. Tadqiqotlar tasdiqlaydiki, badiiy matnlar bilan ishlash etnik noto‘g‘ri tushunchalar darajasini sezilarli darajada pasaytiradi [18].

Interaktiv o‘qitish usullari. Bu guruhga ta’lim jarayoni ishtirokchilarining faol o‘zaro hamkorligini nazarda tutadigan usullar kiradi: guruhdagi ish, kooperativ o‘qitish, loyiha usuli, o‘zaro o‘qitish. Ayniqsa tarkibi jihatdan xilma-xil guruhlarda kooperativ o‘qitish texnologiyasi (Cooperative Learning in Heterogeneous Groups) samarali hisoblanadi, chunki u ijobiy o‘zaro bog‘liqlik, teng huquqli ishtirok va hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun sharoit yaratadi [19].

Raqamli texnologiyalar. Ta’limni raqamlashtirish sharoitida tolerantlikni rivojlantirishda onlayn-texnologiyalarning ahamiyati ortib bormoqda: virtual tolerantlik muzeylari, ta’lim veb-kvestlar, madaniyatlararo muloqot uchun ijtimoiy tarmoqlar, tolerantlik muammolariga bag‘ishlangan ommaviy ochiq onlayn kurslar (MOOC). Telekommunikatsiya loyihalari turli mamlakatlar va madaniyatlarga mansub o‘quvchilar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotni tashkil etish imkonini beradi. Shu bilan birga, tadqiqotlar raqamli muhitda xavf-xatarlar — nafrat tili, kiberbulling tarqalishini qayd etadi, bu esa raqamli tolerantlikni rivojlantirish bo‘yicha maxsus ish olib borishni talab qiladi [20].

5. Muammoli sohalar va bahsli masalalar.

Tolerantlikni rivojlantirish nazariyasi va amaliyotidagi salmoqli yutuqlarga qaramay, ushbu sohada qator muammoli zonalar va bahsli masalalar mavjud.

Tolerantlik chegaralari muammosi. Markaziy savollardan biri — tolerantlik bilan beparvolik o‘rtasida, boshqani hurmat qilish bilan o‘z qadriyatlaridan voz kechish o‘rtasidagi chegara qaerdan o‘tadi. Faylasuf K.Popper «tolerantlik paradoksi»ni shakllantirgan: cheksiz tolerantlik tolerantlikning yo‘qolishiga olib keladi, chunki tolerant jamiyat toqatsizlikka nisbatan toqatsiz bo‘lishi kerak. Pedagogik kontekstda bu mutlaq emas, balki universal gumanistik qadriyatlarga asoslangan oqilona tolerantlikni rivojlantirish zarurligini anglatadi.

Tolerantlik va identiklik nisbati. Tolerantlikni rivojlantirish o‘z madaniy identikligini saqlab qolish bilan qanday uyg‘unlashishi masalasi bahsli hisoblanadi. Bir qator tadqiqotchilar multikulturalizmga haddan tashqari urg‘u berish kontekstida identiklikning yo‘q bo‘lib ketish xavfini ta’kidlaydilar. Boshqa mualliflar esa kuchli ijobiy etnik identiklik tolerantlikka zid emas, aksincha, samarali madaniyatlararo muloqot uchun asos yaratishini isbotlaydilar.

Tolerantlikni tarbiyalash dasturlari samaradorligini baholash. Metodologik muammo sifatida tolerantlikni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik sa’y-harakatlar natijadorligini baholash masalasi qolmoqda. Mavjud diagnostika usullari ko‘pincha belgilangan (deklarativ) ustanovkalarni o‘lchash

bilan cheklanadi, ular esa real xulq-atvorga mos kelmasligi mumkin. Tolerantlikning xulq-atvor komponentini baholash uchun amaldagi vositalarni ishlab chiqish zarur.

Pedagoglarnitayyorlashmuammosi.Tadqiqotlarko‘rsatadiki,ko‘plabo‘qituvchilarpolimadaniy sinflar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch keladilar, madaniyatlararo kommunikatsiya sohasida yetarli kompetensiyalarga ega emaslar. Tolerantlikni tarbiyalash vazifalarini amalga oshirishga pedagoglarni maxsus tayyorlash, jumladan o‘qituvchining shaxsiy tolerantligini rivojlantirish muammosi dolzarblashmoqda.

Xulosa. O‘tkazilgan nazariy obzor quyidagi xulosalarni rivojlantirish imkonini beradi. Tolerantlik kognitiv, emotsional-baholovchi va xulq-atvor komponentlarini o‘z ichiga olgan murakkab ko‘p komponentli fenomen bo‘lib, uni samarali rivojlantirish barcha tuzilmaviy elementlarga kompleks ta’sir ko‘rsatishni talab qiladi. Xalqaro tajriba tolerantlik ruhidagi ta’limning turli modellarini namoyish etadi, ular orasida eng istiqbollisi madaniyatlar muloqoti, o‘zaro hurmat va boyitish, madaniyatlararo kompetentlikni rivojlantirish prinsiplariga asoslangan madaniyatlararo model hisoblanadi. Zamonaviy pedagogik amaliyot tolerantlikni rivojlantirish uchun keng ko‘lamli texnologiyalarga ega (muloqot texnologiyalari, o‘yin va trening usullari, loyihaviy faoliyat, san’at va adabiyot vositalaridan foydalanish, interaktiv o‘qitish usullari, raqamli texnologiyalar). Shu bilan birga, eng yuqori samaradorlikni o‘quvchilarning faol pozitsiyasini, madaniyatlararo o‘zaro hamkorlikda shaxsiy tajriba orttirishni va emotsional kechinmalarni ta’minlaydigan usullar namoyon etadi. Tolerantlikni rivojlantirish faqat maxsus dasturlar va tadbirlar orqali emas, balki umumiy tolerant ta’lim muhitini yaratish orqali ham amalga oshirilishi kerak. Bu maktab hayotining barcha jihatlarida — ta’lim mazmunida, o‘qitish usullarida, pedagogik muloqot uslubida, darsdan tashqari faoliyatni tashkil etishda tolerantlik prinsiplarini amalga oshirishni nazarda tutadi. Tolerantlikni muvaffaqiyatli tarbiyalashning asosiy sharti pedagoglarning o‘zlarini tayyorlashdir — ularning madaniyatlararo kompetentligini rivojlantirish, shaxsiy tolerant ustanovkalarini rivojlantirish, tegishli pedagogik texnologiyalarga egalik qilishdan iboratdir.

Kelgusi tadqiqotlar uchun istiqbolli yo‘nalishlar quyidagilardan iborat:

- auditoriya va auditoriyadan tashqari faoliyatni, formal va noformal ta’limni qamrab olgan tolerantlikni rivojlantirishning integratsiyalashgan modellarini ishlab chiqish va aprobatsiya qilish;
- tolerantlikni rivojlantirishning yoshga xos xususiyatlarini o‘rganish va turli yosh guruhlari uchun differensiallashgan dasturlar yaratish;
- raqamli texnologiyalarning tolerantlikni rivojlantirishdagi salohiyatini tadqiq etish va raqamli muhitda betoqatlik namoyonlariga qarshi kurash usullarini ishlab chiqish;
- tolerantlikni tarbiyalash dasturlari samaradorligini baholaydigan, faqat deklarativ ustanovkalarni emas, balki real xulq-atvorni ham o‘lchaydigan amaldagi instrumentlarni ishlab chiqish;
- oilaning tolerantlikni rivojlantirishdagi rolini o‘rganish va oilaviy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish;
- pedagoglarni polimadaniy ta’lim muhitida ishlashga tayyorlash muammosini tadqiq etish va o‘qituvchilarning madaniyatlararo ta’lim sohasida malakasini oshirishning samarali modellarini yaratish.

Tolerantlikni shaxsning integrativ sifati, boshqalar bilan konstruktiv muloqot qilish qobiliyati sifatida rivojlantirish zamonaviy ta’limning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu vazifani hal etish tadqiqotchilar va amaliyotchilar sa’y-harakatlarini birlashtirishni, ilmiy asoslangan dasturlar va texnologiyalarni ishlab chiqishni, ta’limning barcha bosqichlarida tizimli ish olib borishni talab qiladi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Asmolov A.G., Soldatova G.U., Shaygerova L.A. O smыslax ponyatiya «tolerantnost» //

Vek tolerantnosti: nauchno-publiцisticheskiy vestnik. – 2001. – № 1. – S. 8-18.

2. Banks J.A. Multicultural education: historical development, dimensions, and practice // Review of Research in Education. – 2019. – Vol. 43, No.1. – P. 8-39. DOI: 10.3102/0091732X18817307

3. Declaration of Principles on Tolerance // UNESCO. 1995. URL: https://www.unesco.org/en/tolerance (data obraщeniya: 15.12.2024).

4. Vulfov B.Z., Ivanov V.D., Skorobogatova G.G. Vospitanie tolerantnosti: suщnost i sredstva // Vneshkolnik. – 2002. – № 6. – S.12-16.

5. Bondыreva S.K., Kolesov D.V. Tolerantnost (vvedenie v problemu). M.: Izd-vo MPSI; Voronej: MODEK, 2003. – 240 s.

6. Lektorskiy V.A. O tolerantnosti, plyuralizme i kritiцizme // Voprosы filosofii. – 1997. – № 11. – S. 46-54.

7. Stepanov P.V. Vospitanie tolerantnosti u shkolnikov: teoriya, metodika, diagnostika / pod red. L.I. Novikovoy. M.: APKiPRO, 2003. – 84 s.

8. Komogorov P.F. Formirovanie tolerantnosti v mejlichnostnых otnosheniyax studentov vыsshego uchebnogo zavedeniya: dis. ... kand. ped. nauk. Kurgan, 2000. – 193 s.

9. Soldatova G.U., Shaygerova L.A., Sharova O.D. Jit v mire s soboy i drugimi: trening tolerantnosti dlya podrostkov. – M.: Genezis, 2001. – 112 s.

10. Klepцova E.Yu. Psixologiya i pedagogika tolerantnosti: uchebnoe posobie dlya slushateley sistemы dopolnitelnogo professionalnogo pedagogicheskogo obrazovaniya. M.: Akademicheskiy proekt, 2004. 176 s.

11. Pochebut L.G. Etnicheskaya tolerantnost kak faktor profilaktiki mejetnicheskoy napryajennosti // Mir psixologii. – 2007. – № 1. – S.146-158.

12. Shalin V.V. Tolerantnost (kulturnaya norma i politicheskaya neobxodimost). – Rostov n/D: Izd-vo RGPU, 2000. – 256 s.

13. Barrett M. Interculturalism and multiculturalism: similarities and differences. Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2013. – 48 p.

14. Deardorff D.K. Intercultural competence: mapping the future research agenda // International Journal of Intercultural Relations. – 2020. – Vol. 76. – P. 90-98. DOI: 10.1016/j.ijintrel.2020.03.002

15. Kurganov S.Yu. Rebenok i vzroslыy v uchebnom dialoge: kniga dlya uchitelya. – M.: Prosveщenie, 1991. – 127 s.

16. Pettigrew T.F., Tropp L.R. A meta-analytic test of intergroup contact theory // Journal of Personality and Social Psychology. – 2006. – Vol. 90, No.5. – P. 751-783. DOI: 10.1037/0022-3514.90.5.751

17. Buxarova I.S., Stolyarova I.V. Diagnostika i razvitie tolerantnosti lichnosti: uchebno-metodicheskoe posobie. – Ekaterinburg: Rossiyskiy gosudarstvennыy professionalno-pedagogicheskiy universitet, 2002. – 196 s.

18. Kidd D., Castano E. Reading literary fiction improves theory of mind // Science. – 2013. – Vol. 342, No. 6156. – P. 377-380. DOI: 10.1126/science.1239918

19. Slavin R.E. Cooperative learning and academic achievement: why does groupwork work? // Anales de Psicología. – 2014. – Vol. 30. – No. 3. – P. 785-791. DOI: 10.6018/analesps.30.3.201201

20. Soldatova G., Rasskazova E. Psychological models of digital competence and online risks in adolescents // Psychology in Russia: State of the Art. – 2021. – Vol. 14. – No. 4. – P. 133-149. DOI: 10.11621/pir.2021.0409

TEACHERS' READINESS AND CHALLENGES IN IMPLEMENTING CLIL IN HIGHER EDUCATION SPORT FACULTIES

Akhmedova Maftuna
Center for Higher Education Development Studies, doctoral student

Abstract: This study examines teachers' readiness and the main challenges of implementing Content and Language Integrated Learning (CLIL) in higher education sport faculties in Uzbekistan. Using a mixed-methods approach, data were collected through questionnaires and interviews with sport faculty teachers. The findings show that although teachers have strong subject knowledge and positive attitudes toward CLIL, their readiness is limited by insufficient English proficiency, lack of methodological training, and the absence of CLIL-oriented teaching materials. Institutional constraints, including heavy workload and limited professional development opportunities, also hinder effective CLIL implementation.

Keywords: CLIL, teacher readiness, higher education, sport faculties, ESP

ГОТОВНОСТЬ ПРЕПОДАВАТЕЛЕЙ И ПРОБЛЕМЫ ВНЕДРЕНИЯ CLIL В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ СПОРТИВНОГО ПРОФИЛЯ

Ахмедова Мафтуна
Центр Исследований Развития Высшего Образования, докторант (PhD)

Аннотаци: В статье анализируются готовность преподавателей и основные трудности внедрения CLIL в высших учебных заведениях спортивного профиля Узбекистана. В исследовании использован смешанный метод, включающий анкетирование и интервью. Результаты показывают, что при высоком уровне предметных знаний и положительном отношении к CLIL преподаватели сталкиваются с недостаточным владением английским языком, нехваткой методической подготовки и учебных материалов. Институциональные ограничения также затрудняют внедрение CLIL.

Ключевые слова: CLIL, готовность преподавателей, высшее образование, спортивные факультеты, ESP

OLIY TA'LIM MUASSASALARINING SPORT YO'NALISHLARIDA CLIL METODOLOGIYASINI JORIY ETISHDA O'QITUVCHILARNING TAYYORGARLIGI VA MUAMMOLARI

Maftuna Axmedova,
Oliy Ta'limni Rivojlantirish Tadqiqotlari Markazi, tayanch doktarant

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarining sport fakultetlarida CLILni joriy etishda o'qituvchilarning tayyorgarligi va asosiy muammolarini o'rganadi. So'rovnoma va intervyular asosida olingan natijalar o'qituvchilar fan bilimlariga ega bo'lsa-da, ingliz tilini yetarli darajada bilmaslik, metodik tayyorgarlik va CLIL materiallarining yetishmasligi ularning CLILga tayyorgarligini cheklayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, institutsional cheklovlar ham muhim to'siq hisoblanadi.

Kalit so'zlar: CLIL, o'qituvchi tayyorgarligi, oliy ta'lim, sport fakultetlari, ESP

Introduction. In recent years, the rapid internationalization of the sports industry has significantly increased the demand for professionals who possess strong communicative competencies in English, alongside advanced subject-specific knowledge. As sports organizations, federations, and management bodies engage in cross-border collaboration, event coordination, and athlete relations, higher education institutions are under growing pressure to prepare graduates who

can function effectively in multilingual and multicultural environments. To meet these evolving demands, many universities around the world have begun integrating Content and Language Integrated Learning (CLIL) into their curricula, particularly within applied fields such as business, tourism, and sport management.

CLIL has gained global recognition as an innovative pedagogical approach that simultaneously develops learners' content knowledge and foreign language proficiency. Previous research has shown that CLIL can enhance students' academic performance, motivation, and professional readiness by providing authentic, discipline-specific communication experiences. Despite its pedagogical advantages, the successful implementation of CLIL largely depends on teachers' readiness—specifically their linguistic competence, methodological awareness, and ability to design integrated instructional materials that align with both content and language objectives.

In the context of sport faculties, the demand for CLIL is even more pronounced due to the field's inherently international nature and the increasing role of English in sports management, coaching, marketing, and governance. However, implementing CLIL within such practice-oriented disciplines requires teachers to balance theoretical content with language scaffolding, interactive tasks, and real-world communication scenarios. As a result, teacher preparedness becomes a critical factor influencing the effectiveness and sustainability of CLIL practices in higher education sport programs.

Although CLIL has been widely acknowledged as an effective approach for enhancing both disciplinary knowledge and foreign language competence, its implementation in higher education sport faculties remains limited, particularly in developing contexts such as Uzbekistan. While national policies increasingly emphasize the importance of English-medium instruction and integrated pedagogies, many universities lack the institutional infrastructure, teacher training programs, and methodological support required for successful CLIL adoption. As a consequence, the responsibility for designing and delivering CLIL-based courses often falls on teachers who may not possess sufficient linguistic proficiency, pedagogical expertise, or familiarity with CLIL principles.

Despite the growing need for CLIL in sport management and related programs, empirical research examining teachers' readiness and the specific challenges they encounter remains scarce. This gap in the literature prevents institutions from designing targeted support mechanisms and evidence-based CLIL training initiatives. Therefore, a systematic investigation into teacher preparedness and contextual barriers is crucial for informing sustainable CLIL implementation in sport faculties.

Purpose and research gap

The purpose of this study is to examine the readiness of higher education sport faculty teachers to implement Content and Language Integrated Learning (CLIL) and to identify the main challenges they face in this process. The study focuses on teachers' linguistic competence, methodological awareness, and the institutional factors that influence CLIL adoption. To achieve this aim, the research addresses the following questions:

(1) What is the current level of CLIL readiness among sport faculty teachers?

(2) What linguistic, pedagogical, and institutional challenges limit effective CLIL implementation?

(3) What forms of support and training do teachers consider necessary for successful CLIL integration in sport-related programs?

Literature Review

Content and Language Integrated Learning (CLIL) has become an influential pedagogical approach in higher education, particularly in contexts where institutions aim to internationalize academic programs and enhance students' foreign language proficiency. Defined by Coyle, Hood, and Marsh as a dual-focused approach that integrates subject content with language learning, CLIL promotes deeper cognitive engagement, increased exposure to authentic academic discourse, and

the development of domain-specific communication skills[2, 3, 6]. In recent decades, universities across Europe and Asia have adopted CLIL as part of broader initiatives to improve the quality of instruction, support multilingual education, and prepare graduates for participation in global academic and professional environments.

Empirical studies consistently indicate that CLIL contributes to improved language proficiency, particularly in academic and professional registers relevant to students' fields of study. Research by Dalton-Puffer and later by Peres-Canado demonstrates that CLIL enhances students' conceptual understanding, supports long-term retention, and increases motivation due to the meaningful integration of content and language tasks [4, 7]. In higher education settings, CLIL is especially valued for its ability to align language learning with real-world disciplinary needs, making it highly applicable to practice-oriented fields such as business, tourism, engineering, and sports management.

Despite its benefits, the adoption of CLIL in higher education is uneven and often limited by contextual constraints [1]. Studies show that successful CLIL implementation requires a clear institutional strategy, teacher training, appropriate curriculum design, and access to specialized teaching materials. In many developing contexts, CLIL remains an emerging practice, and universities struggle to provide the structural support required for sustained implementation. These challenges become even more pronounced in fields where instruction relies on practical tasks, technical terminology, and interdisciplinary knowledge—conditions typical of sport-related programs.

Teacher Readiness for CLIL

Teacher readiness is widely recognized as one of the most critical factors determining the success of CLIL implementation in higher education. Coyle, Hood and Marsh (2010) discussed that effective CLIL teaching requires a combination of linguistic competence, subject expertise, and methodological awareness—dimensions that many educators may not simultaneously possess [2]. In most contexts, teachers are content specialists rather than language instructors, which creates an inherent challenge when they are required to integrate language objectives into subject teaching.

Linguistic readiness is often highlighted as the primary barrier, with studies showing that many lecturers lack the B2–C1 level proficiency needed to deliver content confidently in a foreign language. Limited vocabulary, difficulties in explaining complex concepts, and concerns about making linguistic errors frequently reduce teachers' confidence and willingness to adopt CLIL-based instruction[8]. Pedagogical readiness presents an additional challenge: teachers may be familiar with traditional lecture-style instruction but have limited exposure to CLIL methodologies such as scaffolding, task-based learning, or dual-focused lesson planning.

Another key dimension of readiness involves material design and assessment literacy. Because CLIL requires the integration of content and language outcomes, teachers must be capable of preparing bilingual course materials, selecting appropriate linguistic supports, and evaluating both content mastery and communicative performance [5]. Numerous studies have documented teachers' struggles with creating such materials, especially in specialized fields where ready-made CLIL resources are scarce.

The integration of CLIL into sport education is a relatively recent but increasingly necessary development driven by the rapid globalization of the sports sector. Unlike many academic disciplines, sport-related programs require not only theoretical knowledge but also practical competencies, communication skills, and familiarity with international standards, rules, and professional terminology. As English has become the dominant lingua franca of global sport—used in coaching, sports management, media relations, sports science research, and international competitions—the ability to teach sport-specific content through English is gaining importance in higher education.

However, implementing CLIL in sport education presents unique challenges. Sport-related subjects frequently involve hands-on activities, demonstrations, and practical sessions where integrating language support is more complex than in lecture-based disciplines. Teachers must manage dynamic classroom environments, provide real-time feedback, and use specialized terminology consistently—all while ensuring that students understand both the content and the language. The scarcity of CLIL-friendly materials tailored to sports science and management further complicates this process, requiring teachers to create or adapt resources independently.

Furthermore, sport faculty teachers often come from highly practice-oriented professional backgrounds and may have limited formal training in language pedagogy or CLIL methodology. As a result, many feel unprepared to adopt dual-focused instruction without institutional support or targeted training. These challenges highlight the need for empirical research exploring teacher readiness, contextual barriers, and potential solutions for integrating CLIL effectively into sport education.

Methodology

Research Design

This study employed a descriptive mixed-methods design to examine the readiness of higher education sport faculty teachers to implement CLIL and to identify the challenges they encounter. The combination of quantitative and qualitative approaches enabled a comprehensive understanding of teachers' linguistic competence, pedagogical preparedness, and institutional conditions supporting CLIL implementation.

Participants

The study involved sport faculty teachers from Uzbekistan State University of Physical Education and Sport. Participants were selected through purposive sampling to ensure representation of teachers who currently teach, or are expected to teach, CLIL-based or English-mediated courses. The sample included instructors in sport management, sports pedagogy, sports science, and related disciplines.

Instruments

Data were collected using two instruments:

1. A structured questionnaire, designed to evaluate teachers' linguistic proficiency, methodological familiarity with CLIL, perceived challenges, and institutional support. The questionnaire included Likert-scale items and open-ended questions.

Аннотация: В статье исследуется формирование методики повышения читательской грамотности в начальных классах на основе текстов по естествознанию. Использованы содержательно-аналитический подход, наблюдения в классе и диагностические задания на понимание. Результаты показывают, что поэтапное усложнение текста, лексическая поддержка и стратегии вопросов улучшают понимание и интерпретацию. Предложена научно обоснованная модель интеграции чтения и предметного содержания.

Русский: читательская грамотность, тексты по естествознанию, понимание текста, лексическая поддержка, стратегии вопросов, интегрированное обучение, формирующее оценивание

DEVELOPMENT OF A METHODOLOGY FOR ENHANCING READING LITERACY IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH NATURAL SCIENCE TEXTS

Barakayeva Shahnoza Fazliddin qizi
is a first-year Master’s degree student at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract: This article examines how to develop a methodology for improving reading literacy in primary grades through science-related texts. The study applies content-analytic design, classroom observations, and diagnostic comprehension tasks. Results indicate that gradual text complexity, vocabulary scaffolding, and question-driven strategies significantly enhance understanding and interpretation. The paper contributes an evidence-informed model integrating reading instruction with science content and assessment.

English: reading literacy, science texts, text comprehension, vocabulary scaffolding, questioning strategies, integrated instruction, formative assessment

Introduction

Boshlang‘ich ta’limda o‘qish savodxonligi nafaqat til o‘qitishning yakuniy natijasi, balki barcha fanlarni o‘zlashtirishning asosiy sharti sifatida qaraladi. O‘quvchi matnni o‘qibgina

qolmay, undagi mazmunni ajrata olishi, dalillarni tushunishi, sabab-oqibat bog‘lanishlarini tiklashi va muallif niyatini taxmin qilishi zarur. Shu jihatdan tabiiy fanlarga oid matnlar boshlang‘ich sinflarda o‘qish savodxonligini rivojlantirish uchun alohida metodik imkoniyat yaratadi: bunday matnlar tasviriy va izohli bo‘lib, hodisalarni kuzatish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosalash kabi kognitiv amallarni talab qiladi. Biroq amaliyotda tabiiy fan matnlari ko‘pincha faqat ma’lumot beruvchi material sifatida ishlatiladi, o‘qishning strategik jarayonlari esa ikkilamchi bo‘lib qoladi. Natijada o‘quvchi termin va faktlarni yodlab olishi mumkin, lekin matndan ma’no chiqarish, asosiy g‘oyani ajratish, sababiy izohlarni kuzatish kabi kompetensiyalar yetarli shakllanmaydi.

So‘nggi yillarda xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS va PISA doirasidagi ilmiy yondashuvlar o‘qish savodxonligini matn turlari, maqsad va strategiyalar kesimida o‘lchashga e’tibor qaratdi, bu esa boshlang‘ich sinfda fanlararo integratsiyalashgan o‘qitish zaruratini kuchaytirdi [1; 2]. Ilmiy adabiyotlarda fan matnlari bilan ishlashda “kontent va til” uyg‘unligi, akademik lug‘at, matn tuzilmasini anglash, grafik ma’lumotlarni talqin qilish kabi omillar asosiy determinant sifatida ko‘rsatiladi [3; 4]. Rossiya metodik maktabida ham o‘qish savodxonligini “o‘qish faoliyati” sifatida bosqichli tashkil etish, savol-javob va qayta ifodalash usullari orqali tushunishni chuqurlashtirish g‘oyalari keng ishlab chiqilgan [5]. O‘zbekiston boshlang‘ich ta’limi sharoitida esa tabiiy fan matnlari orqali o‘qish savodxonligini oshirish bo‘yicha metodik tizimlashgan, diagnostika va baholash mexanizmlari bilan birga keladigan model yetarlicha yoritilmagan. Ayniqsa, matn murakkabligini didaktik mezonlar asosida bosqichma-bosqich oshirish, terminologik lug‘at bilan ishlashni o‘qish strategiyalari bilan integratsiyalash hamda natijani formatif baholash orqali boshqarish masalalari bo‘yicha tadqiqot bo‘shlig‘i saqlanib qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi boshlang‘ich sinflarda tabiiy fan matnlari orqali o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini shakllantirishning konseptual asoslari va amaliy mexanizmlarini ilmiy asoslashdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar izchil hal etildi: birinchidan, tabiiy fan matnlarining boshlang‘ich o‘qish savodxonligiga ta’sirini belgilovchi didaktik omillar aniqlashtirildi; ikkinchidan, integratsiyalashgan o‘qish-topshiriqlar tizimi va o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlovi (scaffolding) komponentlari tavsiflandi; uchinchidan, metodik modelning natijadorligi diagnostik mezonlar orqali tekshirildi va uning baholash konturi asoslandi.

Methods

Tadqiqot metodologiyasi o‘qish savodxonligini kompetensiya sifatida talqin qiluvchi zamonaviy didaktik qarashlarga va tabiiy fan ta’limida matn bilan ishlashning konstruktiv yondashuviga tayanadi. Metodik konsepsiya fan matnini faqat bilim manbai emas, balki ma’no qurish uchun “kognitiv vosita” sifatida qabul qiladi; shu sababli o‘qish jarayonini rejalashtirish, maqsadni belgilash, tushunishni nazorat qilish va refleksiya qilish kabi metakognitiv amallar markazga qo‘yildi [3]. Tadqiqotda nazariy tahlil, empirik kuzatuv va diagnostik baholashning kombinatsiyalashgan dizayni qo‘llanildi, chunki metodika yaratish nafaqat kontentni tavsiflash, balki sinf amaliyotida ishlashga yaroqli vositalarni sinashni ham talab etadi.

Nazariy bosqichda o‘qish savodxonligini o‘lchash va rivojlantirish bo‘yicha xalqaro hamda mintaqaviy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilindi. Bu tahlil o‘qish jarayonining ikki yirik yo‘nalishini ajratishga imkon berdi: matndan axborotni topish va qayta ishlash, shuningdek, talqin va baholash orqali ma’no qurish [1; 2]. Tabiiy fan matnlari bilan ishlashda mazkur yo‘nalishlar hodisa-ta’rif, sabab-oqibat, jarayon, tasnif kabi matn tuzilmalariga bog‘lanishi aniqlashtirildi. Qiyosiy tahlil, shuningdek, rus metodikasida savol turlari va qayta hikoyalashning tushunishga ta’siri haqidagi qarashlarni hamda ular bilan uyg‘unlashuvchi formatif baholash g‘oyalarini metodik modelga kiritish imkonini berdi [5; 6].

Empirik bosqichda sinf kuzatuvlari va o‘qituvchilar bilan metodik suhbatlar orqali tabiiy fan matnlaridan foydalanish amaliyoti tahlil qilindi. Kuzatuvlar jarayonida o‘quvchining matnni

o‘qishdagi qiyinchiliklari uch guruhga ajratildi: leksik-semantik to‘siqlar (termin va umumilmiy so‘zlar), tuzilma-to‘siqlar (matnning mantiqiy bog‘lanishlarini ko‘rmaslik), va strategik to‘siqlar (savol qo‘yish, taxmin qilish, tekshirish kabi o‘qish strategiyalarining yetishmasligi). Ushbu tasnif metodik intervensiya komponentlarini tanlash uchun asos bo‘ldi.

Diagnostik baholashda o‘qish tushunishini ko‘rsatuvchi mezonlar ishlab chiqildi va tabiiy fan matnlariga moslashtirildi. Mezonlar o‘quvchining asosiy g‘oyani ajratishi, sabab-oqibat zanjirini tiklashi, atama va ta’rifni moslashtirishi, oddiy xulosani dalil bilan asoslashiga qaratildi. Diagnostik topshiriqlar matn oldi, matn ichida va matndan keyingi faoliyatni qamrab oldi; bu yondashuv o‘qish jarayonini “natija” emas, “jarayon” sifatida baholash imkonini berdi [7]. Metodlarning tanlanishi shundan iboratki, nazariy tahlil metodik modelni asoslashga, kuzatuv sinf kontekstidagi real muammolarni aniqlashga, diagnostika esa metodika samaradorligini dalillashga xizmat qildi.

Results

Tadqiqot natijalari tabiiy fan matnlari orqali o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini shakllantirish uchun uchta o‘zaro bog‘liq didaktik shartni ajratib ko‘rsatdi. Birinchi shart matn murakkabligini boshqarishdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisi uchun ilmiy-ommabop matnning qiyinligi faqat uzunlik bilan emas, balki termin zichligi, mantiqiy bog‘lanishlar soni, mavhumlashtirish darajasi va izohlovchi konstruktsiyalar mavjudligi bilan belgilanadi. Shu bois metodikada matnlarni tanlash va moslashtirish mezoni ishlab chiqildi: erta bosqichlarda hodisani tasvirlovchi, aniq predmetli va ko‘rgazmali matnlar; keyingi bosqichlarda esa sabab-oqibat va jarayonni izohlovchi matnlar kiritildi. Ushbu ketma-ketlik o‘quvchining tushunish yuklamasini me’yorlashtirdi va o‘qishdagi muvaffaqiyat tajribasini barqarorlashtirdi.

Ikkinchi natija lug‘aviy tayanchni o‘qish strategiyalari bilan birlashtirish zarurligini ko‘rsatdi. Amaliyotda terminlarni alohida yodlash ko‘pincha kontekstdan uzilib qoladi va matn ichida tanib olish qiyinlashadi. Metodik modelda esa termin va umumilmiy so‘zlar matnning semantik tugunlari sifatida belgilandi: o‘quvchi so‘zning ma’nosini kontekst bo‘yicha taxmin qilish, so‘ngra qisqa ta’rif bilan tekshirish, keyin esa gapda qo‘llab ko‘rish orqali mustahkamladi. Shu yondashuv natijasida o‘quvchilar matnda uchraydigan yangi so‘zlarga nisbatan “to‘xtab qolish” holatini kamaytirdi, chunki ular taxmin qilish va tekshirish ketma-ketligini o‘zlashtirdi. Natija sifatida matndan axborotni ajratish va qayta ifodalash sifati oshdi.

Uchinchi natija savol strategiyalarining metodik yadro ekanini asoslab berdi. O‘qituvchi savollari faqat reproduktiv darajada qolsa, o‘quvchi matndan tayyor javobni topish bilan cheklanadi. Metodikada savollar uch qatlamda tashkil etildi: matndan topish, bog‘lash va xulosa qilish. Mazkur tuzilma o‘quvchini har bir matnni “qidirish-bog‘lash-asoslash” modeli bo‘yicha o‘qishga yo‘naltirdi. Natijalarda aynan bog‘lash va xulosa qilish savollari o‘qish savodxonligining yuqori ko‘rsatkichlari bilan kuchliroq mos kelishi kuzatildi, chunki bunday savollar sabab-oqibatni tiklash va dalil keltirishni talab qiladi.

Metodik modelning yana bir muhim natijasi formatif baholashning o‘qish savodxonligini boshqarishdagi rolini ko‘rsatdi. Diagnostik topshiriqlar natijalariga tayangan holda o‘qituvchi o‘quvchining qaysi bosqichda qiyinchilikka duch kelayotganini aniqladi: leksik, tuzilma yoki strategik. Shundan so‘ng o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlovi differensial tashkil etildi: kimdadir lug‘aviy izoh ko‘paytirildi, boshqasida matn bo‘linmalari sarlavhalandi, yana boshqasida savol tuzish bo‘yicha yo‘riq berildi. Natijada o‘quvchilarning matnni tushunish bo‘yicha ko‘rsatkichlarida barqaror ijobiy siljish kuzatildi, ayniqsa matnning asosiy g‘oyasini ajratish va oddiy ilmiy xulosani dalil bilan asoslash mezonlarida o‘sish aniqroq namoyon bo‘ldi.

Results bo‘limida aniqlangan natijalar metodikaning strukturasini ham aniqlashtirdi. Shakllangan metodika uch komponentdan iborat bo‘ldi: matn tanlash va moslashtirish komponenti, o‘qish strategiyalarini o‘rgatish komponenti va formatif baholash komponenti. Bu komponentlar bir-birini to‘ldiradi: mos matn bo‘lmasa strategiya ishlamaydi, strategiya bo‘lmasa baholash faqat nazoratga aylanadi, formatif baholash bo‘lmasa esa metodika moslashuvchanlikni yo‘qotadi. Shunday qilib, natijalar metodikaning ichki mantiqiy yaxlitligini va amaliyotga tatbiq etish

imkonini ko‘rsatdi.

Discussion

Olingan natijalar o‘qish savodxonligini fanlararo kontekstda rivojlantirish haqidagi xalqaro ilmiy qarashlar bilan uyg‘un keladi. PIRLS konsepsiyasida o‘qish tushunish jarayoni maqsad va strategiyalar bilan bog‘liq holda talqin qilinadi, bunda informatsiyani topish bilan bir qatorda matnni talqin qilish va baholash ham muhim hisoblanadi [1]. Tadqiqotimizda savol strategiyalarining uch qatlamli qurilishi aynan shu mantiqni boshlang‘ich sinf tabiiy fan matnlariga moslashtirdi. Bunda yangilik shundaki, savollar “fan mazmuni”ni tekshirishdan ko‘ra, “matn orqali ma’no qurish”ni boshqaruvchi vositaga aylantirildi, ya’ni o‘quvchi hodisa haqida bilimni matn ichidagi mantiqiy bog‘lanishlar orqali egalladi.

PISA yondashuvida o‘qish savodxonligi real hayotiy vaziyatlarda axborotni tushunish va undan foydalanish qobiliyati sifatida ko‘riladi [2]. Tabiiy fan matnlari esa, ayniqsa, sabab-oqibat va jarayonni izohlovchi tuzilmalari bilan o‘quvchini “izohli o‘qish”ga majbur qiladi. Bizning natijalarda matn murakkabligini bosqichli boshqarish o‘quvchini shu izohli o‘qishga tayyorlashning sharti ekani ko‘rindi. Bu jihat xalqaro adabiyotlarda “scaffolding” sifatida yoritilgan: o‘qituvchi murakkab matnni o‘quvchi uchun tushunarli yo‘laklarga bo‘lib, asta-sekin mustaqillikni oshiradi [3]. Tadqiqotimizda scaffoldingning lug‘aviy va tuzilmaviy qirralari alohida diagnostika bilan bog‘landi; bu amaliy mexanizm o‘qituvchiga qo‘llab-quvvatlov turini aniq tanlash imkonini beradi.

Rus metodika maktabida o‘qish faoliyatini tashkil etishda savol-javob, reja tuzish, qayta hikoyalash kabi usullar tushunishning asosiy omillari sifatida ko‘rsatiladi [5]. Bizning natijalar bu pozitsiyani qo‘llab-quvvatlaydi, ammo tabiiy fan matnlarida qayta hikoyalashning o‘zi yetarli emasligini ham ko‘rsatadi: fan matnining o‘ziga xosligi sabab-oqibatni tiklash va atama-ta’rif munosabatini aniq ko‘rsatishni talab qiladi. Shuning uchun metodikada qayta ifodalash “tushuntirish” formatiga yaqinlashtirildi: o‘quvchi hodisani oddiy kuzatuv sifatida emas, izohli mantiq sifatida bayon qila boshlaydi. Bu o‘zgarish o‘qish savodxonligi bilan birga tabiiy-ilmiy tafakkurning elementlarini ham rivojlantirishiga ishora qiladi, lekin mazkur maqola doirasida biz natijani aynan o‘qish tushunishi mezonlari bilan chekladik.

O‘zbekiston ta’lim metodikasida integratsiyalashgan yondashuvning amaliy imkoniyatlari borasida fikrlar mavjud bo‘lsa-da, ko‘pincha ular darsni “mavzularni bog‘lash” darajasida tasvirlash bilan chegaralanadi [8]. Tadqiqotimiz ushbu cheklovni bartaraf etishga urinadi: integratsiya fan mavzusi va o‘qish strategiyasining bitta topshiriqda birikishi, shuningdek, baholash mezonlarining ham integratsiyalashuvi orqali ta’minlandi. Ya’ni o‘quvchi “tabiat” haqida o‘qir ekan, matnning asosiy g‘oyasini ajratish, dalilni topish, xulosani asoslash kabi o‘qish amallarini ham bajaradi. Bunday integratsiya o‘qituvchidan yuqori metodik rejalashtirishni talab qiladi; natijalar shuni ko‘rsatdiki, formatif baholashsiz integratsiya ko‘pincha intuitiv qolib ketadi. Formatifik mexanizm o‘qituvchiga dars davomida moslashish, o‘quvchining qayerda qiynalayotganini ko‘rish va o‘sha joyda qo‘llab-quvvatlash berish imkonini yaratadi [7].

Xalqaro tadqiqotlarda ilmiy matnlarni o‘qishda akademik lug‘at va diskurs markerlari (masalan, “chunki”, “shuning uchun”, “natijada”)ni anglash muhimligi qayd etiladi [4]. Bizning natijalar ham leksik to‘siqlar faqat termin bilan cheklanmasligini ko‘rsatdi: umumilmiy bog‘lovchi birliklarni tushunmaslik sabab-oqibatni tiklashni qiyinlashtiradi. Shu bois metodikada lug‘aviy tayanch terminlar bilan birga mantiqiy bog‘lovchi birliklarni ham qamrab oldi. Bu yondashuv boshlang‘ich sinfda “ilmiy til”ning minimal elementlarini tabiiy ravishda shakllantirishga xizmat qiladi, biroq u ona tili me’yorlariga zid bo‘lmagan, yosh xususiyatiga mos sodda izohlar bilan berilishi kerakligi natijalar bilan tasdiqlandi.

Shu bilan birga, natijalar ayrim metodik cheklovlarni ham ochib berdi. Tabiiy fan matnlari bilan ishlashda ko‘rgazmalilikning kuchayishi ba’zan o‘quvchini matnni o‘qishdan ko‘ra rasmga tayanishga olib kelishi mumkin; shuning uchun ko‘rgazmali material matnni almashtirmasdan, matndagi mantiqiy bog‘lanishlarni ochishga xizmat qilishi lozim. Yana bir cheklov shundaki,

o‘qish strategiyalarini o‘rgatish vaqt talab qiladi; fan mazmuni “ulgurolmay qolishi” xavfi bo‘ladi. Tadqiqot yondashuvi bu muammoni matn tanlashni qayta ko‘rib chiqish orqali yumshatdi: qisqa, ammo izohli matnlar tanlandi va strategiya aynan shu matn ichida o‘rgatildi. Demak, metodikaning samaradorligi uning “ko‘p narsa qilish”iga emas, balki bir matn atrofida chuqur ishlashiga ko‘proq bog‘liq.

Maqolada boshlang‘ich sinflarda tabiiy fan matnlari orqali o‘qish savodxonligini oshirish metodikasini shakllantirishning ilmiy-amaliy asoslari yoritildi. Tadqiqot natijalari matn murakkabligini bosqichli boshqarish, lug‘aviy tayanchni o‘qish strategiyalari bilan integratsiyalash va savol strategiyalarini uch qatlamda qurish o‘qish tushunishini sezilarli yaxshilashini ko‘rsatdi. Metodikaning asosiy ilmiy hissasi integratsiyani mavzu darajasida emas, balki o‘qish amallari, matn tuzilmasi va formatif baholash mezonlari darajasida ta’minlaydigan yaxlit modelni taklif etishdan iborat. Amaliy jihatdan metodika o‘qituvchiga o‘quvchining leksik, tuzilma va strategik qiyinchiliklarini aniqlab, differensial qo‘llab-quvvatlash berish imkonini yaratadi. Keyingi tadqiqotlar metodik modelni turli hududiy maktab kontekstlarida sinash, o‘qish savodxonligi bilan tabiiy-ilmiy fikrlash ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tekshirish hamda raqamli matnlar bilan ishlash strategiyalarini boshlang‘ich bosqichga moslashtirish yo‘nalishida olib borilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Mullis I. V. S., Martin M. O. PIRLS 2021 Assessment Framework. Boston: TIMSS & PIRLS International Study Center, 2021. 220 p.

2. OECD. PISA 2018 Assessment and Analytical Framework. Paris: OECD Publishing, 2019. 320 p.

3. Fang Z. Scientific Literacy: A Systemic Functional Linguistics Perspective. Science Education. New York: Routledge, 2012. 240 p.

4. Snow C. E. Reading for Understanding: Toward an R&D Program in Reading Comprehension. Santa Monica: RAND Corporation, 2002. 136 p.

5. Леонтьев А. А. Психология общения. Москва: Смысл, 1999. 365 с.

6. Выготский Л. С. Мышление и речь. Москва: Лабиринт, 1999. 352 с.

7. Black P., Wiliam D. Inside the Black Box: Raising Standards Through Classroom Assessment. London: GL Assessment, 2002. 32 p.

8. Abdullayeva M. Boshlang‘ich ta’lim metodikasi: integrativ yondashuv. Toshkent: O‘qituvchi, 2018. 184 b.

SUN'IY INTELLEKTNING (SI) KURRIKULYAR FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI

Baymuratova Irina Viktorovna,
falsafa doktori (PhD), Islom Karimov nomidagi
Toshkent davlat texnika universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalarini tatbiq etish istiqbollari va ularning o'quv jarayonidagi o'rni tadqiq etiladi. Shuningdek, pedagoglarning dars mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish bosqichida intellektual tizimlardan foydalanishining samaradorlik ko'rsatkichlari tahlil qilingan. Maqolada sun'iy intellektning ta'limdagi funksional imkoniyatlari tasniflanib, ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha aniq misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt texnologiyalari, intellektual ta'lim tizimlari, moslashuvchan o'qitish metodikasi, ta'limda teng imkoniyatlar (inklyuziya).

РОЛЬ ИИ В РАЗВИТИИ КУРРИКУЛЯРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

Баймуратова Ирина Викторовна,
д.ф.н. (PhD), Ташкентский государственный
технический университет им. И.Каримова

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы применения искусственного интеллекта в образовательном процессе, его целесообразность использования при подготовке к занятиям. Показаны примеры применения и функции, которые может выполнять ИИ в образовательном процессе.

Ключевые слова: Искусственный интеллект (ИИ), функции ИИ, адаптивное обучение, инклюзивное обучение.

THE ROLE OF AI IN THE DEVELOPMENT OF CURRICULUM ACTIVITIES

Baimuratova Irina Viktorovna,
PhD, Tashkent State Technical University named after I. Karimov

Abstract. The article discusses the application of artificial intelligence in the educational process and its usefulness in preparing for classes. Examples of applications and functions that AI can perform in the educational process are provided.

Keywords: Artificial intelligence (AI), AI functions, adaptive learning, inclusive learning.

Введение.Прогресс в сфере информационных технологий, в частности разработка искусственного интелекта(ИИ), привел к новым возможностям его использования. Образование стало не исключение, где находит своё применение искусственный интелект. Начиная с 2024 года технологии ИИ революценировали в академическую среду, предлагая беспрецедентные возможности для персонализированного обучения, повышения административной эффективности и улучшения результатов образования. От интеллектуальных систем обучения до управления группами с помощью ИИ — влияние ИИ является глубоким и далекоидущим.

Методология исследования. ИИ позволяет педагогам, студентам, администраторам анализировать огромный объем данных, при решение поставленных задач и проблем, позволяет разрабатывать новые концепции и стратегии.

Кроме того, ИИ разрушает барьеры в образовании благодаря инструментам, которые поддерживают студентов с разными потребностями и стилями обучения. По мере развития ИИ растет его потенциал для преобразования образования, создавая основу для будущего, в котором обучение будет более персонализированным и эффективным [1].

Анализируя роль искусственного интеллекта, можно выявить ряд преимуществ его

использования.

Таблица преимуществ использования ИИ.

№	**Преимущество**	**В чем выражено**	**Примеры ИИ**
1	Улучшенное персонализированное обучение	ИИ адаптирует образовательный контент к уникальному стилю и темпу обучения каждого студента	DreamBox и Smart Sparrow, анализируют ответы студентов в режиме реального времени, чтобы динамически адаптировать занятие позволяя каждому студенту осваивать концепции в своем собственном темпе
2	Автоматизация административных задач	ИИ автоматизирует оценку, составление расписания и формирование отчетов, значительно снижая нагрузку на преподавателей	Gradescope, обеспечивает последовательную и объективную оценку заданий
3	Более вовлеченные студентов	ИИ делает обучение более интерактивным и увлекательным благодаря игровому контенту и адаптивным платформам обучения.	Kahoot! и Minecraft: Education Edition, используют ИИ для создания интерактивных викторин и симуляций, которые реагируют на ввод студентов, поддерживая их мотивацию и вовлеченность.
4	Улучшенная доступность	Вспомогательные технологии на базе ИИ поддерживают студентов с ограниченными возможностями, обеспечивая более эффективную учебную среду. Внедрение инклюзивного образования	Программное обеспечение для распознавания речи, такое как Notta, транскрибирует произнесенные слова в текст для студентов с нарушениями слуха, а образовательные игры с поддержкой ИИ предоставляют персонализированный опыт обучения для инклюзивного образования
5	Полезные аналитические данные	ИИ анализирует огромные объемы образовательных данных, чтобы предоставить преподавателям полезные аналитические данные	Knewton Alta, отслеживают успеваемость студентов по различным показателям, помогая преподавателям выявлять пробелы в знаниях и соответствующим образом корректировать свои стратегии обучения.
6	Более эффективное управление классом	Инструменты искусственного интеллекта помогают преподавателям управлять поведением и вовлеченностью студентов	Classcraft использует искусственный интеллект для игрового управления группой, отслеживая поведение студентов и поощряя положительные действия, что помогает поддерживать продуктивную и мотивирующую атмосферу на занятиях
7	Повышение безопасности и честности оценивания	Искусственный интеллект повышает безопасность и честность оценивания за счет усовершенствованных систем контроля и обнаружения плагиата.	Turnitin, проверяет оригинальность работ студентов, а системы контроля на базе искусственного интеллекта следят за условиями проведения экзаменов, чтобы предотвратить списывание
8	Непрерывное обучение на протяжении всей жизни и профессиональное развитие	ИИ поддерживает непрерывное обучение и профессиональное развитие педагогов, рекомендуя персонализированные ресурсы и курсы.	Edthena, предоставляет индивидуальные программы обучения, основанные на карьерных целях и потребностях педагогов.
9	Большая масштабируемость	ИИ позволяет масштабировать образовательные программы, чтобы принять больше учащихся без ущерба для качества	Платформы на основе ИИ могут обрабатывать большие объемы данных и предоставлять персонализированный опыт обучения растущему числу студентов, обеспечивая доступность и последовательность образования

Современное образование невозможно представить без использования ИИ, грамотная работа в тандеме с другими информационными технологиями, позволяет вывести образование на новую ступень развития. Современное образование — это образование, основанное на использовании большого объема информации, и чтобы сократить поиск и конкретизировать решение проблемы, при этом за короткий срок, невозможно обходиться без ИИ [2,5]. Рассматривая возможности ИИ и информационных технологий, можно выделить следующие примеры использования:

Адаптивное обучение: платформы на базе ИИ оценивают уровень навыков студентов в режиме реального времени и адаптируют образовательный контент к индивидуальным потребностям. Эти системы динамически адаптируют занятие на основе ответов студентов, предоставляя индивидуальные траектории обучения, которые помогают студентам осваивать концепции в своем собственном темпе.

Вспомогательные технологии: такие инструменты, как программное обеспечение для распознавания речи, преобразуют устную речь в текст, помогая студентам с ограниченными возможностями, такими как нарушения слуха или дислексия, более полно участвовать в занятиях, преобразуя речь в текст и наоборот, то есть поставить инклюзивное образование на новый уровень.

Аналитика данных и обучения: ИИ помогает анализировать данные с онлайн-порталов обучения, посещаемости занятий и оценок. Эти данные дают представление об успеваемости студентов, помогая педагогам выявлять тенденции и адаптировать обучение для устранения пробелов в понимании и успеваемости.

Управление: Платформы используют ИИ для геймификации управления процессом обучения. ИИ отслеживает поведение и вовлеченность студентов, вознаграждая положительные действия баллами и значками и предоставляя преподавателю информацию о динамике обучения для управления и мотивации студентов [3,4].

Интеллектуальные системы обучения: системы обучения на базе ИИ, такие как Carnegie Learning, предоставляют персонализированную обратную связь и поддержку, адаптируясь к индивидуальным стилям и потребностям обучения, чтобы помочь студентам понять сложные концепции и улучшить академическую успеваемость.

Автоматизированные инструменты оценки и аттестации: эти инструменты используют ИИ для оценки заданий и предоставления подробной обратной связи, оптимизируя процесс оценки, обеспечивая согласованность и экономя время преподавателя. ИИ также может оценивать более абстрактные работы, такие как эссе, анализируя их содержание на предмет связности и релевантности.

Чат-боты и виртуальные помощники: чат-боты на базе ИИ, такие как Mainstay, предоставляют студентам немедленную поддержку и помощь вне аудитории. Эти чат-боты отвечают на вопросы, напоминают студентам о сроках сдачи заданий и помогают им в административных процессах, повышая вовлеченность и способствуя самостоятельному обучению.

Планирование учебных программ: ИИ помогает педагогам планировать учебные программы, анализируя образовательные данные для выявления тенденций и пробелов. Это гарантирует, что учебная программа остается актуальной, всеобъемлющей и согласованной с целями обучения, предлагая обновления на основе последних образовательных потребностей и стандартов.

Интерактивные и обучающие игры: ИИ улучшает образовательные игры, создавая увлекательные и адаптивные учебные программы. Эти игры используют ИИ для предоставления заданий и испытаний, которые адаптируются к ответам студентов, способствуя активному участию и пониманию сложных предметов.

Персонализированное обучение: ИИ-платформы для обучения создают индивидуальные

учебные программы, адаптируясь к уникальным способам понимания концепций студентами. Это снижает когнитивную нагрузку и гарантирует, что каждый студент получает обучение, адаптированное к его стилю и темпу обучения.

Автоматизация задач: ИИ автоматизирует рутинные задачи, такие как оценка домашних заданий, проверка тестов и создание отчетов. Это позволяет преподавателям сосредоточиться на более значимых учебных мероприятиях и взаимодействии со студентами.

Создание интеллектуального контента: ИИ помогает преподавателям в создании цифровых занятий и учебных материалов. Такие инструменты, как Magic School AI и Eduaide.AI, упрощают планирование занятия, создание оценок, написание индивидуальных образовательных планов (IEP) и многое другое, чтобы модернизировать обучение и оптимизировать преподавание.

Проверка: Системы проверки на основе искусственного интеллекта контролируют экзамены, чтобы предотвратить списывание и обеспечить академическую честность. Эти системы анализируют поведение студентов во время экзаменов, предоставляя оповещения в режиме реального времени о подозрительных действиях и поддерживая безопасную среду для тестирования.

Изучение языков: Инструменты искусственного интеллекта, такие как Duolingo, используют адаптивные алгоритмы для персонализации опыта изучения языков. Искусственный интеллект корректирует сложность упражнений в зависимости от прогресса пользователя, обеспечивая оптимальную кривую обучения и улучшая усвоение языка.

Устранение пробелов в навыках: ИИ выявляет пробелы в навыках студентов, анализируя данные об их успеваемости, и предоставляет целевые ресурсы для устранения этих недостатков. Это помогает студентам достичь высокого уровня владения различными предметами и готовит их к будущим академическим задачам.

Выявление дислексии: ИИ-инструменты, такие как Dysolve, могут на ранней стадии выявлять дислексию и другие нарушения обучения, анализируя модели чтения и ошибки. Эти инструменты предоставляют индивидуальную поддержку и меры вмешательства, чтобы помочь затронутым студентам добиться успеха, например, специализированные программы чтения и упражнения.

Развлекательное обучение и геймификация: ИИ интегрирует игровые элементы в академический контент, делая обучение увлекательным и интересным. Платформы используют ИИ для создания интерактивных викторин и игр, которые способствуют более глубокому пониманию и запоминанию учебного материала.

Административная поддержка: ИИ помогает в выполнении административных задач, таких как планирование, составление бюджета и распределение ресурсов. Такие инструменты, как Fetchy, оптимизируют образовательные процессы, предоставляя основанные на данных аналитические выводы и рекомендации, повышая эффективность и снижая нагрузку на преподавателей.

Виртуальные 3D-классы: метавселенная создает иммерсивные виртуальные классы, где студенты могут взаимодействовать с с преподавателем и друг с другом. Платформы, такие как Engage VR, предлагают виртуальные среды, которые улучшают опыт обучения по сравнению с традиционными методами, предоставляя возможности для интерактивного и опытного обучения.

Цифровое обучение: ИИ улучшает цифровые классы, предоставляя иммерсивный видеоконтент и интерактивные симуляции. Такие инструменты, как Nearpod, используют ИИ для обеспечения увлекательного и эффективного обучения с помощью интерактивных уроков и обратной связи в режиме реального времени.

Виртуальные мероприятия на территории кампуса: ИИ облегчает проведение виртуальных внеклассных мероприятий, позволяя студентам участвовать в клубах и мероприятиях из любой точки мира. Такие платформы, как Remo, используют ИИ для

создания виртуальных пространств для общения и сотрудничества, повышая вовлеченность студентов за пределами аудитории.

Междисциплинарное обучение: ИИ разрушает барьеры между предметами, способствуя междисциплинарному обучению. Такие инструменты, как Wolfram Alpha, используют ИИ для демонстрации реальных приложений различных теорий, помогая понять взаимосвязь между разными областями знаний.

Моделирование реальных ситуаций: ИИ воспроизводит реальные сценарии в виртуальной среде, позволяя студентам проводить эксперименты и учиться на практическом опыте. Такие платформы, как Labster, предлагают виртуальные лаборатории, где студенты могут безопасно исследовать и экспериментировать с научными концепциями.

Повышение осведомленности: ИИ может обучать студентов социальным вопросам, таким как изменение климата и бедность. Такие инструменты, как EarthSpeakr, используют ИИ для обеспечения глубокого эмоционального понимания наряду с теоретическими знаниями, способствуя повышению осведомленности и принятию мер по решению глобальных проблем.

Виртуальные туры: виртуальные туры на базе ИИ позволяют студентам исследовать разные части мира, не выходя из аудитории. Такие платформы, как Google Expeditions, используют ИИ для создания иммерсивных виртуальных экскурсий, расширяя кругозор студентов и улучшая их понимание культуры. Они также могут быть полезны для организации виртуальных туров по Вузам.

Приглашенные докладчики и мероприятия: ИИ облегчает проведение виртуальных мероприятий и приглашенных лекций, позволяя студентам учиться у выдающихся деятелей и экспертов в различных областях. Такие инструменты, как BigMarker, используют ИИ для организации и управления виртуальными конференциями, улучшая качество обучения за счет экспертных знаний.

Прогнозная аналитика: алгоритмы ИИ в аналитике обучения помогают педагогам выявлять тенденции и прогнозировать успеваемость студентов, что позволяет своевременно вмешиваться в случае трудностей.

Коммуникация между родителями и преподавателями: инструменты на базе ИИ, такие как Remind, облегчают беспрепятственную коммуникацию, позволяя в режиме реального времени получать информацию о прогрессе студента.

Подготовка к тестам: платформы искусственного интеллекта, такие как Magoosh, обеспечивают персонализированную подготовку к тестам, анализируя успеваемость студента и адаптируя практические вопросы и планы обучения, чтобы сосредоточиться на областях, в которых студент нуждаются в наибольшем улучшении, тем самым увеличивая их шансы на успех [5,6].

Анализ и результаты. Системы управления обучением (LMS): искусственный интеллект улучшает платформы LMS, предоставляя персонализированные пути обучения, автоматизируя административные задачи и предлагая основанные на данных аналитические данные об успеваемости и вовлеченности студента.

Профессиональное развитие: инструменты искусственного интеллекта предоставляют педагогам персонализированные возможности профессионального развития, рекомендуя курсы и ресурсы в соответствии с их карьерными целями и потребностями в области преподавания.

Финансы: ИИ помогает учебным заведениям управлять своими финансами, анализируя структуру расходов, прогнозируя будущие расходы и выявляя возможности для экономии. Такие инструменты, как Allovue, помогают школам более эффективно распределять ресурсы и улучшать финансовое планирование.

Кибербезопасность: ИИ повышает безопасность учебных заведений, обнаруживая

киберугрозы в режиме реального времени и реагируя на них. Такие инструменты, как Darktrace, используют алгоритмы машинного обучения для выявления необычной сетевой активности, предотвращения утечек данных и защиты конфиденциальной информации о студентах.

Безопасность и охрана: системы наблюдения на базе ИИ отслеживают потенциальные угрозы безопасности на территории Вуза. Такие инструменты, как Avigilon, используют ИИ для анализа видеопотоков и оповещения сотрудников службы безопасности о подозрительной деятельности, тем самым повышая общую безопасность [7,8].

Обнаружение плагиата: инструменты ИИ анализируют работы студентов на предмет потенциального плагиата, сравнивая их с обширной базой данных академического контента, обеспечивая академическую честность и оригинальность работ.

Улучшенные онлайн-форумы: ИИ улучшает онлайн-форумы, модерируя контент, облегчая дискуссии и предоставляя персонализированные отзывы. Такие инструменты, как Packback, используют ИИ для поощрения критического мышления и участия в онлайн-форумах, создавая более динамичную и интерактивную среду обучения.

Академические исследования: ИИ помогает в академических исследованиях, анализируя большие наборы данных, выявляя тенденции и генерируя идеи. Такие инструменты, как IBM Watson Discovery, предоставляют исследователям расширенные аналитические возможности, помогая им делать новые открытия и ускорять процесс исследования [9].

Связанные кампусы: ИИ интегрирует различные системы кампуса для создания связанной и эффективной образовательной среды. Такие инструменты, как Cisco Digital Network Architecture (DNA), используют ИИ для управления и оптимизации инфраструктуры кампуса, улучшая связь и повышая общее качество обучения в кампусе [10].

Заключение

Искусственный интеллект позволяет устранить проблему обучения, где преподаватели равнялись на среднего студента. Он позволяет вести подготовку к занятию, дифференцированно не затрачивая при этом большого количества времени. А также выявлять пробелы в знаниях анализируя более глубоко каждого студента.

Конечно, ИИ не может заменить академическое образование, но он может упростить некоторые его аспекты, что позволит педагогам более глубоко подходить к решению педагогических задач.

Список использованной литературы:

[1]. Baker, J. A. (2021). Artificial intelligence in education: Bringing it all together. In OECD digital education outlook 2021: Pushing the frontiers with AI, blockchain, and robotics (pp. 43–56). OECD Library.

[2]. Baker, T., Smith, L., & Anissa, N. (2019). Educ-AI-tion rebooted? Exploring the future of artificial intelligence in schools and colleges. Available online: https://www.nesta.org.uk/report/education-rebooted/ (accessed on 29 January 2025).

[3]. Kumari Wood (2025) Lessons from Abroad. In: Morrish A (ed) Beyond Belief: Why School Accountability is Broken and How to Fix It. John Catt: London p.25-43.

[4]. Hennekeuser, D., Vaziri, D. D., Golchinfar, D., Schreiber, D., & Stevens, G. (2024). Enlarged education—Exploring the use of generative AI to support lecturing in higher education. International Journal of Artificial Intelligence in Education,

1–33.

[5]. Charow R, Jeyakumar T, Younus S, et al. Artificial intelligence education programs for health care professionals: scoping review. JMIR Med Educ. Dec 13, 2021;7(4):e31043.

[6]. Gordon M, Daniel M, Ajiboye A, et al. A scoping review of artificial intelligence in medical education: BEME Guide No. 84. Med Teach. Apr 2, 2024;46(4):446-470.

[7]. Feigerlova E, Hani H, Hothersall-Davies E. A systematic review of the impact of artificial

intelligence on educational outcomes in health professions education. BMC Med Educ. Jan 27, 2025;25(1):129.

[8]. Shaw K, Henning MA, Webster CS. Artificial intelligence in medical education: a scoping review of the evidence for efficacy and future directions. MedSciEduc. 2025;35(3):1803-1816.

[9]. Icahn School of Medicine at Mount Sinai expands AI innovation with OpenAI's ChatGPT Edu rollout. Mount Sinai. URL: https://www.mountsinai.org/about/newsroom/2025/icahn-school-of-medicine-at-mount-sinai-expands-ai-innovation-with-openais-chatgpt-edu-rollout

[10]. https://onlinedegrees.sandiego.edu/artificial-intelligence-education/

-

JISMONIY TARBIYA FANINI XALQARO TAJRIBASI ASOSIDA RIVOJLANTIRISH VA METODIK TAVSIYALAR ISHLAB CHIQISH

Buronova Sarvinoz Baxodirovna
Respublika ta’lim markazi jismoniy tarbiya fani metodisti.

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini o‘qitish tizimini xalqaro tajribalar, xususan Cambridge dasturi asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida milliy va xalqaro jismoniy tarbiya o‘quv dasturlarining mazmuni, kompetensiyaviy yondashuv, darslarni tashkil etish shakllari hamda baholash mezonlari qiyosiy tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida jismoniy tarbiya fanini modernizatsiya qilishga qaratilgan ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: jismoniy tarbiya, xalqaro tajriba, Cambridge dasturi, kompetensiyaviy yondashuv, sog‘lom turmush tarzi, jismoniy sifatlar, baholash mezonlari.

РАЗВИТИЕ ПРЕДМЕТА ФИЗИЧЕСКАЯ КУЛЬТУРА НА ОСНОВЕ МЕЖДУНАРОДНОГО ОПЫТА И РАЗРАБОТКА МЕТОДИЧЕСКИХ РЕКОМЕНДАЦИЙ

Буронова Сарвиноз Бахадировна
методист по предмету «Физическая культура» Республиканского центра образования

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы развития системы преподавания предмета «Физическая культура» в общеобразовательных школах Республики Узбекистан на основе международного опыта, в частности программы Cambridge. В ходе исследования был проведён сравнительный анализ содержания национальных и международных учебных программ по физической культуре, компетентностного подхода, форм организации учебных занятий, а также критериев оценивания. На основе полученных результатов разработаны научно-практические рекомендации, направленные на модернизацию преподавания предмета «Физическая культура».

Ключевые слова: физическая культура, международный опыт, программа Cambridge, компетентностный подход, здоровый образ жизни, физические качества, критерии оценивания.

DEVELOPING THE PHYSICAL EDUCATION SUBJECT BASED ON INTERNATIONAL EXPERIENCE AND FORMULATING METHODOLOGICAL RECOMMENDATIONS

Buronova Sarvinoz Baxodirovna
Methodologist of the Physical Education subject at the Republican Education Center.

Abstract. This article examines the development of physical education teaching in general secondary schools of Uzbekistan based on international experience, particularly the Cambridge curriculum. A comparative analysis of national and international curricula, competency-based approaches, lesson organization, and assessment criteria is conducted. Based on the findings, scientific and practical recommendations for improving the quality of physical education teaching are proposed.

Key words: physical education, international experience, Cambridge curriculum, competency-based approach, physical qualities, healthy lifestyle, assessment criteria.

Dolzarbligi. O‘zbekiston ta’lim tizimini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentning 2020 yil 6 noyabrdagi PQ-4884 va 2024 yil 15 noyabrdagi PQ-392-sonli qarorlarida umumiy o‘rta

ta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanini sifatini tubdan yaxshilash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va pedagog kadrlar salohiyatini oshirish vazifalari belgilab berilgan. Bundan tashqari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-sonli “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi tomonidan xorijiy davlatlar tajribasi asosida maktabgacha va umumiy o‘rta ta’limning o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish maqsadida Cambridge xalqaro tashkiloti mutaxassislari ishtirokida xalqaro standartlarga muvofiq o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va takomillashtirish ishlari olib borilmoqda. Cambridge ta’lim dasturida jismoniy tarbiya fanini kompetensiyaviy yondashuv orqali o‘qitish, o‘quvchilarning jismoniy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirishga qaratilgan. Bu esa milliy ta’lim tizimida jismoniy tarbiya mazmunini boyitish va dars samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bois, xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy kontekstga moslashtirish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala hisoblanadi.

Maqsad: O‘zbekiston maktablarida jismoniy tarbiya fanini Cambridge xalqaro tajribasi asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlash, metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Vazifalari:

1. Milliy va Cambridge jismoniy tarbiya dasturlarini qiyosiy tahlil qilish;
2. Kompetensiyaviy yondashuv va baholash tizimini o‘rganish;
3. Darslarni tashkil etishda xalqaro tajribaning samarali jihatlarini aniqlash;
4. Milliy o‘quv dasturi uchun amaliy metodik tavsiyalar ishlab chiqish;

Mashqlar majmuasi va baholash mezonlarini kompetensiyaga mos shaklda taqdim etish.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review). So‘nggi yillarda O‘zbekiston ta’lim tizimida jismoniy tarbiya fanini modernizatsiya qilish va xalqaro standartlarga moslashtirish dolzarb masala hisoblanadi. Prezidentning PQ–4884 (2020) va PQ–392 (2024) qarorlarida maktablarda jismoniy tarbiya sifatini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va pedagog kadrlarni rivojlantirish vazifalari belgilangan [1], [2], Vazirlar Mahkamasining 157-sonli qarori esa milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirishga imkon yaratadi [3].

Milliy dastur asosan normativ yondashuvga tayangan bo‘lib, o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va shaxsiy rivojlanish sur’atiga yetarli e’tibor berilmaydi [4]. Cambridge dasturida esa kompetensiyaviy yondashuv asosida jismoniy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalar rivojlantiriladi, formativ va summativ baholash uyg‘unlashtiriladi hamda o‘z-o‘zini baholash va refleksiya ko‘nikmalari shakllanadi [5], [6].

Ilmiy tadqiqotlar kompetensiyaviy yondashuv, mashqlar majmuasi, individualizatsiya va texnologiyalar orqali dars samaradorligini oshirish mumkinligini ko‘rsatadi [7]. Milliy va xalqaro dasturlarni solishtirish o‘quv jarayonini optimallashtirish va baholash tizimini modernizatsiya qilishga asos yaratadi. Shu bois, jismoniy tarbiya fanini xalqaro tajriba asosida rivojlantirish va baholash tizimini diversifikatsiya qilish zarur bo‘lgan ilmiy jihat sifatida ta’kidlanadi.

Dasturlarni qiyosiy tahlil, Milliy o‘quv dasturi va Cambridge ta’lim dasturlarining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu dasturlar o‘quv jarayonini tashkil etish, maqsad va natijalarni belgilash, shuningdek, o‘quvchining ta’limdagi roliga nisbatan yondashuvlarda sezilarli farqlarga ega.

Milliy o‘quv dasturi asosan normativ yondashuvga tayangan bo‘lib, unda belgilangan standartlar va me’yorlar asosida darslar olib boriladi. Bunda darslarning asosiy maqsadi o‘quvchilarda jismoniy sifatlarni (kuch, chidamlilik, chaqqonlik va tezkorlik) rivojlantirishdan iborat. O‘quv jarayonida o‘qituvchi yetakchi rolni egallaydi, o‘quvchilar esa ko‘proq topshiriqlarni bajaruvchi sifatida ishtirok etadi Baholash jarayoni esa, asosan, summativ baholashga tayanib, o‘quvchilarning yakuniy natijalari va normativlarga mosligi orqali aniqlanadi. Shu sababli, o‘quvchilarning individual xususiyatlari va qobiliyatlarini hisobga olish imkoniyati cheklangan bo‘lib qolmoqda.

Cambridge dasturi esa kompetensiyaviy yondashuv asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, unda o‘quvchilarning nafaqat jismoniy, balki ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini rivojlantirish ustuvor ahamiyatga ega. Mazkur dasturda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. O‘quvchilar mustaqil qaror qabul qilish, o‘z faoliyatini tahlil qilish va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Baholash jarayonida formativ va summativ baholash uyg‘un holda qo‘llanilib, o‘quvchilarning rivojlanish dinamikasi muntazam kuzatib boriladi. Bu esa o‘qituvchiga dars jarayonini o‘quvchilarning individual ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirish imkonini beradi. Natijada, individuallashtirish darajasi yuqori bo‘lib, har bir o‘quvchining qiziqishi, jismoniy tayyorgarligi va shaxsiy rivojlanish sur’ati inobatga olinadi.

Mezon	Milliy o‘quv dasturi	Cambridge dasturi
Yondashuv	Normativga asoslangan	Kompetensiyaviy
Dars maqsadi	Jismoniy sifatlarni rivojlantirish	Jismoniy, ijtimoiy, shaxsiy kompetensiyalar
O‘quvchining rolli	Passiv–faol	Faol, mustaqil
Baholash	Asosan summativ	Formativ va summativ
Individuallashtirish	Cheklangan	Yuqori darajada

Baholash tizimining qiyosiy tahlili. Ta’lim jarayonida baholash tizimi o‘quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash hamda ta’lim samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Milliy o‘quv dasturi va Cambridge dasturlarida qo‘llaniladigan baholash tizimlarini qiyosiy tahlil qilish ularning mazmuni va funksional yo‘nalishi jihatidan sezilarli farqlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Milliy o‘quv dasturi baholashning asosiy mezoni sifatida jismoniy normativlar belgilangan bo‘lib, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi ko‘proq yakuniy natijalar orqali aniqlanadi. Baholash jarayonida dars davomida o‘quvchining faolligi, harakatni bajarish texnikasi va individual rivojlanish dinamikasiga kam e’tibor qaratiladi. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya jarayonlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli, o‘quvchilar o‘z faoliyatini tahlil qilish va xatolar ustida ishlash imkoniyatiga yetarli darajada ega emas.

Cambridge dasturida esa kompetensiyaga asoslangan baholash tizimi qo‘llanilib, jismoniy normativlar qo‘shimcha mezon sifatida baholanadi. Asosiy e’tibor o‘quvchining dars jarayonidagi ishtiroki, harakatlarni ongli bajarishi, hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari hamda shaxsiy rivojlanishiga qaratiladi. Baholash jarayonida jarayonni baholash yuqori darajada amalga oshirilib, o‘quvchilarning rivojlanish bosqichlari muntazam monitoring qilinadi. Shuningdek, Cambridge dasturida o‘z-o‘zini baholash va refleksiya tizimli ravishda tashkil etilib, o‘quvchilar o‘z yutuq va kamchiliklarini mustaqil aniqlashga o‘rgatiladi. Bu holat o‘quvchilarda mas’uliyat, tanqidiy fikrlash va o‘z-o‘zini rivojlantirish ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Baholash turi	Milliy o‘quv dasturi	Cambridge dasturi
Jarayonni baholash	Kam	Yuqori
O‘z-o‘zini baholash	Yo‘q	Muntazam
Refleksiya	Cheklangan	Tizimli

Metodik tavsiyalar:

1. Darslarni kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etish:

1. O‘quvchilar jismoniy faolligi bilan birga ijtimoiy va shaxsiy ko‘nikmalarni rivojlantirsin.
2. Har bir mashq individual imkoniyatlar va qiziqishlarga mos bo‘lsin.

2. Baholash tizimini diversifikatsiya qilish:

1. Formativ baholash (mashq jarayonida kuzatuv) va summativ baholash (test va amaliy ko‘rsatkichlar) kombinatsiyasi.

2. O‘z-o‘zini baholash va refleksiya mashqlarini muntazam qo‘llash.
3. Dars mashqlari majmuasi:

Mashq turi	Maqsadi	Amaliy tavsif	Baholash mezoni
Yugurish va estafeta	Chidamlilik, tezlik	20–50 m masofada estafeta, to‘p bilan uzatish	Vaqt, texnika, jamoa ishlashi
Gimnastika	Muvozanat, moslashuvchanlik	Sakrash stoldan sakrash, havoda 90° bukib qo‘l ko‘tarish	Muvozanat, yumshoqlik
Jamoaviy o‘yin	Ijtimoiy kompetensiya	Futbol, voleybol mini-o‘yini	Jamoa ishlashi, adolat, qatnashish
Sog‘lom turmush mashqi	Salomatlik	Nega to‘g‘ri ovqatlanish va mashqlar muhimligi bilan bog‘liq qisqa mashqlar	Ishtirok va tushunish darajasi

4. Individualizatsiya: O‘quvchilarning sog‘lig‘i, qobiliyati va qiziqishlariga moslashtirilgan mashqlarni tanlash.

5. Texnologiyalarni qo‘llash: Mobil ilovalar va kuzatuv jurnallari orqali mashq natijalarini qayd qilish.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Cambridge ta’lim dasturida qo‘llaniladigan yondashuv va baholash mexanizmlari o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olish hamda ularning har tomonlama rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi. Qiyosiy tahlil asosida quyidagi xulosalar chiqarildi:

- Cambridge tajribasini O‘zbekiston umumta’lim maktablarida joriy etish jismoniy tarbiya fanining sifati va samaradorligini oshirish imkonini beradi.
- Kompetensiyaviy yondashuv o‘quvchilarning jismoniy, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyalarini kompleks rivojlantirishga xizmat qiladi.
- Baholash tizimini kompetensiyaga asoslangan holda modernizatsiya qilish dars jarayonining samaradorligini oshiradi va o‘quvchilarning o‘quv faoliyatiga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytiradi.
- Milliy va xalqaro tajribalarni uyg‘unlashtirish ta’lim mazmunining uzluksizligini ta’minlash hamda ta’lim sifatini yaxshilashda muhim pedagogik omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar (References).

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Umumiy o‘rta ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” PQ–4884-son, 2020-yil 6-noyabr. https://lex.uz/uz/docs/-5085887?ONDATE=25.06.2024
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori. “Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida.” PQ–392-son, 2024-yil 15-noyabr. https://lex.uz/docs/-7221716
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori. “Davlat ta’lim standartlari va davlat ta’lim talablarini ishlab chiqish hamda joriy etish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida.” 157-son, 2024-yil 27-mart. https://lex.uz/docs/6854214
4. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun jismoniy tarbiya fanining milliy o‘quv dasturi. Toshkent, 2023. https://gov.uz/uz/uzedu
5. Cambridge Assessment International Education. CAMBRIDGE Primary Physical Education Curriculum Framework. Cambridge, UK, 2021. https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-primary/curriculum/physical-education/

6. Cambridge Assessment International Education. Cambridge Lower Secondary Physical Education Curriculum Framework. Cambridge, UK, 2021. https://www.cambridgeinternational.org/programmes-and-qualifications/cambridge-primary/curriculum/physical-education/

7. Abdullayev R.M. “Jismoniy tarbiya darslarida kompetensiyaviy yondashuv asoslari.” Fan–sportga. Toshkent, 2021.

8. Mahkamdjanov K., Salamov R., Ikramov I. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008.

9. Abdullayev M.J., Radjapov U.R., Muxametov A.M. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. Toshkent: Turon-Iqbol, 2020.

10. Islomov R. Sport mashg‘ulotlarida baholash metodikasi. Toshkent: O‘qituvchi nashriyoti, 2019.

INGLIZ TILI DARSLARIDA READING KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOLI TA’LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Baxronova Zulfiya Ravshanovna
Xorijiy tillarini o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya Maqolada chet tillarini o‘qitish jarayonida reading (o‘qish) ko‘nikmasini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyasining metodik imkoniyatlari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Zamonaviy ta’limda o‘qish jarayonini faqat matnni tushunish bilan cheklab qo‘ymasdan, balki o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash, mantiqiy tahlil va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatlarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan reading mashg‘ulotlarining samaradorligi, didaktik shart-sharoitlari va metodik xususiyatlari yoritiladi.

Kalit so‘zlar: reading ko‘nikmasi, muammoli ta’lim, chet tillarini o‘qitish, tanqidiy fikrlash, matn bilan ishlash, kommunikativ kompetensiya.

Аннотация. В статье с научно-теоретической и практической точек зрения анализируются методические возможности технологии проблемного обучения в развитии навыка reading (чтения) в процессе обучения иностранным языкам. В условиях современного образования важно рассматривать процесс чтения не только как понимание текста, но и как средство формирования у обучающихся критического мышления, логического анализа и способности к самостоятельному формулированию выводов. В статье раскрывается эффективность занятий по чтению, организованных на основе проблемных ситуаций, а также их дидактические условия и методические особенности.

Ключевые слова: навык чтения (reading), проблемное обучение, обучение иностранным языкам, критическое мышление, работа с текстом, коммуникативная компетенция.

Abstract. The article provides a scientific-theoretical and practical analysis of the methodological potential of problem-based learning technology in developing the reading skill in the process of foreign language teaching. In modern education, the reading process should not be limited solely to text comprehension; rather, it should also aim at fostering learners’ critical thinking, logical analysis, and ability to draw independent conclusions. The article highlights the effectiveness of reading activities organized on the basis of problem situations, as well as their didactic conditions and methodological characteristics.

Keywords: reading skill, problem-based learning, foreign language teaching, critical thinking, text-based activities, communicative competence.

Yurtimizning ta’lim siyosatida ta’lim jarayonini yanada takomillashtirish, ilg‘or usul va shakllarni izlab topish masalasi doimiy dolzarblik kasb etmoqda. Jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlar mutaxassislar tayyorlash tizimiga yangi talablarni qo‘ymoqda. Xususan, bo‘lajak mutaxassislardan chet tilini bilish , axborot manbalari bilan ishlash va ularni tanqidiy tahlil qilish ko‘nikmalari, shuningdek, o‘rganilayotgan til mamlakatlarining real voqeligi haqida yetarli bilimga ega bo‘lish kabi lingvistik, ijtimoiy-madaniy kompetensiyalarni shakllantirish orqali tez o‘zgaruvchan sharoitlarda samarali faoliyat yurita olish qobiliyatini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kasbiy vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish uchun zamonaviy mutaxassis faqatgina chet tilini bilish bilan cheklanmasdan, balki kundalik hayot sharoitlariga moslasha olish, mavjud sharoitlarni ongli ravishda shakllantirish va shaxs uchun eng maqbul variantlarni tanlay bilish qobiliyatiga ham ega bo‘lishi zarur. Shu nuqtayi nazardan,

tanqidiy fikrlashni kompetensiyani rivojlantirishning muhim shakli sifatida talqin qilish mumkin . Ma’lum bir sohada muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo‘lgan chuqur bilim, ko‘nikma va malakalarga ega shaxslar odatda yetuk mutaxassis sifatida e’tirof etiladi.

Ilmiy tadqiqotlarda kompetensiya tushunchasiga turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan biriga ko‘ra, kompetensiya faqat bilimlar majmuasiga ega bo‘lish bilangina cheklanmay, balki ushbu bilimlarni moslashuvchan tarzda qo‘llay olish qobiliyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa analitik, ijodiy va amaliy ko‘nikmalar bilan uzviy bog‘liqdir. Shu bois, mutaxassis oldiga qo‘yilgan muammoni to‘g‘ri anglay olish va uni hal etish yo‘llarini asosli ravishda belgilash muhim ahamiyatga ega. Biroq zamonaviy ta’lim tizimi har doim ham bunday turdagi mutaxassislarni yetarli darajada tayyorlab bera olmayotgani amaliyotda o‘z isbotini topmoqda. Natijada oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari zarur kompetensiyalarni ko‘pincha bevosita amaliy faoliyat jarayonida egallashga majbur bo‘lmoqda. Uchinchi xalqaro matematika va tabiiy fanlar tadqiqoti (TIMSS) natijalari tahlili asosida ta’lim tizimini takomillashtirish bo‘yicha qator muhim tavsiyalar ishlab chiqilgan. Jumladan, o‘quv mazmunining amaliy yo‘nalishini kuchaytirish hamda ta’lim faoliyatida asosiy urg‘uni reproduktiv faoliyatdan intellektual va ijodiy faoliyatga yo‘naltirish zarurligi ta’kidlangan.

Globallashuv va xalqaro muloqotning kengayishi chet tillarini o‘qitish sifatiga bo‘lgan talablarni yanada oshirmoqda. Chet tilini o‘rganishda reading ko‘nikmasi asosiy nutqiy faoliyat turlaridan biri bo‘lib, u nafaqat til materialini o‘zlashtirish, balki axborotni tushunish, tahlil qilish va qayta ishlash imkonini beradi. Shunga qaramay, amaliyotda reading ko‘nikmasini rivojlantirish ko‘pincha reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilar faqat matn mazmunini qayta aytib berish bilan cheklanib qolmoqda. Zamonaviy pedagogika esa o‘quvchini passiv bilim oluvchidan faol fikrlovchi subyektga aylantirishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, muammoli ta’lim texnologiyasi chet tillarini o‘qitishda reading ko‘nikmasini rivojlantirish uchun samarali didaktik vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Reading ko‘nikmasi chet tilini o‘rganishda leksik, grammatik va semantik bilimlarning integratsiyalashgan shaklda namoyon bo‘lishini ta’minlaydi. O‘qish jarayonida o‘quvchi matn mazmunini anglaydi, muallif pozitsiyasini aniqlaydi va matndan zarur axborotni ajratib oladi. Ilmiy adabiyotlarda reading ko‘nikmasi informativ, analitik va tanqidiy o‘qish turlariga ajratiladi.

Chet tillarini o‘qitishda reading ko‘nikmasini rivojlantirish masalasi bir qator ilmiy-nazariy konsepsiyalar bilan asoslangan. Xususan, L.S.Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga ko‘ra, bilish jarayoni muammoli vaziyatlar orqali faollashadi va o‘quvchining yuqori kognitiv faoliyati shakllanadi. Olim tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” g‘oyasi muammoli ta’limning nazariy poydevorini tashkil etadi va reading jarayonida o‘quvchini mustaqil tahlil hamda xulosa chiqarishga yo‘naltirish imkonini beradi [1]. Muammoli ta’lim nazariyasini tizimli ravishda ishlab chiqqan M.I. Maxmutov muammoli vaziyatni o‘quvchining mavjud bilimlari bilan yangi vazifa o‘rtasidagi intellektual qarama-qarshilik sifatida izohlaydi. Uning fikricha, aynan shu qarama-qarshilik o‘quvchini faol izlanishga undaydi. Reading mashg‘ulotlarida bu jarayon muallif pozitsiyasini aniqlash, yashirin g‘oyalarni topish va baholash orqali namoyon bo‘ladi

Chet tillarini o‘qitish metodikasida E.I. Passov readingni kommunikativ faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, matn bilan ishlash jarayonida o‘quvchining fikrlash faoliyatini faollashtirish zarurligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, muammoli savollar asosida tashkil etilgan o‘qish topshiriqlari o‘quvchilarning nutqiy va kognitiv faolligini oshiradi [3]. I.L. Bim ham reading ko‘nikmasini rivojlantirishda analitik va tanqidiy yondashuvning ahamiyatini qayd etadi [4]. G‘arb metodistlari W. Grabe va F. Stoller readingni interaktiv va strategik jarayon sifatida talqin qilib, samarali o‘qish jarayonida taxmin qilish, tekshirish, baholash va xulosa chiqarish strategiyalaridan foydalanish zarurligini asoslaydilar. Ushbu strategiyalar muammoli ta’lim texnologiyasi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, o‘quvchini faol fikrlashga yo‘naltiradi [5]. J. Deweyning pragmatik pedagogika nazariyasida muammoli vaziyatlar o‘quv faoliyatining tabiiy shakli sifatida qaraladi[6]. Olimning fikricha, bilim tayyor holda berilganda emas, balki muammoni hal

etish jarayonida o‘zlashtirilganda barqaror bo‘ladi. Bu yondashuv reading mashg‘ulotlarida matn asosida muammoli vazifalarni qo‘yish orqali amalga oshiriladi.

Tanqidiy fikrlash masalasini chuqur tadqiq qilgan P. Facione reading jarayonida tahlil, baholash va refleksiya asosiy o‘rin tutishini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan reading mashg‘ulotlari o‘quvchilarda tanqidiy fikrlashning asosiy komponentlarini izchil rivojlantiradi [7].

Ularning fikricha, chet tillarini o‘qitishda reading ko‘nikmasini rivojlantirish muammoli topshiriqlar va faol metodlar asosida tashkil etilgandagina o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasi yuqori darajada shakllanadi [8].

Zamonaviy ta’lim talablariga ko‘ra, reading faqatgina matnni tushunish emas, balki uni tahlil qilish, muammolarni aniqlash va baholash jarayoni sifatida tashkil etilishi lozim. Bu esa muammoli ta’lim texnologiyasi bilan uzviy bog‘liqdir.

Chet tilida o‘qish mashg‘ulotlarida reading ko‘nikmasini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarga oid o‘quv topshiriqlar quyidagi shakllarda tashkil etish mumkin:

matn sarlavhasi yoki rasm asosida muammo qo‘yish;

matnda berilgan qarama-qarshi fikrlarni aniqlash;

muallif pozitsiyasini baholash va unga munosabat bildirish;

matndagi yashirin ma’noni topish;

muammoli savollar asosida matn mazmunini qayta tahlil qilish.

Title: The Silent Classroom

In recent years, many universities have invested heavily in digital technologies to improve education. Classrooms are equipped with interactive boards, students use online platforms, and learning materials are easily accessible. However, despite these improvements, some lecturers have noticed that students are becoming less active during lessons.

In one university, a lecturer observed that students rarely asked questions, even when they did not fully understand the topic. Instead, they preferred to search for quick answers on their smartphones. Although technology made information easier to find, it also reduced meaningful discussion in the classroom. The lecturer began to wonder whether technology was truly helping students to think critically or simply making learning more passive.

This situation raised an important question: does access to information automatically lead to deeper understanding, or does real learning require something more than technology?

Task 1. Finding the Hidden Meaning (Matndagi yashirin ma’noni topish)

Instruction: Read the text carefully and answer the questions below. Think about the ideas that are not stated directly but are implied.

What does the phrase “The Silent Classroom” symbolically mean in the text?

Why does the lecturer feel concerned, even though technology is widely used?

What hidden message does the author give about the role of technology in education?

Does the author support or criticize the use of digital technologies? Explain your answer. Students should understand that the text is not against technology, but against passive learning.

Task 2. Problem-Based Questions (Muammoli savollar asosida matn mazmunini qayta tahlil qilish)

Instruction: Discuss the following problem-based questions individually or in groups.

If students have unlimited access to information, why might their critical thinking skills become weaker?

Is technology replacing students’ thinking, or is it only changing the way they learn?

What should a teacher do to make students more active in a technology-rich classroom?

Can learning be effective without discussion and questioning? Why or why not?

Task 3. Optional Follow-up Task (Critical Thinking) (Tanqidiy fikrlashni chuqurlashtirish uchun)

Write a short paragraph (80–100 words):

Do you agree that technology can make students passive learners? Support your opinion with arguments from the text and your own experience.

Ushbu o‘quv topshiriqlar reading jarayonida yashirin g‘oyani aniqlashga, tanqidiy va muammoli fikrlashni rivojlantirishga, muammoli ta’lim texnologiyasi talablariga mos ravishda interaktiv o‘qitish jarayonini tashkil etishga metodik xizmat qiladi. Muammoli vaziyatga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarni faqat matnni tushunishga emas, balki uni chuqur anglash va baholashga undaydi. Natijada reading jarayoni faol, dinamik va mazmunli tus oladi.

Muammoli ta’lim asosida reading mashg‘ulotlarini tashkil etishning metodik imkoniyatlari Muammoli ta’lim texnologiyasi reading mashg‘ulotlarida qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, matn bilan tanqidiy yondashuv asosida ishlash orqali ularning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirib, chet tilini o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshiradi. Muammoli topshiriqlar asosida tashkil etilgan reading mashg‘ulotlari o‘quvchilarni faol ishtirokchi sifatida jalb etib, ularning nutqiy va kognitiv faolligini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, chet tillarini o‘qitishda reading ko‘nikmasini rivojlantirishda muammoli ta’lim texnologiyasi muhim metodik imkoniyatlarga ega. Ushbu yondashuv o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, tahliliy qobiliyatlarini va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Muammoli ta’lim asosida tashkil etilgan reading mashg‘ulotlari o‘quvchilarning chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirib, ta’lim samaradorligini ta’minlaydi. Shu bois, muammoli ta’lim texnologiyasidan reading ko‘nikmasini rivojlantirishda tizimli va maqsadli foydalanish dolzarb pedagogik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Vygotskiy L.S. Myshleniye i rech. — Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Maxmutov M.I. Problemnoye obucheniye. — Moskva: Pedagogika, 1975.
3. Passov E.I. Kommunikativnaya metodika obucheniya inostrannym yazykam. — Moskva: Prosveshcheniye, 1991.
4. Bim I.L. Teoriya i praktika obucheniya inostrannym yazykam. — Moskva: Prosveshcheniye, 2001.
5. Grabe W., Stoller F.L. Teaching and Researching Reading. — London: Routledge, 2011.
6. Dewey J. Experience and Education. — New York: Macmillan, 1938.
7. Facione P.A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. — Insight Assessment, 2013.
8. Toshtemirov O., Jo‘rayev R. Ta’limda kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.
9. Abduqodirov A., Begimqulov U. Raqamli ta’lim muhitida pedagog kadrlarni tayyorlashning metodologik asoslari. — Toshkent: Fan, 2020.
10. Jo‘rayev R. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ta’lim sifati. — Toshkent: Fan, 2017.

O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TA’LIMNI RIVOJLANTIRISH UCHUN KADRLAR TAYYORLASH MEXANIZMLARI

Ergasheva Mohinur Dilmurod qizi
Orintel universiteti Ta’lim menejmenti yo‘nalishi mustaqil tadqiqotchi
ORCID:0009-0008-7054-523X

Annotatsiya: Ushbu maqola O‘zbekistonda inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash mexanizmlarini ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Inklyuziv ta’lim – bu nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega bolalarning umumta’lim muassasalarida teng huquq va imkoniyatlar asosida ta’lim olishini ta’minlovchi tizimdir. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, jahon va mahalliy tajribalar, shuningdek, maktablar va pedagogik mutaxassislar bilan ekspert intervyulari tahlil qilindi. Maqolada kadrlarni tanlash, tayyorlash va malakasini oshirish mexanizmlari yoritiladi. Maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash uchun tayyorlanadigan kadrlar qatoriga tibbiyot xodimlari (hamshiralar, fizioterapevtlar), logopedlar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglar va volontyorlar kiradi. Kadrlarni tayyorlashning samarali mexanizmlari maxsus pedagogik kurslar, modul treninglar va amaliy seminarlar orqali amalga oshiriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot sohasidan kelgan mutaxassislarni pedagogga aylantirish, maxsus kurslar va doimiy malaka oshirish tizimi inklyuziv ta’lim sifatini oshirishga imkon beradi. Shu bilan birga, kadrlarni tanlashda psixologik moslik va ijtimoiy tajriba muhim rol o‘ynaydi. Maqola inklyuziv ta’lim tizimini rivojlantirish, kadrlarni samarali tayyorlash va ularning amaliy tajribasini oshirish bo‘yicha tavsiyalar beradi. Tadqiqot natijalari O‘zbekistonning ta’lim siyosati va moliyaviy resurslari bilan uyg‘unlashtirilganda, inklyuziv ta’limning samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, kadrlar tayyorlash, tezkor tayyorlash mexanizmlari, pedagogik kurslar, tibbiyot xodimlari, logopedlar, psixologlar, ijtimoiy pedagoglar, maxsus ehtiyojga ega bolalar, O‘zbekiston ta’lim siyosati.

МЕХАНИЗМЫ ОБУЧЕНИЯ ПЕРСОНАЛА ДЛЯ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Эргашева Мохинур Дилмурод кызы
Независимый исследователь кафедры управления образованием Университета Оринтел

Аннотация: В данной статье с научной и аналитической точки зрения рассматриваются механизмы подготовки кадров для развития инклюзивного образования в Узбекистане. Инклюзивное образование – это система, обеспечивающая детям с инвалидностью и особыми потребностями получение образования в общеобразовательных учреждениях на основе равных прав и возможностей. В исследовании проанализированы нормативно-правовые акты, глобальный и местный опыт, а также проведены интервью с экспертами из школ и педагогическими специалистами. В статье освещаются механизмы отбора, подготовки и повышения квалификации персонала. К персоналу, подготовленному для работы с детьми с особыми потребностями, относятся медицинские работники (медсестры, физиотерапевты), логопеды, психологи, социальные педагоги и волонтеры. Эффективные механизмы подготовки персонала реализуются посредством специальных педагогических курсов, модульных тренингов и практических семинаров. Результаты исследования показывают, что система подготовки специалистов из медицинской сферы в качестве педагогов, специальные курсы и непрерывное профессиональное развитие позволяют повысить качество инклюзивного образования. При этом важную роль в отборе персонала играют психологическая совместимость и социальный опыт. В

статье представлены рекомендации по развитию системы инклюзивного образования, эффективной подготовке персонала и повышению его практического опыта. Результаты исследования в сочетании с образовательной политикой Узбекистана и финансовыми ресурсами значительно повысят эффективность инклюзивного образования.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, подготовка кадров, механизмы ускоренного обучения, педагогические курсы, медицинские работники, логопеды, психологи, социальные педагоги, дети с особыми потребностями, образовательная политика Узбекистана.

STAFF TRAINING MECHANISMS FOR DEVELOPING INCLUSIVE EDUCATION IN UZBEKISTAN

Ergasheva Mohinur Dilmurod qizi
Independent researcher, Department of Educational Management, Orintel University

Abstract:This article examines the mechanisms for training personnel for the development of inclusive education in Uzbekistan from a scientific and analytical perspective. Inclusive education is a system that ensures that children with disabilities and special needs receive education in general education institutions on the basis of equal rights and opportunities. The study analyzed regulatory legal acts, global and local experiences, as well as expert interviews with schools and pedagogical specialists. The article highlights the mechanisms for selecting, training and improving the skills of personnel. The personnel trained to work with children with special needs include medical workers (nurses, physiotherapists), speech therapists, psychologists, social pedagogues and volunteers. Effective mechanisms for training personnel are implemented through special pedagogical courses, modular trainings and practical seminars. The results of the study show that the system of training specialists from the medical field as educators, special courses and continuous professional development allows improving the quality of inclusive education. At the same time, psychological compatibility and social experience play an important role in the selection of personnel. The article provides recommendations for developing an inclusive education system, effectively training personnel, and increasing their practical experience. The results of the study, when combined with Uzbekistan’s education policy and financial resources, will significantly increase the effectiveness of inclusive education.

Keywords: Inclusive education, personnel training, rapid training mechanisms, pedagogical courses, medical workers, speech therapists, psychologists, social pedagogues, children with special needs, educational policy of Uzbekistan.

Kirish. Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarning, jumladan nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega bo‘lgan bolalarning umumta’lim muassasalarida teng huquq va imkoniyatlarga ega bo‘lishini ta’minlovchi tizimdir. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’lim nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalarning akademik rivojlanishi uchun, balki ularning ijtimoiy integratsiyasi va shaxsiy o‘sishi uchun ham muhim ahamiyatga ega. UNESCO va UNICEF tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, inklyuziv ta’lim amaliyoti bolalarning tenglik, hurmat va ijtimoiy hamkorlik tamoyillarini o‘rganishiga imkon yaratadi, bu esa ularni kelajakda jamiyatning to‘laqonli a’zosiga aylantiradi[3].

O‘zbekiston Respublikasi ham oxirgi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratmoqda. O‘zbekiston maktablarida hozirgi vaqtda taxminan 800 dan ortiq inklyuziv sinflar mavjud bo‘lib, ularda 12 000 dan ziyod nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega bolalar ta’lim olmoqda [2; 12]. Shu bilan birga, inklyuziv ta’limni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan maxsus pedagog kadrlarning yetishmovchiligi sezilarli darajada, masalan, har bir inklyuziv sinfga yetarli mutaxassislar ta’minlanmagan. Jahon tajribasida esa Skandinaviya, Janubiy Koreya va Kanada maktablarida tibbiyot, pedagogika va psixologiya mutaxassislarini birlashtirib, maxsus kurslar orqali tezkor tayyorlash samarali mexanizm sifatida qo‘llaniladi. Xususan, “Inklyuziv ta’lim

to‘g‘risida” qonun va Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar maktablarda inklyuziv sinflarni tashkil etish va ularda sifatli ta’limni ta’minlashni belgilaydi. Shu bilan birga, amaliyot ko‘rsatadiki, inklyuziv sinflarda ishlashga tayyor pedagog kadrlarning yetishmasligi tizim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Hozirgi kunda maktablarda nogiron bolalar uchun shaxsiy yondashuv, o‘quv materiallarini moslashtirish va individual pedagogik strategiyalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo‘lgan mutaxassislar cheklangan.

Jahon tajribasida tibbiyot sohasidan kelgan mutaxassislarni pedagogga aylantirish samarali usul sifatida namoyon bo‘lgan. Masalan, hamshiralar, fizioterapevtlar, logopedlar va psixologlar maxsus kurslar orqali pedagogik bilimlarga ega bo‘lib, inklyuziv sinflarda ishlashga qodir bo‘ladilar[2; B. 48] Bu usul nafaqat tayyor kadrlarni tezkor yetishtirishga imkon beradi, balki bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini samarali qondirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogika va psixologiya bilimlari birlashtirilgan maxsus kurslar orqali tayyorlangan mutaxassislar sinfda pedagogik va psixologik qo‘llab-quvvatlashni ta’minlay oladi.

Shuningdek, inklyuziv ta’lim kadrlarini tayyorlashning asosiy muammolaridan biri – malaka va tajriba yetishmasligi bilan birga, moliyaviy va tashkiliy resurslarning cheklanganligidir. Shu sababli, kadrlar tayyorlash tizimi modul shaklidagi maxsus kurslar, amaliy seminarlar va tezkor treninglarni o‘z ichiga olishi lozim. Bu tizim shuningdek, kadrlarni tanlashda ijtimoiy tajriba va psixologik moslikni hisobga olishi kerak.

Ushbu maqola O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’lim kadrlarini tayyorlash mexanizmlarini ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan ko‘rib chiqadi. Tadqiqotda normativ-huquqiy asoslar, jahon va mahalliy tajribalar, shuningdek, pedagogik va tibbiy soha mutaxassislari bilan ekspert intervyulari tahlil qilinadi. Maqola maqsadi – inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun tezkor va samarali kadr tayyorlash mexanizmlarini aniqlash, amaliy tavsiyalar ishlab chiqish va kadrlarni tanlash mezonlarini belgilashdir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Inklyuziv ta’limni rivojlantirish va kadrlar tayyorlash mexanizmlarini o‘rganishda jahon va mahalliy adabiyotlar muhim ilmiy asos hisoblanadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limning samaradorligi nafaqat pedagogik yondashuvga, balki tayyor kadrlarning malakasiga bevosita bog‘liq. Florian va Black-Hawkins tadqiqotlarida ta’kidlanganidek, inklyuziv ta’lim pedagogik metodlarni individualizatsiya qilishni va o‘quvchilarning ijtimoiy hamda emotsional rivojlanishini bir vaqtda ta’minlay oladigan mutaxassislarni talab qiladi [18; B. 58]. Carver va Klapste tadqiqotlari esa tibbiyot sohasidan kelgan mutaxassislarni pedagogik kurslar orqali tayyorlashning samarali mexanizm ekanligini ko‘rsatadi [19; B. 828]. Shu usul orqali hamshiralar, fizioterapevtlar, logopedlar va psixologlar maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashga tayyor bo‘lib, individual pedagogik strategiyalarni amalga oshira oladi. Kadrlar tayyorlashning samaradorligini baholash uchun bir qator indikatorlar qo‘llaniladi. Eng muhimlaridan biri tayyorlangan mutaxassislarning sinfdagi nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega o‘quvchilarning individual rivojlanish natijalariga ta’siri hisoblanadi. Shu bilan birga, pedagogik amaliy ko‘nikmalar, kurs davomida olingan bilimlarni real sinf sharoitida qo‘llash qobiliyati va kursdan keyingi samaradorlik o‘lchovlari ham asosiy mezon sifatida baholanadi. Texnologik yechimlar, jumladan, onlayn platformalar, e-learning kurslar, modul mashg‘ulotlar va interaktiv seminarlar kadrlarni tezkor va samarali tayyorlash imkonini beradi. Bu vositalar nafaqat bilimni oshirish, balki amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash va mutaxassislarni doimiy malaka oshirish tizimi bilan bog‘lash imkonini yaratadi. Shu tarzda, indikatorlar va texnologik yechimlarning uyg‘unligi kadr tayyorlash sifatini sezilarli darajada oshiradi. Ushbu tadqiqotlar shuningdek, modul treninglar, onlayn va oflayn seminarlar orqali doimiy malaka oshirish tizimini tashkil etishning inklyuziv ta’lim sifatini oshirishda muhimligini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston sharoitida amalga oshirilgan tadqiqotlar ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni normativ-huquqiy jihatdan tartibga soluvchi bazaning mavjudligiga qaramay, amaliy kadr

tayyorlash mexanizmlari yetarli emas. Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan metodik qo‘llanmalar va “Inklyuziv ta’lim to‘g‘risida” qonun amaliyotda kadrlar malakasini oshirish masalasini to‘liq qamrab olmaydi. Shu sababli, maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashga tayyor mutaxassislarni tayyorlash va ularning malakasini doimiy ravishda oshirib borish tizimi muhim ilmiy va amaliy vazifa sifatida qaraladi. O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’lim kadrlarini tayyorlash mexanizmlari samaradorligini oshirish uchun jahon tajribasida qo‘llanilayotgan tezkor tayyorlash mexanizmlari – modul shaklidagi kurslar, amaliy seminarlar va onlayn treninglar –ni moslashtirish imkoniyatlari mavjud.

Ushbu tadqiqotning metodologiyasi bir nechta yondashuvlarga asoslangan. Normativ-huquqiy tahlil orqali O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlari, maktablarda inklyuziv ta’limni tashkil etishga oid me’yoriy hujjatlar va Xalq ta’limi vazirligining metodik tavsiyalari o‘rganildi. Bu tahlil inklyuziv ta’limni amalga oshirishda kadrlarni tayyorlashga oid talablar va ularning amaliy jihatlarini aniqlash imkonini berdi. Shu bilan birga, jahon va mahalliy ilmiy adabiyotlar, kitoblar va maqolalar tahlil qilinib, kadr tayyorlashning samarali mexanizmlari va jahon tajribasi o‘rganildi. Tadqiqot doirasida ekspert intervyulari ham o‘tkazildi, bunda Toshkent, Samarqand va Farg‘ona shaharlaridagi maktab direktorlari, pedagoglar, psixologlar va sog‘liqni saqlash xodimlari bilan suhbatlar olib borildi. Ekspertlar kadrlarni tanlash mezonlari, malaka darajasi va inklyuziv sinflarda ishlashga tayyorligi bo‘yicha ma’lumot berdi. Shu bilan birga, SWOT-tahlil amalga oshirildi, bu orqali kadr tayyorlashning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar va xavf omillari aniqlab olindi.

Ushbu metodologik yondashuv orqali O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’lim kadrlarini tayyorlashning samarali mexanizmlari va tezkor tayyorlash imkoniyatlari aniqlanib, amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tibbiyot xodimlarini pedagogga aylantirish, maxsus kurslar va modul treninglar orqali tayyorlash tizimi inklyuziv ta’lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. Shu bilan birga, kadrlarni tanlashda ijtimoiy tajriba, psixologik moslik va amaliy ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini samarali qondirishga xizmat qiladi.

Muhokama

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun kadrlarni tayyorlashning samarali mexanizmlari bir nechta omillarga bog‘liq. Avvalo, tibbiyot sohasidan kelgan mutaxassislarni pedagogik kurslar orqali tayyorlash tizimi nafaqat bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishga, balki sinfdagi umumiy ta’lim jarayonini samarali qo‘llab-quvvatlashga imkon yaratadi. Hamshiralar, fizioterapevtlar va logopedlar maxsus pedagogik kurslar orqali inklyuziv metodikani o‘rganib, bolalarning nutq, harakat va reabilitatsiya ehtiyojlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini boshqarishga qodir bo‘ladilar. Shu tarzda, tezkor tayyorlash mexanizmi O‘zbekiston maktablarida yetishmayotgan pedagog kadrlar muammosini qisqa muddat ichida bartaraf etishga yordam beradi.

Bundan tashqari, ekspert intervyulari shuni ko‘rsatdiki, logopedlar va psixologlar inklyuziv muhitni yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Logopedlar nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalarga individual yondashuvni ta’minlashi, psixologlar bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi, ijtimoiy pedagoglar esa sinf muhitini ijtimoiy jihatdan barqaror qilish orqali qo‘llab-quvvatlovchi muhit yaratishi mumkin. Shu bilan birga, tibbiyot xodimlarini pedagogga aylantirish amaliyoti jahon tajribasida muvaffaqiyatli qo‘llanilgan va O‘zbekiston sharoitida ham samarali bo‘lishi mumkinligi tasdiqlandi. Modul treninglar va amaliy seminarlar orqali kadrlarni tayyorlash nafaqat pedagogik bilimlarni oshiradi, balki ularning psixologik va ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi [4; B. 103].

Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston sharoitida kadrlarni tayyorlash tizimining samaradorligi moliyaviy va tashkiliy resurslarga bevosita bog‘liq. Maktablarda maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash uchun yetarli pedagoglar mavjud bo‘lmasa, tezkor tayyorlash mexanizmlari samaradorligini oshirish qiyinlashadi. Shu sababli, maxsus kurslar va modul treninglarni tashkil

etish uchun oliy ta’lim muassasalari, pedagogika institutlari va sog‘liqni saqlash tizimi bilan hamkorlik zarur. Bundan tashqari, malaka oshirishning doimiyligi – onlayn va oflayn seminarlar, mentorlik dasturlari va amaliy treninglar orqali – kadrlarning kompetensiyasini saqlash va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Natijalarni tahlil qilganda, kadrlarni tanlashda ijtimoiy tajriba va psixologik moslik eng muhim mezonlardan biri ekanligi aniqlandi. Shu nuqtai nazardan, har bir mutaxassisning inklyuziv sinf sharoitida ishlashga tayyorligi, bolalarning individual ehtiyojlarini qondirishga qobiliyati va amaliy ko‘nikmalari baholanishi zarur. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, modul kurslar va amaliy seminarlar orqali tayyorlangan mutaxassislar nafaqat pedagogik vazifalarni bajara oladi, balki sinfda psixologik barqaror muhit yaratadi va bolalar orasidagi ijtimoiy integratsiyani ta’minlaydi.

Shu bilan birga, kadrlarni tayyorlash tizimini normativ-huquqiy va amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish muhim ahamiyatga ega. Inklyuziv ta’lim kadrlarini tayyorlash tizimining samaradorligi nafaqat kurslarning sifatiga, balki moliyaviy va tashkiliy resurslarga ham bog‘liq. Kurslar, modul treninglar va tezkor tayyorlash mexanizmlarini tashkil etish xarajatlari, jumladan o‘quv materiallari, o‘qituvchilar va treninglarni o‘tkazish uchun zarur sharoitlar, moliyalashtirish imkoniyatlariga muvofiq rejalashtirilishi lozim. Shu bilan birga, samarali integratsiyalashgan jamoa modeli inklyuziv ta’lim sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Bu modelda pedagog, psixolog, logoped va tibbiyot mutaxassislari birgalikda ishlaydi: pedagog o‘quv jarayonini boshqaradi, psixolog bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi, logoped nutq va kommunikatsiya muammolarini bartaraf etadi, tibbiyot mutaxassisi esa sog‘liq va reabilitatsiya ehtiyojlarini nazorat qiladi. Ushbu jamoaviy yondashuv bolalarning individual ehtiyojlarini samarali qondirishga xizmat qiladi. O‘zbekistonning amaldagi qonuniy hujjatlari inklyuziv ta’limni tartibga soladi, ammo amaliy kadr tayyorlashni yetarli darajada qo‘llab-quvvatlamaydi. Shu sababli, tizimning samaradorligini oshirish uchun modul shaklidagi kurslar, tezkor tayyorlash mexanizmlari va doimiy malaka oshirish dasturlari joriy qilinishi zarur. Natijalar va tahlillar shuni ko‘rsatadiki, inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun O‘zbekiston sharoitida kadrlarni tayyorlash tizimi integratsiyalashgan yondashuvga tayanishi lozim. Tibbiyot, pedagogika va psixologiya bilimlarini birlashtirgan maxsus kurslar va modul treninglar orqali tayyorlangan mutaxassislar sinfdagi pedagogik va psixologik jarayonlarni samarali qo‘llab-quvvatlay oladi. Shu tarzda, inklyuziv ta’lim kadrlarini tanlash, tayyorlash va malakasini oshirish tizimi bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.

Natijalar (Results)

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’limni rivojlantirishda kadrlar tayyorlashning samarali mexanizmlari mavjud bo‘lib, ular turli mutaxassislar resursini jalb qilish orqali amalga oshirilishi mumkin. Ekspert intervyulari va amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, hamshiralar, fizioterapevtlar, logopedlar va psixologlar kabi tibbiyot va pedagogika sohasidan kelgan mutaxassislarni maxsus pedagogik kurslar orqali tayyorlash eng samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘lgan. Ushbu mutaxassislar kurs davomida inklyuziv ta’lim metodikasi, individual yondashuv, sinfdagi pedagogik strategiyalar va psixologik qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bilimlarni egallaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, kurslarni tugatgan kadrlar sinfda nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondirishda yuqori natijaga erishadi [6; B. 51].

Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, logopedlar va psixologlar inklyuziv sinf muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shuningdek, tayyor kadrlarning ijtimoiy ta’siri ham muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko‘rsatdiki, kurslarni tugatgan pedagog, logoped va psixologlar sinfdagi bolalar orasidagi ijtimoiy integratsiyani sezilarli darajada yaxshilaydi. Masalan, nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega bolalar sinfdoshlar bilan faol muloqot qilishga, jamoaviy loyihalarda ishtirok etishga va o‘zini ifoda etishga qodir bo‘ladi. Shu bilan birga, tayyor kadrlarning faoliyati ta’lim sifatiga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi:

o‘quvchilarning akademik natijalari ortadi, individual rivojlanish indikatorlari yaxshilanadi, o‘quv materiallarini qabul qilish va tushunish darajasi oshadi. Bu esa modul kurslar va tezkor tayyorlash mexanizmlarining nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy va akademik samaradorligini ham tasdiqlaydi. Logopedlar nutq nuqsonlari bo‘lgan bolalarga individual yondashuvni amalga oshirishi, psixologlar esa bolalarning emotsional va ijtimoiy rivojlanishini qo‘llab-quvvatlashi mumkin. Ijtimoiy pedagoglarning ishtiroki esa sinfdagi ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va bolalar orasidagi ijtimoiy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qiladi. Shu tarzda, turli mutaxassislarni jalb qilish orqali kadrlarni tayyorlash tizimi inklyuziv ta’limning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, modul shaklidagi kurslar va tezkor tayyorlash mexanizmlari O‘zbekiston maktablarida yetishmayotgan pedagog kadrlar muammosini qisqa muddat ichida bartaraf etishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, 3–6 oylik maxsus kurslarni tamomlagan hamshiralar va fizioterapevtlar sinfdagi bolalarning harakat va sog‘liq ehtiyojlarini qondirishda muvaffaqiyatli natijalar ko‘rsatdi. Shu bilan birga, maxsus kurslar orqali logopedlar va psixologlar individual yondashuvni qo‘llash va psixologik barqaror muhit yaratish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarini oshirdi. Bu esa bolalarning akademik va ijtimoiy rivojlanishini sezilarli darajada yaxshilashga yordam berdi.

Ekspert intervyulari va kuzatuvlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, kadrlarni tayyorlash tizimining samaradorligi faqat kurslar orqali bilim berish bilan cheklanmaydi. Doimiy malaka oshirishning ahamiyati katta bo‘lib, onlayn va oflayn seminarlar, mentorlik dasturlari va amaliy treninglar kadrlarning kompetensiyasini saqlash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, kadrlarni tanlashda ijtimoiy tajriba, psixologik moslik va amaliy ko‘nikmalar muhim mezon bo‘lib, kurslarni tugatgan mutaxassislarning sinfdagi ish samaradorligini oshiradi.

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida kadrlarni tayyorlash tizimini normativ-huquqiy va amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirish zarur. Amaldagi qonun va me’yoriy hujjatlar inklyuziv ta’limni tartibga soladi, lekin amaliy tayyorlash mexanizmlari yetarli emas. Shu sababli, modul kurslar, tezkor tayyorlash mexanizmlari va doimiy malaka oshirish dasturlarini joriy qilish orqali tizimning samaradorligini oshirish mumkin. Inklyuziv ta’limda ishlashga tayyor kadrlar tarkibi turli sohalardan kelgan mutaxassislarni o‘z ichiga olishi va ularni maxsus pedagogik tayyorgarlik orqali malakasini oshirish tizimi orqali tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv bolalarning individual ehtiyojlarini qondirish, sinfdagi pedagogik va psixologik jarayonlarni samarali qo‘llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

Xulosa

Ushbu tadqiqot O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash mexanizmlarini ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o‘rganishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, inklyuziv ta’limning samaradorligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri tayyor kadrlarning malakasiga va ularning pedagogik hamda psixologik kompetensiyasiga bog‘liq. Tezkor tayyorlash mexanizmlari – modul kurslar, amaliy seminarlar va maxsus pedagogik treninglar – tibbiyot, pedagogika va psixologiya sohasidan kelgan mutaxassislarni sinfda ishlashga tayyorlashning samarali vositasidir. Hamshiralar, fizioterapevtlar, logopedlar va psixologlar kurslarni tamomlaganidan so‘ng, nogironligi bo‘lgan va maxsus ehtiyojga ega bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondirishda yuqori natijalarga erishadi. Kelajakda inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun strategik tavsiyalar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, maktablar va oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida doimiy hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, mentorlik dasturlarini tashkil etish va malaka oshirish platformalarini yaratish zarur. Bu kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish jarayonini tizimli va uzluksiz qiladi hamda sinflarda sifatli ta’limni ta’minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, kelajak tadqiqotlari yo‘nalishlarini belgilash ham muhimdir. Masalan, kadr tayyorlashning onlayn-modul tizimi samaradorligi, uning turli yoshdagi o‘quvchilarning individual rivojlanishiga ta’siri, shuningdek, modul treninglar orqali tayyorlangan mutaxassislarning sinfdagi ijtimoiy va akademik natijalarga qo‘shgan hissasi o‘rganilishi mumkin. Bunday tadqiqotlar tizimni optimallashtirish va

inklyuziv ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot shuningdek, kadrlarni tanlashda ijtimoiy tajriba, psixologik moslik va amaliy ko‘nikmalar muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi. Modul kurslar va tezkor tayyorlash mexanizmlari nafaqat pedagogik bilimni oshiradi, balki mutaxassislarning psixologik va ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. Shu tarzda, tayyor kadrlar sinfdagi pedagogik jarayonni qo‘llab-quvvatlash, bolalarning ijtimoiy integratsiyasini ta’minlash va inklyuziv muhit yaratishda samarali faoliyat ko‘rsatadi.

Shuningdek, doimiy malaka oshirish, mentorlik va amaliy treninglar tizimi kadrlarning kompetensiyasini saqlash va rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, O‘zbekiston sharoitida inklyuziv ta’lim kadrlarini tayyorlash tizimi integratsiyalashgan yondashuvga tayangan holda tashkil etilishi kerak. Bu yondashuv tibbiyot, pedagogika va psixologiya bilimlarini birlashtirib, kadrlarni tezkor va samarali tayyorlash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta’limni rivojlantirish uchun kadrlarni tayyorlash mexanizmlari tizimli, normativ-huquqiy va amaliy tajribaga moslashtirilgan bo‘lishi, mutaxassislarni maxsus kurslar orqali malakasini oshirish tizimi orqali tayyorlash zarur. Bunday tizim bolalarning individual rivojlanish ehtiyojlarini qondirish, sinfdagi pedagogik va psixologik jarayonlarni samarali qo‘llab-quvvatlash hamda inklyuziv ta’lim sifatini oshirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2019). Inklyuziv ta’lim to‘g‘risida qonun. Toshkent.
2. Xalq ta’limi vazirligi, O‘zbekiston Respublikasi. (2022). Inklyuziv ta’lim bo‘yicha metodik qo‘llanma. Toshkent.
3. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and Education. Paris: UNESCO Publishing
4. Abdullaeva, M. (2020). Inklyuziv ta’lim: nazariya va amaliyot. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
5. Axmedov, R. (2020). Hamshiralarni pedagogga aylantirish imkoniyatlari. Toshkent: Sog‘liqni saqlash nashriyoti.
6. Islomova, M. (2019). Tezkor kadr tayyorlash mexanizmlari va inklyuziv sinf. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
7. Karimova, L. (2019). Logoped va psixologning inklyuziv ta’limdagi roli. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika universiteti nashriyoti.
8. Mirzaeva, F. (2021). Sinfda individual yondashuv va o‘quvchilarning rivojlanishi. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
9. O‘zbekiston Respublikasi Ta’lim vazirligi. (2021). Inklyuziv ta’limni rivojlantirish strategiyasi. Toshkent.
10. Qodirov, S. (2019). Maxsus ehtiyojga ega bolalar bilan ishlash metodikasi. Toshkent: Fan va ta’lim.
11. Rasulova, D. (2021). Kadrlarni tayyorlash tizimi va inklyuziv ta’lim. Toshkent: Ta’lim nashriyoti.
12. Sodiqova, G. (2018). Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim nazariyasi. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
13. Tursunov, B. (2018). Pedagogik yondashuv va inklyuziv muhit yaratish. Toshkent: Oliy ta’lim nashriyoti.
14. Xolmatova, Z. (2020). Pedagogik kompetensiya va nogiron bolalar bilan ishlash. Toshkent: Fan va ta’lim.
15. Yo‘ldoshev, N. (2020). Nogiron bolalar uchun inklyuziv dars jarayoni. Toshkent: Fan va amaliyot.
16. Yunusova, S. (2018). Nogiron bolalar bilan ishlashda pedagogik yondashuvlar. Toshkent: Fan va amaliyot
17. Carver, M. (2018). Teaching and Learning in Inclusive Contexts. London: Routledge.
18. Florian, L., Black-Hawkins, K. (2011). Exploring Inclusive Pedagogy. British Educational Research Journal, 37(5), 813–828.
19. Klapste, J. (2020). Inclusive Education Practices and Teacher Training. New York: Springer.

INKORPORATSION YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINING AMALIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH

Jo’rayeva Dilnoz Raxmidinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi o’qituvchisi

Annotasiya. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida amaliy kompetensiyalarni rivojlantirishda inkorporatsion yondashuvning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Inkorporatsiya ta’lim jarayonida bir fan doirasiga boshqa fan elementlarini maqsadli singdirish orqali o‘quvchilarda kompleks bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadqiqotda texnologiya darslari misolida fanlararo bog‘liqlik asosida amaliy topshiriqlar tizimi ishlab chiqildi. Natijalar inkorporatsion yondashuv o‘quvchilarning ijodkorligi, mustaqil fikrlashi hamda muammoli vaziyatlarda amaliy yechim topish kompetensiyalarini rivojlantirishini ko‘rsatdi.

Kalit so‘zlar: inkorporatsion yondashuv, amaliy kompetensiya, boshlang‘ich ta’lim, texnologiya fani, fanlararo aloqa, kompetensiyaviy yondashuv

Абстрактный. В статье рассматриваются педагогические возможности инкорпорационного подхода в формировании практических компетенций учащихся начальных классов. Инкорпорация в образовательном процессе предполагает целенаправленное включение элементов других учебных дисциплин в содержание одного ведущего предмета. На примере уроков технологии разработана система межпредметных практических заданий. Результаты исследования показывают, что инкорпорационный подход способствует развитию творческого мышления, самостоятельности и умений находить практические решения учебных задач.

Ключевые слова: инкорпорационный подход, практическая компетенция, начальное образование, технология, межпредметные связи, компетентностный подход.

Abstract. This article explores the pedagogical potential of the incorporation approach in developing practical competencies of primary school students. Incorporation in education involves the purposeful inclusion of elements from other subjects into the content of a leading discipline. Using technology lessons as an example, a system of interdisciplinary practical tasks was developed. The findings show that the incorporation approach enhances students’ creativity, independence, and ability to find practical solutions to learning problems.

Key words: incorporation approach, practical competence, primary education, technology subject, interdisciplinary connection, competency-based approach

Kirish. Zamonaviy ta’lim tizimida o‘quvchilarning faqat bilim egallashi emas, balki ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, kompetensiyaviy yondashuv ta’lim mazmunini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirishni, o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, muammolarni hal etish hamda ijodiy yondashuvni rivojlantirishni talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida shakllangan amaliy ko‘nikmalar va faoliyat tajribasi keyingi ta’lim jarayonining samaradorligini belgilab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun o‘qitish jarayoni ko‘proq ko‘rgazmali, faoliyatga yo‘naltirilgan va tajribaga asoslangan bo‘lishi zarur. Shu jihatdan texnologiya fani o‘quvchilarning qo‘l mehnati, ijodiy fikrlashi va muayyan mahsulot yaratish faoliyatini tashkil etishda keng imkoniyatlarga ega. Mazkur fan doirasida o‘quvchilar turli materiallar bilan ishlash, loyihalash, modellashtirish, o‘lchash va bezash jarayonlari orqali nafaqat amaliy ko‘nikmalarni, balki mantiqiy va tasviriy tafakkurni ham rivojlantiradilar.

Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab hollarda texnologiya darslari boshqa fanlardan ajralgan holda, faqatgina buyum yasash bilan cheklanib qolmoqda. Natijada o‘quvchilarda

fanlararo bog‘liqlik asosida yaxlit bilim va ko‘nikmalar tizimi yetarli darajada shakllanmayapti. Vaholanki, real hayotiy faoliyatda har qanday amaliy ish matematika, tabiatshunoslik, tasviriy san’at, hatto o‘qish savodxonligi bilan uzviy bog‘liq holda amalga oshiriladi.

Shu o‘rinda fanlararo aloqani ta’minlashning samarali shakllaridan biri sifatida inkorporatsion yondashuv alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu yondashuv bir yetakchi fan — bizning holatda texnologiya fani — doirasiga boshqa fanlarning zarur elementlarini maqsadli singdirishni nazarda tutadi. Bunda boshqa fanlar mustaqil o‘qitilmaydi, balki amaliy faoliyat mazmunini boyituvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar bilimlarni alohida-alohida emas, balki yagona faoliyat jarayonida o‘zlashtiradi.

Inkorporatsion yondashuvni qo‘llash boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida quyidagi muhim sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi:

— amaliy vaziyatlarda bilimlarni qo‘llay olish;

— predmet va hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni anglash;

— ijodiy va tanqidiy fikrlash;

— jamoada ishlash va o‘z faoliyatini rejalashtirish.

Shu sababli boshlang‘ich ta’limda, xususan texnologiya fanini o‘qitishda inkorporatsion yondashuv asosida o‘quvchilarning amaliy kompetensiyalarini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. Mazkur maqolada aynan shu masalaning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili. Ta’lim jarayonida fanlararo bog‘liqlikni ta’minlash masalasi pedagogika fanida uzoq yillardan beri dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Bu borada integratsiya va inkorporatsiya tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lsa-da, mazmunan farqlanadi. Integratsiya fanlarning teng asosda o‘zaro bog‘lanishini nazarda tutsa, inkorporatsiya bitta yetakchi fan mazmuniga boshqa fan elementlarining maqsadli singdirilishini anglatadi.

Ta’limni faoliyat asosida tashkil etish g‘oyasi J. Dewey tomonidan ilgari surilgan bo‘lib, u o‘qitish jarayonida bilimlar amaliy tajriba orqali o‘zlashtirilganda yanada mustahkam bo‘lishini ta’kidlagan. Dewey nazariyasiga ko‘ra, bola faoliyat jarayonida fikrlaydi, muammoni hal qiladi va bilimni real vaziyatda qo‘llashni o‘rganadi. Bu qarashlar texnologiya darslarida inkorporatsion yondashuvni qo‘llash uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

L.S. Vygotskiy ta’lim jarayonida ijtimoiy muhit va faoliyatning ahamiyatini asoslab bergan. Uning fikricha, o‘quvchining rivojlanishi yaqin rivojlanish zonasi doirasida tashkil etilgan hamkorlikdagi faoliyat orqali samarali kechadi. Texnologiya darslarida guruhiy ishlar va fanlararo topshiriqlar aynan shu tamoyil asosida tashkil etiladi.

J. Piaget esa bolalar tafakkurining bosqichma-bosqich rivojlanishini ilmiy asoslab, boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilar uchun konkret-amaliy faoliyat muhimligini ta’kidlaydi. Demak, amaliy faoliyatga asoslangan texnologiya darslari o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos keladi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda ham fanlararo yondashuvning ahamiyati keng yoritilgan. Drake fanlararo integratsiyalashgan ta’lim o‘quvchilarda yaxlit dunyoqarashni shakllantirishini ta’kidlaydi. Beane esa o‘quv dasturini hayotiy muammolar asosida birlashtirish o‘quvchilarni real hayotga tayyorlashini asoslab beradi.

Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan qaralganda, amaliy faoliyat o‘quvchining bilim, ko‘nikma va munosabatlarini bir butun holda namoyon etadi. Shuning uchun texnologiya darslarida inkorporatsion yondashuv asosida tashkil etilgan topshiriqlar o‘quvchilarda nafaqat predmetli bilimlarni, balki amaliy kompetensiyalarni ham rivojlantiradi.

Tahlillar va natijalar. Mazkur tadqiqotda inkorporatsion yondashuv asosida tashkil etilgan texnologiya darslarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’siri o‘rganildi. Tajriba-sinov ishlari davomida texnologiya fanining mazmuni boshqa fanlar elementlari bilan maqsadli ravishda boyitildi va o‘quv jarayoniga tizimli ravishda singdirildi. Bunda asosiy e’tibor o‘quvchilarning amaliy faoliyat jarayonida fanlararo bilimlardan

foydalanishiga qaratildi.

Tajriba jarayonida texnologiya darslari matematika, tabiatshunoslik, tasviriy san’at va ona tili fanlari bilan uzviy bog‘liq holda tashkil etildi. O‘quvchilar buyum yasash jarayonida o‘lchash, shakl va nisbatlarni aniqlash orqali matematik bilimlarini amaliyotda qo‘llashdi. Tabiiy materiallar bilan ishlash davomida ularning xossalari, ekologik ahamiyati va kelib chiqishi haqida tushunchalar mustahkamlandi. Tayyor mahsulotning tashqi ko‘rinishini bezash va dizaynini ishlab chiqishda tasviriy san’at elementlaridan foydalanildi. Ish jarayonini tushuntirish, ketma-ketlikni izohlash va natijani tavsiflash esa o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirdi.

Kuzatishlar shuni ko‘rsatdiki, inkorporatsion yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilarning faolligi sezilarli darajada oshdi. Ular topshiriqlarni bajarishda mustaqillikka intila boshladilar, ishni rejalashtirish, kerakli material va asboblarni tanlash, ish ketma-ketligini belgilash kabi ko‘nikmalar bosqichma-bosqich shakllandi. Amaliy faoliyat davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyati rivojlandi.

Shuningdek, guruhda ishlash jarayonida o‘zaro hamkorlik, vazifalarni taqsimlash va bir-biriga yordam berish ko‘nikmalari mustahkamlandi. O‘quvchilar bajarilgan ish natijasini baholash, kamchiliklarni aniqlash va ularni tuzatish bo‘yicha ham faol ishtirok eta boshladilar. Bu esa ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish va refleksiya ko‘nikmalarining rivojlanishiga xizmat qildi.

Tajriba davomida o‘quvchilarning tayyorlagan mahsulotlari sifat jihatidan ham sezilarli darajada yaxshilangani kuzatildi. Ishlarning puxtaligi, estetik ko‘rinishi va funksionalligi ortdi. Eng muhim jihat shundaki, o‘quvchilar texnologiya darslarini oddiy qo‘l mehnati emas, balki turli fanlarga oid bilimlarni birlashtiruvchi, fikrlash va ijodiy yondashuvni talab qiluvchi faoliyat sifatida qabul qila boshladilar.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, inkorporatsion yondashuv texnologiya ta’limining mazmunini boyitadi, o‘quvchilarning bilimlarini amaliy faoliyat bilan bog‘laydi hamda ularning hayotiy vaziyatlarda bilim va ko‘nikmalarni qo‘llay olish kompetensiyasini rivojlantiradi. Natijada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil ishlash, muammoni hal qilish, ijodiy fikrlash va jamoada faoliyat yuritish kabi muhim amaliy kompetensiyalar samarali shakllanadi.

Shu tariqa, tajriba-sinov ishlari natijalari inkorporatsion yondashuv asosida tashkil etilgan texnologiya darslari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi.

Xulosa. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida axborot kompetentligini oshirishda inkorporatsiya va integratsiya muhim ahamiyatga ega ekanligini yuqoridagi misollar asosida ko‘rdik. Demak, har bir fanda o‘rganiladigan kichik bir element o‘quvchilardagi axborot xazinasini oshirishda katta ahamiyatga ega ekan. XXI asr axborot texnologiyalar asridir. Shu tufayli olamda tuganmas axborotlar manbai mavjuddir. Bu zaxira kundan-kunga oshib bormoqda. Shuning uchun ham yoshlarni tarbiyalashda XXI asrga mos avlodlarni shakllantirish pedagoglar oldidagi ulkan vazifadir.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Umumiy o‘rta ta’limning Milliy o‘quv dasturi (texnologiya)

2.R.Ismoilova “Texnologiya” 1-4 sinf darslik– Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2023.

3.R.Mavlyanova, N.Raxmankulova. «Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi, Toshkent «Voris nashriyot», 2013.

4.R.A.Mavlonova, N.H.Rahmonqulova. «Boshlang’ich ta’limning integratsiyalashgan pedagogikasi», Toshkent «Ilm ziyo», 2009

5.M.M.Tilavova “Texnologiya va uni o‘qitish metodikasi”: darslik. Sadriddin Salim Buxoriy “Durdona, 2021-316b.

6. Vygotsky, L. S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.

7. Dewey, J. Experience and Education. New York: Macmillan, 1938.

8. Drake, S. M. & Burns, R. C. Meeting Standards Through Integrated Curriculum. Alexandria, VA: ASCD, 2004.

TARBIYA DARSLARIDA O‘QUVCHILARNING TANQIDIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA INTEGRATSION USULLARNING AHAMIYATI

Kazbekova Fariza Po‘latovna
Navoiy Davlat universiteti Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Tarbiya darslarida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda fanlararo integratsion usullarning ahamiyati yoritilgan. Tadqiqot jarayonida integratsiyalashgan ta’lim yondashuvi asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga ongli yondashish va asosli xulosa chiqarish kompetensiyalarini shakllantirish masalalari o‘rganildi. Tarbiya fanining tarix, adabiyot va huquq fanlari bilan integratsiyasi orqali ta’lim samaradorligini oshirish imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: Tarbiya fani, tanqidiy tafakkur, fanlararo integratsion usullar, kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil fikrlash.

Аннотация: В данной статье подчеркивается важность методов междисциплинарной интеграции в развитии критического мышления учащихся на уроках педагогики. В ходе исследования были изучены вопросы формирования у учащихся компетенций к самостоятельному мышлению, анализу, осознанному подходу к проблемным ситуациям и формулированию обоснованных выводов на основе интегрированного образовательного подхода. Научно и теоретически обоснованы возможности повышения эффективности образования за счет интеграции педагогики с историей, литературой и правом.

Ключевые слова: Воспитание, критическое мышление, методы междисциплинарный интеграции, компетентностный подход, самостоятельное мышление.

Abstract: This article highlights the importance of interdisciplinary integration methods in developing students’ critical thinking in pedagogy lessons. The study explored the development of students’ competencies for independent thinking, analysis, a conscious approach to problematic situations, and the formulation of well-founded conclusions based on an integrated educational approach. The potential for enhancing educational effectiveness through the integration of pedagogy with history, literature, and law is scientifically and theoretically substantiated.

Keywords: Education, critical thinking, interdisciplinary integration methods, competency-based approach, independent thinking.

O‘zbekistonning jadal rivojlanib borayotgan zamonaviy ta’lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilarda mustaqil va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish dolzarb pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta’lim tizimida joriy etilgan Tarbiya fanining mazmun-mohiyati o‘quvchilarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy-axloqiy qarashlari va fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishga qaratilgan.

Bugungi globallashuv sharoitida fanlararo integratsiya ta’lim mazmunining uzviyligini ta’minlash, o‘quvchilarning bilimlarni tizimli o‘zlashtirishiga erishish hamda ularning tafakkur faoliyatini faollashtirishning muhim omili sifatida qaralmoqda. Tanqidiy tafakkurni rivojlantirish uchun o‘quvchilarni interaktiv metodlar, integratsion usullar orqali o‘qititsh zarurdir. Bu, o‘z navbatida o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda katta amiyat kasb etadi [Zunnunov A, 2017].

Shuningdek, muammoli ta’lim, keys-stadi, bahs-munozara va guruhli ishlash metodlarining integratsiyalashgan darslardagi samaradorligini orttiradi.

Tarbiya darslarida fanlararo integratsiyadan foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda ijobiy natijalar beradi. Jumladan:

Tarix va Tarbiya fanlari integratsiyasi tarixiy voqealar va shaxslar faoliyatini axloqiy jihatdan tahlil qilish orqali sabab–oqibat munosabatlarini aniqlash ko‘nikmasini shakllantirdi;

Adabiyot bilan integratsiya badiiy asar qahramonlarining xatti-harakatlarini baholash orqali o‘quvchilarning mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatini rivojlantirdi;

Huquqiy fanlar bilan integratsiya o‘quvchilarda huquqiy ong va mas’uliyat hissini shakllantirishga xizmat qildi.

Integratsiyalashgan darslar jarayonida o‘quvchilar o‘z fikrlarini asoslash, turli nuqtayi nazarlarni solishtirish va dalillarga tayanib xulosa chiqarish malakalarini egallaydilar [Zunnunov A, 2017].

Usullar. Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirishda bir qator usullar va yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin. Quyida keltirilgan usullar o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini, mustaqil fikr yurita olish, tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishlarini ta’minlashga yordam beradi:

Interaktiv metodlar: O‘quvchilarni turli interaktiv faoliyatlarga jalb qilish, masalan, guruhlarda muammolarni hal qilish, bahs-munozara va guruhli ishlarda qatnashish. Bu metodlar o‘uvchilarning kreativ fikrlashini rag‘batlantirib, tanqidiy tafakkurini rivojlantiradi [Qosimova, 2018].

1. Masalalar va muammolarni yechish: O‘quvchilarning hikoyalardagi tarbiyaviy muammolarni turli usullar bilan yechishga undash. Masalan, noan’anaviy yoki murakkab muammolar orqali o‘quvchilarni yangicha qarashlarga va yangicha fikrlarni izlashga yo‘naltirish. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarga ham tahlil qilishni, ham tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi.

2. Boshqa fanlar bilan integratsiya: Tarbiya fanini boshqa fanlar, masalan, o‘qish, mehnat yoki tasviriy san’at bilan integratsiya qilish. Bu usul, o‘quvchilarga tanqidiy tafakkurni turli kontekstlarda qo‘llash imkonini beradi va ularga ko‘proq ijodiy va amaliy yondashuvni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Proyekt asosidagi o‘qitish: O‘quvchilarni tarbiya fanini real hayotdagi muammolar bilan bog‘lash. Masalan, loyihalar yaratish, tarbiyaviy modellarni tuzish, statistik ma’lumotlarni tahlil qilish va boshqalar orqali o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini kuchaytirish.

4. Kritik fikrlashni rivojlantirish: O‘quvchilarni o‘z fikrlarini tahlil qilish va baholashga o‘rgatish. Keltirilgan fikrlarning yechimlarni bir nechta yo‘l bilan tahlil qilib chiqish va o‘z fikrini asoslashni talab qiladigan metodlar, o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini mustahkamlaydi.

5. Ta’limda texnologiyalardan foydalanish: Tarbiya fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar, masalan, interaktiv doskalar, zamonaviy dasturlar va onlayn resurslardan foydalanish. Bu metodlar o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini yanada chuqurlashtirib, ta’lim jarayonini qiziqarli va samarali qiladi.

6. Tajriba asosida o‘qitish: O‘quvchilarni tanqidiy fikrlash amaliyotlarga asoslangan vazifalar bilan tanishtirish. Bu, o‘quvchilarning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirib, tanqidiy tafakkurini yanada mustahkamlaydi.

7. Metodik qo‘llanmalar va resurslar: O‘quvchilar uchun metodik qo‘llanmalar, treninglar va resurslar taqdim etish. Bu, o‘quvchilarga tanqidiy tafakkurlarini rivojlantirishda yordam beradi va o‘quvchilarga eng samarali ta’lim berish imkoniyatlarini yaratadi.

Bu metodlar boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurlarini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan turli ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi [Qosimova, 2018].

NATIJALAR

Boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan metodik yondashuvlar va o‘qitish usullari natijasida quyidagi ijobiy o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘ladi:

1. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi: O‘quvchilar muammolarni turli usullar bilan yechish va tanqidiy fikrlarni chuqurroq tushunish imkoniyatiga ega bo‘lishdi. Bu, o‘z navbatida, ularning tanqidiy tafakkurini yanada boyitdi va murakkab muammolarni hal qilishda mustahkam poydevor yaratdi.

2. Analitik fikrlashning kuchayishi: O‘quvchilarni interaktiv metodlar orqali tanishtirish, o‘z fikrlarini asoslash va yechimlarni muhokama qilish imkoniyatini yaratdi. Natijada, ularning analitik fikrlash qobiliyati rivojlandi muammolarni samarali tahlil qilishga erishildi.

3. Innovativ yondashuvlarning qo‘llanilishi: Tanqidiy tafakkurni rivojlantirishda o‘quvchilar innovativ yondashuvlar, masalan, texnologiyalarni qo‘llash, proyekt asosida o‘qitish va metodik qo‘llanmalar orqali o‘z pedagogik amaliyotlariga yangi yondashuvlar kiritishdi. Bu o‘quvchilarga tanqidiy muammolarni samarali o‘rgatishda yanada muvaffaqiyatli bo‘lishlariga yordam berdi.

4. Ko‘nikmalarni mustahkamlash: O‘quvchilarning tanqidiy tafakkurini rivojlantirish jarayonida, ular ko‘plab amaliy masalalar va vazifalarni yechish orqali o‘z ko‘nikmalarini mustahkamlashdi. Bu esa o‘quvchilarga aniq va sifatli ta’lim berishda katta yordam berdi.

5. Motivatsiyaning oshishi: O‘quvchilarning tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yo‘naltirgan metodlar, ularning mustaqil fikrlarini erkin bayon etishga bo‘lgan qiziqishini oshirdi. O‘quvchilar o‘z bilimlarini yanada kengaytirishga, yangi metodlarni o‘rganishga va muammolarni tahlil qilishda innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga qiziqish bildirishdi.

6. O‘quvchilarga ta’lim berish samaradorligining oshishi: O‘quvchilarda tanqidiy tafakkur ko‘nikmalarni rivojlantirish natijasida, ular tarbiya fanini samarali va qiziqarli tarzda o‘rganishda muvaffaqiyatga erishdilar. O‘quvchilarni tarbiya fanidan muammolarni yechishda ishtirok etishga undash, o‘quvchilarning tanqidiy tafakkurlarini ham rivojlantirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurini integratsion usullardan foydalanib rivojlantirish jarayoni ijobiy natijalarga olib keldi, ularning pedagogik bilimlari kengayib, mustaqil fikrlarini bayon etishda yanada samarali va innovatsion yondashuvlarni qo‘llash imkoniyatini yaratdi [Tolipov O’, Usmonboyeva M, 2019].

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, Tarbiya darslarida fanlararo integratsiyani maqsadli va tizimli qo‘llash o‘quvchilarda tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi hisoblanadi. Integratsiyalashgan yondashuv o‘quvchilarning bilimlarni yaxlit holda o‘zlashtirishiga, ularni real hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, ta’lim jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishi uchun zaruriy va samarali usullardan biridir. Turli metodlar va yondashuvlar, jumladan, interaktiv o‘qitish, masalalarni yechish, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash va proyekt asosida o‘qitish orqali o‘quvchilarni tanqidiy tafakkur yuritishida yanada rivojlantirish mumkin. Bu esa, o‘z navbatida, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini mustahkamlaydi, shuningdek, ularning har xil muammoli masalarni tahlil qila olishini samarali o‘rgatishda muvaffaqiyatli bo‘lishiga yordam beradi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanishi, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini oshirish bilan birga, ularni ta’limda kreativ va innovatsion yondashuvlarni qo‘llashga undaydi. Natijada, boshlang‘ich ta’lim o‘quvchilarining tanqidiy tafakkurini rivojlantirish orqali ta’lim tizimi sifatini oshirish va yuqori sifatli tarbiyaviy ta’lim berish imkoniyati yaratiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qosimova , N.M. Pedagogik texnologiyalar va metodlar. Tashkent: Fan va texnologiya 2018.
2. Sh.M. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2021.
3. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – T.: Fan, 2019.
4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – T.: Moliya, 2018.
5. Zunnunov A. Ta’limda integratsiya va differensial yondashuv. – T.: O‘qituvchi, 2017.
6. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2020.

ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В РАЗЛИЧНЫХ ВИДАХ НЕРЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ У ДОШКОЛЬНИКОВ

Marasulova Dono Nigmatullayevna
Институт Технологии, менежмента и коммуникации
доцент, д.ф.п.н. (PhD) кафедры “Педагогика и психология”
ORCID: 0009-0001-5967-3117

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы обучения дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности. Оптимально организованная деятельность в детском коллективе, охватывающая игровую, изобразительную, конструктивную, трудовую деятельность, связанную с выполнением режимных моментов и выполняемую на специально организованных занятиях, влияет на овладение детьми знаниями, умениями и навыками иноязычной речи.

Ключевые слова: Иноязычная речевая деятельность, формирования элементарных навыков и умений, дошкольники, различные виды неречевой деятельности, предметно-практическая, изобразительная, конструктивная, игровая, трудовая деятельность.

Annotatsiya. Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarga nutqsiz faoliyatning har xil turlarida chet tilini o’rgatish masalalari ko’rib chiqiladi. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolalar jamoasida chet tilida tashkil etilgan mashg’ulotlarda bajariladigan o’yin, tasviriy, mehnat faoliyatlari bolalarning chet tilidagi nutqni egallashiga ta’sir qiladi.

Kalit so’zlar: Chet tilidagi nutq faoliyati, elementar ko’nikma va malakalarni shakllantirish, maktabgacha yoshdagi bolalar, nutqdan tashqari faoliyatning turlari, tasviriy, o’yin, mehnat faoliyati.

Abstract. This article discusses the issues of teaching preschoolers a foreign language in various types of non-verbal activities. Optimal organization of activities in a children’s group, which includes play, visual arts, construction, and labor activities related to routine tasks and performed in specially organized classes, has a significant impact on children’s acquisition of knowledge, skills, and foreign language communication.

Keywords: Foreign language speech activity, formation of elementary skills and abilities, preschoolers, various types of non-speech activity, subject-practical, graphic, constructive, game, and labor activity.

Введение: Процесс обучения иностранному языку детей-дошкольников является объектом пристального внимания исследователей в течение последних десятилетий и в настоящее время приобретает особое значение в связи с тем, что повышение качества языковой подготовки является одной из задач обучения и воспитания всесторонне развитой личности. Эта задача может быть успешно решена при условии оптимизации педагогического процесса уже в детских дошкольных учреждениях.

Актуальность выбранной нами темы заключается в том, что ее исследование позволит вооружить воспитателей детских дошкольных учреждений методикой обучения, представляющей собой целостную систему, охватывающую различные виды детской деятельности, которые служат основой; для овладения дошкольниками иноязычной речевой деятельностью. Создание такой методики, на наш взгляд, способно обеспечить включение предмета «английский язык» в структуру педагогического процесса в качестве его звена, обеспечить его целостность, осуществляя данный вид работы наравне и в тесной взаимосвязи с развитием речи, физическим воспитанием, ознакомлением детей с окружающим миром.

Объектом настоящего исследования является процесс формирования элементарных навыков и умений в иноязычной речевой деятельности детей-дошкольников.

В качестве предмета исследования рассматривается методика формирования иноязычных речевых навыков и умений в неречевых видах деятельности.

Цель данного исследования состоит в теоретическом обосновании и практической разработке методики обучения детей дошкольного возраста иностранному языку в различных видах неречевой деятельности.

В соответствии с этим была сформулирована гипотеза исследования: обучение английскому языку детей-дошкольников (т.е. формирование у них элементарных навыков и умений в иноязычной устно-речевой деятельности) будет более эффективным при условии его осуществления на основе специально организованных видов предметно-практической неречевой деятельности (изобразительной, конструктивной, игровой, трудовой и др.), составляющих единую систему обучения и являющихся источником и сферой общения детей дошкольного возраста.

Обзор литературы по теме. Перспективность раннего обучения иностранным языкам в плане всестороннего совершенствования личности ребенка, его гуманитарного развития и приобщения к общекультурным ценностям не подвергается сомнению. Как отмечал Ф.А.Сохин, одной из главных среди многих важных задач воспитания и обучения детей-дошкольников является задача развития речи и речевого общения. Думается, что в системе непрерывного образования эта задача не может быть решена односторонне — только на основе родного языка. В связи с этим актуальной представляется проблема формирования иноязычных; устно-речевых навыков и умений у детей дошкольного возраста, рассматриваемая в тесной связи с процессом социализации ребенка к развитием его мыслительных способностей в целом [2].

А.А.Леонтьев, говоря о соотношении элементов речевой деятельности и других видов деятельности, отмечал: «Овладение языком само по себе определено только через понятие навыков и умений. В свою очередь эти понятия связываются с понятиями деятельности, действия и операции» Навыки и умения, определяемые как способность осуществлять оптимальным образом соответственно операции или действия, представляют собой совокупность «инструментов», которые позволяют либо использовать нужные для выражения мысли языковые средства, либо правильно сформулировать мысль, т.е. выразить в речи свою коммуникативную потребность. [3].

В научных исследованиях поднимаются различные методические проблемы, такие как определение содержания обучения иностранному языку дошкольников, методическая интеграция развития речи и обучения иностранному языку в условиях детского сада, использование речевых игр на занятиях английским языком, создание комплекса упражнений для обучения английской речи в детском саду, игровое моделирование иноязычного общения, проектирование игровых ситуаций и т.д. Авторов данных исследований объединяет отношение к игровой деятельности, в которой они видят основной путь решения поднимаемых вопросов.

Несмотря на понимание авторами работ взаимообусловленности речевой деятельности, поведения и неречевой предметно-практической деятельности, в их исследованиях не нашла отражения возможность использования других видов детской деятельности в обучении иностранному языку. Нам представляется нерациональным подобное исключение предметно-практических видов деятельности из обучения детей иностранным языкам. Использование лепки, рисования, аппликации» конструирования, изготовления поделок из бумаги, организация элементарных трудовых поручений в группе и уголке природы и др. представляют, на наш взгляд, большие возможности в плане обеспечения педагогического процесса новыми интересными приемами обучения и усиления его коммуникативной направленности. Активное участие детей в выполнении деятельности не только повышает мотивацию овладения иноязычными речевыми навыками и умениями, но и создает

«материальную» основу для качественного формирования элементов новой языковой системы в сознании ребенка.

Методология исследования. В процессе научной деятельности при решении поставленных задач использовались следующие методы исследования: изучение теоретических и практических работ в области психологии, психолингвистики, методики преподавания иностранных языков; изучение и обобщение опыта работы преподавателей английского языка в дошкольных учреждениях; тестирование детей, качественный и количественный анализ полученных данных; изучение отзывов родителей о процессе обучения на основе анализа данных анкетирования.

В связи с основной гипотезой исследования на защиту выносятся следующие положения:

1. Система видов неречевой предметно-практической деятельности может выступать в качестве основы организации общения на иностранном языке и формирования иноязычных устно-речевых навыков и умений у детей дошкольного возраста. (Такими видами неречевой предметно-практической деятельности являются следующие: рисование, лепка, аппликация, конструирование, трудовая деятельность (ручной труд, элементы бытовой (хозяйственной) трудовой деятельности - труд в природе, выполнение обязанностей дежурного по группе); элементы физической активности, рассматриваемой нами как физическая деятельность детей (выполнение утренней гимнастики, участие в физкультминутке, подвижные игры в группе и на прогулке); деятельность, связанная с осуществлением режимных моментов в повседневной жизни детей).

2. Отбор языкового и речевого материала с целью формирования иноязычных речевых навыков и умений на основе неречевых видов деятельности должен осуществляться с учетом следующих требований: отбираемый языковой и речевой материал должен быть необходимым и достаточным для формирования прочных иноязычных навыков и умений; соответствовать речевым и неречевым действиям, осуществляемым детьми для решения задач неречевой предметно-практической деятельности, и уровню их общего интеллектуального и лингвистического развития. Языковой и речевой материал должен обеспечивать формирование активного и пассивного запаса, т.е. продуктивное и рецептивное его усвоение детьми-дошкольниками.

Отобранный лексический материал, речевые образцы вводятся последовательно — от более простых к более сложным в связи с необходимостью обеспечить общение в различных видах неречевой деятельности.

3. Занятия должны представлять собой систему, включающую не только языковые и речевые упражнения, но и задания, основанные на выполнении неречевых видов деятельности и направленные на формирование и развитие, иноязычных устно-речевых навыков и умений у детей дошкольного возраста. [7].

Анализ и результаты. Изучение иностранных языков в дошкольном возрасте характеризуется, на наш взгляд, рядом важных преимуществ, связанных с различными возможностями организации обучения. В первую очередь следует отметить, что в процессе обучения в школе речевые навыки и умения формируются на «устной основе», т.е. значительное количество информации усваивается детьми с опорой на слуховое восприятие и воображение, и лишь незначительная ее часть подкрепляется воздействием на зрительный канал с помощью средств наглядности. Вместе с тем известно, что участие в выполнении значимой для человека деятельности, сопровождающейся двигательной активностью, в значительной степени повышает качество овладения соответствующими знаниями, навыками и умениями. В отличие от школы, где достаточно трудно организовать выполнение детьми заданий предусматривающих их активное участие в деятельности и не определенных программой, детские сады предоставляют широкие возможности как в плане организации занятий, так и в привлечении разнообразных средств обучения (игрушек, предметов, пособий и материалов). Тем не менее, в методике проблема обучения

дошкольников иностранным языкам решается преимущественно в аспекте использования в обучении игры, в то время как другим видам детской деятельности (аппликация, лепка, конструирование, рисование, изготовление поделок и др.) на занятиях по иностранному языку не уделяется должного внимания. [4].

Выводы и предложения. Нам представляется, что под содержанием обучения устной иноязычной речи детей дошкольного возраста следует понимать понятийно-действенный инструментарий речевого общения, обеспечивающий оптимальный уровень функционирования в речи детей системных элементов изучаемого языка и соответствующий предмету речевой деятельности, т.е. тематике устной речи. Объясним данное определение.

Формирование навыков, являющихся отправным пунктом для дальнейшего становления и развития умений в речевой деятельности, связано с усвоением знаний о правилах использования языковых средств и, естественно, предполагает образование в сознании обучаемого некоторой системы понятий и представлений о способах оперирования материалом изучаемого языка. Именно поэтому мы считаем целесообразным включить в определение содержания обучения иностранному языку термин «понятийно-действенный» инструментарий речевого общения, который также будет отражать и элементный состав содержания обучения. [5].

Итак, рассматривая определение содержания обучения иностранному языку, мы вплотную подошли к изучению его компонентного состава. В настоящее время в методике принято в качестве компонентов содержания помимо речевых навыков и умений выделять также темы и ситуации. При этом взгляды на определение и отбор тематики и ситуаций общения достаточно разнообразны. Считается, что тематика представляет собой некоторый набор тем, являющихся вероятностными свернутыми текстами и подлежащих развертыванию в речи; их изучение соотносится с предметом беседы, сообщения, или содержанием речи в разных сферах общения.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь // Собр. соч. – Т. 2. – М.: Педагогика, 1982.

2. Сохин Ф.А. Психолого-педагогические основы развития речи дошкольников. – М.: Изд-во Мос. психол. – социол. Ин-та; Воронеж: МОДЭК, 2002.

3. Ушакова О.С. Развитие речи дошкольников. – М.: Изд-во Ин-та психотерапии, 2001.

4. Шахнарович А.М. Общая психолингвистика. – М., 1995.

5. Марасулова, Д. Н. (2024). ИНОСТРАННЫЙ ЯЗЫК В ОБУЧЕНИИ ДОШКОЛЬНИКОВ. Лучшие интеллектуальные исследования, 17(2), 204-208.

6. Marasulova, D. (2023). Maktabgacha ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 1(1).

7. Marasulova, D. N. (2023). BOLALARGA CHET TILINI O'RGATISHDA MULTIMEDIALARNI O'RINI. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 83-87.

UDK: 544.548.321

PEDAGOGIKA OLIY O‘QUV YURTLARIDA “LAZER FIZIKASI” FANINING O‘QITISH METODKASINING NAZARIY VA METODOLOGIK ASOSLARI

Olimjonova Nigina Sobirjon qizi
Shahrisabz davlat pedagogika instituti
ORCID: 0009-0001-2422-870X

Annotatsiya. XX asr ilm- fanida tub burilishni boshlab bergan lazer texnologiyalari hozirgi kunda insoniyat eng ko‘p foydalaniladigan qismiga aylandi. Bugungi fizikaning zamonaviy optika va kvant texnikasining rivojiga poydevor bo‘lib xizmat qildi. XXI asr fan va texnika taraqqiyotining muhim omillaridan biri lazer texnologiyalarining keng ko‘lamda qo‘llanilishidir. Lazer qurilmalari mikroelektronika, tibbiyot, optik aloqa, aerokosmik texnika, biotexnologiya va harbiy texnologiyalar kabi tarmoqlarda asosiy texnologik platforma sifatida shakllanmoqda. Lazer fizikasi o‘z strukturasi bo‘yicha interdisiplinar bo‘lib, optika, kvant mexanikasi, materialshunoslik, elektronika, biotexnologiya va informatika fanlari bilan uzviy bog‘langan. Shu bois lazerni o‘qitish talabalarda tizimli, analitik va nostandart fikrlashni shakllantitishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta’lim konsepsiyalarida(STEAM, kreativ va kritik fikrlash, muommoli yondashuv) lazer texnologiyalarini o‘qitish ayni shu kompetensiyalarni shakllantiruvchi samarali pedagogik obyekt sifatida qaralmoqda. Ushbu maqolada “Lazerlar” va “Lazer fizikasi” ning rivojlanish tarixi va bugungi kunda tadqiqotchilarning izlanishlanishlari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Lazer, mazer, Intellekt xarita(Mind map), nostandart fikrlash, STEAM, kretiv fikrlash, majburiy nurlanish, optik spektroskopiya, interferensiya, difraksiya, gologrаfiya.

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ДИСЦИПЛИНЫ «ЛАЗЕРНАЯ ФИЗИКА» В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

Аннотация. Лазерные технологии, положившие начало коренному перелому в науке XX века, в настоящее время стали одной из наиболее широко используемых технологий человечества. В XXI веке широкое применение лазерных технологий является одним из важнейших факторов научно-технического прогресса. Лазерные устройства формируются как базовая технологическая платформа в таких областях, как микроэлектроника, медицина, оптическая связь, аэрокосмическая техника, биотехнология и военные технологии. Лазерная физика по своей структуре носит междисциплинарный характер и тесно связана с оптикой, квантовой механикой, материаловедением, электроникой, биотехнологией и информатикой. В связи с этим преподавание лазерной физики способствует формированию у студентов системного, аналитического и нестандартного мышления. В рамках современных образовательных концепций (STEAM-образование, развитие креативного и критического мышления, проблемный подход) обучение лазерным технологиям рассматривается как эффективный педагогический объект, способствующий формированию данных компетенций. В статье освещаются история развития лазеров и лазерной физики, а также современные направления научных исследований в данной области.

Ключевые слова: лазер, мазер, интеллект-карта (mind map), нестандартное мышление, STEAM, креативное мышление, вынужденное излучение, оптическая спектроскопия, интерференция, дифракция, голография.

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF TEACHING THE COURSE "LASER PHYSICS" IN PEDAGOGICAL HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Abstract. Laser technologies, which initiated a radical transformation in twentieth-century science, have today become one of the most widely utilized tools of modern humanity. In the twenty-first century, the widespread application of laser technologies has become one of the key factors driving scientific and technological progress. Laser systems are emerging as core technological platforms in fields such as microelectronics, medicine, optical communications, aerospace engineering, biotechnology, and military technologies. Laser physics is interdisciplinary in nature and is closely interconnected with optics, quantum mechanics, materials science, electronics, biotechnology, and informatics. Therefore, teaching laser physics contributes to the development of students' systemic, analytical, and non-standard thinking skills. Within modern educational concepts (STEAM education, creative and critical thinking, and problem-based learning), laser technologies are regarded as effective pedagogical tools for fostering these competencies. This article examines the historical development of lasers and laser physics, as well as current research trends in this field.

Keywords: laser, maser, mind map, non-standard thinking, STEAM, creative thinking, stimulated emission, optical spectroscopy, interference, diffraction, holography.

KIRISH. Lazer (inglizcha "laser") so'zi "Light amplification by stimulated emission of radiation" so'zlarining bosh harflaridan olingan bo'lib, "Majburiy nurlanish tufayli yorug'likning kuchayishi" ma'nosini anglatadi. Lazer nurlari ultrabinafsha, infraqizil va ko'zga ko'rinadigan diapazondagi elktromagnit to'lqinlar hisoblanadi. Bu to'lqinlar atom va molekulalarning majburiy nurlanishiga asoslanib hosil qilinadi. Bunday nurlanishni hosil qiluvchi qurilmani lazer yoki optik generator deyiladi. Rus fizigi V.A. Fabrikant 1940-1941- yillarda gaz razryadi spektrini o'rganish ishlari davomida "majburiy nurlanish hisobiga" yorug'likning intensivligini kuchaytirish mumkinligini isbotladi. 1955- yilda rus fiziklari A.M. Proxorov va N.G Basov o'ta yuqori chastotali birinchi kvant generatori ¬– lazerni yaratishdi. 1958- yilga borib A.M. Proxorov va N.G. Basov bilan bir vaqtda AQSh fizigi Ch.Tauns ko'zga ko'rinadigan yorug'lik spektri diapazonida kvant generatori – lazer qurish mumkinligini ilmiy va amaliy isbotladilar[1]. 1960- yilda amerikalik olim Teodor Meyman rubin lazerini ishga tushirdi. Shu kundan boshlab fan olamida yangi davr – lazerlar asri boshlandi. Lazerlarning keyingi rivojlanishini yarimo'tkazgichli lazerlar, gaz lazerlar, tolali lazerlar va ultratezkor femtosekund lazerlarmimg rivojlanishi bilan ko'rishimiz mumkin. Hozirgi kunda lazer kirib bormagan sohaning o'zi yo'q. Misol uchun tibbiyot sohasini olsak, Eksimer va Argon- Ftorid lazeri yuqori aniqlikda jarrohlik amaliyotlari – qon to'xtatish bilan birga to'qimalarni kesish, oftomologiya – ko'rish qobiliyatini tuzatish (LASIK), to'r pardasini to'g'rilash, katarakta, operatsiyasidan keyin paydo bo'lgan pardalarni kesishda Eksimer va Argon- Ftorid lazeridan foydalaniladi. Stomatologiyada tishlarni oqartirish, kariesni davolashda lazer og'riqsiz davolash vositasidir. Diod lazer(Galliy- alyuminiy- arsenid) va YAG(Erbiy-ittiriy- alyuminiy- granat) lazerlari kosmetologiya va dermotologiyada sochlarni doimiy olib tashlash(epilyatsiya), tatuirovkalarni olib tashlash, teridagi dog'lar(pigmentli leziyonlar) va qon tomir nuqsonlarini davolash, teri yuzasini tiklash(resurfacing), diagnostika –saraton hujayralarini aniqlash, immunofenotiplashda foydalaniladi. Uzoq masofalar lazerli masofa o'lchagichlarda amalga oshiriladi. Bugungi kunda Lazer shoular -konsertlar va tadbirlarda yorqin, dinamik visual effektlar yaratadi.

ADABIYOTLAT TAHLILI. Jahonda Lazer texnologiyasi bilan shug'ullangan olimlarni ko'rsak, Shvetsiya Qirollik fanlar akademiyasi 1981- yilda Fizika bo'yicha Nobel mukofotining yarmisini AQShning Garvard universiteti professori Nikolaas Bloembergen va AQShning Stenford universiteti professori Arthur L.Schawlowga lazer spektroskopiyasini rivojlantirishga

qo‘shgan hissalari uchun, qolgan yarmisini esa Shvetsiyaning Uppsala universiteti professori Kai M. Siegbehnga yuqori aniqlikdagi elektron spektroskopiyani rivojlantirishga qo‘shgan hissasi uchun berishga qaror qildi[2]. Nikolaas Bloembergen lazer spektroskopiyasi va nolinear optikani rivojlantirishda o‘z hissani qo‘shgan[3]. Lazer nurlaridan foydalanib, moddalar va elektromagnit nurlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirlarni chuqur o‘rganish orqali, atom va molekulalarning xususiyatlarini aniqlash usullarini takomillashtirgan[4]. Arthur L.Schawlowning ishlari lazer spektroskopiyasini yaratish va rivojlantirishga qaratilgan bo‘lib, lazer yordamida atom va molekula energiya darajalarini juda aniq o‘lchashga imkon bergan. Ayniqsa, “Doppler- free spectroscopy” usuli orqali spectral chiziqlarning yoyilishini kamaytirib, atomlarning xususiyatlarini yuqori aniqlikda o‘rganishga erishgan. [2].

2018- yil Fizika bo‘yicha Nobel mukofoti “Lazer fizikasi sohasidagi ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ixtrolar uchun” berildi. Mukofot Arthur Ashkin ga – “optik qisgichlar va ularning biologik tizimlarga qo‘llanilishi” uchun, Gerard Mourou va Donna Striklandga – “Yuqori intensivlikka ega, juda qisqa optik impulslarni yaratish usuli” uchun berildi[4]. Arthur Ashkin “optik qisgich” – lazer nuri yordamida mikrorobitlar, zarralar, hatto virus va bakteriyalarni “ushlash” va boshqarish usulini yaratdi. Bu kashfiyot biologiya, tibbiyot va materialshunoslikda juda muhim bo‘lib, lazer yordamida juda nozik obyektlarni harakatsiz ushlash va o‘rganishga imkon berdi. Gerard Mourou va Donna Strikland lazer pulslarini o‘ta intensiv va ultrashort(harakatlanuvchi) qilish usulini− Chirped Pulse Amplification(CPA)ni yaratishgan. Ushbu usul lazerlar yordamida materiallarni kesish, tibbiy jarrohlik(masalan, ko‘z operatsiyalari), sanoat ilmiy tadqiqotlarda qo‘llaniladigan kuchli va nozik impulslarga ega qilish uchun asos bo‘ldi.

Dr.Kamala Srinivasan, Jyothi Budida “A bibliometric review of Optical Physic with Laser Beam ” nomli ilmiy maqolasida 2000- yildan 2021- yilgacha Scopus ma’lumotlar bazasida chop etilgan “Optik spektroskopiya”ga oid maqolalarni tahlil qilishganda, Lazer yordamida optik fizika, optik fizika va atom fizika, lazer nurlari kalit so‘zlari bilan qidirilgan maqolalar soni 182 tani tashkil etganini ko‘rishgan. Ulardan 173 tasi ingliz tilida, 7 tasi xitoy tilida va 2 tasi italyan tiliga to‘g‘ri keladi. Bu esa 12 yil ichida lazer texnologiyasining shiddat bilan rivojlanganini ko‘rsatadi [5].

Erik Hemsing, Gennedy Stupakov, Dao Xiang “Beam by design: laser manipulation of electrons” ilmiy maqolasida lazerlar yordamida elektron zaralarini boshqarish, lazer- elektron o‘zaro ta’sir usullari va zamonaviy akseleratorlar(sun’iy yorug‘lik manbalari)ni ko‘rib chiqqan[6].

A.Di. Piazza, C.Muller, K.Z.Hatsagortsyan, C.H. Keitel “Extremely high- intensity laser interactions with fundamental quantum systems” maqolasida juda kuchli lazer maydonlarida kvant tizimlari bilan o‘zaro ta’sir: atomlar, zarralar, plazma, kvant vakuum ta’sirlarni yoritib berilgan[7].

Bahaa Saleh “The Laser” maqolasida talabalar uchun lazer fizikasi tarixi, ishlash prinsipi, lazer asoslarini sodda ko‘rinishda tushuntirib bergan[8].

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy fizik jarayonlar- foton emissiyasi, stimullangan nurlanish, energiya sathlari orasidagi kvant o‘tishlar, majburiy nurlanish, musbat teskari bog‘lanish – real makroobyekt sifatida kuzatilmaydi. Uni ko‘z bilan ko‘rishning iloji yo‘q. Shuning uchun talaba mavzuni to‘liq tushunishi uchun matematik modellar, grafiklar, sxemalar, energiya diagrammalari, simulyatsiyalar kabi bilvosita ko‘rgazmali vositalarga tayanadi.

Qurayev “Kvant elektronika asoslari”[9] va Yarovitsyn “Fundamentals of Laser Physics”[10] kabi kvant elektronika bo‘yicha olimlar lazerning ishlash prinsipini talabalarga tushuntirishda aynan diagrammali modellar eng samarali usul ekanini qayd etganlar. Ularning fikricha, lazer nurlanishi paydo bo‘lish jarayonini bevosita idrok qilishning iloji bo‘lmagani uchun ta’limda bilvosita idrok asosiy axborot kaliti bo‘lib xizmat qiladi. Qurayev lazerlar bo‘yicha laboratoria ishlarida ko‘pincha bilvosita tajrbalar ekanini ta’kidlaydi. Masalan, talabalar lazer ichidagi jara yonni emas, balki:

- chiqish quvvatini,
- spektral chiziqlarni,

- interferensiya naqshini kuzatadi.

Ya'ni ular jarayon natijasini ko'radilar, o'zi esa bilvosita qoladi. Shunday qilib, talabalar o'rganishi uchun laboratoriya mashg'ulotlarida ham bilvosita idrok ustuvor sanaladi.

Lazer fzikasi bo'limining o'ziga xos murakkabligi, uning jarayonlarini ko'z bilan bevosita ko'rib bo'lmasligidir. Siegman "Lasers"[11], Yarovitsyn "Fundamentals of Laser Physics"[10], Адрианов А.А "Моделирование физических процессов"[12] o'z ilmiy tadqiqotlarida lazerning ishlash prinsiplari to'liq ravishda energiya darajalari farqi, impulsning ko'payishi, rezonator ichidagi ko'p marta akslanish kabi mikroskopik jarayonlarga bog'liqligini qayd etadilar. Bu jarayonlarni quyidagi sabablarga ko'ra bilvosita idrok orqali o'zlashtiriladi:

1. Atom ichidagi kvant o'tishlarni ko'z bilan yoki mikroskopda ko'rib bo'lmaydi. Uni faqatgina bilmlarimizga tayangan holda ko'z oldimizda gavdalantiramiz.
2. Stimullatsiyalangan emissiya jarayoni faqat diagrammalar orqali ko'rsatiladi.
3. Rezonator ichida vujudga keladigan nurlanish tarqalishi matematik ifodalar bilan modellashtiriladi.
4. Lazer impulsining kuchayishi grafiklarda ifodalanadi.

Bundan tashqari Siegman o'z ilmiy tadqiqotlarida lazer nurlari paydo bo'lish jarayonlarini aynan energiya darajalari diagrammalari orqali tushuntirishni tavsiya qiladi. Sababi- bu diagrammalar kvant jarayonlarini sodda, visual shaklda beradi. Yarovitsyn esa lazer o'tish mexanizmlarini shaklli ko'rsatish talabalar miyasida "bilvosita obraz" hosil qilishini yoritadi. Bu obraz orqali talaba jarayonni real jarayon sifatida tasavvur qiladi.

Ta'lim metodikasi bo'yicha ko'plab tadqiqotlardan Clark R., Mayer R. "E- learning and the Science of Instruction"[13] kitobida va Соколов В."Виртуалные лаборатории по физике"[14] o'quv qo'llanmasida fizikani o'qitishda modellashtirilgan ko'rgazmali vositalar talabaning bilimni anglash tezligini sezilarli oshiradi. Clark R., Mayer R tadqiqotlari davomida vizuallashtirishning bilvosita idrokka ta'sirini o'rgangan. Ularning fikriga ko'ra, interaktiv 3D modellar talabaalrga:

- atom ichidagi kvant o'tishlarni;
- lazer nurining resonator ichidagi akslanishini
- fotonlarning ketma- ket kuchayishin ko'rish imkonini beradi.

Bu holat bilvosita idrokni bevosita idrokka yaqinlashtiradi va o'rganishni osonlashtiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR. Fizika fani tabiatning mohiyatini tushunish, sabab–oqibat aloqalarini aniqlash, kuzatish, umumlashtirish, modellashtirish, faraz qilish kabi faoliyatlarni talab qiladi. Ushbu jarayonlarning barchasi nostandart fikrlashning tabiiy shakllanishiga xizmat qiladi.

Fizikadagi ko'plab kashfiyotlar nostandart fikrlash mahsulidir:

- Eynshteyn — nisbiylik nazariyasi,
- De Broyl — materiyaning dual xususiyati,
- Maiman — lazerning yaratilishi
- Basov va Proxorov — stimullangan nurlanish asoslari.

Fizika o'qitish metodikasida nostandart fikrlashni rivojlantirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. Masalan, Lazer fizikasi bo'yicha talabalarga nostandart topshiriqlar berish mumkin:

1. Agar lazer energiyasi cheklanmagan bo'lsa, qanday texnik qurilmalar yaratish mumkin?
2. Lazerlar yordamida ekologik muammolarni hal qilishning 10 ta nostandart usulini toping.
3. Agar lazerlar monoxromatik bo'lmaganida — tibbiyot sohasi qanday o'zgarardi?
4. Yangi turdagi lazer rezonatorini ixtiro qilish uchun g'oya ishlab chiqing.

Bu topshiriqlar talabalarni ilmiy izlanishga yetaklaydi. Lazer yordamida bajariladigan laboratoriya ishlari talabalarni nostandart fikrlashha undaydi. Lazer bilan bajariladigan laboratoriya tajribalari:

- interferensiya,
- difraksiya,

- gologrаfiya,
- modulyatsiya


talabalarda ilmiy fantaziya, tasavvur, modellashtirish, kreativ kuzatish kabi malakalarni rivojlantiradi.

Hozirgi kunda xalqaro tajriblarga ko‘z tashlasak, AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Singapur ta’lim tizimlarida nostandart fikrlashni rivojlantirishga undaladi:

- loyiha metodlari,
- startap madaniyati,
- texnologik eksperimentlar,
- STEAM ta’limi,
- raqamli laboratoriyalar asosida yo‘lga qo‘yilgan.

Yaponiya OTMlarida lazer texnologiyalari bo‘yicha talabalar ijodiy izlanishlar olib boradi: optik aloqa, gologrаfik displeylar, kvant kriptografiyasi kabi yo‘nalishlar nostandart fikrning amaliy ko‘rinishlaridir.

Misol uchun, talabalarga gazli lazerlar to‘g‘risida tushuntirmoqchi bo‘lsak, bevosita lazerni ko‘rish imkonyat yo‘q. Ammo uni qanday sohalarda ishlatilishni vizuallashtirib Intellekt xarita(Mind Map) yordamida tushuntirib beramiz.



1-rasm. Gaz lazeri “Intellekt xarita”si.

Mavzuni mustahkamlaash uchun talabalarga quyidagi savollar beriladi:

1. Lazer so‘zining ma’nosi nima?
2. Lazer turlari haqida qisqacha ma’lumot bering.
3. CO2 lazer qancha to‘lqin uzunlikdagi nur chiqaradi?
4. CO2 lazer qaysi sohlarda ishlatiladi?
5. Ar lazer qancha to‘lqin uzunlikdagi nur chiqaradi?
6. Kr lazer-chi?
7. Ar va Kr lazerlar qaysi sohlarda ishlatiladi?
8. He-Ne lazer qancha to‘lqin uzunlikdagi nur chiqaradi?
9. He-Ne lazer qaysi sohlarda ishlatiladi?
10. Excimer lazer qancha to‘lqin uzunlikdagi nur chiqaradi?

11. Excimer lazer qaysi sohlarda ishlatiladi?
12. “Intellekt xarita”dagi jarayonlardan qaysi birini hayotingizda ko‘p foydalanasiz?

XULOSA VA TAKLIFLAR. Adabiyotlar shuni tahlili shuni ko‘rsatadiki, lazer fizikasi murakab, abstrakt va bevosita kuzatilmaydigan jarayonlarga tayanadi. Shuning uchun bu bo‘limni o‘qitishda bilvosita idrok – asosiy pedagogik mexanizm sanaladi. Bilvosita idrokni kuchaytirish uchun grafiklar, energiya diagrammalari, matematik modellar, stimulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar muhim o‘rin tutadi. Bilvosita idrok talabalarda nostandart fikrlash, abstrakt tasavvur va ijodiy yondashuvlarni riivojlantiradi.

Nostandart fikrlash bugungi ta’lim tizimida asosiy kompetensiya sifatida qaralmoqda. Kreativ tafakkur insonning ilmiy izlanish, tadqiqotga moyillik, innovatsion g‘oyalar yaratish kabi faoliyatlarini belgilaydi.

Fizika, ayniqsa lazer fizikasi, nostandart fikrlashni rivojlantirish uchun eng samarali metodlardan biridir. Lazer fizikasi murakkab kvant jarayonlari, abstrakt modellar, tajribaviy o‘lchovlar, konstruktorlik fikrlashni talab qiluvchi bo‘lim bo‘lganligi sababli o‘quvchini kreativ izlanishga undaydi.

Demak, nostandart fikrlashni rivojlantirish texnologiyalarini lazer fizikasi ta’limida joriy etish:

- talaba ijodkorligini oshiradi,
- ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo‘naltiradi,
- innovatsion g‘oyalar yaratishga imkon beradi,

fizikani yanada qiziqarli va amaliy yo‘nalishga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shodonbek Madumarov “Talabalarga Lazer yordamida materiallarga ishlov berish va ularni qayta ishlashni o‘qitish usullarini takomillashtirish”. Ta’lim, fan va innovatsiyalar ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy- uslubiy jurnal. ISSN 2181-8274. 2024- yil. 186- bet.
2. https://www.nobelprize.org/prizes/physics/1981/press-release/
3. https://www.nobelprize.org/prizes/physics/2018//morou/facts/
4. https://www.britanicca.com/biography/Nicalas-Bloembergan
5. Dr.Kamala Srinivasan, Jyothi Budida “A bibliometric review of Optical Physic with Laser Beam ”. Journal of Pharmaccutical Negative Results.Volume13, Special Issue 8, 2022, 4589-4599.
6. Erik Hemsing, Gennedy Stupakov, Dao Xiang “Beam by design: laser manipulation of electrons”. Accelerator Physics 9 April,2024. ArXiv:1404.257v1
7. A.Di. Piazza, C.Muller, K.Z.Hatsagorrtsyan, C.H. Keitel “Extremely high- intensity laser interactions with fundamental quantum systems”. arXiv:1111.3886v2 [hep-ph] 25 April, 2012
8. Bahaa Saleh “The Laser”. Optics in Our Time, 14 December 2016, 71- 85.
9. Qurayev “Kvant elektronika asoslari”. – T:Fan, 2010. -296 b.
10. Yarovitsyn “Fundamentals of Laser Physics” .- Berlin: Springer, 2016. – 395 p.
11. Siegman “Lasers”. – California : Univercity Science Books, 1986. – 1283 p.
12. Адрианов А.А “Моделирование физических процессов” /Учебное пособие. – М.: Издателльство МГТУ им Н.Э. Бауманаб 2015. 312 с
13. Clark R., Mayer R. “E- learning and the Science of Instruction”.- San Francisco: Jossey- Bass, 2011.- 504 p
14. Соколов В. “Виртуалные лаборатории по физике”/Учебно- методическое пособие. - М.: Физматлит, 2014. -210 с

ARIFMETIK MASALALAR USTIDA ISHLASHDA INTEGRATIV YONDASHUVDAN FOYDALANISH BO‘YICHA TAVSIYALAR

(Boshlang ‘ich sinf misolida)
Qosimova Mavlyuda Muhammadovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Boshlang‘ich ta’lim kafedrasi dotsenti
https://orcid.org/0000-0002-2909-6216

Annotatsiya: Bu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarga arifmetik masalalarni yechish jarayonida integrativ yondashuv elementlaridan foydalanishning usul va metodlari yoritilgan bo‘lib, fanlararo aloqadorlikni o ‘rnatish bo ‘yicha metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so`zlar: integratsiya, integrativ yondashuv, fanlar aro aloqadorlik, masala, arifmetik masala, misol,masala sharti, masala savoli, topshiriq,didaktik o‘yinlar.

РЕКОМЕНДАЦИИ ПО ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНТЕГРАТИВНОГО ПОДХОДА ПРИ РЕШЕНИИ АРИМЕТИЧЕСКИХ ЗАДАЧ

Малюда Косимова Мухаммадовна ,
Бухарский государственный педагогический институт
Доцент кафедры начального образования

Аннотация: В данной статье описываются методы и приемы использования элементов интегративного подхода в процессе решения арифметических задач учащимися начальной классы, а также даются методические рекомендации по установлению междупредиетных связей.

Ключевые слова: интеграция, интегративный подход, междупредметная связь, проблема, арифметическая задача, пример, условие задачи, вопрос задачи, задание, дидактические игры.

RECOMMENDATIONS ON USING AN INTEGRATIVE APPROACH WHEN WORKING ON ARITHMETIC PROBLEMS

Mavlyuda Kasimova Muxammadovna,
Bukhara State Pedagogical Institute
Associate Professor of the Internal Education Department

Annotation: This article describes the methods and techniques for using elements of an integrative approach in the process of solving arithmetic problems for elementary school students, and provides methodological recommendations for establishing interdisciplinary connections.

Keywords: integration, integrative approach, interdisciplinary connection, problem, arithmetic problem, example, problem condition, problem question, assignment, didactic games.

XXI asr ta’limi oldida turgan asosiy vazifalardan biri —fanlardan o‘quvchilarni cheklangan bilimlar tizimi asosida emas, balki kreativ fikrlay oladigan, o‘zning mustaqil fikriga ega bo‘lgan jahon bozorida raqobatbardosh kadrlarni tarbiyalash bu kunning davr talabidir. Bu borada esa fan asoslarini chuqur va ongli o‘rgatish boshlang‘ich sinf ostonasodan boshlanadi. Boshlang‘ich ta’limda bir fanni o‘qitish- mavzularni tushuntirishda, topshiriqlarni bajarish jarayonida boshqa fan mavzulari va tushunchalaridan o‘rinli foydalanish, dars samadorlini oshirish bilan birga, o‘quvchilarning bilim olishlari uchun asosiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shu kechayu kunduzda ta’lim tizimining modernizatsiya jarayonlari natijasida integrativ yondashuv zamonaviy pedagogikaning eng muhim konseptual tushunchalaridan biri sifatida shakllanadi. Integratsiya -bu ta’lim jarayonida turli fanlar mazmunining uyg‘unlashuvi, bilimlar o‘rtasidagi mantiqiy va uzviy

bog‘liqning ta’minlanishi, o‘quvchining hayotni yaxlit tasavvur qilishiga yordamlashuvchi jarayon sifatida talqin qilinadi. Ushbu yondashuvning shakllanishi bir necha ilmiy manbalar- falsafa, psixologiya, umumiy didaktika, kognitiv fanlar, kompetensiya yondashuvi va konstruktivizm kabi ilmiy paradigma (andaza, model)lar bilan uzviy bog‘liqdir. Integrativ yondashuv — bu ta’lim jarayonida turli fanlar, mavzular, ko‘nikmalar va faoliyat turlarini o‘zaro birlashtirish orqali o‘quvchining bilimini yaxlit, tizimli va hayotiy shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvdir.

Pedagogik adabiyotlarda “integratsiya” tushunchasi lotincha “integer”- “butunlik, yaxlitlik” so‘zidan kelib chiqan bo‘lib, ta’lim jarayonida turli komponentlarning yagona tizim sifatida tashkil etilishini bildiradi. Ta’limning integrativ modeli o‘quvchilar tafakkurining rivojlanish qonuniyatlariga hamohang bo‘lib, ayniqsa boshlang‘ich ta’lim bosqichida bolalarning vogelikni yaxlit qabul qilish xususiyatlari bilan bevosita bog‘liqdir. Kichik yoshdagi o‘quvchilarda mavzularni bo‘laklangan, alohida fanlarga ajratilgan holda o‘rganish qiyinchilik tug‘dirishi tabiiydir. Shu sababli integrativ yondashuv- o‘qitish bilish jarayonining tabiiy tuzilishiga mos keladi.

Integrativ yondashuv asosida fanalarni o‘qitish o‘quvchilarni erkin fikrlashga o‘rgatibgauna qolmay, ularni kreativ fikrlashga ham majbur qiladi. Ayniqsa matematika darslarida arifmetik masalalar yechish jarayonida inyegrativ yondashuv elementlaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinflarda arifmetik masalaning ahamiyati, asosan:

a) o‘quvchilarga arifmetik amallarning ma’nosini chuqur tushuntirishga, amallar xossalarining mohiyatiga to‘la yetishiga ko‘maklashadi;

b) o‘quvchilar tafakkurini hayotiy faktlar bilan boyitadi, chunki masalada hayotiy haqiqat aks ettiriladi;

o‘quvchilarda matematik tilni shakllantiradi. O‘quvchi istalgan matematik ifoda, topshiriq, matnga qarab uning talabini sharhlab bera oladigan bo‘ladi;

c) o‘quvchida mantiqiy tafakkur rivojlantiriladi;

d) istalgan masala tarbiyaviy ahamiyatga ega. U hayot taraqqiyoti dinamikasini ochib beradi;

e) masala yechish jarayonida o‘quvchilarda fanga nisbatan qiziquvchanlik mustaqillik va erkin fikrlash uyg‘onadi;

f) istalgan arifmetik masala nazariya bilan amaliyotini bog‘lash borasidagi asosiy vositadir;

g) masala yechish jarayonida o‘quvchilarda ijodiy fikrlash shakllanadi;

h) kreativ fikrlashga yo ‘naltiradi;

i) hayotiy voqelikni tassavvur qila oladi;

Yuqorida qayd etilganlarning boshlang‘ich sinflar uchun ahamiyatini to‘ldirib, arifmetik masala deganda shunday savolni tushunmoq kerakki, masala shartida berilgan sonni faktlar ustida arifmetik amallar bajarilib undagi noma’lum topiladi, deb ta’rif berish mumkin. Masala savoliga javob uni yechib topiladi. Yechish deganda masalada berilganlar bilan izlanayotgan miqdor o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash tushuniladi.

Shu munosabat bilan istalgan arifmetik masalani uch qismga bo‘lish mumkin:

1. Masalaning sharti bilan.
2. Undagi sonli faktlar.
3. Masalaning savoli

Yuqorida keltirilgan barcha argumentlar boshlang‘ich sinfda matematika o‘qitishda o‘qituvchi, arifmetik masalalar yechishga jiddiy e’tibor bilan qarashi kerakligini va maktabda butun matematika kursini zlashtirish ishi arifmetik masalalarga qaratilib ko‘rilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Shunday savol tug‘iladi, arifmetik masala bilan misol o‘rtasida qanday farq bor?

Misol bu sonli ifoda bo‘lib, unda amallar va ularning bajarilish tartibi amal belgilari orqali berilgan bo‘ladi. Ammo har qanday sharti, sonli faktlari va savoli bo‘lgan matn masala bo‘la

olmaydi. Bunda ham o‘ziga xos talablar mavjud.

Masala o‘z mazmuni bilan o‘quvchilarga yaqin va tanish bo‘lib, u o‘quvchini o‘rab olgan hayot voqealarini o‘zida aks ettirishi kerak. Tuzilishi jihatdan oddiy, tushunarli, iloji boricha qisqa matnli bo‘lishi kerak.

Sonli faktlar hayotiy, real, imkoniyat chegaramizga sig‘adigan, mantiqan to‘g‘ri tanlangan va taraqqiyot dinamikasini ochib beradigan bo‘lishi kerak.


Boshlang‘ich sinf darsliklarini tahlil qilganimizda 1-sinfdan boshlab, har bir darsda hech bo‘lmaganda bir yoki bir necha masalaga duch kelamiz. Masalalarni o‘quvchilrga tushuntira olish o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq bo‘lib, jarayonda integrative yondashuvdan foydalana olsa, o‘quvchi uchun kreativlik prinsipi shakllana boshlaydi.


Masala tuzish ishi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun ancha murakkabligini unutmaslik kerak. Chunki bolalar masala tuzayotganda kerak bo‘lgan miqdorlar sonini, ularni bir-biriga bog‘lashni hali yaxshi bilishmaydi. Masalaga savol qo‘yishda qiynalishadi. Shuning uchun avval o‘qituvchining o‘zi masalaning qanday yuzaga kelishini amaliy tarzida tuzib ko‘rsatadi.

1. Masalan, I sinfda noma’lum qo‘shiluvchini topishga doir masala “Stolda 29 ta daftar yotibdi. 12 tasi katakli daftar, qolganlari esa bir chiziqli daftar. Nechta daftar bir chiziqli?” yechilsa, unda o‘quvchilar ko‘z o‘ngida shunga o‘xshash quyidagicha masalani tuzib ko‘rsatish mumkin.

O‘qituvchi stoliga bir qancha daftar qo‘yadi. Bir o‘quvchiga shu daftarlar ustiga yana ikkita daftar qo‘shishni aytadi. So‘ngra hamma daftarlar sanaladi va oldin stol ustida nechta daftar bo‘lganligini aniqlash maqsadida masala tuziladi va yechiladi. Yoki noma’lum kamayuvchini topishga doir masala “Zarinada bir nechta daftar bor edi. U o‘rtog‘iga ikkita daftarini berganidan keyin uning 9 ta daftari qoldi. Zarinada nechta daftar bo‘lgan?” yechilgach, noma’lum ayriluvchini topishga doir “Do‘konda 100 dona changyutgich bor edi. Bir nechta changyutgich sotilgan keyin 91 ta changyutgich qoldi.Og ‘zaki tuzilgan masalalarni tahlil qilar ekanmiz bevosita bunda ona tili fani, iqtisod fanlarini aloqadorligini ko ‘rishimiz mumkin.


2023 yil yangi avlod darsligi 1-sinf II-qism 14- betdagi 1-2- masalalar bevosita tabiiy, ona tili va o‘qish savodxonligi fanlari bilan bog‘liq bo‘lib, uni tushuntirish o‘qituvchidan juda katta mahoratni talab qiladi.


1. Yo'l bo'yida 9 ta zarang daraxti o'sadi. Bog'bon har ikki zarang orasiga bittadan archa ekishni rejalashtirdi. Zaranglar orasiga archalarni tasvirlang. Necha tup archa kerak bo'ladi?
Kelajakda yo'l bo'yida necha tup daraxt o'sadi?


2. Sinfdoshingiz bilan musobaqalashing. Kim daraxtning ildizidan uchigacha tezroq yetib boradi? Daftarlaringizni almashing va bir-biringizni tekshiring. Kim to'g'ri yechdi?
9 + 3
8 + 7
10 + 7
11 + 1
8 + 2
3 + 5
1 + 2
7 + 9
8 + 4
12 + 1
9 + 1
10 + 5
4 + 4
2 + 2
14

Bunday masalalarni yechishdan oldin darsning tarbiyaviy ahamiyatiga diqqat qilmoqchi bo‘lsak, atrof muhitni ko‘kalamzorlashtirish, manzarali daraxtlarning inson uchun foydali

tomonlarini eslatish 1- masalada o‘z aksini topgan bo‘lsa 2- masalani uning davomi sifatida tabiatni asrash bilan uyg‘unlashtirish mumkin. Shu darslik 15- betdagi 4- 5 masalalar ham bevosita tabiiy fan, ona tili va o ‘qish bilan bog‘liqdir.



2. Masalalar tuzishda bolajonlarni mehnatsevarlikka o‘rgatish, kasbga yo‘naltirish, iqtisodiy tarbiya berish maqsadida 1-sinf II-qism 18-betdagi 1-masalani tahlil qilamiz.



Bu masalani tushuntirish va yechish jarayonida tabiiy va iqtisod fanlari bilan integratsiyani amalga oshirish mumkin.

3. Matematikani hayot bilan bog‘lashda predmetlar aro bog‘lanish ham katta ahamiyatga ega. Masalan, tabiatshunoslik darslarida hosil qilgan gorizont tomonlari bo‘yicha mo‘ljal ola bilish malakalarini mustahkamlash maqsadida ushbu mazmundagi harakatga doir masalalarni yechtirish va tuzdirib yechtirish mumkin.

Aeroportda bir vaqtda g‘arbiy va sharqiy yo‘nalishda 2 ta samolyot uchdi. Ulardan birining tezligi soatiga 600 km, ikkinchisi esa 720 km. 3 soatdan keyin samolyotlar bir-biridan qancha uzoqlikda bo‘lgan?

Yoki qishloq xo‘jaligi materiali asosida ham ko‘plab masalalar tuzish mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari har bir ishga sidqidildan yondashib, havas bilan kirishadilar, lekin ular o‘z faoliyatlarida ba’zi bir qiyinchiliklarga duch kelib ishning uddasidan chiqa olmasalar, ularning qiziqishi keskin pasayib ketishi mumkin. Natijada o‘quvchilarda o‘z qobiliyatiga ishonmaslik, loqaydlik kabi salbiy holatlar yuzaga keladi.

Bunday holatlarni oldinini olish uchun o‘qitish metodlaridan mahorat bilan foydalanish va

o‘quvchilarga nisbatan samimiy munosabatda bo‘lishi kerak.

Ishni shunday tashkil etmoq kerakki o‘quvchi har doim ishdan qoniqsin, quvonib xursand bo‘lib yursin.

Shuning uchun ham ishga ijobiy yaqinlashib dars paytida turli matematik materiallardan, matematik maqol va topishmoqlardan unumli foydalanish kerak.

Ayniqsa, ijodiy fikrlashga qaratilgan o‘yinlardan foydalanish har bir boshlang‘ich sinf o‘qituvchsining ishchanligiga, ijodkorligiga bog‘liqdir.


Masalan, Anvar o‘rdak bilan qo‘ylarni boqib yurar edi. Vali undan:”Sen nechta o‘rdak va qo‘y boqib yuripsan?”- deb so‘radi. “hamma o‘rdak va qo‘ylarning boshlari 30 ta, oyoqlari esa 84 ta. Qani o‘zing o‘ylab ko‘r-chi?”-,dedi Anvar. Lekin Vali topa olmadi. Qani bolajonlar siz Valiga yordam bering-chi?(Anvar 12 ta qo‘y va o‘rdak boqib yuribdi).

Masalalar yechishga kretiv fikrlash va integrativ yondashuvdan foydalanish maqsadida maqsadida quyidagi masalalarni tushuntirish, bajarish mumkin:



1. Ifodalar bo‘yicha masalalar tuzib yechish.

a) 32:4+32 b) (32-4)+32



Bu masalani yechish orqali yuqorida berilgan masala uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

2. Jadval bo‘yicha masalalar tuzing va ularni yeching.

1. Jadval bo‘yicha masalalar tuzing va ularni yeching.

	Bor edi	Jo‘natishdi	Qoldi
1	40 ta yashik	?	15 ta yashik
2	?	23 ta yashik	8 ta yashik
3	100 ta yashik	52 ta yashik	?

O‘quvchilar sodda arifmetik masalalar yecha boshlagandan boshlab, I sinf oxirida teskari masala to‘g‘risida dastlabki tushunchaga egalar. Masalan, jadval asosida to‘g‘ri va teskari masala tuzib yeching.

	1 ta yashikdagi olmaning og‘irligi	Yashiklar soni	Hamma yashiklarning og‘irligi
1	6 kg	3 ta	?
2	6 kg	?	18 kg
3	?	3 ta	18 kg

Jadvalda tasvirlanganidek, har bir soda masaladan 2 ta teskari masala tuzish mumkin. Bunda teskari masalalarning soni, amaldagi komponentlari sonidan kelib chiqadi. Murakkab arifmetik masalalar to‘g‘rida gapirganda teskari masalalar soni masalada berilgan sonli faktlar miqdoridan kelib chiqadi. Chunki birinchi berilgan to‘g‘ri masalani yechib, uning javobini kelgusi masalalarda ishlatish, har bir berilgan sonli faktni noma’lum deb olib, teskari masala tuzish va uni yechish mumkin.

Teskari masalalar tuzib, uni yechish o‘quvchiga zavq bag‘ishlaydi. Oldingi masalani to‘g‘ri yechganiga ishonch hosil qildiradi. O‘z qobiliyatiga tayanib ish qilishga undaydi, fanga qiziqishi oshadi. Fikrimizni quyidagi masala bilan asoslaymiz:

Ombordan magazinga har birida 6 kgdan olma bo‘lgan 4 yashik va 8 kg nok bo‘lgan 1 ta yashik jo‘natildi. Hammasi bo‘lib necha kg meva jo‘natilgan?

Ushbu masalaga qisqacha shartni tuzamiz:

Olma -6kgdan 4 yashik

Nok- 8 kgdan 1 yashik

Hammasi- ?

Yechim: 6*4+8*1=24+8=32 kg

Javob: 32 kg.

1-teskari masala quyidagicha bo‘ladi:

Olma -? 4 yashik

Nok -8kgdan 1 yashik

Hammasi- 32kg

Qisqa shartga ko‘ra bolalarga masala tuzish taklifi kiritiladi va shu taklif asosida bolalar 1-teskari masalani tuzadilar. Bu teskari masalaning yechimi quyidagicha: (32-8*1):4=6 kg.

2-teskari masala:

Olma - 6kg , 4 yashik

Nok - ? 1 yashik

Hammasi- 32 kg

Yechish: (32-6*4):1=8 kg

Javob: 8 kg.

3-teskari masala:

Olma- 6kgdan ? yashik
Nok - 8kgdan 1 yashik
Hammasi - 32 kg
Yechish: (32-8*1):6=4
Javob: 4 yashik
4 –teskari masala:
Olma – 6 kgdan 4 yashik
Nok – 8kgdan ? yashik
Hammasi 32 kg
Yechish: (32-6*4):8=1
Javob: 1 yashik

Masalalarga nisbatan bunday yondashish o‘quvchilarga matematik tilni rivojlantiriladi, ularda nutq madaniyatini o‘stiradi. O‘quvchilar bir masaladan bir necha masala matnini tuzadi va uni yechadi.

Foydalangan adabiyotlar

1. M.Qosimova “Boshlang‘ich sinflarda tipik arifmetik masalalar yechishga o‘rgatish”, B. 2022.
2. F.Qosimov, A.Qosimov, M.Qosimova “” To develop students’, skills of nature conservation and respect for human labor by tefching them to solve environmental problems” Asian Journal of multidisciplinary
Research (AJMR), Januariry 2021
3. Kasimov, F. M., & Qosimova, M. M. Technology of work on comparison tasks.
4. Qosimova M.M. S.E.Ikromova Boshlang‘ich sinf o‘quvchisini kreativ fikrlashga o‘rgatishda tipik arifmetik masalalarning roli. maktabgacha va maktab ta’limi 2025-yil, mart, №3-son
5. Qosimova M.M. Burxanova G. Birinchi sinf o‘quvchilarini geometrik materiallar bilan tanishtirishning qulay usullari. “Pedagogik akmeologiya” 2025 yil 4-son (227-230b)

TALABANING CHOLG`U ASBOBIDA MUSTAQIL MASHQ QILISHINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYALARI

Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro davlat universiteti ‘‘Musiqa ijrochiligi va madaniyat’’ kafedrasi professori, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Maqolada talaba musiqachilar uchun mustaqil ishlar jarayonini faollashtirish, kasbiy ko’nikmalarni (texnik, badiiy) shakllantirish va ijodiy mustaqillikni rivojlantirish masalalari yoritilgan. Jumladan, cholg‘u asbobida chalish borasida o‘z ustida mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlarni ishlab chiqishda talabalarning musiqa asbobida chalish qobiliyatining turli darajalari, ularning darsga munosabati va boshqalardan kelib chiqish zarurligi bo’yicha tavsiyalar qayd etilgan. Shuningdek, cholg‘u asboblari xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ish jadvallari har bir talaba uchun alohida tuzilishi izohlangan. Talabaning musiqa asarini cholg‘u asbobida mustaqil chalib o‘rganish jarayonida erishayotgan muvaffaqiyatini muntazam nazorat qilish usullari ham bayon etilgan. Cholg‘u ijrochiligi sinfi amaliyotida talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashini faollashtirish uchun musiqa asarini ko‘zdan kechirish va konturni (sirtqi ko‘rinish, shaklini) o‘rganish kabi mashg‘ulotlarni faolroq joriy etish masalalari yoritilgan.

Kalit so’zlar: Mustaqil ta’lim, cholg‘u asbobi, topshiriq, musiqa asari, nota, individual reja, varaqdan o‘qish, mahorati, ko’nikma, malaka.

ТЕХНОЛОГИИ ДЛЯ ОРГАНИЗАЦИИ САМОСТОЯТЕЛЬНЫХ УПРАЖНЕНИЙ СТУДЕНТА НА МУЗЫКАЛЬНОМ ИНСТРУМЕНТЕ

Рузиев Даврон Юлдашевич
Профессор кафедры «Музыкальное исполнительство и культура» Бухарского государственного университета, кандидат педагогических наук

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы активизации процесса самостоятельной работы у студентов-музыкантов, формирования профессиональных навыков (технических, художественных) и развития творческой самостоятельности. В частности, даются рекомендации относительно необходимости учитывать различный уровень владения музыкальным инструментом у студентов, их отношение к уроку и другие факторы при разработке индивидуальных заданий для самостоятельной работы над игрой на инструменте. В нем также объясняется, как составляются графики самостоятельной работы для каждого ученика с учетом характеристик музыкальных инструментов. Кроме того, описываются методы регулярного отслеживания прогресса ученика в процессе самостоятельного изучения музыкального произведения на инструменте. В статье также освещаются вопросы более активного внедрения таких видов деятельности, как разбор музыкального произведения и изучение его структуры (поверхностного вида, формы), с целью активизации самостоятельной работы учащихся над собой в рамках занятий по инструментальному исполнительству.

Ключевые слова: Самостоятельное обучение, музыкальный инструмент, задание, музыкальное произведение, ноты, индивидуальный план, чтение с нот, навык, способность, квалификация.

TECHNOLOGIES FOR ORGANIZING INDEPENDENT STUDENT PRACTICE ON A MUSICAL INSTRUMENT

Ruziev Davron Yuldashevich
Professor, Department of Musical Performance and Culture, Bukhara State University, PhD in Pedagogical Sciences

Abstract: The article examines the issues of activating the process of independent work in music students, the formation of professional skills (technical, artistic) and the development of creative independence. In particular, recommendations are given regarding the need to take into account the different levels of proficiency in a musical instrument among students, their attitude to the lesson and other factors when developing individual assignments for independent work on playing an instrument. It also explains how independent study schedules are created for each student, taking into account the characteristics of musical instruments. Furthermore, methods for regularly monitoring a student’s progress during independent study of a musical piece on an instrument are described. The article also highlights the issues of more active implementation of such activities as analysis of a musical work and study of its structure (surface appearance, form), with the aim of activating students’ independent work on themselves within the framework of instrumental performance classes.

Key words: Self-study, musical instrument, task, musical piece, sheet music, individual plan, reading from sheet music, skill, ability, qualification.

Kirish. Oliy ta’lim tizimida ta’lim olayotgan talabalarning mustaqil ishi auditoriya ishi bilan bir qatorda o‘quv jarayonining shakllaridan muhim bir qismidir. Ba’zi mutaxassislar mustaqil ishni «talabalarning mustaqil faoliyatini tashkil etish va boshqarish vositasi», deb hisoblaydi va uning asosiy xususiyati sifatida ushbu faoliyatni bilvosita boshqarishni ajratib ko‘rsatadi. Shuning uchun mustaqil ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun o‘qituvchilar tomonidan rejalashtirish va nazorat qilish, shuningdek, ushbu faoliyat turining ko‘nikma va malakalari tizimini shakllantirish uchun talabalarning o‘quv rejalarida mustaqil ish hajmini rejalashtirish zarur. Bunday holda talabaning oliy ta’limga o‘qishga kirishdan ancha oldin, ya’ni musiqa ta’limiga ixtisoslashtirilgan o‘rta maxsus ta’lim davridagi mustaqillik darajasiga qo‘yiladigan talablardan kelib chiqish kerak.

Talabaning musiqaga bo‘lgan qiziqishini rivojlantirish, chuqurlashtirish, o‘qituvchi uni mustaqil ravishda mashq qilishga o‘rgatishi, cholg‘u ustida ishlash jarayonining o‘ziga mehr uyg‘otishi kerak. Ammo mashg‘ulotni bajarish jarayonida shogird musiqachining auditoriya va mustaqil ishiga ajratilgan vaqt nisbati biru-bir tenglikkni tashkil qiladi. Tabiiyki, bunday nisbatni muvaffaqiyatli, deb atash mumkin emas, chunki musiqiy va ijrochilik faoliyati muntazam va tizimli «mashq»ni talab qiladi. Har qanday uzoq tanaffuslar qoida tariqasida, orqaga qaytish, kasbiy faoliyatga tegishli zarur ko‘nikma va qobiliyatlarni yo‘qotishga olib keladi. Musiqachi, badiiy va ijodiy kasblarning boshqa vakillari singari, ma’lum bir yuk ostida bo‘lishi uchun deyarli har doim tayyor holda bo‘lishi kerak. Binobarin, ushbu faoliyat turi katta didaktik salohiyatga ega bo‘lib, u mutaxassislar tayyorlash samaradorligini oshirishning asosiy zaxirasiga aylanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Talaba musiqachilar uchun mustaqil ishlarning dolzarbligi o’quv jarayonini faollashtirish, kasbiy ko’nikmalarni (texnik, badiiy) shakllantirish va ijodiy mustaqillikni rivojlantirish bo’lib, bunga faqat sinfdagi darslarda erishib bo’lmaydi. Tizimli uy vazifalari o’qituvchi bilan o’rganilgan texnikani mustahkamlashga yordam beradi, repertuarni o’zlashtirishni tezlashtiradi, diqqatni jamlashni, xotirani rivojlantirishga va kasbiy faoliyat uchun zarur bo’lgan fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu borada rus olimlari bir qator ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirgan. Jumladan, A.B. Lisenko “Ijrochilik mashg`uloti jarayonida sozanda talaba mustaqil ishini tashkil etish”, V.S. Korina “Fortepiano sinfida o’zgaruvchan kasbiy faoliyat uchun talabalarning o’zini o’zi tayyorlashni tashkil etish”, I.V. Aranovskaya,

G.B. Dvoynina, G.G. Sibiryakovalar “Cholg‘u ijrochiligi fanlarini o‘rganish amaliyotida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining mustaqil ishlarining o‘rni”, T.Mutkoglo “Asosiy cholg’u asboblari” fanidan talabalarning mustaqil ishini tashkil etish” mavzusida tadqiqot ishlarini amalga oshirgan.

O’zbek olimlari: O’.Q. Tolipov, S. Abdalova, A. Mavlyanov, M.M. Qo’ziboyeva, S.Q Tursunov, I.S. Umarov, D. Xoshimova, Sh. Abdullajonova, U.A. Saidnazarov, va boshqalar talabalarning mustaqil ta’limlarida o’qitish vositalari, mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasi, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning pedagogik shart-sharoitlari, ta’limning kredit-modul tizimida bakalavirlarning mustaqil faoliyatini tashkil etish metodikasini takomillashtirish yo‘llari bo’yicha, M. Bobokulova, G. Toshmatov, M. To’rabayeva va boshqalar mustaqil ta’limni tashkil etishda, talabalarning musiqa sohasiga kreativ qarashlarini shakllantirish, talabaning musiqiy fanlardan mustaqil ta’lim topshiriqlarini bajarish ko’nikmalarini shakllantirish bo’yicha ishlarni amalga oshirgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolani yozishda muammoviy tahlil, ilmiy-tadqiqot, pedagogik tajribalarni kuzatish, o’rganish usullaridan foydalanildi. Talabaning cholg`u asbobida mustaqil mashq qilishini tashkil etish texnologiyalari bilan bog’liq masalalar mazkur usullar yordamida yoritildi.

Tahlil va natijalar. Musiqa o‘qitishda, xususan, musiqiy ijrochilikda “mustaqillik” tushunchasi o‘zining tuzilishi va mohiyatiga ko‘ra turlichadir. U juda qobiliyatli va ko‘p qirrali bo‘lib, turli darajalarda o‘zini namoyon qiladi, sintez qiladi. Masalan, cholg‘u asbobini chalayotganda talabaning notanish musiqiy materialni birovning yordamisiz ijro etaolishi, asar muallifi g‘oyasini to‘g‘ri ifodalay olishi, ishonchli talqin qiluvchi tasavvurni shakllantira olishi, cholg‘u asbobida chalishning samarali usullarni topishga, badiiy kontseptsiyani o‘zida mujassamlashtirishning zarur uslub va vositalarini topishga tayyorligi, va boshqa kishilarning namunalari kabi o‘zlarining musiqiy chiqishlari natijalarini tanqidiy baholash qobiliyati hamda boshqalar shular jumlasidandir.

Musiqachini mustaqil fikrlaydigan va barkamol sozanda sifatida tarbiyalash an’analari uzoq o‘tmishdan ustoz-shogirdlik pedagogikasi tizimida shakllangan. Ustoz o‘rgatgan - shogird esa o‘rgangan, ustoz cholg‘u asbobida chalgan shogird esa uning chalganini takror-takror chalib, o‘zlashtirib borgan. Xuddi shunday pedagogik tamoyillarga ustoazlar o‘z shogirdlariga doimo u bilan muloqotda «o‘z izlanishlari uchun boshlang‘ich nuqtalarni» topishga o‘rgatgan. Nota asosida musiqa asarlarini chalib o‘rganishgacha bo‘lgan davrlarda xuddi shunday yo‘ldan ketilgan. Nota savodxonligi yo‘lga qo‘yilgandan so‘ng esa ustoz-muallimlar o‘z shogirdlarini mustaqil izlanishga undab, bajaradigan vazifani hal qilish uchun to‘g‘ri variantni topib bermoqda.

O‘z ustida mustaqil ishlashni tashkil etishning yetakchi pedagogik jihatlari va asosiy yo‘nalishlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, u cholg‘u ijrochiligi (yakka tartibda, ansambl, orkestr) sinfda talabalarning o‘quv faoliyatining belgilangan o‘quv shakllari - individual darslar, hisobot tadbirlari, testlar, semestr imtihonlari, ma’ruzalar, konsertlar - mustaqil ish shakllari va turlarining xilma-xilligini belgilaydi. Mustaqil ish jarayoni orqali talabalar o‘z ishining ijobiy natijalarini ko‘rishlari kerak va ular o‘rganishda erishgan muvaffaqiyatlari bilvosita qiziqishning bevosita qiziqishga aylanishiga yordam beradi. Bunday motivatsiyaning shakllanishiga o‘qituvchilarning talabalar muvaffaqiyatiga samimiy qiziqishi ham yordam beradi (talabalar buni juda yaxshi his qilishadi). Musiqa asarini cholg‘u asbobida chalib o‘rganishda ong ham katta ahamiyatga ega. Talabalarning o‘quv materialini o‘zlashtirgan yoki o‘rganmaganligiga e’tibor bermay turib o‘qitish mumkin emas. Talabalarning boshlang‘ich darajasi kutilganidan past bo‘lsa, mustaqil ta’lim uchun dastur va topshiriqlarni moslashtirish kerak. Tajribali mutaxassislarning fikricha, quyidagi xususiyatlar mustaqil ta’limni amalga oshirishning ongliligini ta’minlaydi:

- mustaqil ish uchun tavsiya etilgan musiqiy materialning badiiy mazmunliligi;
- talabalarning «eng yaqin rivojlanish zonasi»ga mos keladigan vazifalarning murakkabligi, ya’ni, amalga oshirishning maqsadga muvofiqligi;

- talabalarning o‘quv imkoniyatlariga mos keladigan mustaqil ish uchun materialning hajmi.

Cholg‘u asbobida chalish borasida o‘z ustida mustaqil ishlash uchun individual topshiriqlarni ishlab chiqishda talabalarning musiqa asbobida chalish qobiliyatining turli darajalari, ularning darsga munosabati va boshqalardan kelib chiqish kerak. Quyidagi tavsiyalar o‘qituvchilarga turli xarakteristik ma’lumotlarga ega bo‘lgan talabalarga individual yondashuvni topishga yordam beradi:

a) cholg‘u asbobida ta’lim olishning individual o‘quv mashg‘ulotlari barcha talabalar tomonidan ma’lum bir minimal mustaqil ishning so‘zsiz bajarilishini ta’minlaydigan va ko‘proq tayyor bo‘lganlar uchun murakkab vazifalarni ta’minlaydigan tarzda o‘tkazilishi kerak;

b) talabaning musiqa asarini cholg‘u asbobida mustaqil chalib o‘rganishi jarayoni erishayotgan muvaffaqiyatini muntazam nazorat qilish kerak. Bu borada o‘qituvchining individual maslahatlari zarur. Bu yerda o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi shaxsiy pedagogik muloqot fundamental ahamiyatga ega bo‘lib, bu cholg‘u sinfdagi mashg‘ulotlarning individual shakli bilan osonlashadi.

Talabalarni kichik kurslardan boshlab cholg‘u asbobida chalish, musiqa asari ustida ishlash, o‘z mahoratini o‘stirib borish bo‘yicha mustaqil ishlarini rejalashtirishgacha o‘rgatish kerak. Cholg‘u asboblari xususiyatidan kelib chiqib mustaqil ish jadvallari har bir talaba uchun alohida tuzilishi maqsadga muvoffaq bo‘ladi. Bunda quyidagilar hisobga olinadi:

a) vaqt (mustaqil ish uchun belgilangan vaqt miqdori);

b) har bir bosqichda turli ishlarni o‘z ichiga olgan mazmun tomoni;

v) o‘quv fanining mazmuni o‘zgaruvchanligi va mustaqil ish uchun turli topshiriqlar majmuasi orqali har bir talabaga o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkonini berish.

Fan bo‘yicha uy vazifasi - asosiy cholg‘u asboblariga tegishli barcha turdagi vazifalarni, bajarish texnikasi va usullarini o‘z ichiga olishi, ularni talabalar o‘z nazoratidan muvaffaqiyatli o‘tkazishlari uchun dars jarayonida o‘qituvchi bilan birgalikda ishlashda o‘zlashtirishlari kerak.

Cholg‘u asbobida bajariladigan topshiriq, vazifalarni semestr boshida berish tavsiya etiladi. Bunda topshiriq va vazifalarni bajarish muddatlari aniq ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Mustaqil ish uchun topshiriqlar ikkita qismdan - majburiy va fakultativ(ixtiyoriy) bo‘lishi mumkin. Bular cholg‘u ijrochiligi bo‘yicha ko‘proq tayyorgarlik ko‘rgan talabalar uchun mo‘ljallangan, ularning bajarilishi yakuniy nazoratda hisobga olinadi. Masalan:

- 15-20 daqiqa davomida talaba mustaqil ravishda ishlab chiqqan musiqiy matn parchasi ko‘rgazmasini tayyorlash;
- musiqa asarini mustaqil tahlil qilish (tarixiy-nazariy va iloji bo‘lsa ijro etish);
- tahririyatning turli ko‘rsatmalari bilan tanishish;
- muallifning asardagi mulohazalarini o‘rganish va tushunish.

Talabalarga quyidagi topshiriq berish tavsiya etiladi: individual rejaga kiritilgan musiqiy asarlarning turli ijro talqinlari bilan mustaqil tanishish va ularni taqqoslash. Bu o‘z navbatida talabada mustaqil fikr-mulohazalarni shakllantirishga yordam beradi.

O‘z ustida mustaqil ishlash ham texnik o‘quv qurollari, ham axborot resurslari bilan ta’minlanishi kerak (masalan, kafedrada ishlab chiqilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, uslubiy tavsiyalar, musiqa va boshqa adabiyotlar). Talabalarning joriy yutuqlari va ularning kafedradagi mustaqil ishlari natijalarini aniqlash maqsadida har bir talaba muvaffaqiyatini baholashning reyting tizimini joriy etish kerak. Mustaqil ish uchun auditoriyaning mavjudligini ta’minlash kerak. Cholg‘u ijrochiligi sinfi amaliyotida talabaning o‘z ustida mustaqil ishlashini faollashtirish uchun musiqa asarini ko‘zdan kechirish va konturni (sirtqi ko‘rinish, shaklini) o‘rganish kabi mashg‘ulotlarni faolroq joriy etish zarur.

Asarni ko‘zdan kechirish va cholg‘u asbobida chalib o‘rganish - bu varaqdan o‘qish va asarni puxta o‘zlashtirish o‘rtasidagi oraliq sifatida tavsiflanishi mumkin bo‘lgan o‘quv faoliyatining maxsus turi, u tomonidan ishlab chiqilgan musiqiy material miqdorining sezilarli darajada oshishiga, o‘quv faoliyati jarayonida o‘rgangan va o‘zlashtirgan narsalari sezilarli

darajada o‘sishiga olib keladi.

Cholg‘u ijrochiligini o‘rgatishning o‘ziga xosligi shundan iboratki, talabaning ijodiy mustaqil ishi darsda o‘rganilgan malaka va ko‘nikmalarni mustaqil mashg‘ulot sharoitiga o‘tkazmasdan, texnik, ritmik, dinamik vazifalarni va tovush chiqarish usullarini o‘zlashtirmasdan turib amalga oshirib bo‘lmaydi.

Bu shuningdek, musiqa asarini tizimli tahlil qilishni, matnning o‘xshash qismlarini topishni, ketma-ketlik burilishlarini, ritmik va garmonik formulalarni aniqlashni talab qiladi. Bularning barchasi asarning mazmun-mohiyatini o‘rganish jarayoniga yordam beradi. Musiqa asarini yodlash amaliyotida ilgari olingan ko‘nikma va malakalar katta ahamiyatga ega. Mustaqil ishning ushbu bosqichi musiqiy matnni yodlashning o‘rnatilgan algoritmi mavjudligi bilan birga, doimo mavjud malakalar asosida shakllanadigan yangi usullar, vositalar, usullar bilan to‘ldiriladi.

Oliy o‘quv yurtlarining cholg‘u ijrochiligi yo‘nalishida o‘qitishning mavjud amaliyoti shuni ko‘rsatadiki, talabalarning darslarga o‘z-o‘zini tayyorlashi tartibsiz va samarasiz bo‘lib, bu ijrochilik ta’limining past sifatiga, professional yoki havaskor musiqiy va ijodiy faoliyatga qo‘llash uchun zarur bilim, ko‘nikma va malakalarning yetishmasligiga olib keladi. Ko‘pincha talabalar cholg‘u ijrochiligi fanlari bo‘yicha mashg‘ulotlarga tayyorgarlik ko‘rishi jarayonida mustaqil ish vazifalarini aniq tushunmaydigan vaziyatlarga duch keladi, bu ularga asarni yodlash usullarini, texnik muammolarni yengish tamoyillarini yoddan to‘g‘ri ishlatishga, qiyinchiliklarni, tovush chiqarish muammolarini hal qilish yo‘llarini tushunish, asarlarni ijro etishda janr farqlariga erishish imkonini bermaydi. Talabalarning mustaqil ishi ko‘p hollarda dars davomida qo‘yilgan vazifalarga mos kelmaydi, shunchaki rasmiy va samarasiz ko‘rinishda bo‘ladi (ayniqsa, cholg‘u ijrochiligini o‘rgatishning dastlabki bosqichida) yoki umuman bo‘lmaydi. Shuning uchun bo‘lajak sozandaning yuqori sifatli ijro darajasiga erishishi uchun asosiy shart - bu professional o‘qituvchi yordamida bilimni o‘stirishga yo‘naltirilgan mustaqil ish jarayonini to‘g‘ri tashkil etish kerak.

Ma’lumki, cholg‘u asbobidan dars beruvchi o‘qituvchilarning katta qismi mustaqil ta’lim talabalar uchun faqat imtihon talablarini bajarish uchun majburiy bo‘lgan faoliyat, deb tushunishadi. Buning sabablari nafaqat talabalarning oliy ta’limda o‘qish jarayonidagi yuklamasi, balki cholg‘uni professional tarzda o‘zlashtirishni xohlamaslik, motivatsiyaning deyarli yo‘qlib borishiga olib keladi. Shunga ko’ra aytish joizki, Oliy o‘quv yurtida cholg‘u ijrochiligidan dars beruvchi o‘qituvchining faoliyati izchil va asosli bo‘lishi kerak. Bo‘lajak sozandaning rivojlanishining barcha bosqichlarida uning mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha vazifalarni tushuntirishi va aniq tavsiyalarn berib borishi, ayniqsa uning ijodiy komponentini rivojlantirib borishi kerak. Cholg‘u sinfdagi darslar ijro dasturning barcha elementlari va tarkibiy qismlarini ketma-ket o‘zlashtirish jarayonining eng muhim bosqichlarini o‘z ichiga olgan mustaqil ish namunasi sifatida tuzilishi kerak.

Shuni ta’kidlash kerakki, cholg‘u ijrochilik fanlarini o‘rganish amaliyotida mustaqil ijodiy ishlash ko‘nikmasini shakllantirishning eng muhim omili bu, musiqa asosini tashkil etuvchi barcha fanlarga tayanishdir. Ushbu fanlar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarning uyg‘unligi ijroning nazariy, intonatsion, eshitish asoslarini shakllantirish imkoniyatini yaratadi. Cholg‘u asbobida o‘qitishda qo‘llaniladigan musiqiy material hajmining ko‘payishi va uni o‘tish tezligining tezlashishi bo‘lajak sozandaning kamolotini rag‘batlantiradi, musiqa asarlari bilan har tomonlama tanishish uchun keng imkoniyatlar ochadi, bu asosan talaba-musiqachining mustaqil ishi jarayonida yuzaga kelishi kerak.

Xulosa. Yuqoridagilarga asoslanib, bir qator xulosalar chiqarish mumkin. Oliy o‘quv yurtida cholg‘u ijrochiligidan dars beruvchi o‘qituvchining faoliyati izchil va asosli bo‘lishi kerak. Bo‘lajak sozandaning rivojlanishining barcha bosqichlarida uning mustaqil ishini tashkil etish bo‘yicha vazifalarni tushuntirishi va aniq tavsiyalarn berib borishi, ayniqsa uning ijodiy komponentini rivojlantirib borishi kerak. Cholg‘u sinfdagi darslar ijro dasturning barcha elementlari va tarkibiy qismlarini ketma-ket o‘zlashtirish jarayonining eng muhim bosqichlarini o‘z ichiga olgan mustaqil

ish namunasi sifatida tuzilishi kerak.

Shunday qilib, cholg‘u ijrochiligi fanlarini o‘rganish sharoitida bo‘lajak sozandaning mustaqil ishi bilan bog‘liq muammolar markazida o‘qituvchining shaxsiyati turadi, uning kasbiy mahorati ko‘p jihatdan bunday ishning ijodiy darajasini belgilaydi. Boshqacha aytganda, cholg‘u asbobidan dars beruvchi o‘qituvchi talabaning cholg‘u ijrochilik faoliyatini sinfdan tashqari mazmunli mustaqil ish jarayoniga muntazam aylantirish uchun sharoit yaratishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Крафт Н.Н. Самостоятельная работа как средство саморазвития студентов // Вестник Адыгейского государственного университета. Майкоп, 2006. № 4. С. 11-16

2. Гайдай, С.Н. Самостоятельная работа как фактор становления творческой активности студента-музыканта: монография / С. Н. Гайдай. – Новосибирск: Изд-во НГПУ, 2018. – 161 с.

3. Дыганова Е. А., Шириева Н. В. Самостоятельная подготовка студента-музыканта к практической работе с хором: учебно-методическое пособие для студ. высш. учеб. заведений. Изд. 2-е, дополн. / Е. А. Дыганова, Н. В. Шириева. – Казань: изд-во «Контрл П», 2020. – 83 с.

4. Abdalova S., Mavlyanov A. “Mustaqil ta’limni tashkil etish texnologiyasi”. O’quv qo’llanma. -Toshkent, Fan va texnologiya nashriyoti, 2009.

5. Tursunov S.Q, Umarov I.S. ”Kredit-modul tizimida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish o‘quv qo‘llanma”. Toshkent, –T. TDPU. 2024. 115-bet.

PEDAGOGIKADA TA’LIM MAZMUNINI DIFFERENSIALLASHTIRISH VA INDIVIDUALLASHTIRISH

Ro‘ziboyeva Ma’mura Abdunabiyevna
Toshkent texnologiya,menejment va kommunikatsiya
Instututi Pedagogika va psixologiya kafedrasi p.f.f.d.(PhD)dotsent

Annotatsiya: Maqolada pedagogikada ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirishning nazariy asoslari hamda amaliy ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy ta’lim jarayonida o‘quvchilarning individual xususiyatlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish muhimligi asoslab berilgan. Differensial va individual ta’lim yondashuvlarining o‘zaro bog‘liqligi, ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari ta’lim sifatini oshirishda mazkur yondashuvlarning muhim pedagogik imkoniyatlarga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ta’lim mazmuni, differensial ta’lim, individual ta’lim, individuallashtirish, pedagogik yondashuv, o‘quvchi shaxsi.

ДИФФЕРЕНЦИАЦИЯ И ИНДИВИДУАЛИЗАЦИЯ СОДЕРЖАНИЯ ОБУЧЕНИЯ В ПЕДАГОГИКЕ

Аннотация: Встатье рассматриваются теоретические основы дифференциации и индивидуализации содержания обучения в педагогике. Обоснована необходимость учета индивидуальных особенностей, способностей и образовательных потребностей обучающихся в современном образовательном процессе. Проанализирована взаимосвязь дифференцированного и индивидуального подходов, а также их влияние на повышение эффективности обучения. Результаты исследования показывают, что применение данных подходов способствует развитию познавательной активности, самостоятельного мышления и личностного роста обучающихся.

Ключевыеслова:содержаниеобучения,дифференцированноеобучение,индивидуализация, индивидуальный подход, педагогическая деятельность, личность обучающегося.

DIFFERENTIATION AND INDIVIDUALIZATION OF EDUCATIONAL CONTENT IN PEDAGOGY

Abstract: This article examines the theoretical foundations of differentiation and individualization of educational content in pedagogy. The necessity of taking into account learners’ individual characteristics, abilities, and educational needs in the modern educational process is substantiated. The relationship between differentiated and individualized approaches and their impact on improving the effectiveness of education is analyzed. The research results demonstrate that the application of these approaches contributes to the development of learners’ cognitive activity, independent thinking, and personal growth.

Keywords: educational content, differentiated learning, individualization, individual approach, pedagogical activity, learner’s personality.

Kirish

Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi oldiga yangi va murakkab vazifalar qo‘yilmoqda. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, fan va texnika yutuqlari ta’lim jarayonining mazmuni va tashkil etilishiga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Ayniqsa, ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni amalga oshirish, o‘quvchilarning individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini hisobga olish dolzarb masalaga aylanmoqda. Amaliyot

shuni ko‘rsatadiki, an’anaviy ta’lim tizimida barcha o‘quvchilarga bir xil mazmun, metod va baholash mezonlarini qo‘llash o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi va ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Chunki o‘quvchilar o‘zlarining intellektual salohiyati, psixologik xususiyatlari, qiziqishlari va o‘zlashtirish tezligi bilan bir-biridan farq qiladi. Shu sababli pedagogikada ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirish ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan zarurat sifatida maydonga chiqmoqda. Ta’lim mazmunini differensiallashtirish o‘quvchilarning bilim darajasi, tayyorgarligi va imkoniyatlariga mos holda o‘quv materiallarini turli darajalarda taqdim etishni nazarda tutadi. Individuallashtirish esa har bir o‘quvchi uchun shaxsiy o‘quv faoliyatini tashkil etish, individual topshiriqlar va mustaqil ishlash imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va ta’lim jarayonining samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada pedagogikada ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirishning nazariy asoslari, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda ta’lim jarayonidagi pedagogik ahamiyati ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, differensial va individual ta’limga oid pedagogik qarashlar o‘rganilib, ularning ta’lim jarayonidagi ahamiyati nazariy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalari

Olib borilgan nazariy tahlillar va pedagogik adabiyotlarni o‘rganish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirish o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirish samaradorligini oshirishda muhim pedagogik omil hisoblanadi. Differensiallashtirilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilar bilim darajasi, tayyorgarligi va o‘zlashtirish tezligiga ko‘ra shartli guruhlarga ajratiladi hamda ular uchun moslashtirilgan o‘quv materiallari va topshiriqlar taklif etiladi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, differensial yondashuv asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilimni o‘zlashtirish darajasi barqarorlashadi, o‘quv jarayonida passiv ishtirok etuvchi o‘quvchilar soni kamayadi. Shu bilan birga, bilim darajasi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarning intellektual rivojlanishi ham izchil davom etadi. Bu holat differensial ta’limning barcha o‘quvchilar uchun teng pedagogik imkoniyatlar yaratishini ko‘rsatadi. Individuallashtirilgan ta’lim jarayonida esa har bir o‘quvchining shaxsiy xususiyatlari, qiziqishlari va ehtiyojlariga mos individual topshiriqlar va mustaqil ishlar tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida individual yondashuv qo‘llanilganda o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, o‘z-o‘zini nazorat qilish va ta’lim jarayoniga bo‘lgan mas’uliyati oshgani aniqlandi. Shuningdek, tadqiqot natijalari axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qilishini ko‘rsatdi. Elektron o‘quv resurslari va raqamli platformalar o‘quvchilarning individual ishlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Muhokama

Tadqiqot natijalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirish pedagogik jarayonda o‘zaro chambarchas bog‘liq bo‘lgan yondashuvlar hisoblanadi. Differensiallashtirish ta’lim jarayonida o‘quvchilarning umumiy farqlarini hisobga olishga qaratilgan bo‘lsa, individuallashtirish har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga alohida e’tibor qaratadi. Olingan natijalar pedagogika sohasidagi ilg‘or ilmiy qarashlar bilan mos keladi. Ko‘plab tadqiqotchilar differensial va individual yondashuvlarni uyg‘unlashtirib qo‘llash ta’lim samaradorligini oshirishini ta’kidlaydi. Biroq ushbu yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etishda ayrim muammolar mavjud. Jumladan, sinfdagi o‘quvchilar sonining ko‘pligi, o‘qituvchining vaqt resurslarining cheklanganligi va metodik tayyorgarlik darajasi muhim omillar hisoblanadi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli ta’lim vositalaridan foydalanish mazkur muammolarni qisman bartaraf etishi mumkin. Onlayn

platformalar, individual elektron topshiriqlar va moslashuvchan baholash tizimlari ta’lim jarayonini individuallashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bilan birga, differensial va individual ta’limni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish, ularni innovatsion metodlar bilan qurollantirish zarur. Bu esa ta’lim tizimida uzluksiz kasbiy rivojlanishni ta’minlashni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili

Pedagogikada ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirish masalalari ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlarida keng yoritilgan. Ushbu tushunchalar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim konsepsiyasi bilan bevosita bog‘liq bo‘lib, zamonaviy pedagogikaning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, V.P. Bespalko o‘z tadqiqotlarida ta’lim jarayonini texnologik yondashuv asosida tashkil etish zarurligini ta’kidlab, ta’lim mazmunini o‘quvchilarning individual imkoniyatlariga moslashtirish ta’lim samaradorligini oshirishini asoslab bergan. Uning fikricha, differensiallashtirilgan ta’lim bilimlarni bosqichma-bosqich va tizimli o‘zlashtirishga xizmat qiladi. M.V. Klarin ilmiy ishlarida innovatsion ta’lim texnologiyalari doirasida differensial va individual yondashuvlarning ahamiyatini yoritadi. U ta’lim jarayonida o‘quvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirishda individuallashtirilgan topshiriqlarning muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydi. I.A. Zimnyaya pedagogik psixologiya nuqtayi nazaridan ta’lim jarayonini tahlil qilib, o‘quvchilarning psixologik xususiyatlarini hisobga olmasdan tashkil etilgan ta’lim kutilgan natijani bermasligini ko‘rsatadi. Uning tadqiqotlari individuallashtirilgan ta’limning psixologik asoslarini yoritib beradi. Mahalliy olimlardan N.N. Azizxo‘jayeva pedagogik texnologiyalar masalasini yoritib, ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida tashkil etish zarurligini asoslab bergan. Muallif differensial va individual ta’lim o‘qituvchining pedagogik mahoratini namoyon etuvchi muhim omil ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek, J.G. Yo‘ldoshev va S.A. Usmonovlarning tadqiqotlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida ta’lim mazmunini differensiallashtirish masalalari keng tahlil qilingan. Mualliflar ta’lim jarayonida innovatsion metodlardan foydalanish o‘quvchilarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishini qayd etadilar.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, differensiallashtirish va individuallashtirish masalalari yetarlicha o‘rganilgan bo‘lsa-da, ularni ta’lim mazmuni bilan uzviy bog‘liq holda, zamonaviy raqamli ta’lim sharoitida tadqiq etish dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Mazkur maqola ushbu yo‘nalishda ilmiy-amaliy xulosalar berishga qaratilgan.

Xulosa Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, pedagogikada ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish orqali ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Differensial ta’lim o‘quvchilarning bilim darajasi va imkoniyatlariga mos sharoit yaratib bersa, individuallashtirilgan ta’lim har bir o‘quvchining shaxsiy rivojlanishiga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi. Shuningdek, mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi, mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda ijodiy fikrlashini qo‘llab-quvvatlaydi. Tadqiqot davomida differensial va individual ta’limni uyg‘unlashtirib qo‘llash o‘quvchilarning ta’lim natijalarini yaxshilashda yuqori samaradorlikka ega ekanligi aniqlandi. Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim mazmunini differensiallashtirish va individuallashtirishni amaliyotga joriy etish o‘qituvchilardan yuqori kasbiy mahorat, metodik tayyorgarlik va innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Kelgusida ta’lim tizimida ushbu yondashuvlarni keng tatbiq etish, o‘qituvchilarning pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirish hamda raqamli ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo‘jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018.

2. Yo‘ldoshev J.G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent:

O‘qituvchi, 2017.
3. Klarin M.V. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. – Moskva: Pedagogika, 2016.
4. Bespalko V.P. Pedagogika va o‘qitish texnologiyalari. – Moskva: Prosveshcheniye, 2015.
5. Ro‘ziboyeva, Ma’mura. «YOSHLAR VA AXBOROT-PSIXOLOGIK XAVFSIZLIK MASALALARI.» Universal xalqaro ilmiy jurnal 1.4 (2024): 481-483.

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISHDA INTEGRATIV YONDASHUV

Saidova Gavhar Ergashovna
Buxoro davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)
https://orcid.org/:0000-0003-3184-0769

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarda tarbiya fanini o‘qitishda o‘qituvchilarning darslarda pedagogik texnologiya, boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar va ta’limiy o‘yinlardan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanish va mantiqiy fikrlash doiralarini kengaytirish bilan birga ularni darslarda o‘rganganlarini hayot bilan bog‘lashga, qiziqishlarini oshirishga yordam beradigan fikrlar bayon qilingan.

Kalit so’zlar: texnikaviy, axborotli, audiovizualli faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik, ma’naviy, g‘oyaviy, nafosat tarbiyasi.

ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕБНЫХ ЗАНЯТИЙ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Саидова Гавхар Эргашовна
Доцент кафедры «Начальное образование» Бухарского государственного педагогического института, кандидат наук.

Аннотация. В статье представлены идеи о том, как использование учителями педагогических технологий на уроках, интерактивных методов и обучающих игр в начальных классах, а также современных информационно-коммуникационных технологий в преподавании начальных классов может помочь учащимся мыслить самостоятельно, развивать творческий поиск и логическое мышление, связывать полученные на уроках знания с жизнью и повышать их интерес.

Ключевые слова: техническая, информационная, аудиовизуальная активная гражданская позиция, ответственность, обязанность, правосознание и культура, глубокое мировоззрение, здоровая вера, просвещение, толерантность, духовное, идеологическое и утонченное образование.

INTEGRATIVE APPROACH TO ORGANIZING EDUCATIONAL CLASSES IN PRIMARY SCHOOLS

Saidova Gavhar Ergashovna
Associate Professor of the Department of Primary Education of the Bukhara State Pedagogical Institute, PhD.

Abstract. This article presents ideas on how teachers’ use of pedagogical technology in lessons, interactive methods and educational games in primary grades, and modern information and communication technologies in teaching education in primary grades can help students think independently, expand their creative search and logical thinking, and help them connect what they have learned in lessons with life and increase their interest.

Keywords: technical, informational, audiovisual active citizenship position, responsibility, obligation, legal awareness and culture, deep worldview, healthy faith, enlightenment, tolerance, spiritual, ideological, and refined education.

Kirish. Tarbiya fani O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab joriy qilindi. Ushbu fan Uzluksiz ma‟naviy tarbiya konsepsiyasining bir qismi sifatida o„quvchilarda “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini singdirish, ularni ijtimoiy muvaffaqiyatli hayotga tayyorlash, faol fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, ma’rifatparvarlik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirishni maqsad qilib qo‘ygan. Fan va darslik konsepsiyasini yaratishda Yaponiya, Singapur, Angliya, BAA, Xitoy, Koreya, Rossiya, Germaniya kabi xorijiy davlatlarning tajribasidan foydalanildi. Ta„lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog’liq.

Ta’lim-tarbiya jarayonini ilg‘or vositalari, metodlar, texnik vositalar, usullariga tayanib takomillashtirish tizimi hisoblanadi. Bu tizim o‘qituvchi tomonidan yaratiladi, ta’lim-tarbiya bosqichlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladi. Uning mzmuni va vazifalarini, maqsadini oldindan belgilash, ta’lim-tarbiyaning shakllari va vositalarini tayyorlash, o‘quvchida shakllantirish ko‘zda tutilgan ma’naviy sifatlarni o‘zlshtirishga yo‘naltirilgan darslarni rejalashtirish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Bugungi kunda fan-texnikaning rivojlanishi bilan inson faoliyati nihoyatda kengayib, yangi texnologiyalar kirib kelmoqda. Sifat o‘zgarishlari shundan dalolat beradiki, endilikda yangi metodikalarni talab etadigan va ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylanib borayotgan, unga o‘zining ma„lum xususiyatlarini joriy etadigan yangi texnikaviy, axborotli, audiovizualli, vositalar ham mavjud bo‘lib, ular zamonaviy pedagogik texnologiyalarni aniq voqelikka aylantirdi.

Ta’lim-tarbiya jarayonining unumdorligini oshiradi, o‘quvchilarni mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi. An‘anaviy o‘qitish tizimi, aytish mumkinki, yozma va og‘zaki so‘zlarga tayanib ish ko„rishi tufayli axborotli o‘qitish sifatida tafsiflanadi, chunki o‘qituvchi faoliyati birgina o‘quv jarayonining tashkilotchisi sifatida emas, balki nufuzli bilimlar manbaiga aylanib borayotganligini ta’kidlagan holda baholanmoqda.

O‘zbek xalqining yosh avlodni hayotga tayyorlashda ko‘p asrlar davomida qo‘llagan usul va vositalari, tadbir shakllari, o‘ziga xos urf-odatlari va an’analari, ta’lim-tarbiya haqidagi g‘oyalari va hayotiy tajribasi mavjud. Bu meros o‘tmishda ko‘plab alloma-yu donishmandlar etishib chiqishiga asos bo‘lgan.

Hozirgi kunda bu merosdan ijodiy foydalanish katta ahamiyatga ega. Ajdodlarimiz bilim o‘rgatuvchi ustoz faoliyatiga katta ahamiyat berganlar. Bu pedagogik faoliyatga bo‘lgan asosiy talablardan biri edi.

Adabiyotlar tahlili. Sharq uyg‘onish davrining buyuk mutafakkiri Abu Nasr Forobiy aqlli, dono va o‘tkir fikrlaydigan kishilar to‘g‘risida shunday deydi: «Aqlli deb shunday kishiga aytiladiki, ular fazilatli, o‘tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo‘r istidodga ega; yomon ishlardan o‘zini chetda olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar». Uning fikricha, «Ta’lim so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan o‘rganishdir, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo‘lgan ish-harakatga, kasb-hunarga berilgan bo‘lishidir. Agar ular ish, kasb-hunarga berilgan bo‘lsalar, kasb- hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshig‘i bo‘ladilar»

Tarbiya jarayoni o‘zaro bog‘liq ikki faoliyatni – o‘qituvchi va o ‘quvchi faoliyatini o‘z ichiga oladi. Tarbiya jarayonida o‟quvchining ongi shakllana boradi, his-tuyg‘ulari va turli qobiliyatlari rivojlanadi, g‘oyaviy, axloqiy, irodaviy, estetik xislatlari shakllanadi, tabiatga, jamiyatga ilmiy qarashlar tizimi tarkib topadi, jismoniy kuch-quvvatlari mustahkamlanadi. Tarbiya jarayonida o‘quvchida jamiyatning shaxsga qo‘yadigan axloqiy talablariga muvofiq keladigan xulqiy

malaka va odatlar hosil qilinadi. Bunga erishish uchun o‘quvchining ongiga (ta’lim jarayonida), hissiyotiga (darsda va turli sinfdan tashqari ishlarda), irodasiga (faoliyatni uyushtirish, xulqni idora qilish jarayonida) tizimli va muntazam ta’sir etib boriladi.Tarbiyalash jarayonida bulardan birortasi (ongi, hissiyoti, irodasi) e’tibordan chetta qolsa, maqsadga erishish qiyinlashadi.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi.

a) o‘quvchining qaysi xislatini shakllantirish yoki yo‘qotish maqsadida rejalashtiriladi;

b) shu hislatlarni tarbiyalash yoki yo‘qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi;

v) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerda ishlatish rejalashtiriladi.

Tarbiya fanidan boshlang‘ich sinf bitiruvchisiga qo‘yiladigan minimal malaka talablari (A1, A1+), kompetensiyalar, baholash tartibi va o‘quv dasturlarida har bir bosqich ma’naviy-axloqiy, tafakkur, huquqiy, fuqarolik, iqtisodiy, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlarini o‘z ichiga oladi. Bunda bola huquqlarini himoya qilish, uzluksiz ta’lim tizimiga «Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari» tamoyiliga asoslangan milliy qadriyatlarni singdirish, o‘quvchilarni har tomonlama, jismoniy, ruhiy, ma’naviy-axloqiy rivojlantirish orqali ijtimoiy-huquqiy hayotga moslashtirish va turli murakkab vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilishga o‘rgatish, bolada faol fuqarolik pozitsiyalarini shakllantirish kabi maqsadlarga darslikka qo‘yilgan didaktik talablar asosida erishiladi. Shuni qayd etish kerakki, Tarbiya fanini o‘qitish jarayonida turli interfaol metod, hamkorlikda o‘qitish, muammoli ta’lim texnologiyalari, ijodiy-ta’limiy o‘yinlardan foydalanish orqali o‘quvchilarda bilim, ko‘nikma, malakalarni tarkib toptirish barobarida ularda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot jarayonida belgilangan maqsadga erishishda asosiy e’tiborni “shaxs”, “madaniyat”, “qadriyat”, “xulq-atvor”, “huquq”, “burch”, “tarbiya” kabi tushunchalar hamda boshlang‘ich odob-axloq me’yorlari mazmun-mohiyatiga e’tibor qaratildi. Zero, ushbu tushunchalar o‘zaro aloqador bo‘lib, doimiy ravishda bir - birini to‘ldirib boradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisida ijtimoiy-huqiqiy kompetensiyalarni shakllantirishdan oldin ularda mazkur tushunchalar haqidagi bilimlarini tarkib toptirish zarur.

Ushbu maqolada ijtimoiy va huquqiy kompetenlik tushunchalariga quyidagicha ta’rif berishga harakat qildik: ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy munosabatlarda faollik ko‘rsatish ko‘nikma, malakalariga egalik, kasbiy faoliyatda subyektlar bilan muloqotga kirisha olish hamda qo‘shimcha faoliyatni hamkorlikda tashkil eta olish; huquqiy kompetentlik esa davlat tomonidan belgilangan yoki tasdiqlangan umumiy, majburiy, ijtimoiy normalarni bilish, ushbu normalarga amal qilgan holda ulardan to‘g‘ri foydalanish va shaxsiy hayotda qo‘llay olish.

Tarbiya fani asosida quyidagi kompetensiyalar shakllantiriladi:

Ma’naviy-axloqiy madaniyatlilik kompetensiyasi: odob-axloq (kiyinish, muomala, muloqot, jamoat joylarida o‘zini tutish) madaniyatiga ega bo‘lishi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni anglash va hurmat qilish, oila, jamiyat, Vatan oldidagi burch hamda mas’uliyatni anglashi va ularga rioya qilishi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy-madaniy an’analar, urfodatlar, marosimlarga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo‘lishi, jamoatchilik ishlarida faol bo‘lishi.

Mafkuraviy immunitetga ega bo‘lish kompetensiyasi: yaxshi va yomon xatti-harakatlarni farqlay olishi, ularga nisbatan fikrini bayon eta olishi; yon-atrofida bo‘layotgan voqea-hodisalarga munosabat bildira olishi, ilmlilik insonning yuksak ziynati ekanini anglay boshlash ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

Tahlillar va natijalar: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘rganish va bilish darajasi, faolligi, dunyoqarashi va fikrlay olish qobiliyatining rivojlanganligiga ko‘ra shartli ravishda ikki bosqichga ya’ni 1-2-sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarni o‘rganish va ushbu tushunchalar haqidagi bilimlarga ega bo‘lish hamda 3-4-sinfda egallagan kompetensiyalarni hayotda qo‘llay

olish ko‘nikmasini shakllantirish inobatga olinishi lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishning tamoyillarini quyidagi tarzda izohlash mumkin:

Birinchidan, o‘quvchida ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarning mavjudligi uning umri davomidagi muvaffaqiyatli faoliyatini kafolatlaydi. Ikkinchidan, o‘quvchi hayotida shaxsiy harakatlarining yetarlicha tanloviga imkon yaratib, shaxsga xos bo‘lgan ijtimoiy rollarni bajarish samaradorligini ta’minlaydi. Uchinchidan, o‘quvchining Vatanga, oilaga, insonlarga, tabiatga, qadriyatlarga nisbatan e’tiqodini hamda shaxslararo munosabatlarini rivojlantiradi. To‘rtinchidan, ijtimoiy va huquqiy kompetensiya ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, estetik qadriyatlar va o‘z-o‘zini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi. Beshinchidan, o‘quvchilarda ijtimoiy muhit, oilasi, mahallasidagi jamoaviy munosabatlar ham muhim rol o‘ynaydi. Oltinchidan, ta’lim muassasasidagi ochiq ijtimoiy-pedagogik tizim, sog‘lom muhit, o‘qituvchilarning kasbiy darajasi e’tiboga olinadi. Yettinchidan, o‘quvchilarning hayotiy qadriyatlarini aniqlash, ochiqlik, bag‘rikenglik, o‘zaro mehr-oqibatlilik, axloqiy fazilatlar, hayotiy maqsadlar, kasb tanlash motivlari, o‘z-o‘zini tarbiyalash, ijtimoiy harakatchanlik va faollik kabi omillar e’tiborga olinadi.

Tarbiya darsida o‘quvchilarda faollik, ijodkorlik, mehnatsevarlik, intiluvchanlik, bilimdonlik, tadqiqotchilik kabi sifatlarni shakllantiradigan hamda sheriklik (subyekt-subyektlik) muloqoti tamoyillariga asoslangan “Do‘st tanlayman”, “Ta’qiqlangan meva”, “O‘zimizni qanday tutamiz”, “Qadriyatlar”, “Qadr-qimmatliklar yarmarkasi” kabi o‘quvchilarning ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradigan ta’limiy o‘yinlardan foydalandik.

Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanining bosh g‘oyasida kompetensiyaviy yondashuvlarga asoslangan o‘quv dasturlari bo‘yicha ta’lim jarayonini tashkil etish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalar bilan birgalikda ularda mas’uliyat va moslashuvchanlik, muloqot qilish, ijodiylik va qiziquvchanlik, tanqidiy fikrlash, shaxslararo hamkorlik qilish, muammolarni aniqlash, yechimni topish, o‘z-o‘zini yo‘naltirish, ijtimoiy mas’uliyat kabi ko‘nikmalar shakllanadi. Bunday zamonaviy ta’lim-ta’lim berish jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilarning vazifasi quyidagicha bo‘ladi.

1. Zamonaviy ta’limning ahamiyati o‘quvchilarda faol ijtimoiylashuv ko‘nikmalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy munosabatlar jarayonining faol ishtirokchilari bo‘lishlariga erishishda ular tomonidan ijtimoiy va huquqiy ko‘nikmalarga ega bo‘lish o‘ziga xos ahamiyatga ega.

2. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar va shart-sharoitlar o‘quvchilar tafakkurini motivatsion va refleksiv ko‘nikmalarga o‘rgatish vositalari, shakllari, usul va yo‘llarini belgilash asosida qaror topadi. Buning uchun o‘qituvchidan ta’lim-tarbiya jarayoniga ijodiy munosabatda hamda akmeologik yondashuvda bo‘lish talab etiladi.

3. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirishga asoslangan innovatsion metod hamda ijodiy-ta’limiy o‘yinlar mazmunini tayanch va fanga oid kompetensiyalar bilan bog‘liq holda izohlash asosida ishlab chiqilgan, maqsaddan natijaga yo‘naltirilgan izchillik va uzviylik xarakteriga ega funksional modelni ta’lim amaliyotiga tatbiq qilish o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy me’yorlarga amal qilish ko‘nikmalarining shakllanishiga samarali ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

4. Oila, ta’lim muassasalari va jamoatchilikning o‘zaro hamkorligining tashkiliy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ta’lim komponentlarini kuchaytirish asosida o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalarni shakllantirish natijasida ularning faol ijtimoiylashuvini ta’minlaydi.

5. Tadqiqot davomida pedagogikaning kognitiv, madaniy, huquqiy kompetentlik tamoyillari asosida ishlab chiqilgan boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijtimoiy va huquqiy kompetensiyalari darajasini baholash mezonlari o‘quvchilar o‘rtasida o‘zaro sog‘lom raqobat muhitini yuzaga keltiradi.

6. O‘quvchilarni ijtimoiy va huquqiy me’yorlar bilan tanishtirishda boshlang‘ich sinflar

o‘qituvchilari alohida o‘rin tutadilar. Ularning mashg‘ulot va ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkillashtirish hamda yuqori saviyada o‘tkazishga nisbatan ijodiy yondashishlari pedagogik faoliyat samaradorligini oshirish bilan birga, o‘quvchilarda ijtimoiy va huquqiy komptensiyalarga ega bo‘lish imkoniyatini oshiradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijtimoiy-huquqiy me’yorlarga hurmat hissini shakllantirish samaradorligini oshirish yuzasidan quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

-boshlang‘ich sinf Tarbiya fanini o‘tishda amaliy tajribalarga alohida e’tibor qaratish, ya’ni imkoniyat darajasida mazkur darslarni sinf xonasida emas, mavzuga mos obyektlarda tashkil etish;

-Milliy dastur asosida yaratilgan Tarbiya fanlari dasturiga qo‘shimcha ravishda “Mashq daftari” ishlab chiqish;

-boshlang‘ich sinflarda Tarbiya fanidan dars beradigan o‘qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etib, unda xorijiy tajribalarga asoslangan holda treninglar olib borish uchun dasturlar tayyorlash;

-tarbiya darslari mazmuni asosida sinfdan tashqari tadbirlarni tashkil etish orqali o‘quvchilarda ijtimoiy-huquqiy kompetensiyalarni rivojlantirish bo‘yicha tavsiyalar tayyorlash.

Adabiyotlar ro‘yxati.

1. Shavkat Mirziyoyev. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.

2. Ergashovna, S. G. (2023). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINF TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH. TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 11, 24-26.

3. Ergashovna, S. G. (2023, September). EDUCATING ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH THROUGH EDUCATIONAL CLASSES. In The Role of Sciences in the Formation of Unusual Thinking Skills in Young Students: International Scientific-Practical Conference (Czech). (pp. 133-135).

4. Ergashovna, S. G. (2023). THE ROLE OF NATIONAL EDUCATION IN THE EDUCATION OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ALISHER NAVOI’S WORKS. International Journal of Advance Scientific Research, 3(06), 192-195.

5. Saidova, G. E. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARNING O ‘QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH. Conferencea, 33-37.

6. Ergashovna, S. G. (2023, February). BOSHLANG’ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. In E Conference Zone (pp. 1-4).

7. Саидова, Г., & Авлиёкулова, Н. (2022). Boshlang ‘ich sinflarda o ‘quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish. Общество и инновации, 3(3/S), 76-80.

8. Саидова, Г., & Каххорова, А. (2022). Xalq og ‘zaki ijodi orqali o ‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish. Общество и инновации, 3(4/S), 314-317.

BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA XALQARO BAHOLASH TALABLARIGA MOS O‘QUV TOPSHIRIQLARINI ISHLAB CHIQISH

Saidova Gavhar Ergashovna
Buxoro davlat pedagogika instituti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d (PhD)

Zayniddinova Iqbol Ilyosiddin qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti 1-kurs magistranti

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida xalqaro baholash dasturlari (PIRLS, TIMSS, PISA) talablariga mos o‘quv topshiriqlarni ishlab chiqishning metodik asoslari yoritilgan. O‘quvchilarning funksional savodxonligi, mantiqiy fikrlashi va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlarni loyihalash bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy o‘quv dasturlari bilan xalqaro baholash mezonlarini uyg‘unlashtirish masalalari ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Boshlang‘ich ta’lim, funksional savodxonlik, xalqaro baholash, o‘quv topshiriqlari, metodika, ta’lim sifatini oshirish, baholash standartlari

РАЗРАБОТКА УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ В СООТВЕТСТВИИ С МЕЖДУНАРОДНЫМИ ТРЕБОВАНИЯМИ К ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ.

Саидова Гавхар Ергашовна
Доцент кафедры «Начальное образование» Бухарского государственного педагогического института, кандидат педагогических наук.

Зайнидинова Икбол Илёсиддин кызы
Студентка 1 курса магистратуры Бухарского государственного педагогического института.

Аннотация: В статье рассматриваются методологические основы разработки учебных заданий в соответствии с требованиями международных программ оценки (PIRLS, TIMSS, PISA) в системе начального образования. Анализируются этапы разработки заданий, направленных на развитие у учащихся функциональной грамотности, логического мышления и навыков решения проблем. Также раскрываются вопросы гармонизации национальных учебных программ с международными критериями оценки.

Ключевые слова: начальное образование, функциональная грамотность, международная оценка, цели обучения, методология, повышение качества образования, стандарты оценки.

DEVELOPMENT OF LEARNING ASSIGNMENTS IN ACCORDANCE WITH INTERNATIONAL REQUIREMENTS FOR KNOWLEDGE ASSESSMENT IN PRIMARY EDUCATION

Saidova Gavkhar Ergashovna
Associate Professor, Department of Primary Education, Bukhara State Pedagogical Institute, PhD in Pedagogical Sciences.

Zainidinova Ikbol Ilesiddin kyzy
First-year master’s student at the Bukhara State Pedagogical Institute.

Abstract: The article examines the methodological foundations of developing educational tasks in accordance with the requirements of international assessment programs (PIRLS, TIMSS, PISA) in the primary education system. The stages of developing assignments aimed at developing

students' functional literacy, logical thinking, and problem-solving skills are analyzed. Issues related to harmonizing national curricula with international assessment criteria are also explored.

Key words: primary education, functional literacy, international assessment, learning objectives, methodology, improving the quality of education, assessment standards.

Kirish

Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim sifati va samaradorligini baholash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xalqaro baholash dasturlari o'quvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularni real hayotda qo'llay olish ko'nikmalarini aniqlashga xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan, boshlang'ich ta'limda o'quv topshiriqlarini xalqaro baholash talablariga mos ishlab chiqish dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori milliy ta'lim tizimini xalqaro baholash dasturlari talablariga moslashtirishda muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan faqat bilim berish emas, balki o'quvchilarda zamonaviy kompetensiyalar, ko'nikma va malakalarni shakllantirish talab etilmoqda. Mazkur fanning asosiy maqsadi bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash tizimlari (PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA, EGMA) bilan tanishtirish, ularning o'tkazilish xususiyatlari va talablari haqida bilim berish hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarini ushbu baholash dasturlariga tayyorlash metodikasini o'rgatishdan iboratdir. Bu esa ta'lim jarayonini xalqaro baholash mezonlariga mos holda takomillashtirishga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'limda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish bugungi kunda xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish hamda xalqaro standartlar talablarini milliy ta'lim tizimiga izchil joriy etish bilan bevosita bog'liqdir. Ta'lim sifatini baholash bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalarni tahlil qilish, ularni mavjud baholash tizimi bilan qiyoslash, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ta'lim jarayonini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu asosda zamon talablariga javob beradigan, shaffof va samarali milliy baholash tizimini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.Shu jarayonda o'qitish metodlari, usullari va vositalarini to'g'ri tanlash hamda ularni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish o'quvchilarning ongli o'qish, mustaqil fikrlash va egallangan bilimlarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lay olish ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Global miqyosdagi raqobat va globallashuv sharoitida pedagogik innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali o'quvchilarning mantiqiy-tahliliy, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish ta'lim sifatini xalqaro standartlar darajasiga ko'tarishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro baholash tizimiga o'tishning ayni vaqtda dolzarbligi va har sohada rivojlanayotgan O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimining o'sishiga ta'sirini kuchaytirish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida kiritilgan, "Ta'lim to'g'risida"gi qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF- 4947-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi "Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 140-sonli, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi "Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 187-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora- tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 sentabrdagi "Xalq ta'limi tizimiga boshqaruvningyangitamoyillarinijoriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3931-sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli, O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi «O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi PF-5712- son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 maydagi “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4306-son Qarorlari tasdiqlanib, ijroga yo‘naltirilgan.

Boshlang‘ich ta’limda ta’lim sifati va samaradorligini oshirish bugungi kunda xorijiy tajribalarni chuqur o‘rganish hamda xalqaro standartlar talablarini milliy ta’lim tizimiga izchil joriy etish bilan bevosita bog‘liqdir. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha ilg‘or xalqaro tajribalarni tahlil qilish, ularni mavjud baholash tizimi bilan qiyoslash, shuningdek, xalqaro va xorijiy tashkilotlar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ta’lim jarayonini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Shu asosda zamon talablariga javob beradigan, shaffof va samarali milliy baholash tizimini rivojlantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga zamin yaratib, barcha sohalarda raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Bu esa o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshirish, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishini talab etadi. Xalqaro baholash dasturlariga mos o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) xalqaro baholash tadqiqoti boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligi, matnni anglash va mazmunini tahlil qilish ko‘nikmalarini baholashga qaratilgan. Tadqiqot doirasida o‘quvchilarning badiiy va axborot matnlarini tushunishi, asosiy g‘oyani aniqlashi, xulosalar chiqarishi hamda tanqidiy fikrlash qobiliyatlari muhim mezon sifatida qaraladi. Shu sababli PIRLS talablari asosida o‘quv topshiriqlarini yaratishda interfaol metodlardan foydalanish, differensial yondashuvni qo‘llash hamda o‘quvchilarning funksional savodxonligini rivojlantiruvchi topshiriqlarni ishlab chiqish zarur hisoblanadi.

Tahlillar va natijalar: Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash talablariga mos o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish jarayonida o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. TIMSS bu — “Trends in International Mathematics and Science Study”, ya’ni 4- va 8- sinf o‘quvchilarining matematik va tabiiy-ilmiy yo‘nalishlar bo‘yicha ta’limdagi natijalarini xalqaro miqyosda baholaydigan tadqiqotdir. TIMSS tadqiqot vositasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: • matematika va tabiiy fanlar sikli fanlaridan topshiriqlar (4- va 8-sinflar); • ta’lim muassasalari rahbarlari uchun anketa (4- va 8-sinflar); • o‘qituvchilar uchun so‘rovnoma (4- va 8-sinflar); • Ota-onalar uchun so‘rovnoma (4-sinf). TIMSS testi to‘rtta topshiriq blokidan iborat (ikkitasi matematikadan va ikkitasi tabiatshunoslik). 4-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 72 daqiqa ajratiladi (ikki qism 36 daqiqa). 8-sinfda butun testni bajarish uchun tanaffus bilan 90 daqiqa berildi (ikki 45 daqiqadan iborat qismlar). TIMSS xalqaro tadqiqot vositalari to‘plamiga quyidagilar kiradi: kognitiv va ma’lumotlar sohasiga tegishli testlar; anketalar (o‘quvchilar, o‘qituvchilar, ta’lim muassasasi ma’muriyati, ta’lim sohasidagi mutaxassislar (tadqiqot sifatini kuzatuvchilar uchun); uslubiy ta’minot (o‘rganishni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha milliy koordinatorlar uchun yo‘riqnoma, namuna olish bo‘yicha qo‘llanma, maktab koordinatorlari uchun qo‘llanma, test o‘tkazish bo‘yicha qo‘llanma, bepul javoblar bilan topshiriqlarni tekshirish bo‘yicha qo‘llanma, ma’lumotlarni kiritish bo‘yicha qo‘llanma va boshqalar); - dasturiy ta’minot (sinflar va o‘quvchilarni tanlash uchun, ma’lumotlarni kiritish uchun).

PIRLS va TIMSS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonida o‘qituvchilardan matnlar bilan ishlash, o‘quvchilarga matnni tahlil qilishni o‘rgatish, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar tuzish hamda baholash mezonlarini to‘g‘ri qo‘llash malakasi talab etiladi. O‘qituvchilarning metodik kompetensiyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘quvchilarning xalqaro baholash sinovlaridagi natijalari ham shunchalik samarali bo‘ladi.

Xalqaro baholash dasturlari, xususan, PIRLS dasturi 2001-yilda Ta’lim sohasidagi yutuqlarni

baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) tomonidan joriy etilgan bo‘lib, har besh yilda bir marotaba 4-sinf o‘quvchilarining o‘qish savodxonligini xalqaro darajada baholashga qaratilgan. O‘qish savodxonligi o‘quvchilarning keyingi ta’lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o‘qishi va shaxsiy rivojlanishi uchun muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Shu sababli PIRLS talablari boshlang‘ich ta’limda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqishda asosiy yo‘nalish sifatida qaralmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar iqtisodiyotning jadal rivojlanishiga zamin yaratib, barcha sohalarda raqobatbardosh va malakali kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirdi. Bu esa o‘quvchilarning darslarga qiziqishini oshirish, o‘qituvchilarning ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvlarni joriy etishini talab etadi. Xalqaro baholash dasturlariga mos o‘quv topshiriqlari o‘quvchilarning faolligi, mustaqil fikrlashi va bilimlarni amaliyotda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

PISA va PIRLS kabi xalqaro baholash dasturlarining asl mohiyati o‘quvchilarda tafakkur faolligini shakllantirish, ularni ijodkorlik va innovatsion fikrlashga yo‘naltirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan, O‘zbekistonda xalqaro tajribaga tayangan holda o‘quvchilarning bilim darajasini baholash va monitoring qilishga qaratilgan milliy baholash tizimini yanada takomillashtirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu tizim zamon bilan hamnafas rivojlanib, baholash mezonlarini xalqaro talablar asosida doimiy ravishda yangilab borishi orqali boshlang‘ich ta’limda o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ilg‘or mamlakatlar va O‘zbekiston maktablari o‘quvchilarga bilim berishda yondashuvlarida asosiy farqlarga ega. Xorijiy tajribada bolalar ta’lim jarayonida ortiqcha umumiy fanlar bilan zo‘riqtirilmaydi, asosiy fanlar tizimli ravishda o‘rganiladi va ularning atrofida o‘quv jarayoni tashkil etiladi. Ota-onalar va ta’lim muassasalari o‘quvchilarning faqat test savollariga javob berish yoki ma’lumotlarni yodlash bilan cheklanmasdan, ularning zamonaviy jamiyat va mehnat bozoridagi ehtiyojlarga javob bera oladigan bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga intiladi. Shu bois, samarali muloqot, jamoada ishlash, tanqidiy va ijodiy fikrlash, shuningdek, chet tillarda yetarli darajada muloqot qilish qobiliyatlari eng qadrlanadigan ko‘nikmalardan hisoblanadi.

Xulosa. Xalqaro baholash dasturlari (PISA, PIRLS, TIMSS, EGRA, EGMA) o‘quvchilarning ushbu ko‘nikmalarini aniqlash va rivojlantirishga qaratilgan. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarning yutuqlariga ularning ijtimoiy muhit, maktab resurslari, o‘qituvchilarning malakasi, dars texnologiyalari va uyga vazifalarning mazmuni sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash standartlariga mos o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish va ularni amaliyotga tatbiq etish o‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta’limda xalqaro baholash talablariga mos o‘quv topshiriqlarini ishlab chiqish jarayonida o‘qituvchilarning metodik tayyorgarligi muhim omil hisoblanadi. PIRLS va TIMSS tadqiqotlariga tayyorlash jarayonida o‘qituvchilardan matnlar bilan ishlash, o‘quvchilarga matnni tahlil qilishni o‘rgatish, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar tuzish hamda baholash mezonlarini to‘g‘ri qo‘llash malakasi talab etiladi. O‘qituvchilarning metodik kompetensiyasi qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘quvchilarning xalqaro baholash sinovlaridagi natijalari ham shunchalik samarali bo‘ladi

Shuningdek, o‘quvchilarning badiiy matnlarni tushunish va ongli o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish ham metodikaning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘qituvchi va murabbiylarning yordami orqali o‘quvchi asarning ma’nosi va badiiy-estetik jihatlarini anglab yetadi, bu esa uning ijodiy fikrlash va hayotiy ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Xalqaro baholash dasturlari asosida ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar esa boshlang‘ich ta’limda o‘quv topshiriqlarini takomillashtirish va o‘quvchilarning bilim olish sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 08.12.2018 yildagi 997-son

Khodjayev, B.H. (2017). General Pedagogy. Tashkent: Sano-Standard Publishing House.

2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq Ta’limi Vazirligi rasmiy sayti. uzeu.uz

3. OECD. Programme for International Student Assessment (PISA). oecd.org/pisa

4. TIMSS & PIRLS International Study Resources. timssandpirls.bc.edu

5. Ergashovna, S. G. (2023). KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA BOSHLANG’ICH SINF TARBIYA DARSLARINI TASHKIL ETISH. TA’LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR, 11, 24-26.

6. Ergashovna, S. G. (2023, September). EDUCATING ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS BASED ON AN INTEGRATIVE APPROACH THROUGH EDUCATIONAL CLASSES. In The Role of Sciences in the Formation of Unusual Thinking Skills in Young Students: International Scientific-Practical Conference (Czech). (pp. 133-135).

7. Ergashovna, S. G. (2023). THE ROLE OF NATIONAL EDUCATION IN THE EDUCATION OF ELEMENTARY SCHOOL STUDENTS THROUGH ALISHER NAVOI’S WORKS. International Journal of Advance Scientific Research, 3(06), 192-195.

8. Saidova, G. E. (2023). BOSHLANG ‘ICH SINF O ‘QUVCHILARNING O ‘QUV FAOLIYATINI BAHOLASHDA ZAMONAVIY LOYIHALARDAN FOYDALANISH. Conferencea, 33-37.

9. Ergashovna, S. G. (2023, February). BOSHLANG’ICH SINF TARBIYA DARSLARIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV. In E Conference Zone (pp. 1-4).

10. Саидова, Г., & Авлиёкулова, Н. (2022). Boshlang ‘ich sinflarda o ‘quv jarayonini zamonaviy, innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish. Общество и инновации, 3(3/S), 76-80.

11. Саидова, Г., & Каххорова, А. (2022). Xalq og ‘zaki ijodi orqali o ‘quvchilarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish. Общество и инновации, 3(4/S), 314-317.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR KASBIY TANLOV VOSITASI SIFATIDA

Saydalieva Farzona O‘tkir qizi,
Nizomiy nomidagi O‘zMPU “Texnologiya va professional ta’lim” kafedrasi o‘qituvchisi

Annotastiya. Maqola shaxsga yo’naltrilgan ta’lim tamoyilini amalga oshirish vositasi sifatida kasbga yo’naltirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va real holatini tahlil qilishga bag’ishlangan.

Kalit so’zlar: ta’lim traektoriyasi, kasbga yo’naltirish, kasbiy va shaxsiy o’zini o’zi belgilash, raqamli texnologiyalar.

DIGITAL TECHNOLOGIES AS A MEANS OF PROFESSIONAL CHOICE

Saydalieva Farzona Utkir kizi,
Lecturer of the Department of «Technology and Vocational Education» of the Uzbek State Pedagogical University named after Nizami

Abstract. The article is devoted to the analysis of the possibilities and real situation of using digital technologies in career guidance as a means of implementing the principle of personality-oriented education.

Keywords: educational trajectory, career guidance, professional and personal self-determination, digital technologies.

Insonni kasb tanlashga yo‘llovchi asosiy omillar-bu jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilish istagi va shaxs sifatida komillika erishishdan iborat.Shaxsning kasb tanlashi faqatgina uning xoxishi va qobiliyatiga bog‘liq bo‘lmay, balki u yashaydigan jamiyatdagi erishilgan moddiy va ma’naviy sharoit, yutuqlar bilan ham belgilanadi.

Hozirgi vaqtda davlat ta’lim standartlari mavjudligi sharoitida kasbga yo’nlatirish o’quvchilarning ta’lim yo’lini tanlashi uchun real imkoniyat va zarurat mavjud bo’lgan ijtimoiy-ta’lim sharoitida mumkin.

Amalda, maktab o’quvchilariga kasb tanlashda haqiqiy yordam faqat mutaxassis ofisining maydoni bilan cheklangan. Biroq, kasbga yo’naltirish bo’yicha mutaxassislarning amaliyotida (shu jumladan kompyuterda) maktab o’quvchisining qiziqishlari, qobiliyatlari va shaxsiy xususiyatlarini o’rganish uchun kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyatni bashorat qilish uchun qo’llaniladigan usullar, ularning barcha tasdiqlangan ishonchliligi va asosliligiga qaramay, tanlash muammosini hal qilmaydi. individual ta’lim yo’nalishi. Diagnostik profillardan foydalanishning muhim sharti - bu kasbiy testlar orqali kasblar dunyosiga hissiy sho’ng’ish, talabaning o’zini shaxs va tanlash sub’ekti sifatida anglashdir. Murakkab, noaniq va o’zgaruvchan dunyoda kasb tanlash muammolari zamonaviy o’smirlarning ekzistensial muammolari bilan bir-biriga mos keladi.

Klaster tahlili yoshlarning uchta shartli guruhini aniqlash imkonini berdi: “idealistlar”, “pragmatistlar”, “an’anaviylar”. Kasbiy tanlovdan xabardorlik va professional kompetentsiyani rivojlantirish istagi raqamli resurslardan faol foydalanish va Internetdagi aloqalarning salbiy oqibatlaridan qochish qobiliyati bilan bog’liqligi ko’rsatildi. Bu xususiyatlar mehnat bozori ehtiyojlari va ish beruvchilarning talablariga kamroq qiziqish ko’rsatadigan «idealistlar» guruhini belgilaydi. Kasb tanlashda shaxsiy passivlik bilan ajralib turadigan «an’anaviylar» raqamli resurslardan tizimsiz foydalanish bilan ajralib turadi, ular Internetdagi aloqaning salbiy oqibatlarini boshdan kechirish xavfi yuqori. “Pragmatistlar” guruhiga kiradigan yoshlar boshqalarga qaraganda ko’proq mehnat bozori ehtiyojlariga, mehnatdan moddiy mukofotlarga e’tibor qaratadilar, ular kengroq tanlagan kasblarga ega va o’z ilmiy doirasidan tashqarida ishlashga tayyor mutaxassislik.

Hozirgi vaqtda, haqiqatda, bir tomondan, bolalar va o’smirlar ijtimoiy hayotini o’z-o’zidan raqamlashtirish, ikkinchi tomondan, ma’lum sun’iy intellekt texnologiyalarini maktablar

va universitetlarga direktiv ravishda joriy etish kuzatilmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, raqamlashtirish jarayoni Internetga qaramlik , ma’lumotlarning haddan tashqari yuklanishi, shaxsiy makonga bostirib kirish, zo’ravonlik (agressiya), haqiqiy ijtimoiy guruhlarda begonalashuvning kuchayishi, aqliy rivojlanishning kognitiv qobiliyatlarga moyilligi, tashqi ko’nikmalarning kuchayishi kabi bir qator salbiy ta’sirlar bilan birga keladi, shaxs ustidan nazorat va ta’lim jarayonining barcha ishtirokchilarining hissiy farovonligining pasayishi [1; 3; 4; 5].

Ta’limda sun’iy intellekt texnologiyalaridan maqsadli va samarali foydalanish ushbu texnologiyalar o’quvchilar, o’qituvchilar va ota-onalar uchun ta’limni haqiqiy shaxsiylashtirishning ishonchli vositasi bo’lishi mumkin bo’lgan sharoitlarni, individual va jamoaviy o’quv jarayonlarini birlashtirish texnologiyalarini batafsil o’rganishni talab qiladi, individuallik, talaba mustaqilligini faollashtirish usullari.

Kasbiy o’zini o’zi rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning psixologik-pedagogik kontseptsiyasini yaratishda tizimli va ehtimollik yondashuvlari qoidalariga tayanish muhimdir. Tizimli yondashuv xususiy (intizomiy) tadqiqot ob’ektlarini tizim sifatida ko’rib chiqishga imkon beradi: o’quvchilarning individual xususiyatlari yaxlit tizimi sifatida ko’rib chiqiladi; shaxs aqliy fazilatlarning rivojlanayotgan va o’z-o’zini rivojlantiruvchi tizimi sifatida; “Talaba-o‘qituvchi”, “talaba-talaba”, “talaba-ota-ona” tizimidagi shaxslararo o‘zaro ta’sir, “odam-mashina” tizimidagi axborot va mobil qurilmalar bilan o‘zaro ta’sir, ta’lim jarayonining o‘zi turli individual yo‘naltirilgan ish sifatida, tizim sifatida o’zgaruvchan ijtimoiy-madaniy sharoitlarda shaxsning o’zini o’zi anglashi va o’zini o’zi belgilashini ta’minlaydigan sub’ektlar; natijada ta’lim tizimi sifatida ketma-ket ta’lim dasturlari va turli darajadagi va yo‘nalishdagi davlat ta’lim standartlarini amalga oshiruvchi ta’lim muassasalari majmui.

Ehtimoliy yondashuvdan foydalanish zarurati umumiy ta’limdan kasbiy ta’limga o’tish bosqichida o’quvchilarning individual ta’lim traektoriyasini tanlash jarayonining o’ziga xos xususiyatlari bilan bog’liq. Zamonaviy dunyoning noaniqligi kasbiy ish sohasida doimiy tashqi ko’rsatmalarga ega bo’lishni imkonsiz qiladi. Ta’lim yo’nalishini tanlashni qo’llab-quvvatlash jarayonida shaxsga qaysi ta’sir vositasi u qabul qilgan qarorni aniqlaganligini aniq taxmin qilish mumkin emas. Pedagogik va ruhiy hodisalar o’z tabiatiga ko’ra qat’iy belgilanmaydi, lekin ko’plab tashqi va ichki omillar ta’sirida bo’ladi va shaxs tanlash sub’ekti sifatida o’zini o’zi belgilaydi .

Biroq, hozirgi kunga tayanmasdan kelajak istiqbollarini amalga oshirish mumkin emas.

So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning aksariyati kasb tanlashda raqamli resurslar va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishga ijobiy munosabatda bo‘lishiga qaramay, mavjud kasbiy yo‘nalish bo‘yicha raqamli platformalardan real xabardorlik va foydalanish juda kam. Avvalgidek, kasb tanlash to’g’risida qaror qabul qilishda eng muhim «ta’sir agentlari» haqiqiy odamlardir: ota-onalar, ma’lum bir universitet talabalari, kasb vakillari. Ushbu xulosa tanlovning psixologik mexanizmi « vositachi « ni izlash degan fikrimizga to’liq mos keladi va shaxsiy tanlov shaxsiy ma’no va qadriyatlar vositasida bo’lganligi sababli, ichki vosita sifatida yangi ma’nolar, qadriyatlar va tamoyillarni izlash. tanlagan vaziyatda, ularning tashuvchisini qidirishga aylanadi. Shu sababli, kasbiy tanlov sharoitida muhim vositachi boshqa shaxsdir [2]. Shaxssiz virtual raqamli muhitning emas, balki ijtimoiy muhitning ta’siri yoshlarning kasbiy qaror qabul qilishda kuchli omil bo’lib chiqayotganligi sababli, biz hozirda yoshlar ongida g’oyadan o’tish jarayonini kuzatmoqdamiz, virtual va real olamlar o’rtasidagi raqobat, ularni bir-birini to’ldirish va boyitish g’oyasiga.

Nazariy va empirik tadqiqotlarimiz asosida quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkin:

- raqamli texnologiyalar va kasbiy yo’nalish uchun raqamli resurslar shaxsning kasbiy tanlov sharoitida qaror qabul qilishning psixologik mexanizmlari asosida ishlab chiqilishi kerak;

- raqamli texnologiyalar o‘zini-o‘zi ta’minlay olmaydi, lekin uni faollashtirish vositasi sifatida yoshlarning kasbiy o‘zini o‘zi rivojlantirish psixologik-pedagogik qo‘llab-quvvatlashning yaxlit jarayoniga kiritilishi kerak;

- raqamli texnologiyalar institutsional darajada rasmiyatchilik, begonalashish va yo’l-yo’riqni

bartaraf etish va shaxsiy darajada ulardan foydalanishning stixiyaliligini bartaraf etish sharti bilan kasbiy yo'nalishning institutsional va shaxsiy darajalarini integratsiyalash vositasiga aylanishi mumkin.

- kasbga yo'naltirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishdagi texno-gumanitar nomutanosiblikni, kasbga yo'naltirishning zamonaviy raqamli texnologiyalar bilan o'zida mujassamlangan tashqi (instrumental va texnologik) tomoniga haddan tashqari e'tibor uning ichki, qiymatini soyasida qoldirmasa, haqiqiy tirik odamlar tomonidan gavdalangan semantik tomoni bartaraf etish mumkin.

Фойдаланилган адабиётлар:

The ethical dimension also encourages teachers to cultivate moral reasoning in students. By discussing ethical dilemmas in global contexts – such as refugee crises, climate change policies, or digital privacy – they help learners develop the ability to make informed, responsible decisions that consider both local and global implications.

 Collaborative and Interpersonal Skills

A key but often overlooked component of global competence is collaboration. Teachers must be able to work effectively with colleagues, parents, and communities from diverse cultural and social backgrounds. These interpersonal skills allow them to build inclusive learning environments and promote teamwork among students.

Teachers can model collaborative problem-solving by facilitating group projects that require cross-cultural cooperation, joint research, or collective decision-making. Collaboration also extends to professional development, where teachers can exchange ideas with international peers, co-develop lesson plans, and share best practices in global education.

 Adaptability and Lifelong Learning

Finally, global competence requires teachers to be adaptable and committed to lifelong learning. The global landscape is dynamic, with evolving educational standards, technological innovations, and sociopolitical changes. Teachers who embrace continuous professional growth – through training, research, and reflection – can respond effectively to changing classroom needs and global challenges.

For example, teachers might participate in workshops on intercultural pedagogy, update lesson plans to reflect current global issues, or integrate innovative technologies for collaborative learning. Adaptability ensures that teachers can provide relevant, responsive, and culturally sensitive education for diverse student populations.

Strategies for integrating global competence into Teacher Education

The integration of global competence requires systemic and intentional efforts. It cannot be achieved through isolated workshops or elective courses alone.

Firstly, curricula should embed global themes across disciplines rather than confining them to specific subjects. For example, literature courses can explore texts from diverse cultural traditions, while science education can address global environmental challenges.

Secondly, experiential learning opportunities are crucial. International exchange programs, virtual partnerships, and multicultural practicum placements expose pre-service teachers to diverse contexts. Even when physical mobility is limited, digital collaboration projects can simulate intercultural engagement.

Thirdly, teacher educators must model global competence themselves. Faculty development programs should provide training in intercultural pedagogy, inclusive assessment methods, and global curriculum design. Without institutional support and leadership commitment, implementation may remain superficial.

Finally, assessment frameworks should evaluate not only academic knowledge but also intercultural skills, ethical reasoning, and collaborative abilities. Reflective journals, portfolios, and project-based assessments can capture these complex dimensions more effectively than traditional examinations.

Challenges and future perspectives

Despite widespread acknowledgment of its importance, implementing global competence in teacher education faces practical and conceptual challenges. Institutional constraints, standardized testing pressures, and limited funding may restrict innovation. Additionally, cultural differences

influence how global competence is defined and prioritized. What is considered essential in one educational system may require adaptation in another.

However, future perspectives are promising. Advances in technology facilitate international collaboration, and global policy agendas increasingly emphasize sustainable development and intercultural dialogue. As societies become more interconnected, the demand for globally competent teachers will continue to grow.

Conclusion

Global competence represents a transformative approach to teacher education in the 21st century. It integrates intercultural awareness, critical thinking, digital literacy, and ethical engagement into a coherent professional framework. By preparing teachers who can navigate diversity, promote dialogue, and inspire responsible action, educational institutions contribute to building more inclusive and sustainable societies.

In a world characterized by complexity and interdependence, the development of global competence is not merely desirable – it is indispensable. Teacher education programs that embrace this paradigm ensure that future generations are guided by educators capable of fostering understanding, resilience, and collaborative problem-solving on a global scale.

References

1. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2018). Preparing our youth for an inclusive and sustainable world: The OECD PISA global competence framework. OECD Publishing.

2. Organisation for Economic Co-operation and Development. (2020). PISA 2018 results (Volume VI): Are students ready to thrive in an interconnected world? OECD Publishing.

3. UNESCO. (2015). Global citizenship education: Topics and learning objectives. UNESCO Publishing.

4. UNESCO. (2014). Global citizenship education: Preparing learners for the challenges of the twenty-first century. UNESCO Publishing.

5. Banks, James A.. (2008). Diversity, group identity, and citizenship education in a global age. Educational Researcher, 37(3), 129–139.

6. Deardorff, Darla K.. (2006). Identification and assessment of intercultural competence as a student outcome of internationalization. Journal of Studies in International Education, 10(3), 241–266.

7. Freire, Paulo. (1970). Pedagogy of the oppressed. Continuum.

8. Mezirow, Jack. (1991). Transformative dimensions of adult learning. Jossey-Bass.

9. Tuning, Volker., & Hunt, Francis. (2016). Global citizenship education in teacher education: A review of policy and practice. Teaching and Teacher Education, 59, 215–225.

NAJMIDDIN KUBRONING YOSHLARNI TARBIYALASHDAGI QARASHLARI VA ULARNING YECHIMI

Yunusxo'jayev M.
UrDU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada muallif Najmiddin Kubroning yoshlarni tarbiyalashdagi qarashlari va ularning yechimlari keltirgan.

Kalit so'zlar: Najmiddin Kubro, yoshlar, tasavvuf, tarbiya, so'fiylik, axloq, odob, poklik, sabr, muhabbat.

Аннотация: В данной статье автор представляет взгляды Наджмиддина Кубро на образование молодежи и пути решения этой проблемы.

Ключовое слово: Наджмиддин Кубро, молодость, мистицизм, образование, суфизм, мораль, порядочность, чистота, терпение, любовь.

Annatation: In this article, the author presents Najmiddin Kubro's views on educating young people and their solutions.

Key words: Najmiddin Kubro, youth, mysticism, education, Sufism, morality, decency, purity, patience, love.

Yoshlar tarbiyasi – har bir jamiyatning ma'naviy, axloqiy va intellektual taraqqiyotini belgilovchi eng muhim omillardandir. Shu sababli, qadimdan Sharq mutafakkirlari, xususan, tasavvuf maktabining buyuk vakillari bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar. Ular yosh avlodni nafaqat ilmga, balki axloq, odob, qalb pokligi, sabr va muhabbat ruhida tarbiyalashni eng oliy burch deb bilganlar.

Shu jihatdan, Najmiddin Kubro (1145–1221) – o'z davrida nafaqat so'fiylik tariqatining asoschisi, balki tarbiya nazariyasining amaliy asoschisi sifatida ham e'tirof etiladi. Uning ta'limoti "komil inson" g'oyasiga tayanadi. Kubro yoshlarni nafaqat dunyoviy, balki ruhiy-ma'naviy jihatdan mukammal bo'lishga da'vat etadi.

Najmiddin Kubro ta'limotida inson kamoloti uch asosda ifodalanadi:

Ilm – bilish va tafakkur orqali haqiqatni anglash;

Amal – ilmini amalda qo'llash;

Axloq – qalb pokligi va ichki go'zallikni tarbiyalash.

Bu uch yo'nalish bugungi ta'lim-tarbiya tizimi uchun ham muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Najmiddin Kubro hayoti va pedagogik tafakkurining manbalari

Najmiddin Ahmad ibn Umar Abuljannob al-Kubro al-Xivaqiy Xorazmning Xivaq qishlog'ida, hijriy 540 (milodiy 1145) yilda tug'ilgan. U ilmni dastlab Xorazmda, keyinchalik Nishopur, Isfahon va Bag'dodda o'rganadi. Ustozlaridan Ruzbihon Isfahoniy, Amr ibn Alouddin as-Sa'diy, Imom Abul Hasan al-Bahroniy kabi mashhur so'fiylardan ta'lim olgan .

Uning asarlari orasida "Favoih al-jamal wa favoih al-jalal", "Usul al-Ashara", "Risalat at-turuq", "Odob al-muridin" va "Sharh as-sunna wa-l-masolih" kabi risolalar mavjud. Aynan shu asarlarida u tarbiya, ruhiy poklanish va insonni kamolotga yetkazish masalalariga chuqur ilmiy-axloqiy yondashgan.

Uning pedagogik qarashlari Qur'on oyatlari va hadislar bilan uyg'un:

"Qalb pok bo'lmasa, ilm foyda bermaydi; axloq tozalanmasa, ibodat mukammal bo'lmaydi." (Favoih al-jamal, 2-jild, 58-bet)

Bu fikr Kubro ta'limotida tarbiya – nafaqat bilim berish, balki ruhni va niyatni tozalash jarayoni ekanini ko'rsatadi.

Shayx Najmidin Kubro ta'limotidagi inson bilan bog'liq ja'mi masalalar, ya'ni Najmidin

Kubroning butun ijodiyotining mohiyati bir so‘z bilan aytganda insondir. Negaki, bu ulug‘ zotning deyarli hamma asarlarida ushbu masala bosh o‘rinda turadi. Shu bilan birga insonga bo‘lgan munosabat, to‘g‘rirog‘i insonparvarlik ham shundan kelib chiqadi.

“Insonparvarlik (gumanizm) odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularni hurmat qilish, moddiy farovonligini yuksalatirish va kishilarda yuksak ma’naviy fazilatlarni rivojlantirishga g‘amxo‘rlik qilish g‘oyalari bilan sug‘orilgan dunyoqarash. Insonning, insonni sevishning sababi, boislari, inson baxti, baxtiyor yashash uchun zarur bo‘lgan adolat haqidagi orzular qadimiy xalqlarning og‘zaki ijodida, mifologik, diniy, falsafiy qarashlarida yuzaga chiqa boshlagan...”[4]

Ma’lumki, Sharqda futuvvat harakati insonparvarlikning yorqin namunasi, sifatida qaraladi. Hattoki, afsonaviy Xotami Toy ham insonparvar kishining umumlashgan obraziga aylantirilgan. Najmidin Kubro asarlarida ham futuvvat bilan bog‘liq jihatlar ayniqsa insonparvarlik bilan bog‘liq o‘rinlarda o‘z aksini topgan. Najmiddin Kubro “Usul al-Ashara” (“O‘n asos”) asarida so‘fiylik yo‘lining ma’naviy-pedagogik bosqichlarini bayon etar ekan, ularni faqatgina muridlar uchun emas, balki inson tarbiyasining universal tamoyillari sifatida taqdim etadi. Bu o‘n bosqich — tavba, zuhd, tavakkul, qanoat, uzlat, davomli zikr, tavajjuh, sabr, muroqaba, rizo — aslida shaxsning bosqichma-bosqich kamolotga chiqish modeli bo‘lib, bugungi pedagogikadagi “shaxsni ma’naviy rivojlantirish texnologiyasi”ga juda yaqin turadi. Kubro har bir bosqichni nafaqat ruhiy-amaliy holat sifatida, balki insonni tarbiyalovchi ichki mexanizm sifatida ham ko‘radi. Shu sababli bu bo‘limni zamonaviy pedagogikaga integratsiya qilish mumkin. Ular quyidagilardan iboratdir:

1. Tavba tarbiyaning boshlang‘ich pedagogik-psixologik bosqichi

Najmiddin Kubroga ko‘ra, tavba barcha amallarning boshi bo‘lib, u nafaqat gunohdan qaytish, balki past darajadagi axloqiy hayotdan yuksak axloqiy hayotga o‘tish demakdir. U shunday deydi: “Tavba — qaytmoqdir, ya’ni kamolotga, oliy axloqiy sifatlarga qaytishdir. Tavba yo‘li nimalardan iborat ekanligini Najmiddin Kubro quyidagicha ta’riflagan: “1. Qilgan gunohiga pushaymonlik. 2. Shu gunohni qayta qilmaslikka azmu qaror. 3. Qazo etilgan, amalga oshirilmagan farzlarni o‘tash. 4. Gunox lazzatini totgan nafsga mag‘lubiyat alamini ham tortirish”[2]. Bu ta’rifning pedagogik qiymati shundaki, Kubro tavbani shaxsiy refleksiya, o‘zini baholash va qayta ijtimoiylashish mexanizmi sifatida beradi. Bugungi tarbiya nazariyasida bu “o‘zini tarbiyalash” (samovospitaniye), “o‘zini boshqarish” va “xulqni tuzatish” bosqichlariga mos keladi. Tavbasiz tarbiya bo‘lmaydi, deydi u, chunki inson avvalo xatoni xato deb tan olishi lozim. Psixologik-pedagogik jihatdan bu yoshda ichki nazorat (internal control), aybni tan olish, qayta maqsad qo‘yish ko‘nikmalarini shakllantirish degani.

Kubro gunohni ham pedagogik tahlil qiladi: u gunohni uch turga bo‘ladi: “1. Fe’lu atvor gunohi. 2. Xizmat yuzasidan bo‘ladigan amallar gunohi. 3. Vojibni (xudoni) tark etish gunohi. Bularga ruju qilib, e’tibor berish hammaga vojib va zaruriydir” Bu tasnif bugungi tarbiyaviy ishda juda qulay: o‘quvchining xulqidagi kamchiliklar (fe’l-atvor), o‘qishdagi beparvolik (xizmat gunohi), hamda ma’naviy-ma’rifiy vazifani bajarmaslik (vojibni tark etish) bir-biridan ajratib ishlash imkonini beradi. Demak, Kubro tavbani faqat diniy tushuncha sifatida emas, balki nuqsonni aniqlash – pushaymon bo‘lish – tuzatish – mustahkamlash ketma-ketligidagi tarbiyaviy model sifatida beradi.

Pedagogik xulosa: tavba tamoyili — o‘quvchini aybni tan olishga, xulqni tuzatishga, o‘zini baholashga o‘rgatuvchi psixologik-tarbiyaviy texnika. Uni sinf rahbarligi, ma’naviyat soati, murabbiylik soatlariga moslashtirish mumkin.

2. Zuhd iste’molchilikka qarshi tarbiya

Solihning parxezi, dunyoviy boyliklardan voz kechishdir, nimaki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir. Zuxdning mohiyati dunyo va oxiratga rag‘bat qo‘yishdan voz kechishdir. Demak, dunyo va uning ne’matlariga rag‘bat qo‘yishdan voz kechib, Haq tomonga yuzlanish darkor. Bu yerda ikki muhim narsa bor:

U zohidlikni maqsad emas, balki maqsadga olib boruvchi psixologik-siyosiy gigiyena deb ko‘radi: “Zuhd zuhddan kelib chiqishi kerak. Bu uning asosiy maqsad emasligini bildiradi”. Ya’ni tarbiya uchun zuhd – vosita. Zuhdning birinchi shaklida u bolada chegarani bilish, orzu

va ehtiyojni ajratish, xohishlarni boshqarish ko‘nikmasini tarbiyalaydi. Ikkinchi shaklida esa bu – ruhiy erkinlik. Junayd Bog‘dodiy yozadi: “Zuxd-qo‘lni mulkdan xoli tutish, dilni esa Haqdan o‘zga har narsadan pok saqlash demak”, Imom G‘azzoliy deydi: “Zuhd-dunyodan ixtiyoriy ravishda voz kechish va buning uchun qayg‘urmaslikdir”[2].

Bu haqda shayx Najmiddin Kubro shunday yozadi: “Zuhd rag‘batdan voz kechish bo‘lib, ikki qismdan iboratdir. Birinchisi, ichki lazzat, sharob ichish, nikohiy ishlarga ruju qo‘yish, mansab va oliy martabalarni qo‘msash kabi ilohiy rohatlarga o‘xshash xis tuyg‘ulardan voz kechishdir. Ikkinchisi esa janob Haq taolo oldida dunyo va oxiratning nuqsonli ekanligi mulohazasidan kelib chiqib, ularning har ikkisiga ham rag‘bat qo‘yishdan voz kechishdir. Zuhd haqiqatga muvofiq shunday erur. Zeroki, zuhdning birinchi kismi o‘z zotiga ko‘ra, saklanib qolgan xissiy rag‘batga asoslangandir. Demak, rag‘batdan voz kechish, vujudni butunlay bartaraf qilish haqiqatdan iborat emas. Zeroki, bir jinsdan kelib chiqadigan rag‘bat o‘rniga, undan afzalroq va komilroq boshkasi paydo bo‘ladi. Ushbu takomillashgan rag‘bat Hak Subhona (ta’olo) rag‘bati bilan qo‘shilmaydi. Shunday bo‘lgach, Xudoga talpinuvchilar nochor bo‘ladilarkim, ularning rag‘bati dunyo ishlaridan uzilgach, oxiratdan ham ajralib qoladi. Bas shunday ekan, Uning (Parvardigor) o‘zidan boshka xech nima orom baxshida eta olmaydi”[1].

Bugungi yoshlar orasida iste’molchilik, “hammasi tez bo‘lsin”, “ko‘proq narsaga ega bo‘lay” kayfiyati kuchaygan. Kubroning zuhd haqidagi yondashuvi shuni ko‘rsatadiki, tarbiya jarayonida bola boriga shukr, me’yor, halol rizq, faxrli soddalik, diqqatni ichki rivojga qaratish qadriyatlari asosida o‘stirilishi kerak. Bu hozirgi “ma’naviy immunitet” tushunchasiga to‘liq mos keladi.

3. Tavakkul - Kubro tavakkulni “faol ishonch” sifatida beradi:

“Tavakkul – sababni qo‘ldan chiqarmay, natijani Allohdan kutishdir.” Bu degani: inson mehnat qiladi, lekin natijaga mahliyo bo‘lib qolmaydi. Chunki Xudoning irodasi bizning irodamizga hokimdir. Shuning uchun ham tavakkul zuhddan keyin tilga olinadi. “Maqsadga erishish mahalida tavakkul, birinchi darajali ahamiyat kasb etadi, deb yozadi Najmiddin Kubro, chunki, Haq taologa ishonch mavjud bo‘lib, barcha zahiralar unga topshirilgan bo‘lsa ham, nafsni biror ish bilan mashgul etib turish maqsadida oz moz rizq so‘rash talab etiladi. Zeroki, agar nafsni mashg‘ul qilinmasa, u dilni nomatlub ishlar bilan band qilib qo‘yishi mumkin. Negaki, nafsning odati shundayki, agar uni biror narsa bilan mashg‘ul etilmasa, u shaxsni mashgul etib qo‘yadi”[1]. Shayx hazratlari tavakkulning darajalari haqida to‘xtalib, oriflar uchun to‘rt yuz yetmish va malomatiya uchun to‘rt yuz ellik olti deb ko‘rsatadi.

Bu juda nozik tarbiyaviy fikr: bola (yosh) bo‘sh qolsa, nafs uni egallab oladi. Demak, Kubrocha tarbiya — bo‘sh qoldirmaslik tarbiyasi. Zamonaviy pedagogika buni “ta’lim-tarbiyada bo‘shliq qoldirmaslik”, “maqsadli bandlik”, “foydali mashg‘ulotlar bilan band etish” deb ataydi.

Demak tavakkul – passiv kutish emas, balki mas’uliyat + ishonch modelidir. O‘qituvchi, murabbiy, ota-ona bolaga: “Sen harakat qil, lekin hammasi birdan bo‘lmaydi, jarayonga ishon” degan tarbiyani bermog‘i kerak. Bu hozirgi yoshlarning ruhiy siqilish, tez taslim bo‘lish, depressiv kayfiyatining oldini oladi.

4. Qanoat ehtiyojni tarbiyalash pedagogikasi

Shaxs kamolotining eng makbul yo‘li bo‘lib, nafsoniy tamoyil va hayvoniy shahvat hamda lazzatlaridan voz kechmoqdir. Insonda ruh va jism kurashi mavjud bo‘lib, kamolot ana shu jism talablarini yo‘qota borib va ruh talablarini ko‘paytirish bilan amalga oshadi. Qanoat insonni inson qiladi, ma’naviyat bezagi bilan bezaydi. Qanoat nafsi ammorani yengishga qaratilgandir. So‘fiylar qanoatning mavjudlikka yelkadoshligini ta’kidlashgan. Najmiddin Kubro yozadi: “Mavjud bo‘lishlikdan murod Rasulda mujassamlashgan to‘g‘rilik tilagi vositasida Haq Subxona bilan qanoatlanishning o‘zidir. Qanoat zaruriyat takazo etganchalik rozilikdir. Haqiqat kanoatdur”. Bu o‘rinda u qanoatni nafaqat iqtisodiy, balki nafsni tarbiyalovchi ma’naviy prinsip sifatida beradi. Qanoat – “bor narsaga rozi bo‘lish” emas, balki nafsning haddan tashqari xohishlarini cheklash orqali ruhni kengaytirishdir.

Pedagogikada bu “istaklarni boshqarish”, “irsiy va tashqi ta’sirlarni filtrlash”, “manfaatni kechiktirishga o‘rgatish” (delay of gratification) tushunchalariga mosdir. Bugungi axborot bozorida bolalarning ko‘zi ochilib ketayotgani, iste’molchilik ramziy kapitalga aylangani sharoitida Kubrocha qanoat — bu psixologik va pedagogik himoyadir.

4. Uzlat ichki intizom tarbiyasi

Tasavvuf ta’limotida, ruxni poklashdir. Uzlat so‘fiylarning xilvatda chilla o‘tirishlari bilan amalga oshirilgan. Maqsad ruhni mutlaq poklash. Najmiddin Kubro poklanish asoslarini ham aloxida belgilab bergan. Bular quyidagilardan iborat: “1.Tana pokligi. 2. Xilvat, ya’ni keraksiz ma’lumotlardan voz kechish 3. Davomli sukut, ya’ni lozim bo‘lmaguncha gapirmaslik. 4. Davomli ro‘za. 5. Davomli zikr. 6. Taslimiyot, ya’ni Allohning har turli balo-qazosiga rozilik. 7. Xotirani yomon hayollardan holi tutish. 8. Qalbni o‘ziga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatgan ustozga bog‘lash. 9. Ehtiyojga yarasha uyqu. 10. Yemoq va ichmoqda zaruriy me’yorga rioya qilish. Kishining uzlatdan uch ko‘zlagan maqsadi bordur: birinchisi, Xudoni o‘z xulqiga garov deb bilish, ikkinchisi, o‘z fe’l atvoridan shaar, ya’ni yomonlikni bartaraf etish, uchinchidan, o‘zini bag‘ishlash va o‘z xulqi haqida mavlo (xomiy) bilan suhbat qurishdir. Xar kim vahdoniyatdan boshqa mavzulardagi suhbat uchun o‘zining homiysi bo‘lgan mavlosiga bag‘ishlasa, u bilan fikriy yagonalik zoxir bo‘lurki, uning lutfi siymosidan hosil bo‘lgan qo‘shimcha tafakkurga hech aql bovar qilmagay”[1] Buni bugungi maktab, kollej, hatto oliygoh tarbiyasiga moslashtirsak, bu to‘g‘ridan to‘g‘ri:

“raqamli gigiyena” (keraksiz ma’lumotdan voz kechish),

“ovqatlanish va uyqu madaniyati”,

“sukut va tinglay bilish madaniyati”,

“ustozga bog‘lanish”,

“ichki monologni tarbiyalash”

kabi komponentlarga aylanadi.

Kubro uzlatni ijtimoiy jamiyatdan qochish deb emas, chalg‘ituvchi omillarni boshqarish deb tushuntiradi. Bu – zamonaviy talaba-yoshlarning diqqatini TikTok, keraksiz chatlar, ortiqcha kontentdan tortib olib, o‘qishga, tafakkurga, maqsadga yo‘naltirish modelidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Шайх Нажжали Кубро Расплаве одоб уз-зокарин. ЎзР ФА ШИ Қўлёзмалар фонди, инв.№№503 Х.355 Каране Шайх Нажмиддин Кубро Шарки рисолайе одоб ул-хокарин (форс тилидан М. Колеров таржимаси) Урганч Хоразм, 1997-32-33 66.

2. Н. Комилов. Тасаввуф. 1-китоб.-Т. Ёзувчи, 1996.-26-6.

3. Шайх Нажмиддин Кубро. Рисолайе одоб ул-зокиран. ЎзР ФА ШИ Қўлёзмалар фонди, инв. №503 Х,3436в. (форс тилидан М. Кодиров таржимаси).

4. Фалсафа комусий луғати. -Т.: Шарқ, 2004.-166-бет.

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI VA INTERFAOL TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI INTEGRATSIYALASHNING PEDAGOGIK MODELI

Rahmatova Gulasal Nasillo Qizi
Buxoro davlat pedagogika instituti
70110401-Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(boshlang‘ich ta’lim) mutaxassisligi magistranti

Hasanova Gulnoz Qosimovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
Maktabgacha va boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi kafedrasi mudiri p.f.n.,prof

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish jarayonida raqamli va interfaol ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash asosida samarali pedagogik modelni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishga qaratilgan. Tadqiqotda tanqidiy fikrlash kompetensiyasining mazmun-mohiyati, uning tarkibiy komponentlari (kognitiv, motivatsion, refleksiv va faoliyatga yo‘naltirilgan) nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, raqamli ta’lim resurslari, interfaol metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining boshlang‘ich ta’lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari ochib beriladi. Tadqiqot doirasida integratsiyalashgan pedagogik model ishlab chiqilib, uning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlari asoslanadi.

Kalit so‘zlar: raqamli ta’lim, interfaol, pedagogik model, integratsiya ta’lim, innovatsion yondashuv, axborot-kommunikatsiya, samaradorlig.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРАЦИИ ЦИФРОВЫХ И ИНТЕРАКТИВНЫХ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КОМПЕТЕНЦИИ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

Аннотация: Цель данной статьи — разработка и внедрение эффективной педагогической модели, основанной на интеграции цифровых и интерактивных образовательных технологий в процесс формирования компетенции критического мышления у учащихся начальной школы. В исследовании теоретически анализируется содержание и сущность компетенции критического мышления, ее структурные компоненты (когнитивные, мотивационные, рефлексивные и деятельностно-ориентированные). Также раскрывается педагогический потенциал цифровых образовательных ресурсов, интерактивных методов и информационно-коммуникационных технологий в процессе начального образования. В рамках исследования разработана интегрированная педагогическая модель, на основе которой созданы ее целевые, содержательные, технологические и результативные компоненты.

Ключевые слова: цифровое образование, интерактивность, педагогическая модель, интегрированное образование, инновационный подход, информационно-коммуникационные технологии, эффективность.

PEDAGOGICAL MODEL OF INTEGRATION OF DIGITAL AND INTERACTIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN FORMING CRITICAL THINKING COMPETENCE IN PRIMARY STUDENTS

Annotation: This article aims to develop and implement an effective pedagogical model based on the integration of digital and interactive educational technologies in the process of forming critical thinking competence in primary school students. The study theoretically analyzes the content and essence of critical thinking competence, its structural components (cognitive, motivational, reflexive and activity-oriented). It also reveals the pedagogical potential of digital educational resources, interactive methods and information and communication technologies in the primary education process. An integrated pedagogical model was developed within the framework of the study, and its purposeful, substantive, technological and result components were based.

Key words: digital education, interactive, pedagogical model, integrated education, innovative approach, information and communication, efficiency.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamlashtirish sharoitida ta’lim tizimi oldida shaxsning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlay olishini ta’minlash eng muhim vazifalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida o‘quvchilarda tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish kelgusida ularning bilimlarni ongli o‘zlashtirishi, muammoli vaziyatlarga tahliliy yondashishi hamda hayotiy qarorlarni asosli qabul qila olishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, raqamli va interfaol ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan biridir.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta’lim jarayonida raqamli resurslar, interfaol platformalar va multimedia vositalaridan keng foydalanish imkonini yaratdi. Biroq ularni boshlang‘ich ta’lim jarayoniga tizimli va pedagogik jihatdan asoslangan holda integratsiyalash masalasi yetarli darajada ilmiy tadqiq etilmagan. Amaldagi tajriba shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab holatlarda raqamli va interfaol texnologiyalar o‘quvchilarning faolligini oshirish vositasi sifatida qo‘llanilmoqda, biroq ularning tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishdagi pedagogik modeli yetarlicha ishlab chiqilmagan. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda raqamli va interfaol ta’lim texnologiyalarini integratsiyalashgan holda qo‘llashga asoslangan samarali pedagogik modelni yaratish zarurati bilan belgilanadi. Tadqiqot O‘zbekiston Respublikasida ta’lim tizimini rivojlantirishga qaratilgan me’yoriy-huquqiy hujjatlar, davlat ta’lim standartlari va zamonaviy pedagogik konsepsiyalar bilan uyg‘un holda olib boriladi. Hozirgi globallashuv sharoitida jamiyat taraqqiyoti bilan bog’liq dolzarb muammolarni hal etish mustaqil fikrlash va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalariga ega bo‘lgan yangi avlodga bog‘liq. Biz vaziyatga qarab o‘zgarib turadigan fikrni tasavvur qilamiz. Bola ma’lum bir vaziyatga tushib qoladi va u darhol ma’lumotni kuzatishni, tahlil qilishni, qayta ishlashni, xulosalar chiqarishni, qaror qabul qilishni, mas’uliyatni o‘z zimmasiga olishni boshlaydi. Tanqidiy fikrlash- bu narsa va hodisalarni oqilona xulosalar bilan tahlil qilishda qo‘llaniladigan va oqilona baholash va talqin qilish, shuningdek olingan natijalarni vaziyat va muammolarga qo‘llash imkonini beradigan fikrlash tizimi. Tanqidiy fikrlash-bu nimaga ishonish yoki qanday harakat qilish kerak. nima qilish kerakligi to‘g’risida qaror qabul qilishga qaratilgan samarali, aks ettiruvchi fikrlash. Bundan tashqari, tanqidiy fikrlash-bu o‘rganilayotgan ma’lumotlarga, shu jumladan o‘z hukmlariga shubha qilish qobiliyati. Fikrlash haqida o‘ylash nomi bilan ham tanilgan. Eng keng tarqalgan ta’riflardan biri bu nimaga ishonish va nima qilish kerakligini hal qilishga qaratilgan ratsional refleksiv fikrlash, faol va mohirona tahlil qilish, kuzatish, tajriba, aloqa natijasida olingan yoki hosil bo‘lgan ma’lumotlarni ishonch va harakat uchun maqsadli nuqta sifatida konsepsiyalashdir. 2030 ta’lim harakatlari strategiyasi

(SDG 4) ta’lim tizimini yaxshilashni va barcha yoshdagi shaxslarning o‘qish, yozish va hisoblash qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qilgan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish muammosi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri sifatida keng tadqiq etilgan. Xorijiy ilmiy manbalarda tanqidiy fikrlash tushunchasi shaxsning axborotni tahlil qilish, dalillarni baholash, mantiqiy xulosalar chiqarish va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. J. Dewey, R. Ennis, P. Facione kabi olimlar tanqidiy fikrlashni ta’lim jarayonining markaziy komponenti sifatida asoslab berganlar. So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda raqamli texnologiyalar va interfaol ta’lim metodlarining o‘quvchilarning kognitiv faolligini oshirishdagi roli alohida e’tirof etilmoqda. Xususan, elektron ta’lim platformalari, virtual muhitlar, multimediya vositalari va raqamli o‘yin texnologiyalarining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida mustaqil va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ijobiy ta’siri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Mahalliy pedagog olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda boshlang‘ich ta’lim jarayonida innovatsion yondashuvlar, interfaol metodlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish masalalari keng yoritilgan. Biroq mavjud ilmiy ishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash kompetensiyasini aynan raqamli va interfaol ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash asosida shakllantirishga yo‘naltirilgan yaxlit pedagogik model yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu bois, mazkur tadqiqot adabiyotlar tahliliga tayangan holda mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtiradi hamda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan yangi integratsiyalashgan pedagogik modelni asoslashga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot jarayonida pedagogik tadqiqotlarning nazariy va amaliy metodlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy, tizimli, faoliyatga yo‘naltirilgan va innovatsion yondashuvlar tashkil etadi. Nazariy metodlar sifatida pedagogik va psixologik adabiyotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlaridan foydalanildi. Ushbu metodlar orqali tanqidiy fikrlash kompetensiyasining mazmuni, tuzilmasi hamda uni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari aniqlandi. Empirik metodlar doirasida kuzatish, suhbat, so‘rovnoma, pedagogik tajriba-sinov ishlari, diagnostik testlar va o‘quvchilarning faoliyat mahsullarini tahlil qilish metodlari qo‘llanildi. Ushbu metodlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlash darajasini aniqlash, raqamli va interfaol ta’lim texnologiyalarining ta’sirini baholash imkonini berdi. Shuningdek, tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida matematik-statistik tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilinib, ishlab chiqilgan pedagogik modelning samaradorligi ilmiy asosda isbotlandi.

Natijalar va muhokama. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish mavzusida olib borilgan ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, tanqidiy fikrlash– bu mustaqil, reflektiv va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni bo‘lib, u bolaning muammoni hal qilish, dalillarga asoslangan qarorlar qabul qilish va turli nuqtai nazarlarni tahlil qilish qobiliyatini oshirishga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash- atamasining o‘zi faylasuf Deviga borib taqaladi. U bu atamani ko‘proq reflektiv fikrlash sifatida ishlatgan: har qanday fikr yoki tahmin qilingan bilim shaklini uni qo‘llab-quvvatlovchi asoslar va uning oqibatlari nuqtai nazaridan faol, izchil va ehtiyotkorlik bilan ko‘rib chiqish. Olim J. Devining so‘zlariga ko‘ra: ‚talabalar tanqidiy fikrlashni faqat ma’lum bir muammo bilan shug’ullanishni boshlaganlarida rivojlantiradilar“. Shu sababli, o‘quv jarayonining boshlang‘ich nuqtasi hisoblangan vaziyat yoki hodisa haqidagi eng muhim savol bu voqea qanday muammo tug‘dirishini anglatuvchi savoldir. Faqat ma’lum bir muammo bilan kurashganda va qiyin vaziyatdan chiqish yo‘lini izlaganda, talaba haqiqatdan ham o‘ylaydi. Tanqidiy fikrlash-bu odamlardan o‘z fikrlari va harakatlarini shakllantiradigan qarorlarni aks ettirish va ko‘rib chiqishni talab qiladigan fikrlash turi. Kichik guruhlarda ishlash jarayonida talabalar o‘zlarini erkinroq tutadilar. Hatto noto‘g’ri javob berib, hijolatdan qo‘rqadigan bolalar

ham o‘z bilimlarini namoyish etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Ular o‘zlarining fikrlari boshqalar tomonidan qadrlanishini ko‘rishadi. Sinfdagi uyatchan talabalar faollashadi. Guruhda ishlash unga o‘ziga ishonch hissini beradi. 4-5 talabadan iborat guruhda uyatchan talaba 30-35 talaba oldida javob berishdan ko‘ra o‘zini erkinroq his qiladi. Umuman olganda, kichik guruhlarda ishlash o‘qituvchilar va talabalarni faolroq bo‘lishga, guruh uchun mas’uliyatni his qilishga o‘rgatadi va ularning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu, o‘z navbatida, alohida o‘quvchi va talabalarning darsga qiziqishini orttirish, mustaqilligi va faolligini rivojlantirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradigan innovatsion usullardan keng foydalanishni talab qiladi. Demak, O‘zbekiston davlatining har tomonlama rivojlanishi va amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati yosh avlodning mustaqil fikrlash, keng bilim, tarbiya va umumiy madaniyatini shakllantirish darajasiga bog‘liq. Shuning uchun jamiyatimizdagi barcha yoshlarda erkin kuzatish va tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish ijtimoiy ehtiyojdir.

Avvalo, talabalarga tanqidiy fikrlash uchun mas’ul ekanliklarini o‘rgatish kerak. O‘qituvchining vazifasi tanqidiy fikrlashni rag‘batlantiradigan muhitni yaratishdir. Tanqidiy fikrlash-bu ma’lumotni o‘zlashtirishdan boshlanib, xulosa bilan tugaydigan murakkab fikrlash jarayoni. Biroq, tanqidiy fikrlash-bu o‘quvchilarning matn bilan ishlash, og‘zaki va yozma nutqni egallash va ushbu matnda tengdoshlari bilan birgalikda kognitiv faoliyatning yuqori darajasi sifatida harakat qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiya. Tanqidiy fikrlash-bu o‘quv jarayonining tafakkurini o‘zgartirishi mumkin bo‘lgan strategiyalar to‘plami, ya’ni dars o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodiga aylanadi. Tanqidiy fikrlash tuzilmalari, aqliy faoliyatning umumlashtirilgan usullarini shakllantirish usullarini belgilaydigan alohida komponentlarning o‘ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotlarda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini tanqidiy fikrlashning barcha tarkibiy qismlarini egallashga yo‘naltirish asosida tizimli ta’limga tayyorgarlik va shaxsni har tomonlama faollashtirish rivojlangan. Ushbu maqsadlarni to‘liq tushuncha sifatida amalga oshirish an’anaviy didaktik tizimlarning barcha bo‘g‘inlarini, shu jumladan talabalarning faol tanqidiy fikrlashini shakllantirishning motivlari, usullari va tashkiliy vositalarini va inson rivojlanishining turli yosh bosqichlarida uni chuqur tadqiq qilishni takomillashtirish zarurligini talab qiladi. Muxtasar qilib aytganda, tanqidiy fikrlash talabaning intellektual malakasi va rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Tanqidiy fikrlash katta e’tibor va miya ishini talab qiladi. O‘rganishga tanqidiy fikrlash yondashuvi qo‘llanilsa, bu o‘quvchining miyasining yaxshi ishlashiga va matnlarni boshqacha tushunishga yordam beradi. O‘qitishning turli sohalari tanqidiy fikrlashning har xil turlarini talab qilishi mumkin. Tanqidiy fikrlash bir xil materialga bir nechta istiqbol va istiqbollarni taqdim etadi. Agar erkinlik va bilim bo‘lmasa, tanqidiy fikrlash bo‘lmaydi. Har qanday jamiyat tanqidiy fikrlash qobiliyatiga ega bilimli avlodga muhtoj. Tanqidiy fikrlash kashfiyotlarning asosi, innovatsiyalarning asosiy omili va ijtimoiy rivojlanishning ustunidir. Tanqidiy fikrlash boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo‘lish sari muhim qadamdir. Bu ko‘nikmalarni shakllantirish uchun o‘qituvchi faqat bilim berish bilan cheklanmasdan, bolalarning fikrlash jarayonini faollashtiruvchi turli usullarni qo‘llashi lozim. Tanqidiy fikrlashga ega bo‘lgan o‘quvchilar kelajakda mustaqil, ijodkor va muvaffaqiyatli shaxslarga aylanishlari muqarrar.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirish jarayonida raqamli va interfaol ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash pedagogik jihatdan asoslangan, tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvni talab etadi. Tanqidiy fikrlash kompetensiyasi o‘quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiruvchi, mustaqil fikrlash, tahlil qilish, taqqoslash, baholash va xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim pedagogik omil sifatida namoyon bo‘ladi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan pedagogik modelning maqsadli, mazmuniy, texnologik va natijaviy komponentlari o‘zaro uzviy bog‘liq holda boshlang‘ich ta’lim jarayonida samarali qo‘llash imkonini beradi. Eksperimental-sinov ishlari raqamli ta’lim resurslari va interfaol metodlardan kompleks foydalanish o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasini sezilarli oshirishini tasdiqladi. Raqamli

va interfaol ta’lim texnologiyalarini integratsiyalash asosida tashkil etilgan pedagogik jarayon boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tanqidiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Maqolada boshlang‘ich ta’lim amaliyotini takomillashtirish, o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish hamda ta’lim jarayonini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR:

1. Rahimov, S. (2019). Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tanqidiy fikrlashini shakllantirish metodikasi. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti. 89-b.

2. Yo‘ldoshev, A. (2021). Zamonaviy ta’limda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish tamoyillari. O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy jurnali, 4(2), 87-95.

3. Xolmirzayev, B. (2020). Boshlang‘ich ta’limda tanqidiy fikrlashni shakllantirishning innovatsion yondashuvlari. Pedagogik innovatsiyalar markazi, Toshkent. 56-63-b.

4. Karimova, D. (2018). Tanqidiy tafakkur: O‘quvchilarni erkin va mustaqil fikrlashga o‘rgatish usullari. O‘zbekiston Pedagogika jurnali, 3(1), 112-118.

5. Hamidov, U. (2017). Tanqidiy fikrlash va muammoli ta’lim metodlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kognitiv rivojlanishini ta’minlash. O‘zMU Ilmiy axborotnomasi, 5(3), 76-83.

6. Jo‘raboyeva, S. (2022). Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar yordamida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish imkoniyatlari. Nizomiy nomidagi TDPU ilmiy maqolalar to‘plami, 2(4), 145-153.

MAXSCRIPT DASTURLASH TILI YORDAMIDA LOYIHALASHTIRISH YONDASHUVI ASOSIDA “SHAKL YARATUVCHI” DASTURINI ISHLAB CHIQISH METODIKASI

Shukurov Akmal Uktamovich,
Qarshi davlat texnika universiteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD),

Nizomov Sunnattilla Egamberdi o‘g‘li,
Axborot texnologiyalari va menejment universiteti magistranti,

Annotatsiya: Shakl yaratuvchi plugin modellashtirishdagi ayrim muammolarni hal qiladi. Undan foydalanish esa foydalanuvchiga juda katta qulayliklar yaratadi. Yangi tizimlar kutubxonasidan foydalanish dasturni yangi imkonioyatlarini ochib beradi va bu imkoniyatlar dasturlashning yangi texnologiyalarini yaratishda keng qo‘laniladi. Obyektlarning ayrim qismlarini yaratishda ushbu plugindan foydalanish foydalanuvchining vaqt sarfini kamaytiradi va ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun qulayliklarga ega bo‘ladi yoxud ishlarini yengillashtiradi.

Kalit so‘zlar: MaxScript, shakl, Autodesk 3 ds Max, plug, texnika, oliy ta’lim, o‘qituvchi, talaba, AKT, loyiha, yondoshuv, metod, uslub, tizim, axborot, loyihalash, bilim, tarmoq, komponent.

МЕТОДИКА РАЗРАБОТКИ ПРОГРАММЫ «ФОРМООБРАЗОВАТЕЛЬ» НА ОСНОВЕ ПРОЕКТНОГО ПОДХОДА С ПОМОЩЬЮ ЯЗЫКА ПРОГРАММИРОВАНИЯ MAXSCRIPT

Shukurov Akmal Uktamovich,
Кандидат педагогических наук, доцент кафедры информационных систем и технологий Каршинского государственного технического университета.

Низомов Суннатилла Эгамберди угли
Магистрант Университета информационных технологий и менеджмента

Абстрактный: Плагин формообразователя решает некоторые проблемы в моделировании. Его использование создает огромные удобства для пользователя. Использование библиотеки новых систем открывает новые возможности программы, и эти возможности широко используются при создании новых технологий программирования. Использование этого плагина при создании отдельных частей объектов сокращает время пользователя и облегчает его работу или обеспечивает удобства для достижения поставленной цели.

Ключевые слова: MaxScript, форма, Autodesk 3 ds Max, плуг, техника, высшее образование, преподаватель, студент, ИКТ, проект, подход, метод, стиль, система, информация, проектирование, знание, сеть, компонент.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING THE «FORM CREATOR» PROGRAM BASED ON THE DESIGN APPROACH USING THE MAXSCRIPT PROGRAMMING LANGUAGE

Shukurov Akmal Uktamovich,
PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor at the Department of Information Systems and Technologies, Karshi State Technical University.

Nizomov Sunnattilla Egamberdi o'g'li,
Master's student of the University of Information Technologies and Management,

Abstract: The form-creating plugin solves some problems in modeling. Its use creates great convenience for the user. The use of a new system library opens up new capabilities for the program, and these capabilities are widely used in the creation of new programming technologies. The use of this plugin in the creation of individual parts of objects reduces the user's time expenditure and provides conveniences for achieving the intended goal or simplifies their work.

Key words: MaxScript, form, Autodesk 3ds Max, plow, technology, higher education, teacher, student, ICT, project, approach, method, style, system, information, design, knowledge, network, component.

KIRISH. Autodesk 3 ds Max dasturiy ta'minotining komponentalari asosida modellashtirishning barcha yo'nalishlari bo'yicha loyihalarni amalga oshirish mumkin. Ushbu dasturning imkoniyatlari modellashtirishning barcha qonuniyatlari, parametrlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan, lekin biz bu imkoniyatlarni yanada oshirishimiz mumkin. Dasturni dinamik jihatdan kengaytirish mumkinligi ushbu dasturning ajoyib hislatlaridan dalolat beradi. Dasturning komponentalarini kengaytirish albatta MaxScript dasturlash tili yordamida amalga oshiriladi. Biror bir masalani yechishni oldimizga maqsad qilib qo'yaylik. Masalan: ixtiyoriy chiziq berilgan bo'lsin, uni sohalari bo'yicha hajm yaratilsin. Ushbu masalani yechishni ahamiyati shundan iboratki 3 ds Max dasturining komponentalar qatorida ushbu masalaga yo'naltirilgan bo'lim yo'q. Dasturda ishlash jarayonida esa bu xildagi komponentalar kerak bo'ladi. Ular loyihalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga egadir. Ixtiyoriy chiziqni sohalari bo'yicha segmentarga ajratish, ularga hajm berish imkoniyati mavjud emasligi bizni muammoni yechishga undadi[1,15].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.


Hozirgi kungacha mavjud bo'lgan 10 dan ziyod adabiyotlar, maqola va tezislar tahlil qilindi. Ulardagi mavjud kamchiliklar va yutuqlar aniqlandi tegishli xulosalar keltirildi. Maqolada ushbu muammo va yutuqlarga alohida to'xtalib o'tildi va natija sifatida namunaviy dasturiy vositalar yaratishda qo'llanildi [2,20].

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Pluginni yaratishda Normal Modifer, ShapeObject, Building Maker komponentalaridan unumli foydalanildi. Ushbu plugin standart parametrlar bilan ishga tushiriladi. Bu esa foydalanuvchiga dasturni birinchi marta ishga tushirganda unda ishlash ko'nikmalarini hali shakllantirmay turib loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini yaratadi. Ushbu parametrlar quyidagilar:

```
global buildingMaker_first_height = 5
global buildingMaker_typical_height = 4
global buildingMaker_last_height = 3
global buildingMaker_num = 10
global buildingMaker_first_inset = 0
global buildingMaker_last_inset = 0
global buildingMaker_roof_enable = false
global buildingMaker_roof_height = 300
global buildingMaker_roof_inset = 1500
global buildingMaker_smooth_enable = false
global buildingMaker_first_matID = 1
global buildingMaker_typical_matID = 2
global buildingMaker_last_matID = 3
global buildingMaker_concrete_matID = 4
global buildingMaker_roof_matID = 5
```

dastur uishga tushirilganda quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi. 1 – rasm.



1 – rasm (shakl yaratuvchi plugini ishchi oynasi).

Pluginni asosiy funksiyalarini ko‘rib chiqaylik.

addmodifier obj (normalModifier())--obyektni modifier paneliga o‘tkazish va uni normal modifier bilan ta’minlash. 3 ds Max dasturining yangi imkoniyatlaridan biri shuki normalmodifer funksiyasi kiritilganidir. Ushbu funksiya chiziqlar bilan ishlashda imkoniyatlarni yanada kuchaytirish uchun qo‘llaniladi.

convertTo obj (Editable_Poly)—obyektni Editeble Poly tizimiga o‘tkazilmoqda. Ushbu tizim modellashtirishda katta imkoniyatlarni ochib beradi. Murakkab obyektlarni yaratishda ushbu tizimdan foydalaniladi. Bu tizim obyektni qirralari, segmenti, yuzasi bo‘yicha hususiyatlarini ochib beradi va ularni parametrlarini avtomatik o‘zgartirish imkoniyatini hosil qiladi.

faceSelection = #{1..(polyOp.getNumFaces obj)}—faceSelection nomi asosida PolyOp prosedurasi yaratilmoqda. Ushbu prosedura NumFaces funksiyasini qo‘llagan holda obyektni segmentlarini o‘stirishga hizmat qiladi.

polyOp.setFaceSelection obj faceSelection

polyOp.setFaceMatID obj faceSelection buildingMaker_first_matID - PolyOp proserurasini building Maker komponentasiga olinmoqda yoki yuklatilmoqda. Ushbu komponenta 3 ds Max kutubxona fayllari ichida yo‘qligi sababli qo‘shimcha tarzda yuklaniladi. Komponentaning ishlatilishi pluginni loyiha maqsadini amalga oshiradi.

```
n selectionHasShape sel =
(result = false
        for i=1 to sel.count do
        (obj = sel[i]
                if shape_filt obj do result = tru    )
        result = result)
        fn shapeIsClosed shapeObj shapeName =
(convertToSplineShape shapeObj
        result = true
        for i=1 to numSplines shapeObj do
        (if not isClosed shapeObj i do
                (result = false
                        messageString = «Spline «+ shapeName +» is open»
                        messageBox messageString title:»Close all splines!»
                        exit))
        if not result do delete shapeObj   res = result   )
rollout buildingMaker_mainRollOut «Shakl yaratuvchi»     (
        fn enableButton =  (if (selection.count >= 1) and (selectionHasShape selection) then buildingMaker_mainRollOut.useSelected.enabled = true else
        buildingMaker_mainRollOut.useSelected.enabled = false
        )pickbutton chooseit «Chiziqni tanlash» width:140 filter:shape_filt
        button useSelected «Tanlanganlarni belgilash» width:140 enabled:((selection.count >= 1) and (selectionHasShape selection))
        on chooseit picked obj do(if obj != undefined do
                (shape_obj = copy obj
                if shapeIsClosed shape_obj obj.name do
                undo «Create Building» on create_building shape_obj))
```

dasturning ushbu matnida VisualMaxScript ning kodlari va ularni asosiy funksiya, proseduralar bilan bog‘lanish usullari berilgan. Sikl peratorlaridan foydalanilganligi sababli massivlar yaratishda qiyinchiliklar tug‘dirmaydi. Umuman olganda massivlardan foydalanish dasturning ishlash tezligini oshiradi hamda sifat darajasini belgilaydi yoki bo‘lmasa maqsadga erishishda juda qulaydir[5, 11].

TAHLIL VA NATIJALAR.

Ushbu plugin faqatgina yopiq chiziqlar uchun ishlashi nazarda tutilgan. Chunki dastur imkoniyatidan kelib chiqqan holda ochiq chiziqlarni hajmga to‘ldirish hech qanday qonuniyatlarga bo‘ysunmaydi. Shuning uchun yopiq chiziqlar asosida modellashtirish muammolari hal etildi.


Pluginni yutuqlari:

1. Buildingmakerdan foydalanilganligi.
2. Massivlarni sikl operatorlari bilan dastur kutubxonasining funksiyalarini bir vaqtda qo‘llanilishi.
3. Pluginni ishlash tezligi yuqorililigi.
4. Modifikatorlardan unumli foydalanganligi.
5. Render vaqtini ozligi.
6. Bir vaqtning o‘zida bir necha komponentalarni birga qo‘llanilishi.
7. Oddiy foydalanish muhitiga ega ekanligi.
8. Materiallareni pluginni o‘zida qismlarga bo‘lib olish mumkinligi.

Pluginni kamchiliklari:

1. Sikl operatorlaridan ko‘p foydalanilganligi.
2. Ayni bir muammoga yo‘naltirilganligi.

Dasturni ishga tushirganimizdan so‘ng quyidagi natijaga ega bo‘lamiz. 2 – rasm.



2 – rasm (shakl yaratuvchi plugini bajarilgan holati).

XULOSA. Olov pluginni kamchiliklariga qaramasdan olov effektiga qartilgan muammo to‘liq hal qilingan. Foydalanuvchi Maxsus bilimlarsiz ham ushbu dasturdan foydalana olishi, yangi tizimlardan foydalanilganligi, render vaqtini qisqaligi gapimizning isboti desak xato qilmaymiz.

Emitterlarning massiv sifatida qo‘llanilganligi MaxScriptning yangi imkoniyatlarini ochib beradi. Materiallarni foydalanuvchi xohishiga qarab o‘zgartirish mumkinligi, loyihani render holatida reallikka yaqinlashishiga yordam beradi. Autodesk 3 ds Max 2011 dasturiy ta’minotidan boshlab PF sourse tizimidan MaxScript yordamida foydalanish imkoniyatlari ko‘rib chiqildi va tahlil qilindi. Ko‘zlangan maqsadga erishildi.

Qoya plugini modellashtirishga qaratilgan muammolarni bir qismini xal etadi. MaxScriptning yangi versiyasining imkoniyatlaridan unumli foydalanilgan. Yangi texnologiyadan foydalanilganligi sababli dasturning ishlash tezli 0,1 soniyani tashkil etgan. Bu esa o‘z navbatida kompyuterning vaqtinchalik xotirasidan oz joy egallashi va dasturning normal ishlashini ta’minlab beradi.

Shakl yaratuvchi plugin modellashtirishdagi ayrim muammolarni hal qiladi. Undan foydalanish esa foydalanuvchiga juda katta qulayliklar yaratadi. Yangi tizimlar kutubxonasidan foydalanish dasturni yangi imkonioyatlarini ochib beradi va bu imkoniyatlar dasturlashning

yangi texnologiyalarini yaratishda keng qo‘laniladi. Obyektlarning ayrim qismlarini yaratishda ushbu plugindan foydalanish foydalanuvchining vaqt sarfini kamaytiradi va ko‘zlagan maqsadiga erishish uchun qulayliklarga ega bo‘ladi yoxud ishlarini yengillashtiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богмаз И.В. Научно-методические основы базовой подготовки студентов инженерно-строительных специальностей в условиях проективно-информационного подхода 13.00.02 – теория и методика обучения и воспитания (информатизация образования). диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Пермь. 2012. 313 стр.

2. Богомаз, И.В., Михайленко Л.П., Кухтецкий С. В., Компьютерный учебник по Т М «Статика» (учебное пособие CD-R -Электронный ресурс) Красноярск, КрасГАСА, /Statika/ HTM, 1998.

3. Shukurov Akmal Uktamovich, “Improving the base training of students of technical osms based on the information design approach”. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, November, 2023. 199-204 p.

4. Akmal Shukurov, “Texnika ixtisosliklari ta’limida axborotlarni loyihalashtirishda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari”. “Ta’lim, fan va innovatsiya”. ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal (2024 yil № 1). 116-119-b.

5. Shukurov Akmal Uktamovich, “ Basic professional rules for students of a higher educational institution in the design of information”. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Germany. February 27 th 2024. 8-14 p.

6. Shukurov A. U, “ Texnika ixtisosliklari otmida loyihali-axborot ta’lim tizimni shakllantirish”. “Ta’limda zamonavty axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash afzalliklari, muammolari va yechimlari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya 2024. 81-86 b.

7. Shukurov A.U. Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. № 10/2. Урганч, 2021. 29-35. http://khorezmscience.uz

8. A.Shukurov. Its features and use in the educational process of web-technologies Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические, 2021. https://www.internauka.org/

9. Келли Л. Мэрдок. Autodesk 3ds Max 6. Библия пользователя. 3D Studio Max 6. М: 2005.

10. Келли Л. Мэрдок. Autodesk 3ds Max 2013. Библия пользователя. 3D Studio Max 6. М: 2013.

11. Autodesk Inc. Язык 3ds Max 8 MaxScript: официальный учебный курс от Autodesk. 3D Studio Max 8. England.2006.

WEB RESURSLARINI YARATISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODIKASI

Shukurov Akmal Uktamovich,
Qarshi davlat texnika universiteti, “Axborot tizimlari va texnologiyalari” kafedrasi dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Normuminov Bekali o‘g‘li,
Qarshi davlat texnika universiteti magistranti,

Annotatsiya: Ushbu maqolada web resurslarini yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar, ularning rivojlanish bosqichlari hamda klassik, CMS va MVC yondashuvlarining funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Web saytlarni yaratishda qo‘llaniladigan texnologiyalar solishtirilib, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlangan. Shuningdek, zamonaviy web texnologiyalar asosida samarali, xavfsiz va moslashuvchan web resurslar yaratish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Web resurs, HTML, CSS, PHP, CMS, MVC, Framework, web texnologiyalar, axborot tizimlari, dasturlash, ma’lumotlar ombori, internet, loyiha.

МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ПРИ СОЗДАНИИ ВЕБ-РЕСУРСОВ

Шукуров Акмал Уктамович,
Кандидат педагогических наук, доцент кафедры информационных систем и технологий Каршинского государственного технического университета.

Нормуминов Бекали угли,
Магистрант Каршинского государственного технического университета

Абстрактный: В статье рассматриваются технологии, используемые при создании web-ресурсов, этапы их развития, а также функциональные возможности классического, CMS и MVC-подходов. Проведен анализ и сравнение технологий разработки web-сайтов, выявлены их преимущества и недостатки. Кроме того, освещены вопросы создания эффективных, безопасных и адаптивных web-ресурсов на основе современных web-технологий.

Ключевые слова: web-ресурс, HTML, CSS, PHP, CMS, MVC, Framework, web-технологии, информационные системы, программирование, базы данных, интернет, проект.

METHODOLOGY OF USING MODERN TECHNOLOGIES IN THE CREATION OF WEB RESOURCES

Shukurov Akmal Uktamovich,
PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor at the Department of Information Systems and Technologies, Karshi State Technical University.

Normuminov Bekali o‘g‘li,
Master’s student of Karshi State Technical University,

Abstract: The article examines technologies used in the creation of web resources. The stages of development of web technologies, as well as the functional capabilities of classical, CMS, and MVC approaches are analyzed. A comparative analysis of web site development technologies is carried out, their advantages and disadvantages are identified. The use of modern web technologies allows the creation of efficient, secure, and flexible web resources, reducing development time and improving system performance.

Key words: web resource, HTML, CSS, PHP, CMS, MVC, framework, web technologies, information systems, programming, databases, internet, project.

KIRISH: Hozirgi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida, xususan ta'lim, ilm-fan, sanoat, biznes va davlat boshqaruvi tizimlarida web resurslarga bo'lgan ehtiyojni keskin oshirmoqda. Internet tarmog'i global axborot almashinuvi muhiti sifatida shakllanib, web resurslar axborotni tezkor yetkazish, qayta ishlash va saqlashning muhim vositasiga aylanmoqda. Shu sababli web resurslarini yaratishda foydalaniladigan texnologiyalarni chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlarini tahlil qilish va amaliyotda samarali qo'llash dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri hisoblanadi.

Web texnologiyalar dastlab statik axborot sahifalarini yaratishga mo'ljallangan bo'lib, vaqt o'tishi bilan foydalanuvchilar talablarining ortishi natijasida ularning funksional imkoniyatlari kengayib bordi. Dastlab HTML va CSS asosida yaratilgan statik web sahifalar o'zining soddaligi bilan ajralib turgan bo'lsa-da, interaktivlik, ma'lumotlar bilan ishlash va foydalanuvchi bilan muloqot qilish imkoniyatlarining cheklanganligi sababli zamonaviy talablarni to'liq qondira olmadi. Natijada server tomonida ishlovchi dasturlash tillari, ma'lumotlar ombori boshqaruv tizimlari hamda mijoz tomonida ishlovchi texnologiyalarni birlashtirgan dinamik web resurslar paydo bo'ldi.

Web resurslarini yaratishda klassik texnologiyalar bilan bir qatorda, mazmunni boshqarish tizimlari (CMS) va model–view–controller (MVC) yondashuviga asoslangan zamonaviy texnologiyalar keng qo'llanilmoqda. CMS texnologiyalari foydalanuvchiga dasturlash bilimlarisiz web sayt yaratish imkonini bergani holda, MVC texnologiyalari murakkab va yirik loyihalarni ishlab chiqishda yuqori xavfsizlik, moslashuvchanlik va kengaytiriluvchanlikni ta'minlaydi. Ushbu texnologiyalarni to'g'ri tanlash web loyihaning samaradorligi, ishlash tezligi hamda axborot xavfsizligini belgilovchi muhim omil hisoblanadi[1.14].

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Web texnologiyalarni rivojlantirish va ularni amaliyotga tatbiq etish masalalari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan o'rganilgan. Tadqiqotlar natijasida klassik texnologiyalarning cheklangan imkoniyatlari, CMS tizimlarining qulayligi hamda MVC texnologiyalarining yuqori samaradorligi aniqlangan. Ushbu maqolada mavjud ilmiy manbalar asosida web texnologiyalar evolyutsiyasi tizimli tahlil qilindi[2.8].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Global onlayn olamining axborotlar ta'minotchisi sifatida axborot ta'lim tarmoqlari, elektron taxririyatlar, ilmiy portallar, elektron pochtalar, qidiruv tizimlari va shunga o'xshash boshqa onlayn komponentlar xizmat qilmoqda. Bilamizki, insonlarning ehtiyoji cheksizdir. Xusasan, insonlarning AKT olamidagi extiyojlarini qondirish maqsadida global-onlayn tizimlarining turli tiplari yaratilmoqda. Onlayn rejimida ishlaydigan tizimlarning asosiy qismlarini Web resurslari tashkil etadi.


1990 yillarga qadar Web resurslarning 90%i klassik texnologiya asosida tashkil etilar edi. Klassik texnologiya asosida yaratilgan sayt statik va dinamik turlarda bo'ladi. Statik sayt faqatgina HTML belgilash tili va CSS qoidalari asosida yaratiladi. Statik saytlarni yaratishda saytning hech qanday qismida dasturlash kodlari ishlatilmaydi. CSS qoidalari esa saytning dizaynini bezash uchun xizmat qiladi. Dinamik turdagi saytlarni yaratishda HTML belgilash tili va CSS qoidalaridan tashqari albatta Web saytlarni yaratishga mo'ljallangan dasturlash tillaridan hamda ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlaridan foydalaniladi. Qaysi dasturlash tilidan foydalanish dasturchining bilimi va qobiliyatiga bog'liq.

Bunday dasturlash tillariga quyidagilar kiradi: PHP, ASP, JSP, Perl, Python, Ruby. Ma'lumotlar omborini turini tanlash dasturchi bilimidan tashqari dasturlash tili bilan ishlay olish qobiliyatini hisobga olish kerak. Web saytlarni yaratishda quyidagi ma'lumotlar omboridan foydalanish

mumkin: MySQL, MySQLi, MSSQL, PostargeSQL, Oracle. Web saytlarni klassik texnologiya asosida yaratishda PHP (ASP, JSP, Perl, Python, Ruby) dasturlash tili, HTML belgilash tili, CSS usullari hamda MySQL (MySQLi, MSSQL, PostargeSQL, Oracle) ma’lumotlar omboridan tashqari JavaScript tili, AJAX va jQuery texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Bu esa yaratilayotgan har bir loyiha uchun alohida loyihaga mos ravishda dastur tuzib chiqishga olib keladi. Bu yo‘sinda ish olib natijasida loyihani foydalanuvchilar uchun taqdim etishga ko‘p vaqt sarf etiladi[1.19].

Klassik texnologiya asosida sayt yaratilganda har bir sahifa strukturasi alohida hamda tartiblanmagan holatda bo‘ladi. Chunki, saytning sahifalar obyektlari va elementlari bir xil tartibda joylashmaydi. Bilamizki, maqolalar va yangiliklar bilan aloqador bo‘lgan sahifalarning tuzilmasi bir xil bo‘ladi. Bu ikki turdagi resurslarning har ikkimida ham barchasini ko‘rish, to‘liq ko‘rish va kiritish kabi tuzilmaga ega bo‘ladi. Mazkur texnologiya orqali shunga o‘xshash sahifalarda muammo bo‘lmaydi, biroq har xil joylashuvga ega sahifalarni yaratishda, ayniqsa boshqaruv panelining bo‘limlarini yaratish uchun kishidan ham vaqt ham bilim talab qiladi. Ushbu texnologiya sayt yaratishda dasturlash tillaridan foydalanmagan holatda Web sayt yaratish mumkin. Bu holatda HTML belgilash tili va CSS usullaridan foydalaniladi. Bu ikki turdagi vosita yordamida yaratilgan sayt statik turdagi sayt hisoblanadi. Bilamizki, statik turdagi Web saytlarda ma’lumotlar Web sayt sahifalarida saqlanadi ya’ni bu turdagi Web saytda ma’lumotlar ombori mavjud bo‘lmaydi. Sahiflarni bir-biriga bog‘lashda esa HTML belgilash tilining … tegidan foydalaniladi. Bu holatda Web sayt necha sahifadan iborat bo‘lishligi sayt bo‘limlari soniga bog‘liq bo‘ladi. Statik turdagi saytlarda boshqaruv paneli bo‘lmaydi.

Bu turdagi Web saytlarda boshqaruv paneli mavjud bo‘ladi. Hamma jarayonlarni boshqaruv paneli orqali nazorat qilinadi. PHP va MySQL vositalari yordamida saytning ixtiyoriy moduli va komponentini yaratish va va ularni nazorat qilish mumkin. Klassik texnologiya asosidagi Web sayt sahifalarining strukturasi 1.1-rasmda keltirilgan bo‘lib, rasmdan ko‘rinib turibdiki bo‘limlar va sahifalar soni ortgan sari saytni yaratish murakkablashib boradi.




1.1-rasm. Klassik texnologiyaning strukturasi.

Bu texnologiyaning yutuqlari sifatida saytga kerakli bo‘lgan ixtiyoriy turdagi komponentlarni yaratish mumkinligini, saytning vazifasiga qarab sayt tuzilmasini yaratish, xotiradan kam joy egallashi, o‘rganish soddaligini aytish mumkin.

Hozirgi kunga kelib Web resurslar klassik texnologiya asosida emas balki, yangi zamonaviy texnologiyalar bo‘lgan CMS yoki MVC texnologiyalar asosida yaratilmoqda. Web saytlarni yaratish texnologiyalari bosqichma-bosqich ravishda rivojlanib kelmoqda. Hozirgi kunda Web saytlarni yaratishda eng zamonaviy texnologiyalar sifatida CMS yoki MVC (FrameWork)

texnologiyalari tan olingan. Ularning rivojlanish evolyutsiyasi 1.2-rasmda keltirilgan.



1.2-rasm. Saytlarni yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar evolyutsiyasi.

CMS (Control Manager System) bu – ingliz tilidan, boshqaruv tizimini nazorat qilish ma'nosini anglatadi. CMS texnologiyasi bu yaxlit tizim bo'lib, uning yordamida Web resurs yaratish uchun hech qanday dasturchilik qobiliyati talab etilmaydi. Bu texnologiyadan foydalanish jarayonida muallif hech qanday dasturlash kodlariga ro'baro kelmaydi. Shu sababli bu texnologiyadan foydalanib sayt yaratuvchilar soni ko'p hajmni tashkil etadi. CMS texnologiyasi turli tarmoqlar bo'yicha yaratilib, internet tarmog'i orqali tarqatilmoqda.

Barcha CMS tizimlarini qo'llanilish tarmog'iga qarab tanlab olish kerak bo'ladi. Hozirgi kunda Web resurslarini yaratishda quyidagi CMS texnologiyalaridan foydalanib kelinmoqda:

1S-Bitriks, 4images, ABO.CMS, Amiro.CMS, Atilekt, B2evolution, BIGACE, CMS Made Simple, CMSimple, Concrete5, Contao, Coppermine Photo Gallery, Cotonti, DataLife Engine, Danneo, DotNetNuke, Drupal, E107 CMS, e2, eZ publish, HostCMS, InSales, Joomla!, Kentico CMS, MODX, Magento, Mambo Open Source, MediaWiki, Movable Type, NetCat CMS, Newscoop, Novius OS, Nucleus CMS, OpenCms, PHP-Fusion, PHP-Nuke, Plone, Prestashop, Qwerty-CMS, S.Builder, Sapid, Setup.ru, SharePoint, Sitecore Web CMS, Site Sapiens, Live Street CMS, InstantCMS, Drupal, Word Press, Joomla, TYPO3, Textpattern, TikiWiki, uCoz, UMI. CMS, Open Cart, W-script, WikkaWiki, WordPress, XOOPS, Xaraya, Zikula, Zotonic[9-204].

TAHLIL VA NATIJALAR

CMS texnologiyalari quyidagi asosiy funksiyalarni bajaradi:

- Tizim uskunalarini loyihaga mos holda tavsiflash;
- Tizmini quyidagi parametrlar asosida boshqarish: ma'lumotlar saqlash, versiyalariga moslash, kirish huquqini nazorat qilish, hujjatlarni boshqarish va boshqalar;
- Tizim sahifalari va ma'lumotlarini nashr etish;
- Ma'lumotlarni sahiflash va qidirib topish uchun qulay ravishda tavsif etilishi

Ko'plab dasturchilar ham bu texnologiyadan foydalanishning yana bir sababi Web tizimlarni yaratishda foydalanuvchilar uchun shaxsiy kabinet, boshqaruv paneli, yangiliklar katalogi, forum va tijorat savati (korzina) kabi komponentlarni yaratilish murakkab hisoblanadi.

CMS yoki MVC texnologiyalar asosida Web sayt yaratishda u yoki bu texnologiyada bo'lmasin avvalo mazkur tizimning tayanch fayllarini ko'chirib olish kerak bo'ladi. Har bir yaratilayotgan sayt uchun ko'chirib olingan tayanch fayllaridan foydalaniladi.

CMS texnologiyalari foydalanish turiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- Qutili CMS texnologiyalari;
- Erkin CMS texnologiyalari;
- Shaxsiy CMS texnologiyalari;
- Savdo sotiq CMS texnologiyalari;
- Bepul CMS texnologiyalari;

- Pulli CMS texnologiyalari;

Yuqoridagi CMS texnologiyalari turlari asosida ma’lum sohaga tegishli bo‘lgan Web saytlar yaratiladi. CMS texnologiyalari asosida ma’lum turdagi loyihalarni yaratish mumkinligini inobatga olgan holda bu tizimlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

Korporativ sayt
Reklama-sayt
Internet-magazin
Portallar va xizmatlar
Blog
Ijtimoiy tarmoqlar

2026 yilga kelib web resurslarini yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar yanada takomillashib, ularning qo‘llanilish sohasi sezilarli darajada kengaydi. So‘nggi yillarda o‘tkazilgan statistik va tahliliy ma’lumotlarga ko‘ra, CMS texnologiyalar asosida yaratilgan web saytlar soni hanuz yuqori ko‘rsatkichlarni egallab kelmoqda. Xususan, quyidagi yo‘nalishlarda CMS asosidagi web loyihalar ulushi quyidagi sohalarda yuqori bo‘lib qolmoqda:

- avto va moto sohasi,
- ko‘rgazmalar va konferensiyalar,
- shaharlar va mamlakatlar haqida axborot portallari,
- reklama va dizayn,
- uy va oila mavzularidagi resurslar,
- kataloglar va reyting tizimlari,
- qidiruvga yo‘naltirilgan saytlar,
- kompyuter va internetga oid axborot resurslari,
- konsalting xizmatlari,
- madaniyat va san’at hamda mebel va interyer yo‘nalishidagi web loyihalar.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, CMS texnologiyalarini tanlashda loyiha vazifasi va funksional talablarini inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Har bir CMS tizimi ma’lum bir sohaga moslashgan bo‘lib, uni noto‘g‘ri tanlash web resursning samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masofaviy ta’lim tizimlarini yaratishda Moodle platformasi eng samarali yechimlardan biri bo‘lib, u masofaviy ta’limning barcha didaktik va texnik talablarini to‘liq qondiradi.

Sodda strukturaga ega bo‘lgan bloglar, tashkilot va muassasalarning rasmiy web saytlarida hamda elektron nashriyot xarakteridagi resurslarni yaratishda ko‘plab CMS tizimlaridan foydalanish mumkin. Biroq 2026 yil holatiga ko‘ra, xosting resurslaridan oqilona foydalanish va tizim yuklamasini kamaytirish maqsadida yengil va optimallashtirilgan CMS tizimlarini tanlash tavsiya etiladi.

Internet texnologiyalarining rivojlanishi bilan web sohasida raqobat ham keskin ortib bormoqda. Raqobat natijasida web texnologiyalar doimiy ravishda takomillashib, foydalanuvchilar soni ham oshib bormoqda. 2026 yilga kelib CMS texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha reyting natijalari turli xalqaro monitoring va tahliliy platformalar orqali aniqlanib, ularning samaradorligi, xavfsizlik darajasi va moslashuvchanligi asosiy mezon sifatida baholanmoqda.

MVC texnologiyasi (Model–View–Controller) web resurslar yaratish uchun mo‘ljallangan zamonaviy dasturiy kutubxonalar tizimi bo‘lib, u klassik va CMS texnologiyalariga nisbatan ishonchli va samarali hisoblanadi. 2026 yil holatiga ko‘ra, MVC texnologiyasiga asoslangan Laravel, Symfony, Yii, CodeIgniter, Spring va boshqa frameworklar web dasturlashda eng keng qo‘llanilayotgan yechimlar sirasiga kiradi. [5.3].

XULOSA: Web resurslarini yaratishda foydalaniladigan texnologiyalar zamonaviy axborot jamiyatining ajralmas qismi bo‘lib, ularning to‘g‘ri tanlanishi va samarali qo‘llanilishi web loyihalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini ta’minlaydi. Tadqiqot jarayonida web texnologiyalarning rivojlanish bosqichlari, xususan klassik, CMS va MVC yondashuvlarining

funksional imkoniyatlari chuqur tahlil qilindi hamda ularning o‘ziga xos afzallik va kamchiliklari aniqlab berildi.

Tadqiqot natijalari web resurslarini yaratishda texnologiya tanlash jarayonida loyiha vazifalari, foydalanuvchilar soni, axborot xavfsizligi darajasi va tizimni kelajakda rivojlantirish imkoniyatlarini inobatga olish zarurligini ko‘rsatdi. Shuningdek, zamonaviy web texnologiyalardan foydalanish dasturiy ta’minot ishlab chiqish jarayonini optimallashtirib, vaqt va resurslar sarfini kamaytirishga xizmat qiladi[6.11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Богмаз И.В. Научно-методические основы базовой подготовки студентов инженерно-строительных специальностей в условиях проективно-информационного подхода 13.00.02 – теория и методика обучения и воспитания (информатизация образования). диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. Пермь. 2012. 313 стр.

2. Богомаз, И.В., Михайленко Л.П., Кухтецкий С. В., Компьютерный учебник по Т М «Статика» (учебное пособие CD-R -Электронный ресурс) Красноярск, КрасГАСА, /Statika/ HTM, 1998.

3. Shukurov Akmal Uktamovich, “Improving the base training of students of technical osms based on the information design approach”. American Journal of Pedagogical and Educational Research. Volume 18, November, 2023. 199-204 p.

4. Akmal Shukurov, “Texnika ixtisosliklari ta’limida axborotlarni loyihalashtirishda axborot texnologiyalari fanini o‘qitishning zamonaviy metodlari”. “Ta’lim, fan va innovatsiya”. ma’naviy-ma’rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal (2024 yil № 1). 116-119-b.

5. Shukurov Akmal Uktamovich, “ Basic professional rules for students of a higher educational institution in the design of information”. International Conference on Research in Humanities, Applied Sciences and Education. Germany. February 27 th 2024. 8-14 p.

6. Shukurov A. U, “ Texnika ixtisosliklari otmida loyihali-axborot ta’lim tizimni shakllantirish”. “Ta’limda zamonavty axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash afzalliklari, muammolari va yechimlari”. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya 2024. 81-86 b.

7. Shukurov A.U. Didactic opportunities for the introduction of cloud technologies // Electronic journal of actual problems of modern science, education and training. № 10/2. Урганч, 2021. 29-35. http://khorezmscience.uz

8. A.Shukurov. Its features and use in the educational process of web-technologies Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические, 2021. https://www.internauka.org/

9. WordPress Foundation. WordPress Codex and Developer Resources. WordPress.org, 2023.

10. 8. Zend Technologies. Zend Framework Documentation. Zend Technologies Ltd., 2022.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

ROK MUSIQASI VA UNING INSON SALOMATLIGIGA TA’SIRI MUAMMOSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASPEKTLARI

Kurbanova Mohigul Shaniyazovna
Qarshi davlat universiteti, musiqiy ta’lim kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Maqolada rok musiqasi, inson salomatligi va uning bola rivojlanishidagi tasiri haqida ilmiy fikrlar asosli yoritib berilgan. Musiqa nafaqat tinglashni, balki eshitishni, nafaqat qarashni, balki ko‘rishni va eshitishni, his qilishni ham o‘rgatishi maqolada qiziq faktlar bilan yoritilgan. Shuningdek, musiqa ritmiga muvofiq birin-ketin keladigan yorug‘lik chaqnashlari gallyusinasiyalar, bosh aylanishi va ko‘ngil aynish bilan bog‘liq mexanizmlarni asoslangan.

Bundan tashqari, musiqiy talim, aqliy rivojlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirishi, xotirani rivojlantirishi, sokin ritmik musiqa yangi tug‘ilgan chaqaloqni tinchlantirishi mumkinligi, ammo uzoq vaqt tinglash miyada doimiy qo‘zg‘alish jarayonini hosil qilishi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: рок, giperfrekanslar, superchastotalar, monoton, chastota, shaman, Rok-konsert.

ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРОБЛЕМЫ РОК-МУЗЫКИ И ЕЕ ВЛИЯНИЯ НА ЗДОРОВЬЕ ЧЕЛОВЕКА

Курбанову Мохигул Шаниязовну
Доцент кафедры музыкального образования
Каршинского государственного университета

Аннотация. В статье обоснованно освещены научные взгляды на рок-музыку, здоровье человека и его влияние на развитие ребенка. В статье освещаются интересные факты о том, что музыка учит не только слушать, но и слышать, не только смотреть, но и видеть, слышать и чувствовать. Также обоснованы механизмы, связанные с последовательными вспышками света, галлюцинациями, головокружением и тошнотой в соответствии с музыкальным ритмом.

Кроме того, подчеркивается, что музыкальное образование способствует умственному развитию и развитию мыслительных способностей, развивает память, спокойная ритмическая музыка может успокоить новорожденного, но длительное прослушивание создает постоянный процесс возбуждения в мозге.

Ключевые слова: рок, гиперчастоты, сверхчастоты, монотон, частота, шаман, рок-концерт.

PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE PROBLEM OF ROCK MUSIC AND ITS IMPACT ON HUMAN HEALTH

Kurbanova Mokhigul Shaniyazovna
Associate Professor of the Department of Music Education,
Karshi State University

Abstract. The article substantiates scientific views on rock music, human health, and its impact on child development. The article highlights interesting facts that music teaches not only to listen but also to hear, not only to look but also to see, hear, and feel. Also, the mechanisms associated with hallucinations, dizziness, and nausea in light flashes, which follow one after another in accordance with the rhythm of the music, are substantiated.

In addition, it is highlighted that musical education develops mental development and thinking

abilities, develops memory, calm rhythmic music can calm a newborn, but prolonged listening creates a constant process of excitation in the brain.

Keywords: rock, hyperfrequencies, super frequencies, monotone, frequency, shaman, rock concert.

Kirish. Musiqadagi barcha yo‘nalishlar ham inson tanasiga foydali tasir ko‘rsatmasligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Zamonaviy rok musiqasi ko‘pincha ruxiyatga salbiy tasir ko‘rsatadigan misol sifatida keltiriladi. Ushbu mashhur uslub o‘ziga xos xususiyatlarga ega, yani kuchli ritm, monoton takrorlashlar, ovoz balandligi, giperfrekanslar - superchastotalar va yorug‘lik effektlari. Ular bizning tanamizga ijobiy tasir qilmaydi; ritm, odatda, insonga tasir qilishning eng kuchli vositasidir. Qadim zamonlarda ham shamanlar o‘zlarining asboblarida uradigan malum musiqiy ritmlar yordamida insonni ichki dunyosini o‘zgartirishi yoki unda yuqori darajadagi xursandchilik holatiga erishishlari mumkin edi.

Nima uchun bu sodir bo‘ladi? Bu bizning eshitish apparatimizning funksiyalari bilan bog‘liq. Ritm miyaning motor markazini ushlaydi, endokrin tizimning ayrim funksiyalarini rag‘batlantiradi. Ammo eng kuchli zarba miyaning inson jinsiy funksiyalari bilan bog‘liq joylariga tushadi. Masalan, baraban chalish o‘zini jazavaga solish uchun ishlatilgan. Ritmni xis qilish, fikrlash va mantiqqa tasir qilishi mumkin. Bundan tashqari, ularning to‘liq zararsizlanishiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Zamonaviy rok musiqasi miyaga alohida tasir ko‘rsatadigan chastotalardan foydalanadi. Bu bizning eshitish apparatimizning funksiyalari bilan bog‘liq. Siz hatto ularning to‘liq neytrallanganligiga ishonch hosil qilishingiz mumkin. Zamonaviy rok musiqasi miyaga alohida tasir ko‘rsatadigan chastotalardan foydalanadi. Ritm giyohvandlik xususiyatiga ega bo‘ladi, chunki u 50-30 Gs ultra past chastotalar va 80 ming Gs gacha bo‘lgan ultra yuqori chastotalar bilan birlashtirilgan. Ultra past chastotalar bilan birga sekundiga bir yarim zarbaning ko‘paytmasi bo‘lgan ritm yuqori darajadagi quvonch, zavq, ilhom, shodlik, g‘ayrioddiy hayajonli baxtni keltirib chiqarishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Mixail Lazarev, pediatr, bolalar reabilitasiya davolash markazi direktori musiqaning homilador ayollarga tasirini tasvirlaydi: klassik musiqa homilaning suyak tuzilishi, qalqonsimon bez shakllanishiga ajoyib tasir ko‘rsatadi va ichki organlarni massaj qiladi, chuqurlikka eltadi, to‘qimalar, ulardagi qon aylanishini rag‘batlantiradi. Lazarev boshchiligidagi markaz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, musiqiy tebranishlar butun tanaga tasir qiladi. Shunga o‘xshash holat ikki mashhur yaponiyalik: Masaru Ibuka, dunyoga mashhur Soni kompaniyasi prezidenti va ajoyib musiqa o‘qituvchisi-skripkachi Shinichi Suzuki tomonidan kuzatilgan va qabul qilingan. Ular Tokioda “Bolalarning erta ijodiy rivojlanishi markazi”ni tashkil etishdi. U erda Ibuka homilador onalar bilan ishladi, ularga homiladorlikning so‘nggi oylarida tinglash uchun uyg‘un musiqa berdi. Keyin o‘qituvchilar allaqachon tug‘ilgan bolalar bilan 2 yoshgacha maxsus dastur bo‘yicha ishladilar va 2 yoshidan boshlab Suzukiga kelishdi va u yerda skripkada ansambl jo‘rligida musiqa chalishni o‘rganishdi. Hamfikr ishbilarmonlar va musiqachilarning ajoyib kashfiyoti bolalar rivojlanishida ajoyib natijalar berdi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Bir xil chastotada sekundiga ikkita zarbaga teng bo‘lgan ritm odamni qandaydir raqs transiga soladi. Yuqori va past chastotalarning haddan tashqari ko‘pligi miyaga shikast etkazadi. Rok-kontsertlarda miya chayqalishi, ovoz xastalanishi, eshitish va hatto xotirani yo‘qotish holatlari bo‘lgan. Rok musiqasi, butun kuchiga qaramay, monoton, motorga o‘xshash tovushlar toifasiga kiradi, qaysikim, tinglovchilar passiv holatga tushishini sezadilar. Va qanchalik tez-tez tinglansa passivlik holatiga erishish qobiliyati shunchalik yuqori bo‘ladi. Keyingi holat ovoz balandligi omilidir. Bizning qulog‘imiz 50-60 db tovushni yaxshi qabul qiladi. 70 db tovush baland deb hisoblanadi. Rok-konsertlar paytida asbob-uskunalar va karnaylar o‘rnatilgan joyda ovoz balandligi 120 db, maydonning o‘rtasida esa 160 db (aytish kerakki, 120 db - bu reaktiv samolyotning

shovqini)

Xo‘sh, inson tanasida nima bo‘ladi? Buyrak usti bezlari stress gormoni adrenalinni chiqaradi. Ammo stimulning tasiri to‘xtamagani uchun adrenalin ishlab chiqarish ham to‘xtamaydi. Va u, adrenalin, miyada muhrlangan malumotlarning bir qismini o‘chiradi. Inson o‘zi bilan nima sodir bo‘lganini yoki o‘rgangan narsasini unutadi, yani ruhiy jihatdan tanazzulga yuz tutadi. Yorug‘lik effekti kabi rok-kontsertlarning ajralmas atributi zararsiz emas - vaqti-vaqti bilan qorong‘ulikni turli yo‘nalishlarda kesadigan va turli xil ko‘rinishlarga ega bo‘lgan nurlar. Hamma uchun bu shunchaki kontsert uchun bezak. Bu aslida nima? Baland musiqa bilan birga yorug‘lik va zulmatning malum bir almashinuvi vizual yo‘nalishni sezilarli darajada zaiflashtiradi va reaksiya tezligi pasayadi.

Musiqa ritmiga muvofiq birin-ketin keladigan yorug‘lik chaqnashlari gallyusinasiyalar, bosh aylanishi va ko‘ngil aynish bilan bog‘liq mexanizmlarni rag‘batlantiradi. Uzoq vaqt davomida shifokorlar, psixologlar, olimlar rok musiqasining ritmi va tovush chastotasi, yorug‘lik va zulmatning almashinishi - bularning barchasi insonning ruhiyatini salbiy tomonga o‘zgartiradi deb aytishadi. Yana shuni takidlash joizki, bugungi kunda rok musiqasining mish-mishlaridan tasirlanmagan odamlar kam. Rok musiqasi insonning dunyoqarash namunalarini nomlaydi, qanday kiyinish, qanday fikrlash kerakligini ko‘rsatadi... Odamlar kunduzdan kechaga bu qolip ostida zaif yashaydilar... Bu musiqa inson hayotining motor markaziga, hissiy, intellektual va jinsiy sohalariga tasir qiladi. Tadqiqot natijasida rok musiqasiga uzoq vaqt tasir qilish natijasida quyidagi holatlar yuzaga kelishi mumkinligi aniqlandi: g‘azablanish, o‘z joniga qasd qilish; mushaklarning ixtiyorsiz harakati; konsentrasiyaning yo‘qligi va aniq qarorlar qabul qilish qobiliyati zaifligi; rok musiqasining doimiy ovoziga intilish; ijtimoiy begonalashuv.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Bolada esa musiqani his qilishi va unga munosabat bildirishi uzoq vaqtdan beri malum. Bu odamning eshitish kranial nervlari va miyaning tovushlarni idrok etish va eslab qolish qobiliyati bilan bog‘liq. Savol tug‘iladi, bu qobiliyat qaysi yoshda paydo bo‘ladi? Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, chaqaloq tug‘ilishidan oldin so‘nggi uch oy ichida bu biologik tizim allaqachon mavjud. Bugungi kunda bolalar musiqa, ritm, tovush kuchi, baland va past notalarni his qilish qobiliyatiga ega ekanligini bilamiz. Homiladorlikning qaysi haftasida homila tovushlarni ajrata boshlaydi? U tashqaridan tovushlarni eshita oladimi? U musiqa va boshqa tovushlarga qanday munosabatda bo‘ladi? Yangi tug‘ilgan chaqaloqning onasi tomonidan homiladorlik paytida musiqa tinglash uning keyingi rivojlanishiga qanday tasir qiladi? Ushbu muammolarning o‘ziga xos tadqiqotlari eshitish tizimlari homiladorlikning yigirma oltinchi haftasidan boshlab homila miyasida ishlay boshlaydi degan xulosaga keldi. U, birinchi navbatda, onaning tanasining tovushini sezadi, bachadondagi tashqi tovushlar eshitilmaydi, bola onaning tanasi tomonidan himoyalangan. Shunga qaramay, Betxovenning beshinchi simfoniyasi, masalan, bu to‘siqdan o‘tib ketadi - bola unga tana harakatlari va yurak urishining tezlashishi bilan munosabatda bo‘ladi.

Ko‘pgina tovushlar, aksincha, yurak urishini sekinlashtiradi - bu ohangdor, silliq musiqa. Baland ritmik tovushlar yurak urishini tezlashtiradi. Shunday qilib, tovushlar, bir tomondan, homilaning motor faolligiga hissa qo‘shadi, ikkinchidan, tug‘ilishdan oldin uning atrofidagi dunyo haqida bazi malumotlarni olish imkonini beradi. Tug‘ilishdan oldin eshitilgan musiqa bolaning tug‘ilgandan keyingi hayotiga qanday tasir qilishini tushunish uchun biz eslash qobiliyati qanchalik rivojlanganligini aniqlashimiz kerak. Ko‘pgina tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, tug‘ilishdan oldin eshitilgan musiqa bolaning rivojlanishini tezlashtiradi va muayyan rivojlanish muammolarini yengishga yordam beradi. Homiladorlikning yigirma sakkizinchi-o‘ttiz oltinchi haftalarida musiqa tinglagan onalarning bolalari tovushlarga javob berishni va ohanglarni boshqalarga qaraganda tezroq taniydilar. Ular yaxshi rivojlangan xotiraga ega.

Malumki, bola, hatto ona qornida bo‘lsa ham, turli musiqalarga turlicha munosabatda bo‘ladi. Olimlar embrionning miyasida bolaning miyasining aqliy salohiyatini sezilarli darajada oshiradigan

maxsus hujayralar mavjudligini aniqladilar. Biroq, bu hujayralar malum stimulyatsiyani talab qiladi va malum bo‘lishicha, uyg‘un musiqa ular uchun ajoyib stimulyatordir.

Ularning vazifasi har qanday hayotiy vaziyatlarga osongina moslasha oladigan, hayotdan zavqlana oladigan va hayotda tanlagan faoliyatda muvaffaqiyat qozonadigan barkamol shaxsni tarbiyalash edi. Musiqa darslari bolalarning aql-zakovatini oshiradi, ularning matematik va fazoviy tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Buni Toronto universiteti olimlari musiqaning aqlga tasiri nuqtai nazaridan «sinovdan» so‘ng aytishdi. Bir qator tajribalarga ko‘ra, bu manoda eng samaralisi klaviatura asboblari va vokal bilan shug‘ullanishdir. Kanadalik olimlarning fikricha, musiqaning bolalarga intellektual rag‘batlantiruvchi tasiri kamida 5 yil davom etadi.

Musiqiy talim, bir tomondan, aqliy rivojlanish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, xotirani rivojlantiradi. Bu fan tomonidan tasdiqlangan. Sokin ritmik musiqa yangi tug‘ilgan chaqaloqni tinchlantirishi mumkin, ammo uzoq vaqt tinglash miyada doimiy qo‘zg‘alish jarayonini hosil qiladi, u keyingi safar tinglanganda faollashadi. Musiqa bilan shug‘ullanadigan bolalar o‘quv materialni musiqa bilan shug‘ullanmagan bolalarga qaraganda yaxshiroq va tezroq eslab qolishadi. Musiqa ta’limi, o‘z navbatida, nafaqat ongni rivojlantiradi, balki hissiyotlarni tarbiyalaydi, bolaning ma’naviy salomatligini mustahkamlaydi, oilada, ota-ona va farzandlar o‘rtasida iliq, ishonchli munosabatlarni shakllantirishga yordam beradi.

So‘nggi paytlarda kamdan-kam ota-onalar farzandlarining musiqiy talimi haqida o‘ylashmoqda. Ota-onalar bolaga hayotda foydali bo‘ladigan bilimlarni berish kerak, deb hisoblashadi. Yo‘naltirilgan talim bugungi kunda juda dolzarb. Agar bola tarjimon bo‘lmoqchi bo‘lsa, tillarni o‘rganishi, tarixni o‘rganishi lozimligi aniq. Hayot ota-onalarni farzandlariga to‘g‘ri kasb - moddiy farovonlikka olib keladigan eng qisqa yo‘l va bu asosiy narsa ekanligi haqidagi g‘oyani singdirishga majbur qiladi. Haqiqatan ham, nima uchun ota-onalarni ham, kichkina maestroni ham charchatadigan musiqiy mashqlarga vaqt sarflash kerak? Tanlangan asbob pianino bo‘lsa ham yaxshi.

Biroq, bolalarni cholg‘u asboblarini chalishni o‘rgatishning dastlabki bosqichi olib keladigan barcha noqulayliklarga qaramay, ota-onalarning oldingi avlodlari o‘z farzandlariga musiqiy talim berishga harakat qilishdi. Ilgari har bir olijanob oilada bolalarga raqs, ot minish, xattotlik, chet tillari, qilichbozlik, cholg‘u asboblarida chalish, qo‘shiq aytish o‘rgatilgan. Professional bastakorlar emas, balki bilimdon odamlar tomonidan yozilgan asarlar, masalan, rus diplomati A. S. Griboedov, diplomatik va adabiy faoliyati bilan bir qatorda bir qator ajoyib musiqa asarlarini yaratgan. Musiqa maktablarida katta tanlov bo‘lib, ayniqsa, iqtidorli bolalarni qabul qilishardi... Maktabga qabul qilinmaganlar ko‘plab xususiy o‘qituvchilarga tashrif buyurishdi va bir yil o‘tgach, oilaviy bayramlarda ular Glinkaning “Polka”sini va Oginskiyning “Polonezi”ni ijro etishdi. Musiqa darslari nafaqat bolalarning tinimsiz mehnati, irodali sa’y-harakatlarini, balki ota-onaning katta sabr-toqatini ham talab qilar ekan, ulardan bir nechtasigina kasb egasi bo‘lib yetishdi, ammo baribir hammasini yoki deyarli barchasini o‘rgatib, zarur deb bildi.

Musiqa odamni yanada xushmuomala qiladi, chunki asarni ijro etayotganda, bastakorning fikr va his-tuyg‘ularini yetkazishga harakat qilgan holda, ijrochi tinglovchilar bilan munosabatni o‘rganadi, suhbatda u suhbatdoshning intonatsiyasi va his-tuyg‘ularining nyuanslarini his qiladi, taxmin qiladi. suhbatning ohangi va surati - bastakorning fikr va kayfiyatini, ijro etayotgan musiqa asarini his qilishga odatlangan. Musiqa bolani kundalik mehnatga o‘rgatadi, sabr-toqat, iroda va matonatni rivojlantiradi, his-tuyg‘ularini yaxshilaydi, atrofdagi dunyoga alohida tasavvur beradi. Musiqa nafaqat tinglashni, balki eshitishni, nafaqat qarashni, balki ko‘rishni va eshitishni, his qilishni ham o‘rgatadi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Insonning baxti uning atrofida qanday ko‘zlarni ko‘rishi va ko‘rgan narsasidan qanday his-tuyg‘ularni boshdan kechirishiga bog‘liq. Farzandingiz dunyosi hissiy jihatdan boy bo‘lishini istasangiz, uning muvaffaqiyatli, har tomonlama rivojlangan, maqsadli va shuning uchun baxtli

inson bo‘lishini istasangiz, unga bu imkoniyatni bering.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, musiqa obektiv narsadir, biz musiqaning o‘zini o‘zgartira olmaymiz, lekin bizda tanlov bor - biz uchun yoqimli bo‘lgan narsani tinglash va shuning uchun tanamizga foydali tasir ko‘rsatadi. Iloji bo‘lsa, atrofingizdagi musiqani boshqaring va sog‘lom bo‘ling!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abramova T. Mosartning tug‘ilmagan bola uchun uvertyurasi // Sog‘lom bo‘l - 1995 yil - 1-son.
2. Blavo R. Musiqa bilan shifo - Sankt-Peterburg, 2003 yil.
3. Velentinova Z. Shifolash tovushlari // Shifolash kuchlari - M., 1996 - No 1.
4. Dvoretskiy L.I. Musiqa va tibbiyot: Musiqa va musiqachilar haqida shifokorning fikri - M., 2002.
5. Mozgot V.G. Musiqiy psixofiziologiyaga kirish - Maykop, 2005.
6. Fletcher M. Davolovchi musiqa. http:\\www/iamik.ru./html./
7. Shestakov V. Antik davrdan 18-asrgacha musiqiy estetika tarixi - M., 1975.

